2. Abdullayev M.M., Abdiyev R.E. Dynamic characteristics of magnetoelectric linear actuators of control systems // Chemical Technology. Control and management, 04.05.2024y. №2 ISSN 1815-4840, (116) pp. 26-33.
3. Абдуллаев М.М., Абдиев Р.Э., Юсупов Б.Б. Многовыходной магнитоэлектрический линейный двигатель. Патент на полезную модель // Патент УЗ ФАП № 02326,31.08.2023 г.
4. Назаров Х.Н., Абдуллаев М.М., Матёкубов Н.Р., Рахимов Т.О., Юсупов Б.Б., Электромагнитный линейный двигатель // Патент РУ UZ FAP №01632, 11.05.2021 г.
5. Абдуллаев М.М. Исканадаров О.И. Абдиев Р.Э. Многовыходной шаговый привод. Патент на полезную модель // Патент УЗ ФАП № № 2023 016, 23.10.2023 г.
6. Abdullayev M.M., Abdiyev R.E. Magnetoelectric Actuating Device for Providing Delicate Capture of the Object of Manipulation in Intelligent Robots // Lecture Notes in Networks and Systems, 2024. LNNS 912. pp. 206–214. Springer Nature https://doi.org/10.1007/978-3-031-53488-1_25 (3, Scopus IF 0.9).
7. Abdullayev M.M., Abdiyev R.E. Magnetoelectric gripper mechanism of robot with Controlled grip force // The international scientific and practical conference Rakhmatulin readings 26–27 May 2023 Tashkent, Uzbekistan AIP Conf. Proc. 3119, 060001 (2024).

UO‘K 621.175

# ISSIQLIK ELEKTOR STANSIYASI TURBINALARI KONDENSATOR QURILMALARIDAGI VAKUUMNING YOMONLASHISHI VA UNI BARTARAF ETISH CHORALARI

**Yunusov B.X., Mamadiyev B.R.**
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: mamadiyev.bozor@mail.ru

**https://doi.org/10.5281/zenodo.18206235**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bug‘ turbinasi kondensatorlarida vakuum chuqurligini pasaytiruvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda havo so‘rilishining issiqlik almashinuvi koeffitsiyentiga va kondensatning o‘ta sovishiga ta’siri Dalton qonuni asosida o‘rganilgan. K-300-240 turbinasi misolida vakuum yomonlashishi natijasida yuzaga keladigan yoqilg‘i isrofi hisoblab chiqilgan va uni bartaraf etishning texnik yechimlari taklif etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Bug‘ turbinasi, kondensator, vakuum, havo so‘rilishi, Dalton qonuni, ejektor, solishtirma yoqilg‘i sarfi.

# УХУДШЕНИЕ ВАКУУМА В КОНДЕНСАТОРНЫХ УСТАНОВКАХ ТУРБИН ТЕПЛОВЫХ ЭЛЕКТРОСТАНЦИЙ И МЕРЫ ПО ЕГО УСТРАНЕНИЮ

**Юнусов Б.Х., Мамадиев Б.Р.**
Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова, Ташкент, Узбекистан

**Аннотация:** В данной статье анализируются основные факторы, снижающие глубину вакуума в конденсаторах паровых турбин. На основе закона Дальтона изучено влияние присосов воздуха на коэффициент теплопередачи и переохлаждение конденсата. На примере турбины К-300-240 рассчитан перерасход топлива, возникающий в результате ухудшения вакуума, и предложены технические решения по его устранению.

**Ключевые слова:** Паровая турбина, конденсатор, вакуум, присос воздуха, закон Дальтона, эжектор, удельный расход топлива.

# VACUUM DETERIORATION IN CONDENSER UNITS OF THERMAL POWER PLANT TURBINES AND MEASURES FOR ITS ELIMINATION

**Yunusov B.Kh., Mamadiyev B.R.**
Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Tashkent, Uzbekistan

**Abstract:** This article analyzes the main factors that reduce the vacuum depth in steam turbine condensers. Based on Dalton's law, the influence of air inleakage on the heat transfer coefficient and condensate subcooling is studied. Using the K-300-240 turbine as an example, the fuel waste resulting from vacuum deterioration is calculated, and technical solutions for its elimination are proposed.

**Keywords:** Steam turbine, condenser, vacuum, air inleakage, Dalton's law, ejector, specific fuel consumption.

## KIRISH

Issiqlik elektr stansiyasining vakuum tizimiga havo so'rilishi turbinali stansiyaning samaradorligiga salbiy ta'siri ko’rsatadi [1]. Kondensator yuklamsi 40 dan 100% gacha bo'lgan diapazonda havo so'rilishi $G_{havo}$ (kg/soat), turbinaning nominal quvvatiga qarab $N$

(megavattlarda) 8 + 0,065$N$ dan oshmasligi kerak. Vakuumli issiqlik almashinuv qurilmalari va issiqlik elektr stantsiyalarining nasos uskunalarini hisoblash, ishlatish, sinovdan o'tkazish va rekonstruksiya qilish jarayonida ularga qo'yiladigan me'yoriy tavsiflar, uslubiy ko'rsatmalar va yo'riqnomalarda havo so'rilishini cheklash zarurati qayd etiladi hamda ularda havo so'rilishning eng ehtimoliy manbalarini aniqlash va yo'q qilish usullariga batafsil to'xtaniladi.

Muammoning dolzabligi tufayli, ish paytida ham, turbinani to'xtatish yoki ta'mirlash vaqtida ham havo so'rilish joylarini qidirishning ko'plab usullari ishlab chiqilgan: galogen kichik oqim detektorlaridan foydalanish, vakuum tizimini suv bilan to'ldirish yoki past potentsialli bug' bilan to'ldirish va tizimdagi ortiqcha havo so'rilishini aniqlashning akustik usullari[2].

**ASOSIY QISIM**

Kondensatorga havo so'rilishi Dalton qonuniga binoan umumiy bosimni oshiradi:

$p_k = p_{bug'} + p_{havo}$

Bu yerda$p_{bug'}$– bug'ning parsial bosimi, $p_{havo}$ – havoning parsial bosimi.

Havoning mavjudligi issiqlik uzatish koeffitsiyentini k keskin pasaytiradi. Chunki havo quvurlar yuzasida issiqlik o'tkazmaydigan qatlam hosil qiladi. Buning natijasida bug'ning to'yinganlik harorati va sovutuvchi suv o'rtasidagi haroratlar farqi ortadi.

Vakuumning yomonlashishi natijasida turbinada mavjud bo'lgan issiqlik farqi kamayadi, shunga mos ravishda bug' turbinasi qurilmasining (BTQ) samaradorligini pasaytiradi. Universal vakuum egri chizig'iga ko'ra, [3] kondensatordagi absalyut bosimning har 1% ga ortishi turbinaning quvvatini taxminan 0,85% ga kamaytiradi va belgilangan quvvatni saqlab turish uchun yoqilg'i sarfini mos ravishda oshirishni talab qiladi.

O'zbekistondagi issiqlik elektr stansiyalarining ko'pchiligida BTQ larida kondensatordan havoni so'rib olish uchun bug' oqimli va suv oqimli ejektorlari qo'llaniladi.


1 va 2-rasmlarda, Xarkov turbinali generator zavodining (XTGZ) K-300-240 turbinasining to'liq va yarim yuklama rejimlarida havo so'rish $G_{xavo}$ bug' oqimli ejektor bilan jihozlangan kondensatordagi $p_{\text{k}}$ bosimiga ta'sirining eksperimental bog'liqliklari ko'rsatilgan. Ordinatalarning o'ng o'qida, universal egri chizig'i[4] yordamida olingan doimiy yoqilg'i sarfida bosimning meyyordan og'ishiga mos keladigan quvvatning $\Delta N$ pasayish qiymatlari, shuningdek, shu qiymatlarda mos keladigan solishtirm yoqilig'i sarfi $\Delta b$ ning o'sish qiymatlari ko'rsatilgan.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, ishchi maydonda ushbu energoblok ejektorining xarakteristikalari har 10 kg / soat havo so'rilishida vakuumning 0,0005 kgf / $sm^2$ ga yomonlashishiga olib keladi. So'rilishlarning meyoriy qiymatidan $G^m_{haxo}$ = 27,5 kg/soat dan taxminan 75 kg/soatgacha oshishi vakuumning 0,0025 kgf/$sm^2$ ga yomonlashishiga olib keladi. Shu bilan birga, turbinaning to'liq yuklama rejimida yoqilg'ining solishtirma iste'moli taxminan 0,5 g / (kVt / soat) ga oshadi, bu quvvatning taxminan 500 kVt ga pasayishiga to'g'ri keladi. So'rilishning yanada oshishi bilan vakuum keskin yomonlashadi va ejektor ortiqcha yuklama rejimiga o'tadi; shu bilan birga, har 10 kg/soat qo'shimcha havo so'rilishi tufayli yoqilg'ining solishtirma iste'moli 2 g/(kVt/soat) dan oshadi, bu esa 1500 kVt dan ortiq quvvat pasayishiga olib keladi [5]. Birinchi jadvalda [2 - 7] ma'lumotlariga ko'ra, bir qator turbinalar uchun standartlar [2] bo'yicha kondensatorga havo so'rilish meyyori, bug' oqimli ejektorlarining xususiyatlari, shuningdek vakuum va quvvatni kamayishi, o'ziga xos yoqilg'i sarfini oshishi va har 10 kg / soat havo so'rilishi uchun yoqilg'ining yillik ortiqcha iste'mol miqdorlari ko'rsatilgan

Vakuumning 1 kPa ga yomonlashishi solishtirma yoqilg‘i sarfini $\Delta B$ quyidagi formula orqali oshiradi:

$$\Delta B = \frac{N_{el} * q_{nom} * \delta q * (P_{fak} - P_{nom})}{Q_r^i * \eta_{qoz}}$$

Masalan, 300 MVt quvvatli blok uchun vakuumning 1 kPa ga pasayishi soatiga taxminan 800-900 $m^3$ qo‘shimcha tabiiy gaz sarflanishiga olib keladi. Yillik hisobda (6000 soat ish rejimida) bu isrof 5 mln $m^3$dan ortadi.




**1-rasm. Kondensatoriga ortiqcha havo so'rishlishining K-300-240 markali turbina samaradorligi tasiri: EP-3-75 bug’ oqimli ejector bilan jihozlangan XTGZ kondensatori; $p_k$ - kondensatordagi bosim; $\Delta N$ - doimiy yoqilg'i sarfida quvvatni kamaytirish; $\Delta b$ - yoqilg'i sarfini oshirishi.**

Zuevskaya GRES-2 ma'lumotlariga ko'ra ("Energetik" jurnali, 1986 yil, № 2) XTGZ da ishlab chiqarilgan 300 MVtli turbina kondensatorga har 10 kg/soat me’yordan ortiq havo so'rilishi vakuumni 0,001 kgf / $sm^2$gacha yomonlashtiradi va har yili 600 tonnagacha solishtirma yoqilg’i sarfini oshishiga olib keldi.

Havo so’rilishlarini kamaytirish o'ziga xos yoqilg'i sarfini kamaytiradi va bir xil yoqilg'i sarfida qo'shimcha quvvat oladi.

Jadval 1


| Paramert | Turbina quvvati, MVt | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 12 | 25 | 50 | 100 | 200 | 300 |
| standar bo'yicha maksimal havo so’rish, kg / soat | 8,8 | 9,6 | 11,3. | 14,5 | 21,0 | 27.5 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Bug' oqimli ejektor Turi | NS | E-1-B. EO-30 | EO-50 | EP-2-400 | EP-3-600 | EP-3-75 |
| Ishlab Chiqaruvchisi. | LMZ | LMZ. KTZ | KTZ | LMZ | LMZ | XTGZ |
| Unumdorligi $m^3/soat$ | 480 | 860 | 1140 | 1500 | 3000 | 4500 |
| Har 10 kg/soat havo so'rilishi uchun: | | | | | | |
| Vakuumning yomonlashishi, kgf / $sm^2$ | 0.0090 | 0,0050 | 0,0040 | 0,0030 | 0,0015 | 0,0005 |
| Quvvatni kamaytirish, kVt | 92 | 107 | 255 | 254 | 254 | 127 |
| Solishtirm yoqilg'i sarfini oshishi. g/(kVt/soat) | 4,15 | 1.99 | 1.42 | 1.06 | 0.5 | 0.15 |
| To'liq yuklamada yillik 6000 soatlik ish uchun solishtirma yoqilg'i sarfi. T | 31 | 54 | 97 | 191 | 362 | 250 |

Leningrad metall zavodining (LMZ) quvvati 300 MVt va undan ortiq turbinali IESlarda kondensatordan havo so'rish uchun suv oqimli ejektorlari qo'llaniladi [6, 7, 9], ular havo so'rilishini tez o'lchashga imkon bermaydi.

Suv oqimli ejektorlarning xarakteristikalari ishchi maydonda (2-rasm), kondanserdagi me'yoriy bosimi saqlab turolsada, (havo so'rilishi 0 dan 3,5 martta ortganda) vakuumning keskin yomonlashishi va samaradorlikning pasayishi bilan yuklama me'yoridan ortgan qismiga o'tishni bashorat qilish va oldini olishning hech qanday usuli yo'q. Bug' bosimi, aylanma suvning isishi va kondensatordagi haroratlar farqining hisoblangan qiymatlarini BTQ ning ma'lum bir ish rejimi uchun ushbu parametrlarning standart qiymatlari bilan solishtirish orqali havo so'rish darajasini baholash kerak, va haqiqiy so'rидшshni faqat maxsus sinovlar o'tkazish orqali aniqlash mumkin [6, 10].

Kondensatorga havo so'rilishini aniqlashda suv oqimli ejektorining xususiyatlari ish maydoni chegarasidan tashqariga chiqadimi yoki yo'qligi orqali bilish mumkin, bu hol havo so'rilishi standartdan bir necha marta oshib ketganda yuz beradi. Ammo bu faqat turbina yuklamasining eksplatatsion o'zgarishi (demak kondensatorda bug' sarfi), sovutish karraligi o'zgarishi sababli vakuum keskin o'zgarganda yaqqol ko'rinadi.




**2-rasm. Kondensatoriga ortiqcha havo so'rishlishining K-300-240 markali turbina samaradorligi tasiri: Suv oqimli ejector bilan jihozlangan kondensator LMZ 300-KTS;**

2-rasmda turbinaning to'liq va yarim yuklama ishchi holati uchun kondensatordagi bosimlar farqi ko'rsatilgan bundan ko'rinadiki yuqoridagi mulohzalar o'rinlidir. Agar turbina yuklamasi tushirilganda vakuum yaxshilanmasa, bu shuni anglatadiki, ejektor havo so'rilishi tufayli ortiqcha yuklama bilan ishlayotgan bo'ladi va sovutish karraligi oshishiga muvofiq vakuumning hisoblangan chuqurlashishini ta'minlamaydi. Masalan, agar to'liq yuklamanda havo so'rilishlari $G_{havo}$> 150 kg/soat bo'lsa, turbinani yuklamasini 50% ga tushirish kondensatorda kutilayotgan bosimning 0,035 dan 0,025 kgf / $sm^2$ gacha pasayishiga olib kelmaydi, bosim bir xil bo'lib qoladi, buning natijasida solishtirma yoqilg'i sarfi taxminan 1, 25 g / (kVt / soat) ga oshadi, bu taxminan 1000 kVt quvvat tushuviga teng. Yuqorida aytilganlarga ko'ra, Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasida LMZ K-300-240 turbinalari bilan tunda kunlik yuklamani pasaytirish rejimida ishlashi, ish kunining ertalabki qismidan yuklama ortishi diagrammalarini ko'rish bilan boshlashi kerak.

Agar turbinani yarim yuklama ish rejimiga o'tkazish davrida vakuum (va kondensatorga kirish joyidagi bug' harorati) grafigida o'zgarish bo'lmasa, bu ortiqcha so'rilgan havo tufayli suv oqimli ejektorining yuklama me'yoridan ortgan maydonda ishlashlayotganini ko'rsatadi. Havo so'rilishining kuchayishi sabablarini aniqlash va bartaraf etish bo'yicha zudlik bilan chora ko'rishni talab qiladi.

Sanoat tadqiqotlariga ko'ra [11], vakuum tizimidagi havoning taxminan 60% turbinaning so'nggi qismi (KQ) labirintlari orqali kiradi. Albatta, havo so'rilishiga asosiy ta'sir past bosimli silindir(PBS) va kondensator qurilmasi(KQ)ning o'zaro birikkan qismi labirintlarining juda kuchli zichlashmaganligi tufayli sodir bo'ladi. Hozirgi kunda PBS va KQ lari o'zaro birikadigan joylarni kuchli zichlashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda va turli hil konsturiktiv yechimlar taklif qilinmoqda.

Ko'pincha havo vakuum tizimiga silindrlar, turubkalar va kondensatorlar devoridagi yoriqlar orqali kiradi - asosan payvandlangan joylarda, masalan, deformatsiyaga uchragan kengaytiruvchi bo'g'inlarning bo'g'inlarida.

Ko'pincha havo vakuum tizimiga silindrlar, turubkalar va kondensatorlar devoridagi yoriqlar orqali kiradi, asosan payvand choklaridan, masalan, deformatsiyaga uchragan kompensator choklaridan havo so'rilishi mumkin.

Havo so'rilishini standar qiymatlargacha kamaytirish har doim ham loyihaviy vakuumiga erishishni kafolatlamaydi. Kondensatorda havo va boshqa kondensatsiyalanmaydigan gazlarni so'rib olish joylariga nisbatan lokalizatsiya qilish katta ahamiyatga ega. Payvandlash natijasida hosil bo'lgan choklarni to'la yopilishi, birikishlarning to'liq mahkamlanishi va yoriqlar orqali kiradigan havo so'rilishini to'liq istisno qilgan taqdirda ham, ortiqcha havoning bir qismi regenerativ isitgichlardan havo so'rilishi bilan, deaerator bug'lari bilan - to'g'ridan-to'g'ri va bu bug' bilan birga kondensator qurilmasiga kiradi. Rassiya federatsiyasining Kirishskaya GRESida [12] LMZ tipidagi 300-KTSS kondensatorida, asosiy havo so'rish joyidagi ejektorga qarama-qarshi tomonda havo, karbonat angidrid va ammiak qopchasi hosil bo'lishi ko'rsatilgan, bu zonada bug' yo'qligi, bu sirt kondensatsiyasini sezilarli darajada kamaytiradi. Yuqorida aytib o'tilgan kondensatsiyalanmagan gazlarning to'planish joyda qo'shimcha bug' gaz aralshmasini so'rib oluvchi qurilma o'rnatish orqali vakuumni sezilarli darajada chuqurlashtirishga erishilgan. Keyinchalik (bug'-gaz aralshmasini so'rib olish jarayoni sezilarli darajada pasayganda, qo'shimcha ejektor o'chiriladi), kondensatordan qo'shimcha bug'-gaz aralashmasi so'rilishini to'xtatish orqali vakuum chuqurligiga ta'sir qilinishi to'xtatiladi ya'ni asosiy ekector o'z vazifasini bajaradi qo'shimcha ejektor o'chiriladi. Xuddi shunday natija rassiya federatsiyasining Karmanovskaya GRESida ham olingan. Chet el ma'lumotlariga ko'ra, bug' ejektorlari bo'lgan kondensatorlarda qo'shimcha bug'-gaz so'rish nuqtalarini kondansatorning butun uzunligi bo'ylab o'rnatish va har bir so'rish nuqtasida havo tarkibining harorat ko'rsatkichidan foydalanilganda holda vakuumni chuqurlashtirish mumkin. Oraliq qizdirgichlar va deaeratordan boshlanadigan havo chiqindilarini kondensatorning bug' bo'shlig'iga emas, balki havo sovutish zonasiga yoki to'g'ridan-to'g'ri ejektor zonasiga yo'naltirish orqali gazlarning ko'payishi yoki ularning zararli ta'siridan qochish mumkin [13].

BTQ vakuum tizimidagi kondensatlanmagan bug' gaz aralashmasini sestemadan chiqarib tashlash uchun texnik xizmat ko'rsatuvchi xodimlar tomonidan minimal mehnat va materiallar bilan turbinalarni rejalashtirilgan ta'mirlash davrida amalga oshirilishi mumkin, va bu juda katta harajatlar talab qilmaydi. (Shu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, xorijda elektr energiyasini olish uchun ishlatildigan asosiy kompanent yoqilg'i narxi [4] yuqori bo'lganligi sababli, BTQlarning samaradorligini 1% ga oshirishda ular har kilovatt uchun o'rnatilgan narxni 30% ga oshirishga tayyor., bu esa 5-7 yil ichida to'la o'zini oqlaydi [14].Bunday yirik loyihalar, masalan, tsilindrlarning oqim yo'lini zamonaviyroqlari bilan almashtirish orqali energiya bloklarini texnik qayta jihozlashga sarflanadi.)

Ko'rib chiqilgan barcha chora-tadbirlarning umumiy xarajatlari kapital ta'mirlash qiymatining bir necha foizidan oshmaydi va bir necha hafta yoki oy ichida qoplanadi. Ularni 25 - 300 MVt quvvatga ega BTQga joriy etish samarasini standart qiymati bo'yicha kondensatorgadi ortiqcha havomiqdori bo'yicha solishtirish mumkin (1 jadval), ya'ni solishtirma yoqilg'i sarfini 0,5 - 2,0 g / (kVt / soat) gacha kamayishiga erishiladi.

**XULOSA**

Issiqlik elektor stansiyasining kondensator tizimida hosil bo'ladigan ortiqcha bug'-gaz aralashmasini chiqarib tashlashning o'ziga hos oddiy yechimi tavsiflangan, unga ko'ra kondensatorning asosiy ejektorining qarma qarshi tarafiga qo'shimcha ejektor o'rnatish tajklif etilgan bu taklifni amalga oshirilishi turbinali qurilmalarning vakuum tizimiga meyordamn ortiq

bug’-gaz aralshmasini so’rib olish orqali qo'shimcha quvvat ishlab chiqarish bilan eng qisqa vaqt ichida sezilarli yoqilg'i tejashni taminlaydi.

**Foydalanilagan adabiyotlar**

1. Правила технической эксплуатации электрических станций и сетей. М.: Энергоатомиздат, 1989.
2. Барат Е.А., ЛЕНЁВ. С.Н., Радин Ю.А. Акустический метод выявления рписосоввоздуха в вакуумню систему паротурбинных установок ТЭС. . - Электрические станции, 2022, № 9.
3. Yunusov, B. X., & Mamadiyev, B. R. (2025). ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI KONDENSATOR QURILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI (IES KONDENSATORLARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISH). Research Focus, 4(11), 65-68.
4. Yunusov, B. X., & Mamadiyev, B. R. Industrial Power Stations Safety Rules for Condenser Construction Repair Work. JournalNX, 358-363.
5. Эксплуатационный циркуляр № Т-6 /7 1 .0 поддержании необходимой воздушной плотности вакуумных систем турбин К-300-240. М.: СЦНТИ Энергонот бРГРЭС, 1971.
6. Бартлетт Р. Л. Тепловая экономичность и экономика па ровых турбин. М .-JL: Го с энерго издат, 1963.
7. Паровая турбина К-300-240 ХТГЗ / Под ред. Кося ка Ю. Ф. М.: Энергоиздат. 1982.
8. Капеловнч Б. Э. Эксплуатация паротурбинных установок.
9. М.: Энергоатомиздат, 1985.
10. Фукс С. Н. Гидравлическая и воздушная плотность кон денсаторов паровых турбин. М.: Энергия. 1967. 7. Руководящие указания по наладке и эксплуатации водо струйных эжекторов конденсационных установок паро вых турбин. М.: СЦНТИ, 1971.
11. Руководящие указания по наладке и эксплуатации водо струйных эжекторов конденсационных установок паро вых турбин. М.: СЦНТИ, 1971.
12. Берман Л. Д., Зингер Н. М. Воздушные насосы конденса ционных установок паровых турбин. М. - Л.: ГЭИ, 1962.
13. Ефнмочкин Г. И. Способ оценки воздушной плотности вакуумной системы турбоустановки с водоструйными эжекторами. - Электрические станции, 1970, № 8.
14. . Власик В. Ф., Щербинин А. С., Бронников В. К. О влиянии концевых уплотнений ЦНД на плотность вакуумных сис тем турбин ВК-100-6 ЛМЗ. - Энергетик, 1971, № 1.
15. Богданов И. Б., Сутоцкий Г. П., Секретарь В. Э. Вод но-химический режим конденсатора блока 300 МВт. - Энергомашиностроение, 1982, №7.
16. Об усовершенствовании схемы отсоса неконденсирую- щихся газов из конденсатора и сетевых подогревателей турбоустановок Т-100-130 / Василенко Г. В, Сутоц кий Г. П., Великович В. И. и др. - Энергетик, 1993, № 10.
17. Орлик В. Г. Зарубежное турбиностроение. - Академия энергетики, 2007, № 3.

# QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING CHIQISHLARINI PARALLEL ULASH

**Yusupov D.T.**
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy ilmiy-tadqiqot instituti
E-mail: dilshod8006@mail.ru

**https://doi.org/10.5281/zenodo.18159356**

**Annotasiya:** Maqolada qayta tiklanuvchi energiya manbalarining chiqishlarini parallel ulash usulidan foydalanilgan. Ushbu usul yordamida ikki yoki undan ortiq energiya manbalarini kombinatsiyalash orqali qurilmaning energiya samaradorligini oshirishga erishilgan. Energiya ta'minoti uzluksizligi ta'minlangan.

**Kalit so'zlar:** kuchlanish stablizatori, to'g'rilagich, invertotr, akkumulyator, yuklama, kuchlanish, quvvat.

# ПАРАЛЛЕЛЬНОЕ ПОДКЛЮЧЕНИЕ ВЫХОДОВ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ

**Аннотация:** В статье использован метод параллельного соединения выходов возобновляемых источников энергии. При этом повышается энергоэффективность устройства за счёт объединения двух и более источников энергии. Обеспечивается непрерывность энергоснабжения.

**Ключевые слова:** стабилизатор напряжения, выпрямитель, инвертор, аккумулятор, нагрузка, напряжение, мощность.

# PARALLEL CONNECTION OF OUTPUTS OF RENEWABLE ENERGY SOURCES

**Abstract:** The article uses a method of parallel connection of outputs of renewable energy sources. This increases the energy efficiency of the device by combining two or more energy sources. Continuity of power supply is ensured.

**Keywords:** voltage stabilizer, rectifier, inverter, battery, load, voltage, power.

## KIRISH

Dunyo bo'yicha an'anaviy energiya manbalar o'rniga muqobil energiya manbalaridan foydalanish tez suratlarda o'sib bormoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalar turiga shamol, suv, quyosh va boshqa energiyalar kiradi. Muqobil energiya manbalari ekologik toza manba hisoblanib, o'z-o'zidan qayta tiklanish xususiyatiga ega.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari o'ziga xos afzalik va kamchiliklarga ega. Quyosh fotoelektr stansiyasidan foydalanishda kunning yorug'ida elektr energiya olish imkoniyati borligi, kechki payt elektr energiya olish imkoniyati kamligi va mikro-GESdan foydalanishda fasllar davomida suv sathi yoki suv bosimining o'zgarishi sababli, ularni bir-biri bilan kombinatsiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlash ishonchliligini va sifatini oshirish uchun har xil turdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish o'z navbatida ularni birlashtirish yoki integrallashning qaysi usulini qo'llash masalasining yechimini topishni taqozo qiladi.

Bunda elektr ta'minoti obyektining energiya ehtiyojlarini, qayta tiklanadigan energiya manbalarining (shamol va quyosh nurlanishining) iqtisodiy salohiyatini, energiya uskunalari

parametrlari, majmua va uning tarkibiy qismlarining o‘rnatilgan quvvatlarini hamda ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni hisobga olishga to‘g‘ri keladi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Suv oqimidan elektr energiya ishlab chiqarishga mo‘ljallangan Arximed vint turbinasini ishlab chiqish.

## TADQIQOTNING MATERIALLARI VA USULLARI


Elektr zanyirlar nazariyasi nuqtai nazaridan olib ko‘rilsa, elektr energiyasi manbalari birgalikda ishlatish uchun ularni ketma-ket yoki parallel ulash mumkin.

Struktura sxemasi 1-rasmda keltirilgan qayta tiklanuvchu manbalar asosida qurilgan energetik majmuada [1] parallel ulash usuli qo‘llanilgan.

Uning tarkibida qayta tiklanuvchi energiya manbalari 1, manbalarning energiyalarini elektr energiyaga aylantiradigan generatorlar 2, generatorlarning chiqishlaridagi o‘zgaruvchan kuchlanishlarni o‘zgarmas kuchlanishlarga aylantiruvchi to‘g‘rilagichlar 3, kuchlanishlarni stabillovchi stabilizatorlar 4, akkumulyator 5 va o‘zgarmas kuchlanishni o‘zgaruvchan kuchlanishlarga aylantiruvchi invertorlar 6 mavjud.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarning energiyalari elektr shakliga o‘tkazilib, o‘zgarmas tok energiyasi holiga keltirilgandan so‘ng, stabilizatorlar orqali akkumulyatorga uzatiladi va unda energiya to‘planadi. Akkumulyatorga ulangan invertorlar o‘zgarmas tok energiyasini o‘zgaruvchan tok energiyasiga aylantirib, iste’molchilarga uzatadi.


Majmuada generatorlarda ishlab chiqilgan elektr energiyalarini to‘plagichga uzatish zanjirlarining oxirgi bosqichi – stabilizatorlarning chiqishlari parallel ulangan.




**1-rasm. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida qurilgan birinchi energetik majmuaning struktura sxemasi**

## OLINGAN NATIJALAR

Parallel ulangan yuklamaning ikkita o‘zgarmas kuchlanish manbasidan ta’minlanishi 2-rasmda ko‘rsatilgan.




**2-rasm. Yuklamaning parallel ulangan ikkita o‘zgarmas kuchlanish manbalaridan ta’minlanishi**

Real manbalarning tashqi kuchlanishlari va quvvatlari bir xil bo‘lmaydi. Shu sababli ularning parallel ulanishidagi ishini tahlil qilishda har birining ichki qarshiligi: $r_{in1}$ va $r_{in2}$ larni hisobga olishimiz zarur. U holda yuqoridagi sxema uchun yuklamadagi kuchlanish $U_L$ va har bir manba hosil qilayotgan $I_1$ va $I_2$ toklar quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

$$U_L = \frac{E_1 \cdot \frac{1}{r_{in1}} + E_2 \cdot \frac{1}{r_{in2}}}{\frac{1}{r_{in1}} + \frac{1}{r_{in2}} + \frac{1}{R_L}} \quad (1)$$

$$I_1 = \frac{E_1 - U_L}{r_{in1}}, \quad (2)$$

$$I_2 = \frac{E_2 - U_L}{r_{in2}}, \quad (3)$$


bu yerda: $E_1$ va $E_2$ – birinchi va ikkinchi manbalarning elektr yurituvchi kuchlari (EYUK).

Birinchi va ikkinchi manbalarning yuklamadagi kuchlanish $U_L$ ni hosil qilishda EYUK larining hissalari, balki ichki qarshiliklarining hissalari ham borligi (1) formuladan ko‘rinib turibdi. Ichki qarshilikning qiymati qancha kichik, ya’ni manbaning quvvati qancha katta bo‘lsa, uning $U_L$ kuchlanishini hosil qilishga qo‘shgan hissasi shuncha ko‘p bo‘ladi.

Toklarni aniqlash ifodalari (2) va (3) ga $U_L$ kuchlanish manfiy ishora bilan kirgan, bu esa ifodalarning chap tomonidagi kattaliklar qiymatlarining ma’lum bir nisbatlarida toklardan bittasining qiymati manfiy chiqib qolishi mumkinligidan darak beradi. Demak, bu holda o‘sha manbadan oqib o‘tayotgan tok o‘z yo‘nalishini qarama-qarshisiga o‘zgartirgan bo‘ladi, ya’ni ko‘rayotgan manbamiz manba rejimidan chiqib, iste‘molchiga aylanib qolgan.


Bunday holatga yo‘l qo‘ymaslik uchun ba’zi hollarda manbalarga ketma-ket ballast rezistorlar ulanadi (3-rasm). 1-ifodada $r_{in1}$ va $r_{in2}$ larning o‘rniga $r_{in1} + R_{B1}$ va $r_{in2} + R_{B2}$ bo‘ladi, natijada $U_L$ kuchlanishning qiymatini ozgina pasaytirish evaziga ikkita manbaning manba rejimida ishlashini ta’minlaydi.

Ammo ballast rezistorlarning qo‘llanilishi energiya sarfini, ya’ni energiya yo‘qotishlar hajmini oshiradi va manbalarning foydali ish koeffisientini pasaytiradi.




**3-rasm. Yuklamaning o‘zgarmas kuchlanish manbasi va balans rezistordan iborat ikkita ketma-ket zanjirning parallel ulanishidan ta’minlanishi**

Manbalar parallel ulanganda, unga ko‘p hollarda ketma-ket bloklovchi diodlar ulanadi (4-rasm).




**4-rasm. Yuklamaning o‘zgarmas kuchlanish manbasi va bloklovchi dioddan iborat ikkita ketma-ket zanjirning parallel ulanishidan ta’minlanishi**

Manbalarning parametrlari bir xil bo‘lsa, ikkala diod ham ochiladi va manbalar yuklamani energiya bilan ta’minlashdagi hissalari bir xil bo‘ladi. Lekin ularning parametrlari, masalan, kuchlanishlari o‘rtasida farqlanish paydo bo‘lsa, kuchlanishi ko‘proq bo‘lgan manba ustunlik qila boshlaydi va ikkinchi manbaning energiya bilan ta’minlashdagi hissasini kamaytirishga erishadi.

**XULOSALAR**

Qayta tuklanuvchi energiya manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqarishning o‘ziga xos kamchiliklar mavjud. Mikro-GESning chiqishida o‘zgaruvchan kuchlanish olinadi, quyosh panelining chiqishida o‘zgarmas kuchlanish olinadi. Kuchlanishlarni bir xil bo‘lishini ta’minlash yechimlari ishlab chiqildi. Ikkita yoki undan ortiq energiya manbalarini t energiyalarini kombinasiyalashda parallel ulash usulidan foydalanish orqali energiya samaradorligini oshirilgan. Hozirgi kunda kombinatsiyalangan energetik qurilmalariga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Kasimaxunova A.M., Yusupova F.T., Yusupov D.T. Qayta tiklanuvchu energiya manbalari asosidagi elektroenergetik tizim. Foydali model. Rasmiy axborotnoma, №10. FAP 02108. Toshkent 31.10.2022 y, 150-151 betlar.
2. А.В.Аккуратов, С.Н.Кузнецов, В.Б.Гликин, В.Л.Шилин. Способ бесперебойного электроснабжения потребителей электроэнергетической системы, работающей на возобновляемых источниках энергии. Патент RU №2153752, C1 H02 J3/28, 3/32 от 27.07.2000, БИ №21.
3. REN21. Renewables 2024 Global Status Report. — Paris, 2024. — 208 p.
4. Институт сейсмологии АН РУз. Карта сейсмического районирования Узбекистана. — Ташкент, 2021. — 150 с.
5. Ташкентский государственный технический университет. Влияние климата на работу энергооборудования. — Ташкент, 2020. — 89 с.
6. International Renewable Energy Agency (IRENA). Global Energy Storage Outlook 2024. — Abu Dhabi: IRENA, 2024. — 98 p.
7. Yusupov D.T, Yusupova F.T. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi elektroenergetik tizim. O‘zbekiston Respublikasi ixtiro patenti № IAP 07561. Ro‘yxatdan o‘tkazilgan sana 30.11.2023 y. Rasmiy axborotnoma, 2023 y. 12-son. 73-b.
8. Alexander, Ch. K. (2013) Fundamentals of electric circuits / Charles K. Alexander, Matthew N. O. Sadiku. — 5th ed. p. cm. - The McGraw-Hill Companies, Inc. – 995 p.
9. Erickson, W.R. DC-DC Power Converters: Article in Wiley Encyclopedia of Electrical and Electronics Engineering. -19 p.

10. Roberts, S. (2014) DC/DC Book of Knowledge Practical tips for the User/ RECOM Engineering GmbH & Co KG, Austria. – 233 p.
11. Zaxidov R.A., Tadjiev O‘.A., Yusupov Dsh. T., Yusupov Dm. T. Kombinatsiyalangan quyosh-shamol energiya qurilmasi. Foydali modelga patent. FAP 02110. Ro‘yxatdan o‘tkazilgan sana 25.02.2022 y. Rasmiy axborotnoma, 2022 y. 10-son.151-152-b.
12. Мустафакулов А.А., Жураева Н.М., Ахмаджонова У.Т. Ўзбекистонда муқобил энергия манбаларидан фойдаланиш истиқболлари. Scitnce and innovation international scientific journal. 2022 № 1. 201-210 betlar.
13. Tadjiev U. A., Kiseleva E. I., Tadjiev M. U., and Zakhidov R. A. Features of the Formation of the Wind Flow over the Territory of Uzbekistan and Its Possible Use for Electric Power, Applied Solar Energy, 2015, Vol. 51, No. 1, pp. 62–68. DOI: 10.3103/S0003701X15010120.
14. 2020-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta’minlash konsepsiyasi. 30.04.2020 y, 21-bet.
15. Sarsenbayev D.B. O‘zbekiston hududida katta quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalarini rivojlantirish bo‘yicha erishilgan natijalari va istiqbollari tahlili // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. Date: 19 th November, 2022, 91-93-b.
16. Захидов Р.А., Таджиев У.А., Киселева Е.И., Юсупов Дш.Т., Махаммадиев Ф.М. Энергоресурсные, экологические, социальные аспекты перехода Узбекистана на низкоуглеродное развитие // Энергия ва ресурс тежаш муаммолари илмий-техника журнали, Тошкент 2022. Махсус сон (№82), 59-71 бет.

# ИССИҚЛИК АККУМУЛЯТОРИГА ЭГА БЎЛГАН ФАОЛ ҚУЁШ ИСИТИШ ТИЗИМИНИНГ ДИНАМИК МОДЕЛИ

**Абдуҳамидов Дийдорбек Улуғбекович**
т.ф.д (PhD), Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги ҳузуридаги “Қайта тикланувчи энергия манбалари миллий-илмий тадқиқот институти”
E-mail: dijdorbekabduhamidov@gmail.com
**Юсупов Дилшодбек Турдалиевич**
т.ф.д (PhD), Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги ҳузуридаги “Қайта тикланувчи энергия манбалари миллий-илмий тадқиқот институти”
E-mail: dilshod8006@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.18159373

**Аннотация:** Ушбу ишда иссиқликни қабул қилувчи панеллар (қуёш коллекторлари)нинг конструкторлик хусусиятлари ва иссиқлик аккумуляторига эга фаол қуёш иситиш тизимининг динамик модели илмий-энергетик самарадорлик нуқтаи назаридан таҳлил қилинди. Мақсад — биноларнинг динамик иссиқлик хоссаларини тегишли математик модель воситасида аниқлаш, энергия тежаш имкониятларини, шу билан бирга экологик ва иқтисодий фойдаларини кўрсатиш.

**Калит сўзлар:** иссиқлик қабул қилиш панели, актив қуёш иситиш тизими, иссиқлик аккумулятори, динамик модель, энергия самарадорлиги, иссиқлик изоляцияси, бинонинг иситиш юкламаси.

# DYNAMIC MODEL OF AN ACTIVE SOLAR HEATING SYSTEM WITH A HEAT ACCUMULATOR

**Abstract:** In this work, the design features of heat-receiving panels (solar collectors) and the dynamic model of an active solar heating system with a heat accumulator were analyzed from the point of view of scientific and energy efficiency. The goal is to determine the dynamic thermal properties of buildings using an appropriate mathematical model, to demonstrate energy saving opportunities, as well as environmental and economic benefits.

**Keywords:** heat-receiving panel, active solar heating system, heat accumulator, dynamic model, energy efficiency, thermal insulation, building heating load.

# ДИНАМИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ АКТИВНОЙ СИСТЕМЫ СОЛНЕЧНОГО ОТОПЛЕНИЯ С ТЕПЛОВЫМ АККУМУЛЯТОРОМ

**Аннотация:** В данной работе с научной точки зрения и с точки зрения энергоэффективности проанализированы конструктивные особенности теплоприемных панелей (солнечных коллекторов) и динамическая модель активной системы солнечного отопления с тепловым аккумулятором. Цель работы – определить динамические тепловые свойства зданий с помощью соответствующей математической модели, продемонстрировать возможности энергосбережения, а также экологические и экономические преимущества.

**Ключевые слова:** теплоприемная панель, активная система солнечного отопления, тепловой аккумулятор, динамическая модель, энергоэффективность, теплоизоляция, тепловая нагрузка здания.

## КИРИШ

Биноларнинг энергия самарадорлигини ошириш ва қулай иқлим шароитлари яратишда уй-жой фондининг термик заҳирасидан самарали фойдаланиш муҳим аҳамиятга эгадир. Ўзбекистонда кўплаб бино ва иншоотлар 2011 йилдан аввал қурилган бўлиб, уларнинг иситиш тизимига қўйиладиган талаблар 2018 йилда қабул қилинган “КМК-2.01.18-2018” нормалари орқали расман мажбурий этиб белгиланганлигидир [1].

Ўзбекистон Республикаси энергетика вазирлиги маълумотларига кўра, 2010-2019-йилларда Ўзбекистонда иссиқхона газлари чиқиндиларининг мутлоқ ҳажми 30,6% га, шу жумладан, электр станцияларидан чиқадиган чиқиндилар 65,2% га ошган ва 2019-йил якунларига кўра энергетика соҳасининг мамлакатдаги иссиқхона газлари чиқиндиси чиқишидаги улуши 19,5% ни ташкил этган [2]. Иссиқхона газлари чиқиндиси билан боғлиқ ноқулай вазият доирасида ҳукумат мамлакатда “яшил” кун тартибини илгари суриш борасидаги саъй-ҳаракатларини амалга ошириб, унга мувофиқ энергия самарадорлигини икки баробар ошириш ва карбонат ангидрид чиқиндиларини ялпи ички маҳсулотга нисбатан камайтириш мақсадини қўйди. Шундай экан, “яшил” энергия сиёсати доирасида қуёш энергиясини кенг қўллаш, айниқса фаол қуёш иситиш тизимларини жорий этиш муҳимлиги катта аҳамиятга эга.

Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда 8,4 млн.га яқин бино ва иншоотлар мавжуд бўлиб, уларнинг 868 млн.м$^2$ қисми иситиладиган майдонларга тўғри келади [3]. Юқоридагиларни эътиборга олган ҳолда Қуёш иситиш тизимларидан фойдаланиш нақадар долзарблигини англаш мумкин.

## АСОСИЙ ҚИСМ

Модельнинг тавсифи. Градус соат усули. Бинонинг динамик иссиқлик хоссаларини аниқлаш учун градус-соат усулидан фойдаланамиз. Бунда бинонинг умумий иссиқлик йўқотиши қуйидагича аниқланади [4]:

$$Q_{\text{уий}} = K_{\text{м}} HDH\, A_{\text{ую}}, \qquad (1)$$

бунда **HDH** (heating degree-hours) иситиш даврида ички ва ташқи ҳароратлар ўртасидаги фарқнинг соатлар бўйича йиғиндиси тарзда ҳисобланади:

$$HDH(t_{\text{их}}) = \sum_{i=1}^{N} (t_{\text{их}} - \bar{t}_{\text{тх}})^{+}, \qquad (2)$$

бунда $t_{\text{их}}$- бино ичида талаб этилган ҳарорат; $\bar{t}_{\text{тх}}$- атроф-муҳит ҳароратининг соатлик ўртача қиймати; $N$- қаралаётган давр (ой, иситиш мавсуми ёки йил) даги соатлар миқдори

Иситилаётган бинонинг геометрик ўлчамлари қуйидгича ҳисобланади:

$$\text{A}_{as} = \frac{\pi D_{to.ich}{}^2}{4} \qquad (3)$$

$$A_{yon} = \pi D_{to.ich} H_{to} \qquad (4)$$

$$V_{tp} = A_{as} H_{to} \qquad (5)$$

$$U_{as} = \left(\frac{\delta_{to}}{\lambda_{to}} + \frac{\delta_{to.ich}}{\lambda_{to.ich}} + \frac{1}{H_{\text{таш}}}\right)^{-1} \qquad (6)$$

$$U_{yon.l} = \left[\frac{1}{2\lambda_{to}} ln\left(\frac{D_{to.ich}+\delta_{to}}{D_{to.ich}}\right) + \frac{1}{2\lambda_{to.ich}} ln\left[\frac{D_{to.tash}}{D_{to.ich}+\delta_{to}}\right] + \frac{1}{h_{nar} D_{to.tash}}\right]^{-1} \qquad (7)$$

$$UA = U_{as} A_{as} + U_{yon.l} + H_{to} \qquad (8)$$

Ҳисобланган иссиқлик оқими зичлиги $q_{\text{ҳиоз}}$ Вт/м2 қуйидаги формула орқали ҳисобланади:

$$q_{\text{ҳиоз}} = q_{nom}\left(\frac{\Delta t_{sr}}{70}\right)^{l+nl}\left(\frac{G_{\text{с.с}}\frac{hr}{kg}}{360}\right)^{pl}, \qquad (9)$$

бу ерда: $q_{nom}$ – номинал иссиқлик оқимининг зичлиги, W/m2; $\left(\frac{\Delta t_{sr}}{70}\right)^{l+nl}$ – иссиқлик ташувчиси сув бўлганда ҳароратлар фарқи фарқи, 0C; $G_{\text{с.с}}$ – сув сарфи, kg/s; $n, p$ – экспериментал рақамли кўрсаткичлар қийматлари.

Танланган юза бўйича $A_{\text{иа}}$, иситиш асбобларидан чиқаётган сувнинг ҳарорати $t_{\text{чиқ}}$, 0C қуйидагича [5]:

$$t_{\text{чиқ}} = t_{\text{ҳҳ}} + \frac{1}{\left[\frac{1}{(t_{\text{кир}}-t_{\text{ҳҳ}})^{nl}} + \frac{q_{pr}{}^{nl}\left(\frac{G_{pr}\frac{hr}{kg}}{0.1}\right)^{N_{seksiya}A_{pr}}}{70^{1+nl}G_{pr}C_{suv}}\right]^{\frac{1}{pl}\frac{1}{nl}}} \qquad (10)$$

Бу ерда: $t_{\text{кир}}$ – иситиш асбобига кирадиган иссиқлик ташувчининг ҳарорати. 0C; $t_{\text{ҳҳ}}$ – иситиладиган хонадаги ҳавонинг ҳисобий ҳарорати. 0C; $q_{pr} - q_{nom}$- номинал иссиқлик оқимининг зичлиги, W/m2; $n, p$ – иситиш асбобининг структуравий ва гидравлик хусусиятларининг иссиқлик узатиш коэффициентига таъсирини ифодаловчи экспериментал рақамли кўрсаткичлар; $G_{\text{с.с}}$ – иситиш асбобидаги ҳақиқий сув сарфи, kg/s; $C_{suv}$ – сувнинг солиштирма масса иссиқлик сиғими J/(kg 0C).

**1-жадвал. Иссиқликни сақловчи бак аккумуляторнинг геометрик ўлчамлари**

| Номланиши | Ташқи диаметр, mm | Ички диаметр, mm | Узунлиги mm | Изоля-цияси mm | Оғир-лиги kg | Ҳажми m3 |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Бак-аккумулятор | 2 506 | 2 300 | 5 300 | 200 | 3 800 | 22 |


1-жадвалда қаралаётган тизим учун иссиқликни жамловчи, сақловчи бак аккумуляторнинг геометрик ўлчамлари келтирилган бўлиб, улар асосида (5) формуланинг қиймат кўрсаткичларини аниқлаш учун асос саналади.

**2-жадвал. Иссқликни сақловчи бак аккумулятор ҳимоя қатламининг иссиқлик-техникавий кўрсаткичлари**

| Номланиши | Зичлиги kg/m3 | Солиштирма иссиқлик сиғими, kJ/kg0C | Иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти W/m2 0C | Қалинлиги mm |
|---|---|---|---|---|
| Оцинкованный пўлат лист | 7800 | 0,45 | 55 | 0.5 |
| Минералвата | 125 | 0.84 | 0.056 | 200 |


| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Краска | 1100 | | 0.233 | 0.1 |
| Пўлат лист | 8000 | 0.468 | 50 | 4 |

1 ҳамда 2-расмларда, ҳамда 2-жадвалда келтирилган қийматлар асосида ИАга эга фаол қуёш иситиш тизимини қўллаганда бино ичидаги ҳароратларнинг вақт бўйича ўзгариши ҳамда анъанавий иситиш тизимининг иссиқлик юкламасининг соатлик ўзгаришилари динамикаси келтирилган ҳамда 3 – расмда бак аккумуляторга эга ва эга бўлмаган фаол қуёший иситиш тизимининг иссиқлик ҳимояси даражаларига мос равишда таҳлили ўтказилган.





**1-расм. 15.10.2019 - 15.04.2020йй. Ҳароратларнинг вақт бўйича ўзгариши:**

1-атроф-муҳит температураси; 2-қуёш колекторидан чиқувчи иссиқлик ташувчининг ҳарорати; 3-бак-аккумулятордаги сувнинг ҳарорати [4]




**2-расм. 15.10.2019 - 15.04.2020 йй. Анъанавий иситиш тизимининг иссиқлик юкламасининг соатлик ўзгариши: 1- фаол қуёш иситиш тизими бўлмаган ҳолда; 2-фаол қуёш иситиш тизими бўлган ҳолда [4]**




**3-расм. Солиштирма иссиқлик истеъмолининг иссиқлик ҳимояларининг даражалари бўйича ўзгариши[4].**

1- фаол қуёш иситиш тизимидан фойдаланилмаган ҳол учун; 2- бак-аккумуляторли фаол қуёш иситиш тизимидан фойдаланилган ҳол учун


3 – расмга кўра, бинони иситиш учун солиштирма йиллик иссиқлик энергияси истеъмолининг иссиқлик ҳимояларининг даражалари бўйича ўзгариши келтирилган. Бак-аккумуляторли фаол қуёш иситиш тизимли бино бўйича ўтказилган ҳисоблашлар кўрсатишича Тошкент шаҳри шароитида солиштирма йиллик иссиқлик энергияси сарфи ва иситиш хоссаларида сезиларли ўзгаришлар кузатилди [6].

| **Ҳимоя даражаси** | **Аккумуляторсиз тизимда камайиш, kWh/m²** | **Аккумуляторли тизимда камайиш, kWh/m²** |
|---|---|---|
| I даражаси | ≈ 46.9 (≈ 20-21 %) | 78.81 (≈ 33.4 %) |
| II даражаси | ≈ 47 (≈ 28 %) | 69.17 (≈ 39.8 %) |
| III даражаси | ≈ 46.9 (≈ 34.3 %) | 63.6 (≈ 44.7 %) |

Таклиф этилаётган моделнинг сонли татбиқи учун (4-расм) алгоритм ва MathCAD 2015 professional пакетида дастурий таъминот яратилди.

Мазкур дастур ёрдамида маъмурий ва маиший биноларнинг солиштирма иссиқлик хоссалари, энергетик, экологик ва иқтисодий кўрсатгичлари градус-соат ва градус-сутка усулларидан фойдаланиб аниқланди. Жумладан маъмурий ва маиший биноларда иситиш учун солиштирма энергия истеъмоли, қуёш коллекторлари ва ИАлар қўлланилганда тежалган энергия миқдори, заҳарли газларнинг атмосферага чиқарилишининг камайган йиллик миқдори, йиллик тежалган моддий маблағ, солиштирма иссиқлик кўрсатгичларининг соатлик ўртача миқдорлари, харажатларни қоплаш муддати ҳисобланади.

Тақдим этилаётган дастурий маҳсулот маъмурий ва маиший биноларда содир бўлувчи иссиқлик жараёнларининг статик ва динамик математик моделлари асосида Python дастурлаш тилида тузилган бўлиб, бунда иқлим маълумотлари асосида маъмурий ва маиший биноларнинг ўртача соатлик ва йиллик энергетик, экологик ва иқтисодий кўрсатгичлари ҳисобланади.




T` – ҳароратларнинг таҳминий қийматлари; T0 – бошланғич ҳароратлар

**4-расм. Фаол қуёш иситиш тизими учун ишлаб чиқилган математик моделнинг блок-схема кўринишидаги алгоритми[7].**

Иссиқлик аккумуляторига эга бўлган фаол қуёш иситиш тизимини қўллаш бўйича моделлаштириш натижаларини умумлаштириб, қуйидаги хулосага келиш мумкин:

1. Иссиқлик аккумуляторига эга фаол қуёш иситиш тизимининг динамик модели орқали биноларда солиштирма иссиқлик хоссаларини аниқлаш имконини берди.
2. Тошкент шароитида, иссиқлик аккумуляторисиз тизим билан солиштирганда, иссиқлик аккумуляторли тизим ≥33 % энергия тежашни кафолатлайди, юқори ҳимоя даражаларида бу кўрсаткичлар янада яхшиланади.
3. Экологик таъсир ва иқтисодий самаралар ҳисобга олинганда, мазкур технологиялар давлат сиёсати ва қонун-қоидалар доирасида татбиқ этилиши керак.

**ХУЛОСА**

Ушбу илмий ишланмаларни амалиётга кенг жорий қилиш учун давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тузилмалари (солиқ имтиёзлари, субсидиялар) орқали технологияни кенг тарқатиш мақсадга мувофиқ бўлади.

**Фойдаланилган адабиётлар.**

1. ҚМҚ 2.01.18-2018 «Бинолар ва иншоотлар иситиш, шамоллатиш ва кондициялаштириш учун энергия сарфи меъёрлари».
2. Первый двухгодичный отчет по обновленным данным Республики Узбекистан. https://unfccc.int/sites/default/files/resource/FBURUzru.pdf
3. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий маълумотлари. www.stat.uz
4. Авезов Р.Р., Авезова Н.Р., Касымов Ф.Ш., Самиев К.А., Д.У.Абдухамидов, Куралов М.А. Эквивалентная одноэлементная модель нестационарного теплового режима помещений с инсоляционной системой отопления. Международная конференция “Фундаментальные и прикладные вопросы физики”. Ташкент, 5-6 ноября 2015 г.- С. 378-381
5. Johnson T.E. Lightweight Thermal Storage for Solar Heated Buildings//Solar Energy 1977. V.19 No6. -pp. 669-675.
6. R.R. Avezov, D.U. Abdukhamidov. «On Determining the Solar Radiation Absorption Factor for Translucent Coatings of Flat Solar Plants». // Applied Solar Energy. USA. Vol. 51, No.3, pp. 232–234.
7. Свидетельство об официальной регистрации программы для ЭВМ Гувохнома № DGU 19465 от 18.11.2022. «Актив қуёш иситиш тизимига эга маъмурий ва маиший биноларнинг энергетик, экологик ва иқтисодий хоссаларини аниқлаш компьютер дастури». Авторы: Авезова Н.Р., Самиев К.А., Абдухамидов Д.У., Рашидов К.Ю.

# ТОШКЕНТ ИҚЛИМИДА ПАСТ ҲАРОРАТЛИ ФАОЛ ВА ПАССИВ ҚУЁШ ИСИШ ТИЗИМЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСТУНЛИКЛАРИ

**Абдуҳамидов Дийдорбек Улуғбекович**
т.ф.б(PhD), Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги ҳузуридаги “Қайта тикланувчи энергия манбалари миллий-илмий тадқиқот институти”
E-mail: dijdorbekabduhamidov@gmail.com
**https://doi.org/10.5281/zenodo.18205971**

**Анноиация:** Ушбу ишда иссиқликни қабул қилувчи панеллар (қуёш коллекторлари)нинг конструкторлик хусусиятлари ва иссиқлик аккумуляторига эга фаол қуёш иситиш тизимининг динамик модели илмий-энергетик самарадорлик нуқтаи назаридан таҳлил қилинди. Мақсад — биноларнинг динамик иссиқлик хоссаларини тегишли математик модель воситасида аниқлаш, энергия тежаш имкониятларини, шу билан бирга экологик ва иқтисодий фойдаларини кўрсатиш.

**Калит сўзлар:** иссиқлик қабул қилиш панели, актив қуёш иситиш тизими, иссиқлик аккумулятори, динамик модель, энергия самарадорлиги, иссиқлик изоляцияси, бинонинг иситиш юкламаси.

# ПРЕИМУЩЕСТВА ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НИЗКОТЕМПЕРАТУРНЫХ АКТИВНЫХ И ПАССИВНЫХ СОЛНЕЧНЫХ СИСТЕМ ОТОПЛЕНИЯ В КЛИМАТЕ ТАШКЕНТА

**Аннотация:** В данной статье проанализированы возможности эффективного использования низкотемпературных активных и пассивных солнечных систем отопления в условиях климата города Ташкента. Рассмотрены преимущества этих систем для повышения энергоэффективности зданий, снижения потребления тепла и сокращения выбросов углерода. Активные низкотемпературные системы обеспечивают эффективное накопление и распределение энергии с помощью солнечных коллекторов и тепловых аккумуляторов, в то время как пассивные системы поддерживают стабильную температуру внутри зданий. Рассмотрены экономическая и экологическая эффективность применения данных технологий с учетом климатических параметров Ташкента и потребностей в отоплении.

**Ключевые слова:** Климат Ташкента, низкотемпературная солнечная система отопления, активное солнечное отопление, пассивное солнечное отопление, тепловой аккумулятор, энергоэффективность, экологические преимущества, отопление зданий

# ADVANTAGES OF EFFECTIVE USE OF LOW-TEMPERATURE ACTIVE AND PASSIVE SOLAR HEATING SYSTEMS IN THE CLIMATE OF TASHKENT

**Abstract:** This paper analyzes the possibilities of effective use of low-temperature active and passive solar heating systems in the climate conditions of Tashkent. The advantages of these systems for improving building energy efficiency, reducing heat consumption, and lowering carbon emissions are discussed. Low-temperature active systems provide efficient energy storage and distribution using solar collectors and thermal accumulators, while passive systems maintain stable indoor temperatures. The economic and environmental benefits of applying these technologies are considered, taking into account Tashkent’s climatic parameters and heating requirements.

**Keywords:** Tashkent climate, low-temperature solar heating system, active solar heating, passive solar heating, thermal accumulator, energy efficiency, environmental benefits, building heating

## КИРИШ

2019 йил 2 декабрда “Тошкент шаҳрининг иссиқлик таъминоти тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” Президент қарори қабул қилинди. Унда шаҳарда иссиқлик таъминоти тизимида бозор механизмлари ва давлат-хусусий шерикликни жорий этиш вазифалари белгиланди.

Тошкент аҳоли сони ва иссиқлик тармоқлари ҳажми жиҳатидан мамлакатимизда энг катта шаҳардир. Шу ерда 9 165 та кўп қаватли уй ва 3 475 та ижтимоий объект марказлашган иссиқлик таъминотига уланган. Бироқ, магистрал ва тарқатиш тармоқларнинг 72 %, марказий қозонхоналарнинг барчаси ва маҳаллий қозонхоналарнинг 90 % эскирган ҳолда хизмат кўрсатмоқда. Бу ҳолат харажатларнинг сезиларли ошиши ва хизмат сифати пасайишига олиб келмоқда. Масалан, ўтган йили иссиқлик энергияси йўқотилиши 44 % ни ташкил этиб, бунда молиявий йўқотиш 630 миллиард сўмга етди. Бу ҳолат 460 миллион куб метр табиий газ, 55 миллион куб метр ичимлик суви ва 154 миллион киловатт-соат электр энергиясининг ортиқча сарфланишига сабаб бўлди.

Тошкент шаҳрида йиллик иссиқлик энергияси тақсимоти 10,0 млн. Гкал, иссиқлик юкламаси эса 3 532 Гкал/соатни ташкил қилади. Иссиқлик тармоқларига 13 177 бинолар уланган, шу жумладан 9 174 та кўп хонадонли уйлар, 574 та даволаш муассасалари, 636 та болалар боғчаси, 475 та умумтаълим мактаблари, 662 та олий ва ўрта махсус таълим муассасалари ҳамда 1 656 та бошқа объектлар [2].

Шунингдек, агар Тошкентда иссиқ сув ва иситиш тизимларига 1 % қайта тикланувчи энергия манбалари, яъни Қуёш энергиясидан кенг кўламли фойдаланиш жорий қилинса, йил давомида тахминан 100 000 Гкал энергияни тежаш ва 16 миллиард сўм иқтисодий самарага эришиш имконияти мавжуд.

Европа мамлакатлари тажрибасига кўра, эски биноларда ҳам энергия самарадорлигини ошириш мумкин. Биноларнинг энергия истеъмоли бўйича классификацияси қуйидагича:

«Эски бинолар» (1970 йилгача) – йилига 300 кВт·с/м²;

«Янги бинолар» (1970–2000) – йилига 150 кВт·с/м²;

«Паст энергия истеъмол қилувчи уй» – йилига 60 кВт·с/м²;

«Пассив уй» – йилига 15 кВт·с/м²;

«Ноль энергияли уй» – йилига 0 кВт·с/м²;

«Плюс энергияли уй» ёки «актив уй» – қайта тикланувчи энергия манбалари ҳисобига ишлаб чиқарган энергия истеъмолдан кўпроқ [7].

Энергия самарадор бинолар одатда пассив ва актив турларга бўлинади. Пассив уйлар концепцияси швед профессори Бо Адамсон томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, улар қаҳратон қиш шароитида минимал иситиш билан зимистонни ўтказиш талабини қондириши лозим эди. Бу бинолар ташқи энергия манбалари ва муҳитдан максимал даражада мустақил бўлиши учун лойиҳаланади ва қурилади. Пассив уйлар концепцияси жаҳон иқтисодиётида энергия самарадорлигини оширишда ҳақиқий бурилиш яратди [7].

Америкалик тадқиқотчи Дэвид Орр экологик ва энергия самарадор биноларни қуриш принципларини ишлаб чиққан. Ушбу принциплар асосида бинолар материаллар ва технологиялардан максимал самарадорлик билан фойдаланиб қурилади, ташқи муҳитга минимал таъсир қилади ва эксплуатация қиймати юқори даражада таъминланади. АҚШнинг Огайо штатидаги илмий марказлар бу принципларнинг амалий татбиқини ўрганиб, биноларни иқлим нейтралликка эришиш имконияти билан лойиҳалашмоқда.

Актив уйлар эса қайта тикланувчи энергия манбалари ҳисобига ўз энергиясини ишлаб чиқаради. Уларнинг асосий параметрлари Германиядаги пассив уйлар институти ва “Ақлли уйлар” технологияларига асосланган. Актив уйлар нафақат энергия сарфини камайтиради, балки уни самарали тақсимлайди [10].

**АСОСИЙ ҚИСМ.**

Пассив Қуёший тизимлар эса электр энергияси сарфини қарийб 50 % гача камайтиради. Агар лойиҳалаштирувчи пассив қуёш иситиш тизимларининг принциплари билан таниш бўлса, бундай уйни қуриш учун сарфланадиган харажатлар оддий уй билан деярли бир хил бўлади.

Бундай Қуёший иссиқлик таъминоти тизимларининг асосий хусусиятлари 1-жадвалда келтирилган.

1 – Жадвал. Актив ва пассив энергия тизимларининг тавсифи

| Гелио иншоотнинг тури | Қуёший энергия таъминоти тизимининг тури | Режалаштирилаётган техник тадбирларнинг тавсифи | Қуёший энергия таъминоти ташкиллаштириш усуллари |
|---|---|---|---|
| Пассив тизимлар | | | |
| Анъанавий конструкцияли бинолар (махсус қурилмаларсиз) | Юқори чироқчинлар, оранжереялар, Қуёший деразалар | Асосий хоналар олд қисмининг жанубга йўналтирил-ганлиги; Кенглик бўйича узайтирилган режа | Иссиқлик ҳимоя қатлами. Катта юзали ойналар билан қоплаш. Ёрдамчи энергетик тизим. Ҳавонинг табиий конвекцияси. |
| Конструктив элементлар ёрдамида ўзгартириш киритилган бинолар | Иссиқликни ўзида жамловчи девор-коллектор; Иссиқлик ҳовузлари | Шимолий фасадларни минимумда ушлаш, бинонинг шимолий тарафида ёрдамчи хоналарни жойлаштириш | Иссиқлик ҳимоя қатлами. Массив тўсиқлар. Катта ўлчамли ойналар. Ёрдамчи энергетик тизим. Ҳавонинг табиий конвекцияси. |
| Актив тизимлар | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Тузилишида махсус қурилмалари бўлган бинолар | Ясси коллекторлар (сувли ва ҳаволи) аккумуляторлар | Ҳажман ихчам; Жанубий деворда ёки жанубий қияликдаги томларда коллекторларни жойлаштириш | Махсус иссиқлик аккумуляторларининг мавжудлиги: сув ёрдамида иситишда идишларда сув сақлаш; ҳаволи иситишда шағалдан фойдаланиш |
| Алоҳида қурилмаларга эга бўлган бино | Ясси коллекторлар, Қуёш нурини жамловчи қурилмалар, аккумуляторлар | Ҳажман ихчам; Қуёший иситишни қўллаш билан боғлиқ, чегараланмаган оддий турдаги уйлар | Бойлерларнинг мавжудлиги, иссиқлик тарқатишнинг махсус тизими. Иссиқлик тарқатишда механик ёндашув. |

Жадвалда Тошкент шаҳри иқлими шароитида биноларни лойихалаш, қуриш, ва эксплуатация қилиш ёки қайта реконструкция қилиш жараёнида актив ва пассив қуёший иситиш тизимларининг юқоридаги асоссий хусусиятларидан фойдаланиш мумкинлиги кўрсатилган.

Қуёш энергиясини йиғиш ва тарқатиш учун қўшимча ускуналар талаб қилмайдиган тизимлар бу пассив тизимлардир. Пассив тизимларнинг ишлаш принципи шаффоф-нурли жанубий деворлар орқали хонани тўғридан-тўғри иситишдан, шунингдек шаффоф ҳимоя қатлами билан ҳимояланган бинонинг ёпиқ элементларининг ташқи юзасини Қуёш билан иситишдан иборат бўлади.

Актив Қуёший иситиш тизими пассив иситиш тизимига нисбатан кўпроқ иссиқлик бериш имконини яратади ва ўз-ўзидан, мураккаброқ технологияларга эга. Одатда бундай Қуёший иситиш тизими уч таркибий қисмни ўз ичига олади: Қуёш нурланишини ютиш учун Қуёш коллектори, олинган энергияни жамлаб-сақлаш тизими ва турар-жой биноларини иссиқлик билан таъминлаш учун иссиқлик алмашиш тизими. Актив тизимлар ҳаво ёки суюқлик асосидаги турларга бўлинади.

Актив иситиш тизимларида ҳам фарқлар мавжуд бўлиб, Қуёш энергиясини Қуёш коллекторида қай усулда жамлашида акс этади. Суюқлик асосидаги тизимларда, мос равишда, мазкур вазифани суюқлик бажаради, ҳаво асосидаги тизимларда эса энергия ҳаво орқали ютилади. Одатда, Қуёш коллекторлари биноларнинг томларига ўрнатилади, шунинг учун иссиқ ҳавонинг чиқиш жойиини шифтга жойлаштириш мақсадга мувофиқдир. Ўрнатилган тизим шифтга ўрнатиладиган вентилятор сифатида ишлаб, уйдаги ҳавони аралаштириб беради.

Актив Қуёший иситиш тизимларини ўз навбатида қуйидагича таснифлаш мумкин:

1) Мўлжалланган фойдаланиш соҳасига кўра: иссиқ сув, иситиш ва мужассамлашган иссиқ сув ва иситиш тизимлари;

2) Йил давомида ишлатилиш вақти бўйича: мавсумий ва йил бўйи;

3) Истеъмолчиларнинг қамрови бўйича: индивидуал, гуруҳлашган ва марказлашган;

4) Контурлари сони бўйича: бир-, икки- ва кўп контурли;

5) Заҳира манбаининг мавжудлиги буйича;

Актив тизимлар биноларнинг Қуёш энергиясини иссиқлик энергиясига айлантириб берувчи махсус технологик қурилмалар билан жихозланганлигини кўзда тутади.

Тошкент шаҳри учун иситиш мавсуми ойлари учун ўртача суткалик ҳарорат 2-жадвалда берилган.

**2-Жадвал. Тошкент шаҳри учун иситиш мавсуми ойлари учун ўртача суткалик ҳарорат ($t_0$) $^0$C**

| Кун соатлари | Иситиш мавсуми ойлари | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Ноябрь | Декабрь | Январь | Февраль | Март |
| 1 | 4.0 | 0.0 | -2.4 | 0.1 | 5.1 |
| 2 | 3.9 | -0.1 | -2.5 | 0.0 | 4.9 |
| 3 | 3.8 | -0.2 | 2.6 | -0.2 | 4.7 |
| 4 | 3.6 | -0.3 | -3.8 | -0.3 | 4.5 |
| 5 | 3.4 | -0.4 | -2.9 | -0.5 | 4.4 |
| 6 | 3.3 | -0.5 | -2.9 | -0.6 | 4.2 |
| 7 | 3.1 | -0.5 | -2.9 | -0.7 | 4.6 |
| 8 | 4.1 | -0.2 | -2.7 | 0.0 | 6.0 |
| 9 | 6.5 | 1.2 | -1.6 | 1.5 | 7.5 |
| 10 | 8.3 | 2.7 | -0.1 | 3.0 | 8.9 |
| 11 | 9.7 | 3.9 | 1.1 | 4.2 | 9.9 |
| 12 | 10.6 | 4.7 | 1.9 | 5.1 | 10.7 |
| 13 | 11.4 | 5.1 | 2.4 | 5.7 | 11.4 |
| 14 | 11.5 | 5.2 | 2.5 | 5.8 | 11.6 |
| 15 | 11.3 | 4.9 | 2.4 | 5.8 | 11.7 |
| 16 | 10.4 | 4.1 | 1.8 | 5.3 | 11.4 |
| 17 | 8.7 | 2.9 | 0.6 | 4.4 | 10.9 |
| 18 | 7.4 | 2.0 | -0.3 | 3.1 | 9.7 |
| 19 | 6.3 | 1.3 | -1.0 | 2.1 | 8.4 |
| 20 | 5.3 | 0.8 | -1.5 | 1.5 | 7.5 |
| 21 | 4.7 | 0.4 | -1.8 | 1.0 | 6.8 |
| 22 | 4.4 | 0.3 | -2.0 | 0.7 | 6.3 |
| 23 | 4.2 | 0.1 | -2.2 | 0.5 | 5.8 |
| 24 | 4.0 | 0.0 | -2.3 | 0.3 | 5.5 |
| Ўртача 24 соатда | 6.4 | 1.6 | -0.9 | 2.0 | 7.6 |

Тошкент шаҳри учун узоқ муддатли шаффоф тўсиқли йўналишини танлаш учун маълумотлар 3-жадвалда кўрсатилган.

3-Жадвалда туб йўналишларга йўналиш танлаш учун Жануб, Ғарб ва Шарққа йўналтирилган шаффоф тўсиқлар учун $\bar{q}_{пад}^{в,z}$ қийматлари берилади.

**3-Жадвал.Инсоляцион пассив Қуёший иситиш тизимларининг шаффоф тўсиқли йўналишини танлаш учун бошланғич маълумотлар, Тошкент $\left(\bar{q}^{в,z}_{пад}, Вт/м^2\right)$**

| Иситиш мавсуми ойлари | Тўсиққа нур тушиш йуналиши | | |
|---|---|---|---|
| | Жануб | Ғарб | Шарқ |
| Ноябрь | 166.2 | 50.9 | 53.16 |
| Декабрь | 147.5 | 39.7 | 37.08 |
| Январь | 169.4 | 46.9 | 46.75 |
| Февраль | 165.2 | 59.7 | 61.79 |
| Март | 147.7 | 77 | 75.58 |

3-жадвалдаги маълумотлардан кўриниб турибдики, $\bar{q}^{в,z}_{пад}$ бўйича Жанубий йўналишнинг Ғарбий ва Шарқий йўналишларга нисбатан афзаллиги шубҳасиздир.

Қуёш нурланиши $q^{-z}_{погл}$оқимининг уч қатламли шаффоф тўсиқнинг нур ютувчи қатлами томонидан қисман ютилган қиймати қуйидаги ифодадан аниқланади

$$\bar{q}^{в,z}_{погл\ р} = \alpha \bar{q}^{в,z}_{пад} \tau^{в}_{огр_{(2)}} \bar{q}^{z}_{пад} \qquad (1)$$

Бу ерда β=160 $\frac{1}{м}$- га кўра қийматлари қисман нур ютувчи қатламнинг йиғинди Қуёш нурланишининг ютилиш коэффициенти 0.50 га тенг деб қабул қилиниши мумкин; $\tau^{в}_{огр_{(2)}}$- икки қатламли вертикал ҳолатда шаффо тўсиқнинг умумий (ҚН)нинг ўтказувчанлик коэффициенти, иситиш мавсуми учун

$q^{в}_{пад}$ ва $\tau^{в}_{огр_{(з)}}$кундалик ўзгаришларининг ўртача ойлик қийматларини аниқлаш бўйича ҳисоблашлар натижалари ва улар асосида Тошкент шаҳри учун иситиш мавсумининг ноябр-март ойлари учун $q^{в}_{прош}$ 4-6 жадвалларда кўрсатилган.

**4- Жадвал. Вертикал уч қатламли шаффоф тўсиқдан ўтган йиғинди Қуёш нурланиши оқимининг зичлигининг ўртача ойлик кунлик қийматини аниқлаш бўйича ҳисоблашлар натижалари ноябр ойи учун $\left(q^{в}_{прош}, Вт/м^2\right)$**

| Кун соатлари | $\tau^{в}_{огр_{(з)}}$ | $q^{в}_{пад}$ | $q^{в}_{прош} = \tau^{в}_{огр_{(з)}} q^{в}_{пад}$ |
|---|---|---|---|
| 7-8 | 0,20 | 94 | 18,8 |
| 8-9 | 0,29 | 272 | 78,8 |
| 9-10 | 0,315 | 394 | 124,1 |
| 10-11 | 0,33 | 480 | 158,4 |
| 11-12 | 0,335 | 501 | 167,8 |
| 12-13 | 0,335 | 501 | 167,8 |
| 13-14 | 0,33 | 473 | 156,1 |
| 14-15 | 0,315 | 394 | 124,1 |
| 15-16 | 0,29 | 245 | 71 |
| 16-17 | 0,20 | 77 | 15,4 |

**5- Жадвал. Вертикал уч қатламли шаффоф тўсиқдан ўтган йиғинди Қуёш нурланиши оқимининг зичлигининг ўртача ойлик кунлик қийматини аниқлаш бўйича ҳисоблашлар натижалари декабр ойи учун $\left(q^{в}_{прош}, Вт/м^2\right)$**


| Кун соатлари | $\tau^{в}_{огр(з)}$ | $q^{в}_{пад}$ | $q^{в}_{прош} = \tau^{в}_{огр(з)} q^{в}_{пад}$ |
|---|---|---|---|
| 7-8 | 0,20 | 28 | 5,6 |
| 8-9 | 0,29 | 168 | 48,7 |
| 9-10 | 0,315 | 332 | 104,5 |
| 10-11 | 0,33 | 450 | 148,5 |
| 11-12 | 0,335 | 502 | 168,2 |
| 12-13 | 0,335 | 502 | 168,2 |
| 13-14 | 0,33 | 465 | 153,5 |
| 14-15 | 0,315 | 367 | 115,6 |
| 15-16 | 0,29 | 196 | 56,8 |
| 16-17 | 0,20 | 35 | 7 |

**6- Жадвал. Уч қатламли шаффоф тўсиқдан ўтган йиғинди Қуёш нурланиши оқимининг зичлигининг ўртача ойлик кунлик қийматини аниқлаш бўйича ҳисоблашлар натижалари январ ойи учун $\left(q^{в}_{прош}, Вт/м^2\right)$**

| Кун соатлари | $\tau^{в}_{огр(з)}$ | $q^{в}_{пад}$ | $q^{в}_{прош} = \tau^{в}_{огр(з)} q^{в}_{пад}$ |
|---|---|---|---|
| 7-8 | 0,20 | 29 | 5,8 |
| 8-9 | 0,29 | 268 | 77,7 |
| 9-10 | 0,315 | 399 | 125,7 |
| 10-11 | 0,33 | 489 | 161,4 |
| 11-12 | 0,335 | 564 | 188,9 |
| 12-13 | 0,335 | 556 | 186,3 |
| 13-14 | 0,33 | 496 | 163,7 |
| 14-15 | 0,315 | 405 | 127,6 |
| 15-16 | 0,29 | 247 | 71,6 |
| 16-17 | 0,20 | 44 | 8,8 |

Биноларни иситиш тизими ва асбоблари қиш даврида хоналарнинг ҳаво ҳароратини талаб қилинган даражада ушлаб туриш ва зарур ҳароратни сақлаш учун ҳизмат қилади. Ушбу ҳарорат ҚМҚ 2.04.05-97 талаблари чегарасида бўлиб, мўътадил сақлаш билан биргаликда уй ичидаги барча жиҳозлар бино конструкцияларининг ташқи ва ички элементлари билан биргаликда уйғунлашуви тушунилади[3,4,5,6].

Қуйидаги 1-расмда Ёзги даври учун деразалар ойнасидан бино ичига ортиқча Қуёш нури киришини тўсувчи, қишки иситиш мавсумида бино ичидан ташқарига иссиқлик йўқотилишини камайтирувчи нур қайтарувчи ламинат плёнкаларнинг ишлаш принципи кўрсатилган. Тошкент шаҳри иқлими шароитида паст ҳароратли пассив қуёший иситиш тизимлари учун ушбу техник ечимдан фойдаланиш таклиф қилинмоқда.





**1-расм. Қишки ва ёзги иситиш мавсумида шаффоф тўсиқларга ўрнатиладиган ламинат плёнка.**

*а ва б- қишки ва ёзги ҳаракат режимлари; 1, 2, 3 ва 4-мос равишда, қисман нур-ютиш полимер пленка қоплама (ламинат пленка), шаффоф тўсиқ ички, ўрта ва ташқи қатламлари; 5 ва 6-мос равишда, шамоллатиладиган ва шаффоф тўсиқ ёпиқ ҳаво қатламлари; 7-айланиш тешиклари, 8-шаффоф тўсиқ ташқи юзасига Қуёш нурланиши тушиши ва* $t_o$*-мос равишда, хонани иситиш ва ташки ҳаво ҳарорати.* [3,4].

Қуйидаги техник ишланмалар ““Ташэлектромаш" МЧЖ маъмурий ва маиший биносида қуёший иссиқ сув таъминоти тизимларини ташкил қилиш ва ишга тушириш”” инновацион грант асосида бажарилган бўлиб, унда инсоляцион пассив ва панелли-нурли қуёший иситиш тизимларининг янги схемалари ишлаб чиқилди, яратилди ва умумлаштирилди. Иссиқлик таъминоти эҳтиёжлари учун анъанавий ёқилғи ва энергия ресурсларини тежаш 50% гача ва ундан кўпроқ иқтисод қилиш имконини беради.

Токент шаҳри учун актив Қуёший иситиш тизимларидан биноларни иситиш ва иссиқ сув таъминотида фойдаланиш учун Қуйидаги 2-расмда келтирилган техник ишланмани таклиф қиламиз.




**2-расм. Қуёш иссиқлик таъминоти тизими билан мавсумий иссиқлик сақлаш схемаси:** *1-қуёш коллектори; 2-иссиқлик алмаштириш ускунаси; 3-иссиқлик алмаштиргич; 4-иссиқ сув иситиб бериш ускунаси; 5-иссиқлик алмаштиргич; 6-уч-йўлли клапан; 7-*

*айлантириш насоси; 8-орқага қайтариш клапани; 9, 10 -таъминот қувурлари; 11.12-қайрилиш қувурлари; 13- мавсумий иссиқлик сақлаш идиши; 14- юқори заряд бўлими; 15-пастки заряд бўлими; 16-бакдан сувнинг чиқиши; 17-бакка сувнинг кириши; 18, 19-қувурлар; 20, 21-вентиллар; 22-айланиш насос; 23-қувурлар; 24-вентиль; 25-совуқ сув таъминоти тармоғи; 26-чиқариш қувури; 27-уч-йўлли клапан; 28 - сув истеъмол қувури; 29-иссиқ сув олиш крани; 30-чиқариш қувури; 31,32-вентиллар; 33-заҳира иссиқ сув қозони; 34-тартибга солувчи уч-йўлли клапан; 35-иссиқлик алмаштиргич; 36-иккинчи иситгич; 37-таъминот қувури; 38-иссиқлик алмаштиргичдан чиқиш қувури; 39-вентиль; 40-иссиқлик истеъмоли юки; 41-чиқариш қувури; 42-айланиш насоси; 43-иккинчи тартибга солувчи уч-йўлли клапан; 44,45-вентиль; 46- совуқ сув таъминоти тармоғи қувури; 47-қайтариш клапани; 48-62-электрон ҳарорат ўлчаш мосламаси (датчики); 63-дастур текшируви; 64,65-кенгайтириш идишига; 66-байпас қувури; 67-вентиль; 68-мембранали кенгайтириш идиши; 69-вентиль. [8,9].*

Иш жараёнида ясси қуёший сув иситиш коллекторлари ва абсорберлар ёрдамида иссиқ сув ва иситиш тизимларининг экспериментал тажриба ишлари олиб борилди. Тадқиқот натижасида, ясси нур ютувчи коллекторлар ёрдамида мавсумий иссиқ сув тизимлари, мавсумий нурли-панеллли иситиш тизимлари, кўп функцияли уч қатламли энергия тежамкор ойна блоклари ёрдамида инсоляцион пассив иситиш тизимлари биринчи марта яратилди ва амалиётга жорий килинди.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, “Ташэлектромаш” МЧЖ заводининг маъмурий-маиший хоналарини 100 м$^2$ бўлган иситиш майдонини 15 февралдан 15 апрелгача бўлган даврда қуёший нурли-панелли иситиш тизими орқали хонада қулай ҳарорат сақлаб турилди ( февралда +18 °С, мартда +20 °С, апрелда +21°С). Бунинг учун 40 м$^3$ иссиқлик сақлаш бак аккумуляторида 60$^0$С ҳароратдаги иссиқ сув қуёш коллекторлари орқали йиғилди ва юқоридаги муддат даврида 63 201.6 МЖ иссиқлик сарфланди. *[8,9].*

**ХУЛОСА**

Ўтказилган илмий тадқиқотлар ва жорий қилинган ишланмаларга асосланиб қуйидагиларни хулоса қилиш мумкин:

1. Тошкент шаҳри иқлими шароитида паст ҳароратли актив ва пассив қуёший иситиш тизимларидан кенг кўламда фойдаланиш орқали иссиқ сув таъминоти тизимида 60% фоизгача, иситиш тизимларида фойдаланиш орқали 45 % гача ҳамда ҳавони муътадиллаштириш орқали эса 50% гача бирламчи энергия манбаларини иқтисод қилиш мумкин.
2. Тошкент шаҳри иқлими шароити учун паст ҳароратли актив ва пассив иситиш тизимлари учун янги техник ишланмалар таклиф қилинмоқда.
3. Тошкент шаҳри иқлими шароитида бино ва иншоатларни куз-қиш мавсумида иситишда паст ҳароратли актив ва пассив қуёший иситиш тизимларидан кенг кўламда фойдаланиш ёқилғи энергетика тизимида энергия тежамкорлигига, экологик нуқтаи назардан табиатга ижобий таъсири ва яна бир қанча афзалликларга эгалиги билан ҳар доим илмий изланувчилар ва амалиётчилар учун энг асосий вазифалардан бири бўлиб қолаверади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати .**

1. Тошиссиққуввати - xabar.uz. http://m.xabar.uz › tag › toshissiqquvvati.
2. https://www.teploenergo.uz/page/company/
3. Р.Р.Авезов, А.Ю.Орлов, « Солнечные системы отопления и горячего водоснабжения». Ташкент:: Фан,1988. 285с
4. ҚМҚ 2.04.05-97 Исситиш, шаммолатиш ва кондициялаш.
5. КМК 2.01.04-97 Қурилиш Иссиқлик техникаси.
6. КМК 2.04.16-18 Қуёшли иссиқ сув таъминоти.
7. Р.И.Нуримбетов. Энергия самарадорлигига эга уйларни қуришда инновацион технологиялардан фойдаланиш истиқболлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнал. №4. Июль-август 2017й.
8. Д.У.Абдухамидов, А.У.Вохидов, К.Ю.Рашидов, С.М.Хужакулов Ўзбекистон иқлими шароитида бино ва иншоатларни иситишда қуёший нурли-панелли тизимлардан фойдаланишнинг афзалликлари. Инновацион технологиялар Махсус сон 2020 й.
9. Авезова Н.Р., Абдуҳамидов Д.У.,Бугаков А.Г, Вохидов А.У. **№FAP01157** от 08.11.2016 г. «Систем солнечного теплоснабжения с сезонным аккумулированием тепла».
10. Э.С.Тулаков Биноларнинг энергия самарадорлик инженеринги Ўқув қўлланма.Самарқанд-2020й.

# МАВСУМИЙ ИССИҚЛИК АККУМУЛЯТОРЛАРИ АСОСИДА ҚУРИЛГАН УЙҒУНЛАШГАН ҚУЁШ ИСИТИШ ТИЗИМЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИ

**Абдуҳамидов Дийдорбек Улуғбекович**
т.ф.б(PhD), Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги ҳузуридаги “Қайта тикланувчи энергия манбалари миллий-илмий тадқиқот институти”
E-mail: dijdorbekabduhamidov@gmail.com
**https://doi.org/10.5281/zenodo.18206008**

**Аннотация:** Мақолада мавсумий иссиқлик аккумуляторлари асосида ишлаб чиқилган уйғунлашган қуёш иситиш тизимларининг самарадорлиги таҳлил қилинган. Ушбу тизимлар иссиқликни сақлаш ва энергияни тежашда самарали бўлиб, анъанавий энергия манбаларидан фойдаланишни камайтириш имконини беради. Шунингдек, мақолада қуёш энергиясидан максимал фойдаланиш ва иссиқлик ҳажмини оптимал тарзда тақсимлаш йўналишлари ҳам кўриб чиқилган.

**Калит сўзлар:** мавсумий иссиқлик аккумулятори, уйғунлашган қуёш иситиш тизими, энергия самарадорлиги, қуёш энергияси, иссиқлик сақлаш

# ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНТЕГРИРОВАННЫХ СОЛНЕЧНЫХ СИСТЕМ ОТОПЛЕНИЯ, ПОСТРОЕННЫХ НА ОСНОВЕ СЕЗОННЫХ ТЕПЛОВЫХ АККУМУЛЯТОРОВ

**Аннотация:** В статье проанализирована эффективность интегрированных солнечных систем отопления, построенных на основе сезонных тепловых аккумуляторов. Эти системы эффективно аккумулируют тепло и способствуют экономии энергии, снижая использование традиционных источников энергии. Также рассматриваются подходы к максимальному использованию солнечной энергии и оптимальному распределению тепловых запасов.

**Ключевые слова:** Эффективность интегрированных солнечных систем отопления, построенных на основе сезонных тепловых аккумуляторов

# EFFICIENCY OF INTEGRATED SOLAR HEATING SYSTEMS BASED ON SEASONAL THERMAL STORAGE

**Abstract:** The article analyzes the efficiency of integrated solar heating systems based on seasonal thermal storage. These systems effectively store heat and contribute to energy savings, reducing the use of conventional energy sources. The study also examines approaches for maximizing solar energy utilization and optimizing the distribution of heat capacity.

**Keywords:** Efficiency of Integrated Solar Heating Systems Based on Seasonal Thermal Storage

## КИРИШ

Бугунги кунда жаҳон миқёсида қуёшли иссиқлик таъминоти тизимларининг сифатини оширишга қаратилган илмий тадқиқотлар фаол олиб борилмоқда. Хусусан, пассив ва фаол қуёш иситиш тизимларини кенг жорий этиш, қайта тикланувчи энергия манбаларидан самарали фойдаланиш ҳамда иссиқлик-техник параметрларни оптималлаштириш орқали энергия самарадорлигини ошириш ва анъанавий энергия ресурслари сарфини камайтириш асосий мақсад сифатида белгиланган. Ушбу йўналишда биноларни меъёрий иссиқлик билан таъминлаш мақсадида қуёш энергиясидан максимал

иссиқлик энергиясини олиш, шунингдек иссиқликни жамловчи бак-аккумуляторга эга фаол қуёш иситиш тизимларида кечадиган иссиқлик жараёнларини кўп параметрли моделлаштириш бўйича тадқиқотлар устувор аҳамият касб этмоқда [1].

Ҳозирги кунда мамлакатимизда қуёш иссиқлик таъминоти тизимлари ривожланишнинг энг самарали интеграция ва технологик ечимларни ишлаб чиқиш ҳамда танлаш босқичида турибди. Кўплаб илмий-тадқиқот ишлари олиб борилаётир, натижада қуёш энергиясини қабул қилиб, уни иссиқлик ёки электр энергиясига айлантирувчи муҳандислик ускуналари ишлаб чиқилиб, оммавий ишлаб чиқаришга киритилмоқда. Шу билан бирга, қуёш иссиқлик таъминоти билан таъминланган иншоотлар қурилмоқда ва улардан самарали фойдаланиш йўналишида зарурий асос яратилмоқда. Органик ёқилғини тежаш ва энергия самарадорлигини ошириш мақсадида халқ хўжалигининг турли тармоқларида қуёш иссиқлик таъминоти қурилмалари жорий этилмоқда, шунингдек асбоб-ускуналарни ишлаб чиқариш, лойиҳалаш, ўрнатиш, ишга тушириш ҳамда таъмирлаш бўйича ихтисослаштирилган ташкилотлар фаолият юритмоқда.

Республикамиз миллий иқтисодиётида энг муҳим вазифалардан бири – қуёш энергиясидан кенг кўламда фойдаланишни таъминлаш ҳисобланади. Бутун дунё бўйлаб қуёш энергиясини иссиқлик энергиясига айлантириш ва уни иссиқлик таъминоти тизимларида асосий энергия манбаи сифатида қўллаш амалиёти кенг тарқалган. Бу жараёнда яшаш уйлари, шаҳар ва қишлоқлардағы бино-иншоотлар бир хил ҳарорат салоҳиятига эга иссиқликнинг асосий истеъмолчилари сифатида ҳисобланади. Республикамизда уй-жойларни иситишда қуёш энергиясидан фойдаланиш бўйича катта тажриба тўпланган ва етарли илмий-техник замин яратилган, жумладан:

- суюқ иссиқлик ташувчиси (СИТ)ни иситиш учун ясси Қуёш коллекторларининг (ЯҚК) иссиқлик таъминоти тизимлари (ИТТ)нинг асосий элементларини кичик серияли ишлаб чиқариш;

- экспериментал, индивидуал ва жамоавий Қуёш иссиқ сув таъминоти тизимлари яратилган (ҚИСТ);


- бир гуруҳ, якка ва кўп қаватли бинолар, саноат корхоналари, шунингдек, кичик маҳалла ва қишлоқларни иссиқ сув билан таъминлаш учун ишлаб чиқилган Қуёш-ёқилғи қозонлари;

-инсоляцион пассив Қуёш иситиш тизимига эга бўлган кичик ўлчамли тажриба уйлари (лабораториялар) ишлаб чиқилди ва синовдан ўтказилди.

Яқин келажакда турар-жой объектларини иссиқлик билан таъминлашда ҚЭ дан амалий фойдаланиш кўламини кенгайтириш долзарб ҳисобланиб, унда махсус ускуналар ёрдамида пассив тизимлардан фарқли равишда ЯҚҚ томонидан ҳосил қилинган Қуёш иссиқлик энергиясидан фойдаланиш, тўплаш ва тақсимлашни тартибга солади. ҚЭдан самарали фойдаланиш туфайли пассив тизимларнинг 30-35% га нисбатан фаол ИТТ ларда улардаги ёқилғини алмаштириш коэффициенти 70-80% га етказилиши мумкин[2,3,4].

**АСОСИЙ ҚИСМ**

Мавсумий иссиқлик жамловчи Қуёш иситиш тизими таклиф этилган бўлиб, мазкур тизим йилнинг иссиқ мавсумида ортиқча иссиқликни мавсумий иссиқликни жамловчи бак аккумуляторига йиғади ва йилнинг совуқ мавсумида иситиш тизимини таъминлаш учун мўлжалланган (1-расм)[8,9,10]




**1-расм. Мавсумий иссиқлик жамловчи қуёший иссиқлик таъминоти тизими:**

Қуёш коллектори; 2-иссиқлик алмаштириш ускунаси; 3-иссиқлик алмаштиргич; 4-иссиқ сув иситиб бериш ускунаси; 5-иссиқлик алмаштиргич; 6-уч-йўлли жўмрак; 7-айлантириш насоси; 8-орқага кайтариш жўмраки; 9.10-таъминот қувурлари; 11.12-қайрилиш қувурлари; 13- мавсумий иссиқлик сақлаш идиши; 14- юқори заряд бўлими; 15-пастки заряд бўлими; 16-оқимнинг юқори бўлими; 17-оқимнинг пастки бўлими; 18.19-қувурлар; 20.21-жўмрак;

22-айланиш насоси; 23-қувур; 24-жўмрак; 25-совуқ сув таъминоти тармоғи; 26-чиқариш қувури; 27-уч-йўлли жўмрак; 28 – иссиқ сув истеъмоли қувури; 29-иссиқ сув олиш жўмраги; 30-чиқариш қувури; 31,32-жўмрак; 33- иссиқ сув қозони; 34-тартибга солувчи уч-йўлли жўмрак; 35-иссиқлик алмаштиргич; 36-иккинчи иссиқлик алмаштиргич; 37-таъминот қувури; 38-таъминот қувури; 39-жўмрак; 40-иссиқлик-истеъмол юки; 41-чиқариш қувури; 42-айланиш насоси; 43-иккинчи тартибга солувчи уч-йўлли жўмрак; 44,45-жўмрак; 46-совуқ сув таъминоти тармоғи; 47- орқага кайтариш жўмраки; 48-62-электрон ҳароратни ўлчаш сенсори ва термометрлар; 63-дастур текшируви; 64, 65-кенгайтириш идишига; 66-тўғри қувури; 67-жўмрак; 68-мембрана кенгайтириш идишига; 69-жўмрак.

Пассив ва фаол Қуёший иситиш таъминоти тизимлари (ИТТ) турлари таснифланди ва уларнинг муҳим энергетик, техник-иқтисодий кўрсаткичлари нуқтаи назардан солиштирилди ва иссиқлик-техник, экологик ва иқтисодий кўрсаткичлари ҳамда табиий ёқилғи ресурсларини қоплаш коэффициентига кўра ўзаро таққосланди (1-жадвал).

1-жадвал. Паст ҳароратли Қуёш ИТТлар таснифлари

| **Паст ҳароратли Қуёш ИТТ** | **Тизим-ларда ёқил-ғини тежаш коэффици енти** | **Тизимнинг ютуқлари** | **Тизимнинг камчиликлари** | **Тизимнинг афзалликла ри** | **Тизимнинг хавфлилик томонлари** |
|---|---|---|---|---|---|
| *Паст ҳароратли пассив Қуёш ИТТ* | 35-45% | 1. Таклиф этила-ётган тизимдан фойдаланиш бўйича лойиҳавий ечимлар мавжуд. 2. Бино ва иншоот қури-лишига катта сарф-харажат сарфланмайд. | 1. Ортиқча иссиқликни жамлаш ва мақсадли йўнал-тириш имконияти ҳар доим ҳам мавжуд эмас. 2. Лойиҳалаштириш даврида режалашти-рилиши шарт. | Тизимнинг ишлаш муддати бино иншоат яроқлилик муддати билан бир хил бўлиб ортиқча сарф-харажатлар сарфланмай ди | Тизим қўшимча иссиқлик манбаи (дублёр) сиз булутли совуқ кунларда иссиқликни таъминлаб бериш имконияти паст. |
| *Паст ҳароратли Фаол Қуёш ИТТ* | 20-35% | Қуёший-ёқилғили ИТТларини лойиҳалашти риш тизимда ёқилғини тежаш коэффициент и оширишга олиб келади ва у кенг тарқалган тизим бўлиб, лойиҳалаш, қуриш, ишлатиш бўйича кўп йиллик | 1. Қуёш сув иситиш коллекторлари, иссиқликни сақлаш бак аккумулятори ва бошқа асбоб-ускуна-лар катта маблағ ва майдон талаб қилади. 2. Фақат қуёш энергияси асосидаги ИТТ муҳандислик ечимлари етарли эмас, чунки иситиш мавсумида қуёш инсоляцияси | Тизимни эксплуатаци я қилишнинг енгиллик жиҳатлари (ишга тушириш, ўчириш, созлаш), заҳира тизимининг мавжудлиги, йилнинг совуқ мавсумида объектлар учун иситиш кўрсатгичла ри нурли- | Тизим ишлаш даври мобайнида доимий назоратни талаб қилади ва мақбул ишлаш режимлари иқлим кўсатгичлари башоратлариг а боғлиқ. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | тажриба мавжуд. | етарли эмас ва хар доим хам иқтисодий жиҳатдан оқламайди. | панелли иситиш тизимларига (30-35$^0$C) мос | |
| *Паст Ҳароратли* ***<u>уйғунлашган</u>*** *<u>Қуёш ИТТ</u>* | 60-80% | Иситиш мавсумида кафолатланган иссиқлик энер-гияси билан таъминлаб беради шу билан бирга республика иқлим шароитида автоном иситиш тизимини яратиш имконияти мавжуд. Энергия тежамкорлик ва иқтисодий самарадорлиги юқори. | Тизимга сарфланадиган бошланғич сарф-харажат юқорилиги | Замонавий техника-технология-лардан фойдаланилган ҳолда уни автоном ҳамда заҳира тизимига эга ИТТ сифатида лойиҳалаш-тириш имкони мавжуд, ва тизимни автоматлаш-тириш ва бошқариш имкониятлари мавжуд. | Иқлим кўрсатгичлари и башоратлари асосида лойиҳалаш-тирилади ва малакали мутахассисси з тизимга ўзгартириш киритиш мушкуллиги. |

**ХУЛОСА**

Иссиқлик таъминоти тизимларида амалиётда фаол иссиқлик таъминоти тизимларининг самарадорлигини баҳолаш учун бир қатор асосий техник вазифалар белгиланади:

Энг самарали иситиш тизимини (ИТ) танлаш имконини бериш, бу эса паст потенциалли иссиқликни қўллаш орқали амалга оширилади. Масалан, ҳарорати 35–45 °C бўлган иссиқ сув анъанавий 70–85 °C ҳароратдаги иситиш тизимига нисбатан самаралироқ ҳисобланади.

Танланган тизим параметрларини қуёш иссиқлик энергиясидан максимал фойдаланиш нуқтаи назаридан мувофиқлаштириш.

Тизимнинг гелиотехник қисмини оптималлаштириш, шу жумладан қуёш коллектори юзаси майдони, иссиқлик сақлаш бак-аккумуляторининг ҳажми ва иссиқлик муҳандислик ускуналарини аниқлаш.

Қуёш иссиқлик таъминотида энергияни автоматлаштирилган тарзда ишлаб чиқиш, уни тўплаш ва ишлатиш режимларини мувофиқ режалаштириш учун оддий автоматлаштириш воситаларидан фойдаланиш.

Уйғунлашган қуёш иситиш тизимига эга бинода қўйилган қўшимча ускуналарнинг инвестицияси қоплаш муддати тахминан 16,3 йилни ташкил этади. Бак-аккумуляторли уйғунлашган қуёш иситиш тизимига эга бинода эса қоплаш муддати иссиқлик ҳимоясининг даражаларига қараб 17,7; 20,18 ва 21,9 йилга тенг [5,6,7].

**Фойдаланилган адабиётлар.**

1. Д.У.Абдухамидов “Паст ҳароратли фаол қуёш иситиш тизимларини танлаш, уларнинг схемаларини асослаш ва иссиқлик параметрларини оптималлаш” техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси Автореферати. Фарғона-2023й.
2. А.У. Вохидов, К.А. Самиев, Д.У. Абдухамидов, К.Ю. Рашидов, М.Х.Дехконова. Энергоактивные оконные блоки: конструктивные решения и дизайн // Международный научный журнал «Альтернативная энергетика и экология», Август, 2022. №8 (401).
3. Н.Р.Авезова, Э.Ю.Рахимов, Н.Н.Далмурадова, Д.У.Абдухамидов, Динамика изменения показателей градусо-суток отопительного периода в Узбекистане за последние 40-лет. “Проблемы энерго-и ресурсосбережения” Ташкент 2022г. №1. 108-118 ст.
4. Н.Р.Авезова, Р.Р.Авезов, К.Ю.Рашидов, Д.У.Абдухамидов, М.Х. Дехканова “Энергетик фаол дераза блоки” фойдали модел учун патент FAP 01930 (FAP 2020 0282) 20.04.2022 й.
5. Н.Р.Авезова, К.А. Самиев, А.У.Вохидов, Э.Ю. Рахимов, К.Ю.Рашидов, Д.У.Абдухамидов, М.Х. Дехканова «Энергосберегающий оконный блок автоматизированного действия». Фойдали модел FAP 2022 0062 24.02.2022й.
6. Н.Р.Авезова, К.А. Самиев, Д.У.Абдухамидов, А.Э.Хаитмухамедов “Тўғридан-тўғри нурланиш” типидаги пассив қуёш иситиш тизимига эга бинонинг солиштирма иссиқлик характеристика (хусусият)лари ва иссиқлик-техникавий кўрсаткичларини аниқлаш услубияти. №DGU 17650 16.07.2022й.
7. Авезова Н.Р., Самиев К.А., Абдухамидов Д.У., Рашидов К.Ю. «Актив қуёш иситиш тизимига эга маъмурий ва маиший биноларнинг энергетик, экологик ва иқтисодий хоссаларини аниқлаш компьютер дастури». DGU 19465 18.11.2022й.
8. ҚМҚ 2.01.18-2018 «Бинолар ва иншоотлар иситиш, шамоллатиш ва кондициялаштириш учун энергия сарфи меъёрлари».
9. R.R. Avezov, D.U. Abdukhamidov. «On Determining the Solar Radiation Absorption Factor for Translucent Coatings of Flat Solar Plants». // Applied Solar Energy. USA. Vol. 51, No.3, pp. 232–234.
10. Патент на полезную модель № FAP 20150160 от 23.12.2015г Н.Р.Авезова, А.Г.Бугаков, А.У.Абдухамидов А.У.Вохидов. «Система солнечного теплоснабжения с сезонным аккумулированием тепла».

# ЎЗБЕКИСТОН ИҚЛИМИ ШАРОИТИДА БИНО ВА ИНШООТЛАРНИ ИССИТИШДА ҚУЁШИЙ НУРЛИ-ПАНЕЛЛИ ТИЗИМЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ

**Абдуҳамидов Дийдорбек Улуғбекович**
т.ф.б(PhD), Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги ҳузуридаги “Қайта тикланувчи энергия манбалари миллий-илмий тадқиқот институти”.
E-mail: dijdorbekabduhamidov@gmail.com
**https://doi.org/10.5281/zenodo.18206185**

**Аннотация:** Мақолада Ўзбекистон иқлими шароитида бино ва иншоатларни иситишда қуёший нурли-панелли тизимлардан самарали фойдаланиш имкониятлари таҳлил қилинган. Ушбу тизимлар анъанавий энергия манбаларини тежаш, энергия самарадорлигини ошириш ва экологик тоза энергиядан фойдаланишда муҳим аҳамият касб этади. Мақолада қуёш панеллари тизимларининг асосий конструкцияси, ишлаш принциплари ва иқтисодий самарадорлиги кўриб чиқилган. Шунингдек, турли бинолар учун қуёш энергиясини интеграциялашнинг афзалликлари ва қўлланиш имкониятлари таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** Қуёш энергияси, панелли иситиш тизими, биноларни иситиш, энергия самарадорлиги, экологик тоза энергия.

# ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОЛНЕЧНЫХ ПАНЕЛЬНЫХ СИСТЕМ ОТОПЛЕНИЯ В ЗДАНИЯХ И СООРУЖЕНИЯХ В КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация:** В статье проанализированы возможности эффективного использования солнечных панельных систем отопления в зданиях и сооружениях в климатических условиях Узбекистана. Эти системы имеют важное значение для экономии традиционных источников энергии, повышения энергоэффективности и использования экологически чистой энергии. Рассмотрены основные конструкции, принципы работы и экономическая эффективность солнечных панелей. Также проанализированы преимущества интеграции солнечной энергии в различные типы зданий и возможности её применения.

**Ключевые слова:** Солнечная энергия, панельная система отопления, отопление зданий, энергоэффективность, экологически чистая энергия.

# ADVANTAGES OF USING SOLAR PANEL HEATING SYSTEMS FOR BUILDINGS AND STRUCTURES IN THE CLIMATE CONDITIONS OF UZBEKISTAN

**Abstract:** The article analyzes the possibilities of efficient use of solar panel heating systems for buildings and structures under the climate conditions of Uzbekistan. These systems play an important role in saving conventional energy sources, increasing energy efficiency, and utilizing environmentally friendly energy. The main construction, operating principles, and economic efficiency of solar panel systems are considered. Additionally, the advantages of integrating solar energy into various types of buildings and its potential applications are analyzed.

**Keywords:** Solar energy, panel heating system, building heating, energy efficiency, environmentally friendly energy

## КИРИШ


Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 26 майдаги «2017–2021 йилларда қайта тикланувчи энергетикани янада ривожлантириш, иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада энергия самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3012 сонли қарорига асосан, ҳозирги вақтда республикамизда куз-қиш мавсумида биноларни иситишда кам харажатли, энергия тежамкор ва самарали қурилмалардан фойдаланиш, шу билан бирга нефт-газ захираларини сақлаш ва экологик тоза альтернатив энергия манбалари, айниқса қуёш энергиясидан кенг фойдаланиш энг устувор вазифалардан бири ҳисобланмоқда.

Бино ва иншоотларни иссиқлик билан таъминлаш жараёнида, бутун дунёдаги мамлакатлар қаторида, Ўзбекистонда ҳам энергия истеъмоли доимий равишда ошиб бормоқда. Хусусан, органик ёқилғининг тахминан учдан бир қисми жамоат ва саноат биноларини иситишга сарф қилинади. Шунингдек, ёқилғи маҳсулотларини қазиб чиқариш жараёни чуқурликдан қазиб олишни талаб қилади, бу эса унинг қийматини сезиларли даражада оширади. Бу ҳолат эса мамлакатимизда иқтисодиётни ривожлантиришда ёқилғи харажатларида тежамкорликни таъминлаш масаласини энг муҳим муаммолардан бирига айлантирмоқда. Бутун дунёда ёқилғи энергияси нархи доимий равишда ортиб бораётгани ва ёқилғи – табиатий бойлик эканлиги унинг чекланганлигини янада яққол кўрсатади. Шу боис, мамлакатимизда энергия самарадорлигини ошириш ва ёқилғини оқилона ишлатиш ҳар бир фуқаронинг ва ҳар бир тадбиркорнинг жавобгарлик ва гражданлик бурчи сифатида қаралади.

## АСОСИЙ ҚИСМ.

Ўзбекистон иқлими шароитида иситиш мавсумида қуёш энергиясидан самарали фойдаланиш орқали сувни иситиш ва уни аккумуляция қилиш мумкин. Янги қурилаётган ёки мавжуд биноларда анъанавий иситиш тизимларига қараганда, яъни 70–90°C ҳарорат ўрнига, паст ҳароратли (35–45°C) қуёш нурли панелли иситиш тизимлари орқали энергия тежамкор материаллар ва замонавий иситиш усулларидан фойдаланган ҳолда, иситишнинг энергия самарадорлиги сезиларли даражада оширилади[3,4,5].


Шу билан бирга, биноларни иситиш тизими ва уларнинг асбоб-ускуналари қиш мавсумида хоналарнинг ҳаво ҳароратини талаб қилинган даражада сақлаб туриш ва зарур ҳароратни таъминлаш вазифасини амалга оширади. Ушбу ҳарорат ҚМҚ 2.04.05–97 талаблари доирасида белгиланган бўлиб, барқарор сақланиши билан биргаликда, уй ичидаги барча жиҳозлар ҳамда бинонинг ички ва ташқи конструкция элементлари билан уйғунликда хизмат қилади. Бу эса нафақат инсонлар учун қулай микроклимат яратади, балки биноларнинг энергия тежамкорлиги ва самарадорлигини ҳам таъминлайди.




**1-расм. Нурли-панелли иситиш тизими ва анъанавий радиатор батареяси орқали иситиш тизими.**

1-расмда нурли-панелли иситиш тизими ва анъанавий радиатор батареяси орқали иситиш тизимлари ўртасидаги фарқлар қуйидагича:

- радиатор батареяси орқали иситиш учун иситиш элементи радиатор батареяси ҳисобланади. Бу маҳаллий иссиқлик манбаи бўлиб, унинг ҳарорати юқоридир. Илиқ ҳаво юқорига кўтарилади ва шифтда тўпланади, вақт ўтиши билан у полга томон совийди;
- нурли-панелли иситиш тизимида эса, бутун пол юзаси иситиш элементи ҳисобланади. Иссиқлик узатиш нисбатан паст ҳароратга эга бўлган катта юзадан содир бўлади. Ҳаво ҳаракати оқимлари минимал пастдан бўлади;
- одамлар оёқлари бошига нисбатан бир оз иликроқ бўлса ўзини анча яхши ҳис қилади.Булардан ташқари яна нурли-панелли иситиш тизимлари бир қанча қулайликларга эга [5].
- Панел-нурли иситиш тизимларида одатда анъанавий радиаторли иситиш тизимларидан фарқли равишда паст ҳароратли иссиқлик ташувчи, яъни 35–45°C даражасидаги сув ёки бошқа ишловчи муҳит қўлланилади. Бу паст ҳароратли ишлатиш панел-нурли тизимларнинг асосий афзалликларидан бири ҳисобланади, чунки қиш мавсумида иситиш учун 35–45°C ҳароратли энергия етказиб бериш, анъанавий 70–80°C даражадаги иситиш тизимларига қараганда, ясси қуёш коллекторларининг иссиқлик самарадорлигини деярли икки баробар оширади. Шунинг учун, қуёш энергиясини самарали йиғиш ва уни биноларни иситишда ишлатиш имкони сезиларли даражада ошади, бу эса иссиқлик тизими учун сарфланадиган энергияни ва харажатларни анча камайтиради.
- Кўриниб турибдики, панел-нурли қуёш иситиш тизимлари анъанавий ясси қуёш коллекторларига қараганда арзонроқ ва энергия тежамкорроқ ҳисобланади. Бундай тизимлар биноларни иситиш мавсумида қуёш радиациясини етарли миқдорда тўплай олади, шу билан бирга иситиш тизимининг сақлаш ва эксплуатация харажатларини сезиларли даражада камайтиради. Панел-нурли тизимлардан фойдаланиш бинода энергиянинг самарали тақсимланиши ва иссиқлик йўқотилишининг минимал даражагача қисқартирилишига олиб келади.
- Қуйидаги техник ишлар “Ташэлектромаш” МЧЖ маъмурий ва маиший биноларида қуёш иссиқ сув таъминоти тизимларини ташкил қилиш ва ишга тушириш бўйича инновацион грант асосида амалга оширилган. Ушбу ишлар давомида инсоляцион пассив ва панел-нурли қуёш иситиш тизимларининг янги схемалари ишлаб чиқилди, тестдан ўтказилди ва умумлаштирилди (2–3–4-расмлар). Бу схемалар анъанавий ёқилғи ва энергия ресурсларини тежаш имкониятини сезиларли даражада ошириб, иссиқлик таъминоти эҳтиёжлари учун сарфланадиган энергияни 50% гача ва баъзи ҳолларда ундан ҳам юқори миқдорда тежаш имконини беради.
- Шу билан бирга, панел-нурли тизимларнинг самарадорлиги нафақат энергия тежамкорликда, балки бинода қиш мавсумида ҳаво ҳароратини барқарор сақлаш ва бинода қулай микроклимат яратишда ҳам ўзини кўрсатади. Бундай тизимлар энергия самарадорлиги ва экологик тозалик талабларига жавоб беради, шу билан бирга биноларни иситишда энергия самарадорлигини янада оширади ва иситиш харажатларини анча қисқартиради.




**2-Расм. Қуёш иссиқлик таъминоти тизими билан мавсумий иссиқлик сақлаш схемаси:** 1-қуёш коллектори; 2-иссиқлик алмаштириш ускунаси; 3-иссиқлик алмаштиргич; 4-иссиқ сув иситиб бериш ускунаси; 5-иссиқлик алмаштиргич; 6-уч-йўлли клапан; 7-айлантириш насоси; 8-орқага қайтариш клапани; 9, 10 -таъминот қувурлари; 11.12-қайрилиш қувурлари; 13- мавсумий иссиқлик сақлаш идиши; 14- юқори заряд бўлими; 15-пастки заряд бўлими; 16-бакдан сувнинг чиқиши; 17-бакка сувнинг кириши; 18, 19-қувурлар; 20, 21-вентиллар; 22-айланиш насос; 23-қувурлар; 24-вентиль; 25-совуқ сув таъминоти тармоғи; 26-чиқариш қувури; 27-уч-йўлли клапан; 28 - сув истеъмол қувури; 29-иссиқ сув олиш крани; 30-чиқариш қувури; 31,32-вентиллар; 33-заҳира иссиқ сув қозони; 34-тартибга солувчи уч-йўлли клапан; 35-иссиқлик алмаштиргич; 36-иккинчи иситгич; 37-таъминот қувури; 38-иссиқлик алмаштиргичдан чиқиш қувури; 39-вентиль; 40-иссиқлик истеъмоли юки; 41-чиқариш қувури; 42-айланиш насоси; 43-иккинчи тартибга солувчи уч-йўлли клапан; 44,45-вентиль; 46- совуқ сув таъминоти тармоғи қувури; 47-қайтариш клапани; 48-62-электрон ҳарорат ўлчаш мосламаси (датчики); 63-дастур текшируви; 64,65-кенгайтириш идишига; 66-байпас қувури; 67-вентиль; 68-мембранали кенгайтириш идиши; 69-вентиль. [5].

Иш жараенида ясси қуёший сув иситиш коллекторлари ва абсорберлар ёрдамида иссиқ сув ва иситиш тизимларининг экспериментал тажриба ишлари олиб борилди. Тадқиқот натижасида, ясси нур ютувчи коллекторлар ёрдамида мавсумий иссиқ сув тизимлари, мавсумий нурли-панеллли иситиш тизимлари, кўп функцияли уч қатламли энергия тежамкор ойна блоклари ёрдамида инсоляцион пассив иситиш тизимлари биринчи марта яратилди ва амалиётга жорий килинди.



**3-расм. Мавсумий иссиқлик сақлаш бак аккумулятори**



**4-расм. Бинонинг ички томонидан иссиқ пол ва деворларнинг иссиқлик изоляция материаллари билан қопланиш жараёнлари**

**ХУЛОСА**

Ўтказилган илмий тадқиқотлар ва жорий қилинган ишланмаларга асосланиб қуйидагиларни хулоса қилиш мумкин:

1). Ўзбекистон иқлими шароитида бинолар ва иншоатларни иситишда қуёш нурли-панелли тизимлардан кенг фойдаланиш энергия самарадорлигини сезиларли даражада ошириш имконини беради. Паст ҳароратли (35–45°C) панел-нурли иситиш тизимлари анъанавий 70–90°C тизимларга нисбатан иссиқлик самарадорлигини деярли икки баробар юқори қилади, шу билан бирга энергия сарфини ва иситиш харажатларини камайтиради. Бу эса республикамизда энергия ресурсларини оқилона тақсимлаш ва нефть-газ захираларини тежашга ёрдам беради.

2). Панел-нурли қуёш иситиш тизимлари нафақат энергия самарадорлигини оширади, балки бинода барқарор микроклимат яратиш ва қиш мавсумида хоналарнинг ҳаво ҳароратини талаб даражасида сақлаш вазифасини ҳам самарали бажаради. Ушбу тизимлар биноларнинг ички ва ташқи конструкция элементлари билан уйғунлашувини таъминлайди, бу эса бинода қулайлик ва энергетик тежамкорликни бир вақтда таъминлайди.

3). Инсон ва иқтисодиёт манфаати учун қуёш нурли-панелли иситиш тизимларининг интеграцияси экологик нуқтаи назардан ҳам муҳим аҳамиятга эга. Бу тизимлар анъанавий ёқилғи ресурсларидан фойдаланишни қисқартириб, атмосферага чиқариладиган чиқиндиларни камайтиради. Шу билан бирга, қиш мавсумида иситишда қуёш

радиациясини максимал даражада йиғиш ва энергия сақлаш имконияти туфайли экологик тоза энергия манбаси сифатида ўзини намоён этади.

4). Жорий қилинган тадқиқотлар ва техник ишланмалар панел-нурли қуёш иситиш тизимларининг иқтисодий самарадорлигини ҳам кўрсатди. Янги схемалар ва мавсумий иссиқлик сақлаш аккумуляторлари орқали иситиш тизимлари анъанавий ёқилғи ва энергия ресурсларини 50% гача ва баъзи ҳолларда ундан ҳам юқори миқдорда тежаш имконини беради. Бу эса биноларни иситиш жараёнида инвестицияларнинг қайтарилиши ва энергия тежамкорлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон иқлими шароитида бино ва иншоатларни иситишда қуёший нурли-панелли тизимлардан кенг кўламда фойдаланиш инсонларнинг соғлиги, ёқилғи энергетика тизимида энергия тежамкорлигига, экологик нуқтаи назардан табиатга ижобий таъсири ва яна бир қанча афзалликларга эгалиги билан ҳар доим илмий изланувчилар ва амалиётчилар учун энг асосий вазифалардан бири бўлиб қолаверади.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Р.Р.Авезов, А.Ю.Орлов, « Солнечные системы отопления и горячего водоснабжения». Ташкент:: Фан,1988. 285с
2. Г.В.Колпаков Вопросы лучистого отопления. М: Архитектуры и Градостроительства, 1951
3. С.М. Бобоев, Ғ.Ш.Шукуров, Қ.У.Бурлиев, М.Р.Исмонхаджаева “Биноларни иситиш” Тошкент 2006. 300 бет.
4. Миссенар, « Лучистое отопление и охлаждение». –М: 1961
5. Авезова Н.Р., Абдуҳамидов Д.У.,Бугаков А.Г, Вохидов А.У. **№FAP01157** от 08.11.2016 г. «Систем солнечного теплоснабжения с сезонным аккумулированием тепла».
6. https://stroidvor.ru/wp-content/uploads/2019/12

# 06.00.00 – Qishloq xo’jaligi fanlari

# 06.00.00 – Agricultural sciences

# 06.00.00 – Сельскохозяйственные науки

UDK.631.4

# SIRDARYO VILOYATI SUG‘ORILADIGAN O‘TLOQI-BO‘Z TUPROQLARINING SHO‘RLANGANLIK HOLATI

**Qodirova Dilrabo Abdukarimovna**
TDAU, O‘simliklar himoyasi, agrokimyo va tuproqshunoslik fakulteti, Agrokimyo va tuproqshunoslik kafedrasi professori, biologiya fanlari doktori
E-mail: d.qodirova@inbox.ru
**Umirova Umida Kushak Qizi**
TDAU, Agrokimyo va tuproqshunoslik kafedrasi tayanch doktoranti
E-mail: umirova.u20@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.18060613

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Sirdaryo viloyati Xovos tumani sug‘oriladigan maydonlarida tarqalgan o‘tloqi-bo‘z tuproqlarning sho‘rlanish holati, sho‘rlanish turlari va darajalari kimyoviy tahlillar asosida o‘rganilgan. Tadqiqotlar davomida tuproq eritmasidagi asosiy kationlar ($Na^+$, $Ca^{2+}$, $Mg^{2+}$) va anionlar ($Cl^-$, $SO_4^{2-}$, $HCO_3^-$, $CO_3^{2-}$) miqdori aniqlanib, ularning nisbatiga ko‘ra sho‘rlanish tipi va darajasi baholandi.

**Kalit so‘zlari:** Sho‘rlanish, sug‘oriladigan tuproqlar, o‘tloqi-bo‘z tuproqlar,quruq qoldiq, sulfatli sho‘rlanish, xlor–sulfatli sho‘rlanish, natriy ionlari, tuproq eritmasi.

# ЗАСОЛЕННОСТЬ ОРОШАЕМЫХ ЛУГОВЫХ СЕРЫХ ПОЧВ СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

**Аннотация:** В данной статье на основе химических анализов изучено состояние засоления, типы и степени засоленности лугово-серозёмных почв, распространённых на орошаемых землях Хавасского района Сырдарьинской области. В ходе исследований определено содержание основных катионов почвенного раствора ($Na^+$, $Ca^{2+}$, $Mg^{2+}$) и анионов ($Cl^-$, $SO_4^{2-}$, $HCO_3^-$, $CO_3^{2-}$), на основании соотношения которых проведена оценка типа и степени засоления почв.

**Ключевые слова:** Засоление, орошаемые почвы, лугово-серозёмные почвы, сухой остаток, сульфатное засоление, хлоридно-сульфатное засоление, ионы натрия, почвенный раствор.

# SALINITY STATUS OF IRRIGATED MEADOW-GRAY SOILS IN THE SYRDARYA REGION

**Abstract:** This article examines the salinity status, types, and degrees of salinization of meadow-gray soils distributed in the irrigated areas of Khovos District, Syrdarya Region, based on chemical analyses. During the study, the concentrations of the main cations in the soil solution ($Na^+$, $Ca^{2+}$, $Mg^{2+}$) and anions ($Cl^-$, $SO_4^{2-}$, $HCO_3^-$, $CO_3^{2-}$) were determined, and the type and degree of soil salinization were assessed based on their ratios.

**Keywords:** Salinization, irrigated soils, meadow-gray soils, dry residue, sulfate salinity, chloride–sulfate salinity, sodium ions, soil solution.

## KIRISH

Hozirgi davrda global ekologik muammolar tobora keskinlashib borar ekan, tuproqni degradatsiya jarayonlaridan asrash masalasi butun jahon miqyosida eng muhim va dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Sho‘rlanish – sug‘oriladigan hududlar tuproqlari

unumdorligini cheklovchi eng muhim degradatsion jarayonlardan biri bo‘lib, ayniqsa Sirdaryo viloyati sharoitida bu holat tabiiy-iqlimiy omillar, yer osti suvlari sathi va minerallashuvi, sug‘orish rejimining buzilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tuproq sho‘rlanishining kelib chiqishi tabiiy va antropogen omillar bilan bog‘liq. Tabiiy sho‘rlanish asosan grunt suvlarining yuqori darajada joylashuvi, bug‘lanish jarayonining ustunligi va sho‘r jinslarning mavjudligi bilan belgilanadi. Antropogen sho‘rlanish esa noto‘g‘ri sug‘orish rejimi, drenaj tizimlarining yetarli darajada ishlamasligi, ortiqcha sug‘orish natijasida grunt suvlarining ko‘tarilishi va mineral o‘g‘itlarning me’yoridan ortiq qo‘llanilishi oqibatida yuzaga keladi.

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida, xususan O‘zbekistonda tuproqning sho‘rlanishi, turlari, kelib chiqish sabablari hamda oqibatlar bir necha olimlar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Umuman olganda sho‘rlangan tuproqlar, ularning tarqalishi haqidagi dastlabki ilmiy ma’lumotlar A.M.Midendorf, G.R.Romanovskiy; sho‘rlangan tuproqlarning geografik tarqalishi, sho‘rlanish sabablari, ularning xususiyatlarini o‘rganishda S.Zaxarov, S.S.Neustruyev, N.A.Dimo, tuzlar geokimyosini o‘rganishda V.A.Kovda, V.V.Yegorov va boshqa olimlar katta hissa qo‘shgan [116; 8-b.].

## TADQIQOT MATERIALLARI VA USLUBLARI

Tadqiqot obyekti sifatida Sirdaryo viloyatining sug‘oriladigan maydonlarida joylashgan o‘tloqi-bo‘z tuproqlar olingan bo‘lib, tadqiqod “Markaziy Osiyo tuproqlari va o'simliklar qoplamini agrokimyoviy tahlil qilish uslublari” [2], “Tuproqlarni kimyoviy tahlil qilish bo'yicha qo'llanma” [3], “Tuproq kimyosidan amaliy mashg‘ulotlar” [4] qo‘llanmalaridan foydalanildi hamda tadqiqot vaqtida genetik-geografik, solishtirma–kimyoviy analitik hamda profil usullaridan foydalanildi.

## NATIJALAR VA MUNOZARA

Sho‘rlangan tuproqlarda eritma tarkibidagi asosiy ionlar — $Na^+$, $Ca^{2+}$, $Mg^{2+}$ kationlari hamda $Cl^-$, $SO_4^{2-}$, $HCO_3^-$ va $CO_3^-$anionlaridir. Ushbu ionlarning miqdoriy va sifat jihatdan o‘zaro nisbatiga qarab sho‘rlanish turi (xloridli, sulfatli, xlorid-sulfatli, sulfat-xloridli) va sho‘rlanish darajasi aniqlanadi. Natriy kationining ustunligi tuproq singdirish kompleksining dispersiyalanishiga olib kelib, agregatlarning yemirilishi, suv o‘tkazuvchanlikning pasayishi va qattiq zichlashish kabi salbiy jarayonlarni yuzaga chiqaradi.

Sug‘oriladigan hududlarda tuproq sho‘rlanishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy ekologik-meliorativ muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa Mirzacho‘l mintaqasiga kiruvchi Sirdaryo viloyatida tabiiy-geografik sharoitlar, kuchli bug‘lanish, sizot suvlarining nisbatan yuza joylashuvi hamda uzoq yillar davomida olib borilgan sug‘orish ishlari natijasida sho‘rlanish jarayonlari keng tarqalgan.

Ma’lumki, Sirdaryo viloyatida jami 266,7 ming gektar sug‘oriladigan yer maydonlaridan 211,4 ming gektar (79,3%) turli darajada sho‘rlangan, shundan 39,8% kuchsiz, 30,4% o‘rta, 6,4% kuchli va 2,7% juda kuchli darajada sho‘rlanganligini aniqlangan [116; 312-b.].

Tahlil natijalari asosida tuproqdagi quruq qoldiq miqdori bo‘yicha o‘rganilayotgan tuproqlarning sho‘rlanish darajalari va xlor hamda sulfat ionlari miqdorining nisbati asosida sho‘rlanish turi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari Xovos tumani tuproqlarida sho‘rlanish darajasi kesmalar va qatlamlar bo‘yicha keskin farqlanishini ko‘rsatdi. Quruq qoldiq miqdori kesmalar qatlamlarida 0,80–5,7 % gacha yetib, kuchsiz sho‘rlanishdan **juda kuchli sho‘rlanishgacha bo‘lgan** holatni ifodaladi. Ayniqsa, 1-kesmada 0–120 sm chuqurlik oralig‘ida sho‘rlanish darajasi deyarli barcha qatlamlarda

juda kuchli bo‘lib, bu hududda tuzlarning vertikal bo‘yicha faol migratsiyasi va to‘planishini ko‘rsatadi.

Aksincha, ayrim kesmalarda (30, 50, 60-kesmalar) chuqurlashgan sari sho‘rlanish darajasining pasayishi kuzatildi. Bu holat sho‘rlangan qatlamlarning asosan tuproq profilining yuqori qismida to‘planganini va ayrim joylarda yuvilish jarayonlari nisbatan faol kechayotganini bildiradi.

Sho‘rlangan tuproqlar tarkibidagi xlor va sulfat ionlari miqdori bo‘yicha asosiy yetakchi anion sifatida **$SO_4^{2-}$ (sulfat)** ionlari ustunligi aniqlandi.

Sulfat ionlarining miqdori qatlamlarda 14,50–36,83 mg·ekv gacha yetib, umumiy anion tarkibida yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu holat Xovos tumani tuproqlarida sho‘rlanishning asosan **sulfatli** xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi.

$Cl^-$ (xlor) (0,2-17,57) ionlari ayrim qatlamlarda, xususan juda kuchli sho‘rlangan qatlamlarda sezilarli miqdorda uchrab, sho‘rlanish tipining **xlor–sulfatli (X–S)** ga o‘tishiga sabab bo‘lgan (1-kesma). Ushbu qatlamlarda quruq qoldiqning profil bo‘ylab 3,035-5,73% ga oshib borishini kuzatishimiz mumkin. Shunga muvofiq ravishda ionlarning umumiy ulushi, ya’ni komponentlar yig‘indisi ham qatlamlar bo‘yicha o‘zgarib boradi.

$HCO_3^-$ ionlarining barcha qatlamlarda past miqdorda bo‘lishi sodali sho‘rlanish jarayonlari ushbu hudud uchun xos emasligini ko‘rsatadi.

**1-jadval. Xovos tumani “E.Qahhorov” massivi tuproqlarining sho‘rlanganlik holati**

| Kesma № | Qatlam chuqurlik, sm | Quruq qoldiq, % | $HCO_3$ | $Cl^-$ | $SO_4^{--}$ | $Ca^{++}$ | $Mg^{++}$ | anion-kation | $Na^+$ | | Komp. yig‘in., % | Sho‘rlanish | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | mg.ekv | % | | tipi | darajasi |
| 1 | 0-26 | 3,035 | 0,037 | 0,193 | 1,659 | 0,23 | 0,060 | 40,59 | 24,17 | 0,556 | 2,735 | S | Juda kuchli |
| | | | 0,6 | 5,43 | 34,56 | 11,48 | 4,94 | 16,42 | | | | | |
| | 26-47 | 4,795 | 0,031 | 0,473 | 2,455 | 0,25 | 0,114 | 64,96 | 43,10 | 0,991 | 4,314 | X-S | Juda kuchli |
| | | | 0,5 | 13,32 | 51,14 | 12,48 | 9,38 | 21,86 | | | | | |
| | 47-84 | 4,165 | 0,027 | 0,455 | 2,065 | 0,225 | 0,090 | 56,29 | 37,66 | 0,866 | 3,728 | S | Juda kuchli |
| | | | 0,45 | 12,83 | 43,01 | 11,23 | 7,41 | 18,63 | | | | | |
| | 84-120 | 5,730 | 0,027 | 0,623 | 2,823 | 0,53 | 0,003 | 76,82 | 50,13 | 1,153 | 5,159 | X-S | Juda kuchli |
| | | | 0,45 | 17,57 | 58,80 | 26,45 | 0,25 | 26,69 | | | | | |
| 20 | 0-26 | 1,345 | 0,024 | 0,067 | 0,776 | 0,24 | 0,054 | 18,44 | 2,02 | 0,046 | 1,207 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,40 | 1,88 | 16,16 | 11,98 | 4,44 | 16,42 | | | | | |
| | 26-46 | 2,580 | 0,021 | 0,049 | 1,56 | 0,285 | 0,060 | 34,23 | 15,07 | 0,347 | 2,322 | S | Kuchli |

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 0,35 | 1,38 | 32,49 | 14,22 | 4,94 | 19,16 | | | | | |
| | 46-85 | 1,620 | 0,021 | 0,056 | 0,956 | 0,165 | 0,063 | 21,84 | 8,42 | 0,194 | 1,455 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,35 | 1,58 | 19,91 | 8,23 | 5,18 | 13,42 | | | | | |
| | 85-115 | 1,330 | 0,027 | 0,02 | 0,78 | 0,16 | 0,042 | 17,67 | 6,23 | 0,143 | 1,189 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,45 | 0,79 | 16,43 | 7,98 | 3,46 | 11,44 | | | | | |
| 30 | 0-26 | 0,995 | 0,034 | 0,018 | 0,589 | 0,17 | 0,018 | 13,31 | 3,35 | 0,077 | 0,906 | S | Kuchsiz |
| | | | 0,55 | 0,49 | 12,27 | 8,48 | 1,48 | 9,96 | | | | | |
| | 26-44 | 1,560 | 0,021 | 0,014 | 0,955 | 0,3 | 0,042 | 20,64 | 2,21 | 0,051 | 1,383 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,35 | 0,39 | 19,89 | 14,97 | 3,46 | 18,43 | | | | | |
| | 44-80 | 1,520 | 0,031 | 0,021 | 0,908 | 0,32 | 0,009 | 20,01 | 3,30 | 0,076 | 1,365 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,50 | 0,59 | 18,91 | 15,97 | 0,74 | 16,71 | | | | | |
| | 80-115 | 1,030 | 0,031 | 0,014 | 0,612 | 0,145 | 0,033 | 13,64 | 3,69 | 0,085 | 0,920 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,50 | 0,39 | 12,75 | 7,24 | 2,72 | 9,95 | | | | | |
| 50 | 0-26 | 1,350 | 0,037 | 0,014 | 0,826 | 0,28 | 0,036 | 18,20 | 1,27 | 0,029 | 1,222 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,60 | 0,39 | 17,21 | 13,97 | 2,96 | 16,93 | | | | | |
| | 26-46 | 1,040 | 0,027 | 0,011 | 0,643 | 0,195 | 0,051 | 14,14 | 0,21 | 0,005 | 0,932 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,45 | 0,30 | 13,39 | 9,73 | 4,20 | 13,93 | | | | | |
| | 46-85 | 1,060 | 0,034 | 0,007 | 0,653 | 0,17 | 0,042 | 14,35 | 2,41 | 0,055 | 0,961 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,55 | 0,20 | 13,60 | 8,48 | 3,46 | 11,94 | | | | | |
| | 85-115 | 0,840 | 0,027 | 0,011 | 0,498 | 0,13 | 0,009 | 11,12 | 3,89 | 0,090 | 0,765 | S | Kuchsiz |
| | | | 0,45 | 0,30 | 10,37 | 6,49 | 0,74 | 7,23 | | | | | |
| 60 | 0-27 | 1,435 | 0,034 | 0,018 | 0,856 | 0,225 | 0,015 | 18,87 | 6,41 | 0,147 | 1,295 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,55 | 0,49 | 17,83 | 11,23 | 1,23 | 12,46 | | | | | |
| | 27-48 | 1,640 | 0,092 | 0,011 | 0,962 | 0,29 | 0,015 | 21,83 | 6,13 | 0,141 | 1,511 | S | O‘rtacha |
| | | | 1,50 | 0,30 | 20,04 | 14,47 | 1,23 | 15,71 | | | | | |
| | 48-82 | 0,805 | 0,0305 | 0,011 | 0,496 | 0,095 | 0,063 | 11,13 | 1,20 | 0,028 | 0,723 | S | Kuchsiz |

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 0,50 | 0,30 | 10,33 | 4,74 | 5,18 | 9,93 | | | | | |
| | 82-110 | 1,060 | 0,037 | 0,011 | 0,632 | 0,2 | 0,015 | 14,06 | 2,85 | 0,065 | 0,96 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,60 | 0,30 | 13,16 | 9,98 | 1,23 | 11,21 | | | | | |

**2-jadval. Xovos tumani “E.Qahhorov” massivi tuproqlarining sho‘rlanganlik holati**

| Kesma № | Qatlam chuqurlik, sm | Quruq qoldiq, % | $HCO_3$ | $Cl^-$ | $SO^{--}_4$ | $Ca^{++}$ | $Mg^{++}$ | anion-kation | $Na^+$ | | Komp. yig‘in., % | Sho‘rlanish | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | mg.ekv | % | | tipi | darajasi |
| 70 | 0-25 | 1,610 | 0,024 | 0,032 | 0,987 | 0,285 | 0,069 | 21,85 | 1,95 | 0,045 | 1,442 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,40 | 0,89 | 20,56 | 14,22 | 5,68 | 19,90 | | | | | |
| | 25-49 | 1,600 | 0,031 | 0,032 | 0,977 | 0,28 | 0,060 | 21,74 | 2,83 | 0,065 | 1,445 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,50 | 0,89 | 20,35 | 13,97 | 4,94 | 18,91 | | | | | |
| | 49-67 | 1,560 | 0,018 | 0,025 | 0,966 | 0,29 | 0,063 | 21,11 | 1,46 | 0,034 | 1,396 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,30 | 0,69 | 20,12 | 14,47 | 5,18 | 19,66 | | | | | |
| | 67-89 | 1,605 | 0,024 | 0,028 | 0,990 | 0,3 | 0,069 | 21,81 | 1,16 | 0,027 | 1,438 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,40 | 0,79 | 20,62 | 14,97 | 5,68 | 20,65 | | | | | |
| | 89-150 | 1,570 | 0,018 | 0,011 | 0,986 | 0,28 | 0,057 | 21,13 | 2,47 | 0,057 | 1,409 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,30 | 0,30 | 20,54 | 13,97 | 4,69 | 18,66 | | | | | |
| 80 | 0-28 | 1,465 | 0,015 | 0,011 | 0,912 | 0,275 | 0,045 | 19,54 | 2,12 | 0,049 | 1,307 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,25 | 0,30 | 19,00 | 13,72 | 3,70 | 17,43 | | | | | |
| | 28-46 | 3,020 | 0,031 | 0,123 | 1,768 | 0,3 | 0,111 | 40,78 | 16,68 | 0,384 | 2,717 | S | Juda kuchli |
| | | | 0,50 | 3,45 | 36,83 | 14,97 | 9,14 | 24,11 | | | | | |
| | 46-82 | 3,010 | 0,027 | 0,112 | 1,759 | 0,29 | 0,096 | 40,25 | 17,88 | 0,411 | 2,695 | S | Juda kuchli |
| | | | 0,45 | 3,16 | 36,64 | 14,47 | 7,90 | 22,37 | | | | | |
| | 82-125 | 2,960 | 0,034 | 0,112 | 1,745 | 0,265 | 0,114 | 40,06 | 17,45 | 0,401 | 2,671 | S | Kuchli |
| | | | 0,55 | 3,16 | 36,35 | 13,22 | 9,38 | 22,61 | | | | | |
| 90 | 0-25 | 1,520 | 0,027 | 0,007 | 0,935 | 0,305 | 0,021 | 20,12 | 3,18 | 0,073 | 1,368 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,45 | 0,20 | 19,48 | 15,22 | 1,73 | 16,95 | | | | | |
| | 25-44 | 1,545 | 0,024 | 0,011 | 0,956 | 0,315 | 0,033 | 20,61 | 2,18 | 0,050 | 1,389 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,40 | 0,30 | 19,91 | 15,72 | 2,72 | 18,43 | | | | | |
| | 44-76 | 1,465 | 0,021 | 0,014 | 0,916 | 0,285 | 0,054 | 19,83 | 1,16 | 0,027 | 1,317 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,35 | 0,39 | 19,08 | 14,22 | 4,44 | 18,67 | | | | | |
| | 76-110 | 1,510 | 0,034 | 0,014 | 0,936 | 0,3 | 0,054 | 20,44 | 1,03 | 0,024 | 1,362 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,55 | 0,39 | 19,50 | 14,97 | 4,44 | 19,41 | | | | | |
| 110 | 0-22 | 1,480 | 0,031 | 0,007 | 0,918 | 0,255 | 0,042 | 19,82 | 3,64 | 0,084 | 1,337 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,50 | 0,20 | 19,12 | 12,72 | 3,46 | 16,18 | | | | | |
| | 22-45 | 1,550 | 0,031 | 0,039 | 0,926 | 0,305 | 0,042 | 20,87 | 2,20 | 0,051 | 1,394 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,50 | 1,09 | 19,29 | 15,22 | 3,46 | 18,68 | | | | | |
| | 45-85 | 1,140 | 0,031 | 0,011 | 0,696 | 0,27 | 0,021 | 15,29 | 0,09 | 0,002 | 1,031 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,50 | 0,30 | 14,50 | 13,47 | 1,73 | 15,20 | | | | | |
| | 85-130 | 1,420 | 0,024 | 0,018 | 0,868 | 0,3 | 0,042 | 18,97 | 0,55 | 0,013 | 1,265 | S | O‘rtacha |

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 0,40 | 0,49 | 18,08 | 14,97 | 3,46 | 18,43 | | | | | |
| 120 | 0-18 | 2,655 | 0,027 | 0,060 | 1,606 | 0,3 | 0,078 | 35,58 | 14,19 | 0,326 | 2,397 | S | Kuchli |
| | | | 0,45 | 1,68 | 33,45 | 14,97 | 6,42 | 21,39 | | | | | |
| | 18-39 | 2,240 | 0,031 | 0,053 | 1,356 | 0,3 | 0,069 | 30,23 | 9,58 | 0,220 | 2,029 | S | Kuchli |
| | | | 0,50 | 1,48 | 28,25 | 14,97 | 5,68 | 20,65 | | | | | |
| | 39-85 | 1,575 | 0,024 | 0,039 | 0,965 | 0,29 | 0,069 | 21,59 | 1,44 | 0,033 | 1,42 | S | O‘rtacha |
| | | | 0,40 | 1,09 | 20,10 | 14,47 | 5,68 | 20,15 | | | | | |

Kationlar tarkibida **$Na^+$ ionlarining yuqori ulushi** ayrim kesmalarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Natriy ionlarining ko‘pligi tuproq strukturasining yemirilishiga, suv-fizik xossalarining yomonlashuviga hamda tuproqning agroekologik holatini pasayishiga olib keladi.

$Ca^{2+}$ va $Mg^{2+}$ ionlarining mavjudligi, ayniqsa o‘rtacha sho‘rlangan qatlamlarda, tuproqning muayyan darajada barqaror holatini ta’minlaydi. Bu holat tuproqlarning to‘liq sho‘rtoblashmaganini va meliorativ tadbirlar yordamida ularning holatini yaxshilash imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

**XULOSA**

Sirdaryo viloyati Xovos tumani sho‘rlangan tuproqlarining kimyoviy tahlili shuni ko‘rsatdiki, hudud tuproqlari asosan **sulfatli va xlor–sulfatli sho‘rlanish tipiga mansub bo‘lib**, sho‘rlanish darajasi qatlamlar va kesmalar bo‘yicha keskin farqlanadi. Yuqori va o‘rta qatlamlarda tuzlarning to‘planishi kuchli bug‘lanish va sizot suvlarining ta’siri bilan bog‘liq. Natriy ionlarining ustunligi tuproq unumdorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, meliorativ choralarni ilmiy asosda amalga oshirish zarurligini taqozo etadi.

**Adabiyotlar:**

1. Jabborov O.A. Sug'oriladigan tuproqlar unumdorligi dinamikasi va uni oshirish yo'llari. Avtoreferat. 2021. -41 b
2. **Dimo N.A. – “Очерк природных условий и почв Голодной степи.”** Toshkent: O‘rta Osiyo davlat nashriyoti, 1933.
3. **Kovda V.A. – “Происхождение и режим засоленных почв”. Том I** Москва. Издательство Академии наук СССР **1946**
4. «Markaziy Osiyo tuproqlari va o'simliklar qoplamini agrokimyoviy tahlil qilish uslublari» Toshkent, 1977
5. Ye.Arinushkina «Tuproqlarni kimyoviy tahlil qilish bo'yicha qo'llanma» Moskva, 1970

# 08.00.00 – Iqtisodiyot fanlari

# 08.00.00 – Economics

# 08.00.00 – Экономика

# XODIMLAR O‘RTASIDAGI KELISHMOVCHILIKLARNI HAL ETISHDA LIDERLIK YONDASHUV

**Suvonova Yulduz Suyunovna**
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining Biznesni boshqarish (Liderlik) – 1-guruh magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.17953872

**Annotatsiya:** Maqolada tashkilotlarda xodimlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni samarali hal etishda liderlik yondashuvlarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinган. Kelishmovchiliklar mehnat jamoalarida tabiiy holat sifatida qaralib, ularni to‘g‘ri boshqarish orqali jamoadagi o‘zaro ishonch, hamkorlik va mehnat unumdorligini oshirish mumkinligi ta’kidlanган. Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, transformatsion va xizmatga yo‘naltirilgan liderlik yondashuvlari jamoada ijobiy psixologik muhitni shakllantirish hamda kelishmovchiliklarni konstruktiv tarzda hal etishga ko‘proq hissa qo‘shadi.

**Kalit so‘zlar:** liderlik yondashuvi, kelishmovchiliklarni boshqarish, mehnat jamoasi munosabatlari, tashkiliy xulq-atvor, samimiy muloqot, tashkiliy muhit, motivatsiya va rag‘batlantirish, transformatsion liderlik, mojarolarni oldini olish, xodimlar o‘rtasidagi munosabatlar, korxona samaradorligi.

# РУКОВОДЯЩИЙ ПОДХОД К РАЗРЕШЕНИЮ СПОРОВ МЕЖДУ СОТРУДНИКАМИ

**Аннотация:** В статье анализируются роль и значение подходов к лидерству в эффективном разрешении конфликтов между сотрудниками в организациях. Подчеркивается, что конфликты считаются естественным явлением в коллективах, и правильное управление ими позволяет повысить взаимное доверие, сотрудничество и производительность труда в коллективе. Результаты исследования свидетельствуют о том, что трансформационный и сервисно-ориентированный подходы к лидерству в большей степени способствуют формированию позитивной психологической обстановки в коллективе и конструктивному разрешению конфликтов.

**Ключевые слова:** подход к лидерству, управление конфликтами, командная работа, организационное поведение, открытое общение, организационный климат, мотивация и поощрение, трансформационное лидерство, предотвращение конфликтов, трудовые отношения, эффективность предприятия.

# GUIDELINES FOR RESOLVING DISPUTES BETWEEN EMPLOYEES

**Abstract:** This article analyzes the role and importance of leadership approaches in effectively resolving conflicts between employees in organizations. It emphasizes that conflicts are considered a natural occurrence in teams, and their proper management helps increase mutual trust, cooperation, and productivity within the team. The study's findings indicate that transformational and service-oriented leadership approaches are more conducive to fostering a positive psychological climate within the team and constructive conflict resolution.

**Keywords:** approach to leadership, conflict management, teamwork, organizational behavior, open communication, organizational climate, motivation and encouragement, transformational leadership, conflict prevention, labor relations, enterprise performance.

**KIRISH**

Har qanday tashkilotda insonlar o‘zaro fikr, manfaat va vazifalar farqidan kelib chiqqan holda kelishmovchiliklarga duch keladilar. Bunday holatlar tabiiy jarayon bo‘lib, ularni samarali boshqarish tashkilotning barqaror faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, rahbarning (liderning) kelishmovchiliklarni hal etishdagi roli beqiyosdir. Zamonaviy liderlik yondashuvlari nafaqat muammoni bartaraf etish, balki jamoada o‘zaro ishonch va hamjihatlik muhitini yaratishni ham nazarda tutadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Tashkilotlarda inson resurslari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar mehnat jarayonining tabiiy bir qismidir. So‘nggi yillarda boshqaruv psixologiyasi va liderlik nazariyalarida e’tibor aynan konfliktlarni samarali hal etish, jamoaviy muhitni barqarorlashtirish hamda ijobiy psixologik iqlimni shakllantirish masalalariga qaratilmoqda.

Bass, 1990; Northouse, 2021 yilda ta’kidlashicha, liderlik — bu nafaqat maqsadlarga erishishni boshqarish, balki insonlar o‘rtasidagi nizolarni boshqarish san’atidir.

Burns, 1978; Bass & Avolio, 1994 yilda liderning empatiya, motivatsiya va shaxslararo muloqot ko‘nikmalari kelishmovchiliklarni konstruktiv yo‘l bilan hal etishda hal qiluvchi omil sifatida ko‘riladi.

Thomas va Kilmann (1974) tomonidan ishlab chiqilgan konfliktni boshqarish modeli besh asosiy yondashuvni ko‘rsatadi: raqobat, murosa, hamkorlik, moslashuv va chekinish. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali liderlar ko‘proq hamkorlik (collaboration) yondashuvini tanlaydilar, chunki bu usul har ikki tomon manfaatlarini hisobga olish imkonini beradi (Rahim, 2002).

Goleman (1998) o‘z tadqiqotlarida emotsional intellekt darajasi yuqori bo‘lgan rahbarlar konfliktlarni yumshoq, diplomatik yo‘l bilan hal etishda muvaffaqiyatli bo‘lishlarini isbotlagan. Bunday liderlar xodimlarning hissiy holatini tushuna oladi, salbiy his-tuyg‘ularni nazorat qiladi ва muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

Karimov, 2019; Mavlonova, (2021) O‘zbekiston sharoitida rahbarlarning ko‘pchiligi patriarxal yoki avtoritar liderlik uslubidan foydalanishi, bu esa ayrim hollarda ochiq muloqot va konstruktiv bahsni cheklashini ko‘rsatadi. Shu sababli, demokratik va ishtirokchi liderlik modeliga o‘tish konfliktlarning ildizini bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotlarda kelishmovchilik tushunchasining bir nechta talqinlari uchraydi. Robbins (2019) konfliktni “ikki yoki undan ortiq tomonning manfaatlari, qadriyatlari yoki ehtiyojlari to‘qnashuvi” sifatida izohlaydi. Thomas (1992) esa uni boshqarilishi mumkin bo‘lgan jarayon deb hisoblaydi. Unga ko‘ra, kelishmovchiliklar to‘g‘ri boshqarilgan taqdirda innovatsiya va o‘sishga xizmat qilishi mumkin, noto‘g‘ri boshqarilganda esa ish unumdorligini pasaytiradi.

De Dreu va Weingart (2003) bajarilgan meta-tahlillarida shaxsiy (affektiv) kelishmovchiliklar jamoa samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini, vazifaviy kelishmovchiliklar esa ayrim holatlarda qarorlar sifatini oshirishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Bu esa rahbarning konfliktni to‘g‘ri yo‘naltirish bo‘yicha mas’uliyatini yanada oshiradi.

Burns (1978) va Bass (1985) tomonidan asoslangan transformatsion liderlik xodimlarni ilhomlantirish, ularga maqsad berish va rivojlantirishga qaratilgan yondashuvdir. Eng muhim jihati — rahbar konfliktlarni konstruktiv dialogga aylantirib, jamoada ijobiy psixologik muhit yaratadi.

Podsakoff va boshqalar (1990) transformatsion liderlik xodimlarning konfliktlarni ochiq muhokama qilishga moyilligini oshirishini aniqlagan. Bu rahbarning empatiya, motivatsiya va ishonch berish kabi ko‘nikmalari bilan bog‘liq.

Tranzaksion liderlik ko‘proq rag‘bat va jazolash mexanizmlariga tayangan. Bir qator tadqiqotlarda (Bass, 1997) ushbu yondashuvning konfliktlarni tezkor hal qilishda foydali bo‘lishi mumkinligi, ammo uzoq muddatli muammolarni yetarlicha bartaraf eta olmasligi ko‘rsatiladi.

Greenleaf (1977) tomonidan taklif qilingan xizmatkor liderlik empatiya, tinglash, boshqalarga xizmat qilish tamoyillariga asoslanadi. Ehrhart (2004) bu uslub xodimlar orasida o‘zaro hurmat va tushunishni kuchaytirishi sababli konfliktlarning oldini olishda samarali ekanini ta’kidlaydi.

Hersey va Blanchard (1982)ning modeliga ko‘ra, rahbar vaziyatga qarab turli yondashuvlarni qo‘llashi lozim. Konfliktlar turlicha bo‘lgani uchun bu model amaliyotda ko‘p qo‘llanadi: ba’zi holatlarda qat’iy yondashuv, boshqasida yumshoq muzokaralar zarur bo‘ladi.

Thomas va Kilmann (1974) konfliktlarni boshqarishning besh strategiyasini taklif qilgan: Raqobat, Hamkorlik, Murosa, Moslashish, Chekinish

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali rahbarlar asosan “hamkorlik” va “murosa” strategiyalarini qo‘llaydi (Rahim, 2002). Bu strategiyalar jamoada ishonchni oshiradi va uzoq muddatli yechim yaratadi.

Rahim (2002) tomonidan ishlab chiqilgan model rahbarning ikki asosiy yo‘nalishini — o‘z manfaatlarini himoya qilish va boshqalarning manfaatlarini hisobga olish darajasini o‘lchaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, demokratik uslubdagi liderlar o‘zaro manfaatlarni uyg‘unlashtirgan holda konfliktlarni eng samarali boshqaradi.

Dengiz va Koçak (2019) Turkiya tashkilotlarida o‘tkazgan tadqiqotlarida transformatsion liderlik xodimlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni sezilarli darajada kamaytirishini qayd etgan.

O‘zbekiston kontekstida Ravshanov (2021) rahbarning kommunikativ ko‘nikmalari va kelishmovchiliklarni boshqarish samaradorligi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ta’kidlaydi.

Tenglik va adolatga asoslangan liderlik xodimlarda nizolarni “xavfsiz” muhokama qilishga imkon beradi (Colquitt, 2001). Emotsional intellekt darajasi yuqori bo‘lgan liderlar mojarolarni yumshoq, ammo samarali boshqaradi (Goleman, 1998). Goleman (1998) rahbarning o‘z hissiyotlarini boshqarishi va boshqalarni tushunishi konfliktlarni samarali hal etishning poydevori ekanini ta’kidlaydi. Bodie et al. (2015) faol tinglash xodimlar o‘rtasida ishonchni kuchaytirishi va ziddiyatni kamaytirishini ilmiy asosda tasdiqlagan.

Fisher va Ury (1981) rahbarlarning manfaatga asoslangan muzokaralarini konfliktni barqaror hal qilishning eng samarali usuli deb hisoblaydi. Colquitt (2001) adolat hissi mavjud bo‘lgan jamoalarda nizolar tezda hal etilishini ko‘rsatadi.

## METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi xodimlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishda liderlik yondashuvining o‘rni, samaradorligi va amaliy mexanizmlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Metodologiya tadqiqotning maqsadi, vazifalari va ilmiy asoslariga ko‘ra quyidagi bosqichlardan tashkil topadi.

### Tadqiqot yondashuvi va dizayni

Tadqiqotda “kombinatsiyalashgan (mixed-method)” yondashuv qo‘llanildi. Bu yondashuv liderlikning konfliktlarni hal qilishdagi rolini “miqdoriy” va “sifatli” usullar orqali har ikki tomondan baholash imkonini beradi.

### Tadqiqot obyekti va predmeti

**“**Obyekt” korxona va tashkilotlarda faoliyat yurituvchi xodimlar jamoasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar jarayoni.

“Predmet” konfliktlarni hal qilishda yetakchilik (liderlik) yondashuvlarining qo‘llanish mexanizmlari, usullari va ularning samaradorligi.

**Tadqiqotning nazariy asoslari**

Metodologiya quyidagi ilg‘or ilmiy nazariyalarga tayangan: “Transformatsion liderlik nazariyasi” – motivatsiya, ilhomlantirish va ishonch orqali konfliktlarni yumshatish. “Tranzaksion liderlik nazariyasi” – intizom, qoidabuzarliklar va rag‘batlantirish orqali boshqaruv. “Xulq-atvor yondashuvi” – liderning xatti-harakatlari jamoa psixologik muhitiga ta’siri. “Konfliktlarni boshqarish modellari (T. Tomas, K. Kilmann)” – murosa, hamkorlik, raqobat, moslashuv va chekinish strategiyalari.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi**

Tadqiqotning metodologik yondashuvi quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

1. Konfliktlarni hal etish jarayonida liderlik uslublarini kompleks tahlil qilish.

2. Rahbarning psixologik kompetensiyalari va kommunikativ ko‘nikmalarining o‘rni bo‘yicha yangi empirik dalillar keltirish.

3. O‘zbekiston tashkilotlari misolida mahalliy tajribani ilmiy asosda o‘rganish va solishtirish.

**Kutilayotgan ilmiy-amaliy natijalar**

Metodologiya asosida o‘tkazilgan tadqiqot quyidagi natijalarni berishi kutilmoqda: Jamoa ichidagi nizolarni hal etishda liderlikning eng samarali yondashuvlarini aniqlash. Tashkilotlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Liderlar uchun konflikt menejmenti bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar to‘plamini shakllantirish. Jamoaviy muhitni yaxshilash bo‘yicha takliflar tayyorlash.

**TAHLIL VA NATIJALAR**

Ushbu tadqiqot doirasida xodimlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni hal etishda liderlik yondashuvining amaliy samaradorligi, ularning ichki ishbilarmonlik muhitiga ta’siri hamda tashkilotning umumiy barqarorligiga qo‘shgan hissasi tizimli tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar xodimlar bilan olib borilgan suhbatlar, kuzatuvlar va ilmiy manbalardagi nazariy qarashlar asosida umumlashtirildi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, kelishmovchiliklar yuzaga kelgan vaziyatlarda liderning xatti-harakatlari mojaroni ijobiy yo‘nalishda boshqarishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, “transformatsion”, “demokratik” va “situatsion” liderlik usullaridan foydalanadigan rahbarlar konfliktlarni konstruktiv tarzda bartaraf etishga moyil bo‘lishlari aniqlandi. Bu yondashuvlar xodimlarning faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlash, ularni tinglash va qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish orqali kelishmovchiliklarning ildiz sabablarini aniqlash imkonini yaratdi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, lider kommunikatsiya sifatiga alohida e’tibor qaratgan hollarda kelishmovchiliklarning cho‘zilib ketish xavfi sezilarli darajada kamayadi. Ochiq muloqot, empatiya, neytral pozitsiyani saqlash hamda faktlarga asoslangan baholash tamoyillariga amal qilish mojarolarni hal etish jarayonini tezlashtiradi. Ayniqsa, nizoda ishtirok etayotgan tomonlarning hissiy holatini to‘g‘ri boshqarish liderlik ko‘nikmalari orasida eng muhimlaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, samarali liderlik faqat mojaroni bartaraf etish bilan cheklanib qolmay, balki kelgusida shunday holatlarning takrorlanishini oldini olishda ham muhim rol o‘ynaydi. Profilaktik choralar sifatida rahbarlar tomonidan muntazam ravishda jamoaviy uchrashuvlar o‘tkazilishi, xodimlarning ehtiyojlari va fikrlarini monitoring qilish, jamoaviy

motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash kabi amaliyotlar eng yaxshi natija bergan usullar qatoriga kiritildi.

Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko‘ra, konfliktlarni hal etishda avtoritar yondashuvdan foydalanadigan rahbarlar qisqa muddatli barqarorlikka erishgan bo‘lsalar-da, uzoq muddatda xodimlar o‘rtasidagi ishonchning pasayishi, tashabbusning kamayishi va ichki motivatsiyaning susayishi kuzatildi. Bu esa zamonaviy tashkilotlarda bunday yondashuvning samarasizligini yana bir bor tasdiqladi.

Umuman olganda, olingan natijalar liderlikning moslashuvchanligi, xodimlarga nisbatan adolatli munosabat, psixologik xavfsizlikni ta’minlash va professional muloqot madaniyatini rivojlantirish konfliktlarni samarali boshqarish jarayonining asosiy tarkibiy qismlari ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari tashkilotlarda kelishmovchiliklarni hal etishda liderlik yondashuvlaridan kompleks foydalanish nafaqat muammoli vaziyatlarni yumshatishini, balki jamoaning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqladi.

**XULOSA**

Xodimlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni hal etish — bu faqat muammoni bartaraf etish emas, balki sog‘lom tashkiliy madaniyat yaratish, xodimlarning o‘zaro ishonchini mustahkamlash va jamoaning umumiy samaradorligini oshirish jarayonidir. Samarali lider konfliktlardan qochmaydi; aksincha, ularni aniqlaydi, tahlil qiladi va konstruktiv yechim ishlab chiqadi. Transformatsion liderlik, faol tinglash, adolat tamoyillari va hamkorlikka asoslangan yondashuvlar ushbu jarayonning eng muhim vositalaridir.

Zamonaviy tashkilotlarda rahbarning konfliktlarni boshqarish ko‘nikmalari uning professional kompetensiyasining muhim elementi bo‘lib, barqaror rivojlanish, mehnat unumdorligini oshirish va jamoaning motivatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Bass, B. M. (1990). From transactional to transformational leadership: Learning to share the vision. Organizational Dynamics.
2. Northouse, P. G. (2021). Leadership: Theory and Practice. Sage Publications.
3. Burns, J. M. (1978). Leadership. Harper & Row.
4. Thomas, K. W., & Kilmann, R. H. (1974). Thomas-Kilmann Conflict Mode Instrument.
5. Karimov, A. (2019). Rahbarlik psixologiyasi. T.: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
6. Goleman, D. (1998). Working with Emotional Intelligence. Bantam Books.
7. Rahim, M. A. (2002). Toward a theory of managing organizational conflict. International Journal of Conflict Management.
8. Mavlonova, Z. (2021). Jamoaviy boshqaruv va liderlik. TDIU Ilmiy jurnali.
9. Bass, B. M. (1985). Leadership and Performance Beyond Expectations.
10. Bass, B. M. (1997). Does the transactional–transformational leadership paradigm transcend organizational and national boundaries?
11. Bodie, G. et al. (2015). The role of active listening in organizational conflict.
12. Burns, J. M. (1978). Leadership.
13. Colquitt, J. (2001). On the dimensionality of organizational justice.
14. De Dreu, C. K., & Weingart, L. (2003). Task vs. relationship conflict meta-analysis.
15. Ehrhart, M. (2004). Servant leadership and organizational citizenship behavior.
16. Fisher, R., & Ury, W. (1981). Getting to Yes.
17. Goleman, D. (1998). Emotional Intelligence.

18. Greenleaf, R. (1977). Servant Leadership.
19. Hersey, P., & Blanchard, K. (1982). Situational Leadership Theory.
20. Jehn, K. (1995). A multimethod examination of conflict in organizations.
21. Podsakoff, P. et al. (1990). Transformational leader behaviors and followers' trust.
22. Rahim, M. A. (2002). Toward a Theory of Managing Organizational Conflict.
23. Ravshanov, A. (2021). Tashkilotlarda konfliktlarni boshqarishning psixologik jihatlari.
24. Robbins, S. (2019). Organizational Behavior.
25. Thomas, K. (1992). Conflict and negotiation process in organizations.
26. Thomas, K., & Kilmann, R. (1974). Conflict Mode Instrument.
27. Dengiz, O., & Koçak, O. (2019). Transformational leadership and conflict management in organizations.

# 10.00.00 – Filologiya fanlari

# 10.00.00 – Philology

# 10.00.00 – Филология

# TIBBIY MATNLAR KORPUSIDA SINONIMIYA VA VARIATIVLIKNING QIYOSIY KO‘RINISHLARI (INGLIZ–O‘ZBEK MISOLIDA)

**Asatullayev Rustamjon Baxtiyorovich**
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, stajyor-asistent
E-mail: rustamjon0003@gmail.com
**Suleymanova Nargiza Mardonovna**
Ilmiy rahbar: Samarqand davlat chet tillar instituti, Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasi dotsenti
E-mail: nargizasulimanova@.gmail.com
**https://doi.org/10.5281/zenodo.18195716**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi tibbiy matnlar korpusida sinonimiya va leksik variativlik hodisalari qiyosiy va tizimli ravishda tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tibbiy terminlar va terminologik bo‘lmagan birliklar doirasida sinonimik qatorlarning shakllanishi, ularning kontekstual qo‘llanish xususiyatlari hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik va pragmatik farqlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot korpus lingvistikasi, qiyosiy-tavsifiy, kontekstual va funksional tahlil metodlariga asoslanadi. Olingan natijalar ingliz tilida tibbiy terminologiya yuqori darajada standartlashganini, o‘zbek tilida esa izohli va tavsifiy birliklar hisobiga leksik variativlik darajasi yuqori ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari tibbiy tarjima, terminologik me’yorlash va maxsus lug‘atlar tuzishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** tibbiy matnlar korpusi, sinonimiya, leksik variativlik, tibbiy terminologiya, ingliz–o‘zbek qiyosiy tahlil, tarjima lingvistikasi.

## COMPARATIVE ASPECTS OF SYNONYMY AND LEXICAL VARIABILITY IN MEDICAL TEXT CORPORA (BASED ON ENGLISH–UZBEK DATA)

**Abstract:** This article examines synonymy and lexical variability in English and Uzbek medical text corpora from a comparative perspective. The study aims to identify synonymous medical units, analyze their contextual and functional usage, and reveal semantic differences that arise in translation processes. The research is based on corpus linguistics, comparative-descriptive, contextual, and functional analysis methods. The findings indicate that English medical terminology is highly standardized, whereas Uzbek medical texts demonstrate a higher degree of lexical variability due to the frequent use of explanatory and descriptive equivalents. The study emphasizes the importance of corpus-based terminological normalization to ensure semantic accuracy and consistency in medical translation and professional communication.

**Keywords:** medical text corpus, synonymy, lexical variability, medical terminology, English–Uzbek comparison, corpus linguistics, medical translation

## СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ СИНОНИМИИ И ЛЕКСИЧЕСКОЙ ВАРИАТИВНОСТИ В КОРПУСЕ МЕДИЦИНСКИХ ТЕКСТОВ (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

**Аннотация:** В статье рассматриваются явления синонимии и лексической вариативности в корпусе медицинских текстов английского и узбекского языков в сопоставительном аспекте. Цель исследования заключается в выявлении синонимических медицинских единиц, анализе их контекстуального и функционального употребления, а также определении семантических различий, возникающих в процессе перевода.

Исследование основано на методах корпусной лингвистики, сравнительно-описательного, контекстуального и функционального анализа. Полученные результаты показывают, что медицинская терминология английского языка отличается высокой степенью стандартизации, тогда как в узбекских медицинских текстах наблюдается повышенная лексическая вариативность, обусловленная использованием пояснительных и описательных эквивалентов. Делается вывод о необходимости корпусного подхода к терминологической нормализации в медицинском переводе.

**Ключевые слова:** корпус медицинских текстов, синонимия, лексическая вариативность, медицинская терминология, англйско-узбекское сопоставление, корпусная лингвистика, медицинский перевод

## KIRISH

So‘nggi yillarda korpus lingvistikasi asosida ixtisoslashgan diskurslarni o‘rganish tilshunoslikda muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda. Matnni korpus asosida o‘rganish til birliklarining real qo‘llanishini aniqlash imkonini beradi[1]. Ayniqsa, tibbiy matnlar inson salomatligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgani sababli, ularda qo‘llaniladigan til birliklarining aniqligi, bir ma’noliligi va terminologik barqarorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shunga qaramay, tibbiy matnlarda sinonimiya va leksik variativlik hodisalari keng uchrab, ularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qo‘llanilishi tibbiy axborotning tushunilishi va talqiniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Sinonimiya hodisasi bir tushunchaning ikki yoki undan ortiq til birliklari orqali ifodalanishi bilan xarakterlanadi[2].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ingliz va o‘zbek tillaridagi tibbiy terminlar sinonimiyasi va leksik variativligi ilk bor teng hajmdagi qiyosiy korpus asosida empirik jihatdan tahlil qilindi. O‘zbek tibbiy matnlarida tavsifiy va izohli birliklarning terminologik birliklarga nisbatan yuqori chastotada qo‘llanishi statistik ma’lumotlar bilan asoslandi. Shuningdek, inglizcha me’yoriy terminlarning o‘zbek tilidagi funksional jihatdan ustuvor muqobillari aniqlanib, ularning ilmiy va klinik kontekstlarda qo‘llanish chegaralari aniqlashtirildi.

Ingliz tilidagi tibbiy terminologiya tarixan lotin va yunon tillari asosida shakllangan bo‘lib, xalqaro miqyosda me’yorlashtirilgan terminlar tizimiga ega. Terminologik tizimda sinonimiyaning mavjudligi til taraqqiyotining muhim belgilaridan biridir[3]. O‘zbek tibbiy terminologiyasi esa asosan tarjima jarayonlari orqali boyib borayotgan, rivojlanish bosqichidagi tizim hisoblanadi. Natijada, bir inglizcha termin o‘zbek tilida bir nechta sinonimik yoki tavsifiy variantlar orqali ifodalanadi. Bu holat tibbiy matnlar korpusida variativlikning kuchayishiga olib keladi. Tibbiy terminlar aniqlik va bir ma’nolilikni talab qiluvchi maxsus leksik birliklardir[4].

Qiyosiy tahlil tillar o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlashga xizmat qiladi[5]. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ingliz–o‘zbek tibbiy matnlar korpusida sinonimiya va variativlikni qiyosiy o‘rganish, ularning funksional xususiyatlarini aniqlash hamda tibbiy tarjimada termin tanlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

[1] Yo‘ldoshev M. Matn va uning lingvistik tahlili. – Toshkent: Fan, 2008. – 198 bet.
[2] Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2002. – 176 bet.
[3] Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 412 bet.
[4] Ismoilov I. Tibbiy terminologiya asoslari. – Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2015. – 256 bet.
[5] Abduazizov A. Qiyosiy tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2010. – 304 bet.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot korpus lingvistikasi tamoyillariga asoslangan bo‘lib, qiyosiy-tavsifiy va funksional tahlil metodlari bilan uyg‘unlashtirilgan. Tadqiqot materiali sifatida ingliz tilidagi ilmiy tibbiy maqolalar, klinik hisobotlar, annotatsiyalar hamda o‘zbek tilidagi tibbiy darsliklar, ilmiy maqolalar va tarjima qilingan klinik matnlardan iborat maxsus korpus shakllantirildi.

Metodologik jarayonda quyidagi bosqichlar amalga oshirildi:

birinchidan, tibbiy terminlar va ularning sinonimik variantlari aniqlandi;

ikkinchidan, ushbu birliklar terminologik va tavsifiy guruhlarga ajratildi;

uchinchidan, kontekstual tahlil orqali sinonimlarning semantik va pragmatik funksiyalari belgilandi;

to‘rtinchidan, inglizcha birliklar bilan o‘zbekcha muqobillar qiyosiy jihatdan tahlil qilindi.

Shuningdek, korpus ma’lumotlari asosida sinonimik birliklarning qo‘llanish chastotasi va uslubiy xususiyatlari aniqlanib, statistik kuzatishlar olib borildi.

Ushbu tadqiqot doirasida ingliz va o‘zbek tillaridagi tibbiy matnlardan tashkil topgan maxsus qiyosiy korpus shakllantirildi. Ingliz tilidagi korpus hajmi 528 460 so‘zdan iborat bo‘lib, u 2011–2024-yillarda nashr etilgan ilmiy tibbiy maqolalar, klinik tadqiqotlar va tibbiy annotatsiyalar asosida tuzildi. O‘zbek tilidagi korpus esa 417 230 so‘zdan tashkil topgan bo‘lib, zamonaviy tibbiy darsliklar, ilmiy maqolalar va rasmiy tarjima qilingan klinik hujjatlarni o‘z ichiga oladi. Korpus materiallari 56% inglizcha va 44% o‘zbekcha matnlardan iborat bo‘lib, qiyosiy tahlil uchun muvozanatli empirik baza yaratildi. Sinonimik birliklarning aniqlanishi va chastotaviy tahlili Sketch Engine va AntConc dasturlari yordamida amalga oshirildi. Maqolada terminologik birliklar yagona shaklda qo‘llanilib, inglizcha terminlar kursivda, qisqartmalar esa birinchi marta uchraganda to‘liq shaklda izohlandi.

**NATIJALAR**

Tadqiqot jarayonida jami 137 ta tibbiy termin va ularning 412 ta real kontekstual qo‘llanish holati tahlil qilindi. Har bir termin ingliz va o‘zbek korpuslarida kamida uch xil kontekstda o‘rganildi. Terminlar asosan kardiologiya, endokrinologiya, pulmonologiya va umumiy terapiya sohalaridan tanlab olindi. Bu holat tadqiqotning empirik bazasini kengaytirish va natijalarning ishonchliligini ta’minlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari ingliz tibbiy matnlarida sinonimiya nisbatan cheklangan va asosan terminologik darajada namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Variantlilik til birliklarining shakl va ifoda jihatidan farqlanishi bilan izohlanadi[6]. Masalan, disease, illness va disorder terminlari bir qarashda sinonim bo‘lib ko‘rinsa-da, klinik kontekstda ularning qo‘llanish sohasi va semantik chegaralari aniq farqlanadi. Bu terminlar ingliz tibbiy korpusida qat’iy kontekstual cheklovlar asosida ishlatiladi.

O‘zbek tibbiy matnlar korpusida esa sinonimiya va leksik variativlik ancha kengroq ko‘lamda kuzatiladi. Leksik sinonimiya tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi[7]. Yuqoridagi inglizcha birliklar o‘zbek tilida kasallik, xastalik, kasallik holati, organizm faoliyatining buzilishi kabi bir nechta variantlar orqali ifodalanadi. Bu holat terminologik barqarorlikning yetarli darajada shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, hypertension terminining arterial gipertenziya, gipertoniya va qon bosimining oshishi shakllarida parallel qo‘llanilishi o‘zbek tibbiy matnlarida variativlikning tipik namunasi

[6] Madvaliyev A. (tahr.) O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5 jildlik, 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 680 bet.

[7] Tursunov U., Muxtorov J. Hozirgi o‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 270 bet.

sifatida aniqlandi. Korpus ma’lumotlariga ko‘ra, ingliz tilidagi disease termini 1 468 marta, illness 892 marta va disorder 1 014 marta qo‘llangan. O‘zbek korpusida esa mos ravishda kasallik 1 842 marta, xastalik 671 marta va buzilish 549 marta qayd etildi. Ushbu chastotaviy ko‘rsatkichlar sinonimik birliklarning funksional ustuvorligini aniqlashga imkon berdi hamda leksik variativlikning miqdoriy jihatdan mavjudligini tasdiqladi.

**TAHLIL**

Olingan natijalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, ingliz tilidagi tibbiy terminologiya yuqori darajada standartlashgan bo‘lib, sinonimiya ko‘proq terminlararo nozik semantik farqlar orqali namoyon bo‘ladi. Ilmiy matnlarda terminlarning izchil va me’yoriy qo‘llanishi muhim ahamiyatga ega[8]. Bunday holat tibbiy axborotning aniqligi va professional darajada uzatilishini ta’minlaydi.

O‘zbek tilida esa sinonimiya va variativlik asosan tarjima jarayonlari, izohli yondashuv va terminlarning ommalashtirilishi bilan bog‘liq holda shakllanadi. Bir terminning bir nechta variantda qo‘llanishi matnni keng auditoriya uchun tushunarli qilsa-da, ilmiy aniqlik nuqtayi nazaridan muayyan muammolarni yuzaga keltiradi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tibbiy korpusida sinonimiya ko‘pincha terminologik me’yorlash yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu holat tibbiy tarjimada noaniqlik va semantik siljishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

**MUHOKAMA**

Korpus lingvistikasi tushunchasi va metodologik asoslari Biber (1998) hamda McEnery va Hardie (2012) tadqiqotlariga tayangan holda izohlanadi. Terminologik variativlik masalalari Cabré (1999) qarashlari asosida talqin qilinadi, maxsus korpuslardan tarjima jarayonida foydalanish esa Bowker va Pearson (2002) ishlariga tayanib asoslanadi. Tadqiqot natijalari tibbiy terminologiyani korpus asosida me’yorlashtirish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Ingliz tilidagi qat’iy terminologik tizim tajribasidan kelib chiqib, o‘zbek tilida ham standart variantlarni belgilash va ularni ilmiy hamda amaliy matnlarda izchil qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Sinonimiya va variativlikni to‘liq inkor etish mumkin emas, biroq ularning funksional chegaralarini aniqlash zarur. Ayniqsa, klinik hujjatlar va ilmiy maqolalarda tavsifiy birliklardan ko‘ra me’yoriy terminlardan foydalanish tibbiy axborotning aniqligini oshiradi. Mazkur tadqiqot natijalari tibbiy tarjimonlar, terminologlar va maxsus lug‘at tuzuvchilar uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, kelgusida tibbiy matnlar korpusini kengaytirish va avtomatlashtirilgan terminologik tizimlarni yaratish uchun nazariy zamin yaratadi.

**XULOSA**

Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillaridagi tibbiy matnlar korpusida sinonimiya va leksik variativlikning qiyosiy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Ingliz tilida tibbiy terminologiya yuqori darajada standartlashgan bo‘lsa, o‘zbek tibbiy matnlarida tavsifiy va izohli birliklar faol qo‘llanilishi kuzatildi. Olingan natijalar tibbiy tarjima sifatini oshirish, terminologik me’yorlash hamda maxsus lug‘atlar yaratishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Kelgusida tadqiqotni kengroq ko‘p tilli tibbiy korpus asosida davom ettirish istiqbolli yo‘nalish sifatida belgilandi.

[8] Qosimov S. Ilmiy matn va terminologiya. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 224 bet.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2002. – 176 bet.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 412 bet.
3. Yo‘ldoshev M. Matn va uning lingvistik tahlili. – Toshkent: Fan, 2008. – 198 bet.
4. Ismoilov I. Tibbiy terminologiya asoslari. – Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2015. – 256 bet.
5. Madvaliyev A. (tahr.) O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5 jildlik, 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 680 bet.
6. Qosimov S. Ilmiy matn va terminologiya. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 224 bet.
7. Abduazizov A. Qiyosiy tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2010. – 304 bet.
8. Tursunov U., Muxtorov J. Hozirgi o‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 270 bet.

# INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA HAYVON NOMLARI ORQALI IFODALANGAN PAREMIOLOGIK MA’NOLAR

**Bo‘riyev Dilmurod Arzimurod o‘g‘li**
Samarqand davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrasi stajyor-assistenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.18053350

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida hayvon nomlari orqali ifodalangan paremiologik ma’nolar filologik, lingvomadaniy va qiyosiy yondashuv asosida tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida hayvon nomlarining semantik, ikonik va metaforik xususiyatlari, ularning milliy mentalitet va madaniyat bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek paremiologiyasida hayvon nomlari orqali shakllangan ijobiy va salbiy baholash tizimlari o‘rganiladi, shuningdek, universal va madaniy-spetsifik ramzlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari paremiologiya, lingvomadaniyatshunoslik va qiyosiy tilshunoslik sohalarida nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** paremiologiya, hayvon nomi, lingvomadaniyat, semantik tahlil, metafora, qiyosiy tadqiqot.

# ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ЗНАЧЕНИЯ, ВЫРАЖЕННЫЕ ЧЕРЕЗ НАЗВАНИЯ ЖИВОТНЫХ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

**Буриев Дилмурод Арзимуродович**
Стажёр-ассистент кафедры языков Самаркандского государственного медицинского университета

**Аннотация:** в данной статье паремиологические значения, выраженные посредством названий животных в английском и узбекском языках, исследуются на основе филологического, лингвокультурного и сравнительно-сопоставительного подходов. В ходе исследования анализируются семантические, иконические и метафорические особенности названий животных, а также их связь с национальным менталитетом и культурой. Изучаются системы положительной и отрицательной оценки, сформированные через названия животных в английской и узбекской паремиологии, а также выявляются универсальные и культурно-специфические символы. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение для паремиологии, лингвокультурологии и сравнительного языкознания.

**Ключевые слова:** паремиология, название животного, лингвокультура, семантический анализ, метафора, сравнительное исследование.

# PAREMIOLOGICAL MEANINGS EXPRESSED THROUGH ANIMAL NAMES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

**Boriyev Dilmurod Arzimurod ugli**
Trainee Assistant of the Languages Department, Samarkand State Medical University

**Abstract:** this article investigates paremiological meanings expressed through animal names in the English and Uzbek languages based on philological, linguocultural, and comparative approaches. The study analyzes the semantic, iconic, and metaphorical features of animal names and examines their relationship with national mentality and culture. Positive and negative evaluative systems formed through animal names in English and Uzbek paremiology are explored, and universal as well as culturally specific symbols are identified. The results of the study have theoretical and practical significance for the fields of paremiology, linguocultural studies, and comparative linguistics.

**Keywords:** paremiology, animal name, linguoculture, semantic analysis, metaphor, comparative research.

## KIRISH

Xalq og‘zaki ijodi insoniyat madaniyatining eng qadimiy va barqaror qatlamini tashkil etadi. Maqol va matallar milliy mentalitet, ijtimoiy qadriyatlar va axloqiy tamoyillarni ifodalash vositasi sifatida tilga kiradi. Ayniqsa, hayvon nomlari ishtirokidagi paremiologik birliklar xalqning tabiatga va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini, shuningdek, inson xulq-atvorini ramziy tarzda aks ettiradi.

Ingliz va o‘zbek paremiologiyasida hayvon nomlari **baholovchi va tarbiyaviy funksiyalar** bilan ajralib turadi. Biroq ularning semantik talqini, metaforik xususiyatlari va pragmatik vazifalari turlicha. Masalan, ingliz maqollarida it sodiqlik va pragmatik ayyorlik ramzi sifatida ishlatilsa, o‘zbek maqollarida u ko‘pincha salbiy konnotatsiya bilan bog‘lanadi. Shu bilan birga, tulki va sher obrazlari ko‘plab maqollarda universal ramz sifatida uchraydi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hayvon nomlari orqali ifodalangan paremiologik ma’nolarni madaniy-spetsifik va universal jihatlar bilan qiyosiy o‘rganish, ingliz va o‘zbek tillarining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotning maqsadi hayvon nomlarining paremiologik birliklarda semantik, ikonik va metaforik funksiyalarini ochib berish va ikki tilda ularning milliy mentalitet bilan bog‘liqligini tahlil qilishdan iborat.

Paremiologiya filologiya fanining maqol va matallarni o‘rganuvchi sohasi bo‘lib, u lingvistik birliklarning semantik, pragmatik va kognitiv xususiyatlarini tadqiq etadi. Paremiologik birliklar qisqa, lekin chuqur mazmunni ifodalovchi shaklda bo‘lib, ular orqali xalqning hayotiy tajribasi va madaniy qadriyatlari aks ettiriladi.

Hayvon nomlari ishtirokidagi paremiologik birliklar ikonik va metaforik asosga ega. Ikonik yondashuv shuni bildiradiki, hayvonning real biologik xususiyati uning semantik talqinida aks etadi. Masalan, tulkining ayyorligi yoki eshakning sabr-toqati xalq ongida mustahkamlangan ramzdir. Shu bilan birga, metaforik yondashuv hayvon obrazini inson xulq-atvori, ijtimoiy vaziyat yoki axloqiy tamoyil bilan bog‘laydi.

Semantik tahlil natijasida hayvon nomlari **ijobiy va salbiy baholash tizimlari**, shuningdek, **madaniy-spetsifik ramzlar** bilan bog‘liqligi aniqlanadi. Masalan, ingliz paremiologiyasida “lion” jasorat va kuch timsoli sifatida universal baholanadi, o‘zbek paremiologiyasida esa sher tasviri ko‘proq ijobiy sifatlar bilan bog‘langan, lekin boshqa hayvonlar (it, eshak) salbiy yoki tarbiyaviy baholash bilan ishlatiladi.

Kognitiv yondashuv esa hayvon nomlarining paremiologik birliklarda inson tafakkurining metaforik modeli sifatida shakllanishini ko‘rsatadi. Hayvon obrazlari orqali abstrakt tushunchalar (ayyorlik, jasorat, sabr) soddalashtirilib, nutq jarayonida samarali ifodalanadi.

Ingliz paremiologiyasida hayvon nomlari **ko‘pincha metaforik va kognitiv funksiyalarni** bajaradi. Ular inson xulq-atvori, ijtimoiy holat va axloqiy baholashni ramziy tarzda aks ettiradi. Quyida asosiy hayvon nomlari va ularning maqollar orqali ifodalangan ma’nolari keltiriladi:

1. It (Dog)

*Every dog has his day* – har bir inson muvaffaqiyatga erishish imkoniga ega.

*Barking dogs seldom bite* – ko‘p gapirgan odam ko‘pincha xavf tug‘tirmaydi.

It obrazi sodiqlik, ehtiyotkorlik va ba’zan salbiy pragmatik xulq-atvorni ifodalaydi.

2. Tulki (Fox)

*A sly fox* – ayyorlik va ehtiyotkorlik ramzi.

Tulki ko‘pincha ixtiyotkorlik va strategik tafakkur sifatida baholanadi.

3. Qush (Bird)

*The early bird catches the worm* – chaqqonlik va tashabbusning qadri.

*Birds of a feather flock together* – o‘xshash odamlar birlashadi.

Qush obrazi ijtimoiy xulq-atvor va faoliyat bilan bog‘liq ramz sifatida ishlatiladi.

4. Sher (Lion)

*Lion-hearted* – jasoratli va qo‘rqmas.

Sher obrazi liderlik, jasorat va kuch-quvvat timsoli sifatida ishlatiladi.

Ingliz maqollarida hayvon nomlari individualizm, shaxsiy fazilat va pragmatik maslahatni ifodalashga xizmat qiladi.

O‘zbek paremiologiyasida hayvon nomlari ko‘pincha milliy mentalitet, axloqiy tamoyil va jamoaviy qadriyatlar bilan bog‘liq. Ularning semantik va pragmatik talqini ingliz tilidan tubdan farq qiladi:

1. **It**

*It hurar, karvon o‘tar* – ortiqcha gap ishga xalaqit bera olmaydi.

It obrazi ko‘pincha **salbiy baholovchi va ogohlantiruvchi** ma’noda ishlatiladi.

2. **Eshak**

*Eshak sabr qiladi, yukni ko‘taradi* – sabr va mehnatsevarlik ramzi.

*Eshakning bo‘yi uzun, ammo aqli qisqa* – nodonlik timsoli.

Eshak obrazi **ikkinchi darajali baholash va tarbiyaviy funksiyani** bajaradi.

3. **Tulki**

*Tulkining oyog‘i uzun, u o‘zi bilan aqlli* – ayyorlik va ehtiyotkorlik ramzi.

Tulki obrazi **ayyorlik va ehtiyotkorlik**ni madaniy-spetsifik kontekstda ifodalaydi.

4. Ot

*Otning ko‘rigi – odamning hurmati* – sodiqlik, ishonch va kuch ramzi.

Ot obrazi ijobiy baholash va axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq.

O‘zbek paremiologiyasida hayvon nomlari jamoaviy qadriyatlar va axloqiy tamoyillarni aks ettiruvchi lingvomadaniy vosita hisoblanadi.

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida hayvon nomlari orqali ifodalangan paremiologik ma’nolar qiyosiy, lingvomadaniy va semantik nuqtai nazardan tadqiq qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatadi:

1. Universal va madaniy-spetsifik ramzlar:

Tulki va sher obrazlari ikki tilda universal ramz sifatida ishlatiladi.

It, eshak, ot kabi hayvon nomlari esa madaniy-spetsifik bo‘lib, ularning baholash tizimi va pragmatik vazifasi milliy kontekstga bog‘liq.

2. Semantik va metaforik talqin:

Ingliz paremiologiyasida hayvon obrazlari ko‘proq individual xulq-atvor va pragmatik maslahatni ifodalaydi.

O‘zbek paremiologiyasida ular jamoaviy qadriyat, axloqiy tamoyil va tarbiyaviy funksiyalar bilan bog‘liq.

3. Kognitiv va diskursiv jihatlar:

Hayvon nomlari orqali shakllangan maqollar insonga xulq-atvorni tushuntirish, maslahat berish va ogohlantirish vazifasini bajaradi.

Diskurs kontekstida ular ramziy vosita sifatida ishlatiladi va milliy madaniyat bilan uzviy bog‘liq.

4. Lingvomadaniyat ahamiyati:

Hayvon nomlari xalq tafakkurini, madaniy qadriyatlarni va ijtimoiy me’yorlarni til orqali aks ettiruvchi lingvomadaniy belgilardir.

Qiyosiy tahlil orqali ingliz va o‘zbek tillaridagi paremiologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi va milliy tafovutlar ko‘rsatib beriladi.

Jismoniy tayyorgarlik: Tajriba guruhi 4 balldan 8 ballgacha oshdi (100% o‘sish), nazorat guruhi esa 4 balldan 6 ballgacha o‘sgan (50% o‘sish). Sog‘lomlik holati: Tajriba guruhi 3 balldan 8 ballgacha (166% o‘sish), nazorat guruhi 3 balldan 5 ballgacha (66% o‘sish).

Psixologik holat va ruhiy barqarorlik: Tajriba guruhi 4 balldan 10 ballgacha (150% o‘sish), nazorat guruhi 4 balldan 5 ballgacha (25% o‘sish). Sog‘lom turmush tarziga qiziqish: Tajriba guruhi 5 balldan 9 ballgacha (80% o‘sish), nazorat guruhi 5 balldan 5 ballgacha (0% o‘sish).

Nazorat guruhi: An’anaviy jismoniy mashg‘ulotlar davom ettirildi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhi barcha ko‘rsatkichlarda sezilarli yaxshilanishni ko‘rsatgan, nazorat guruhi esa minimal o‘zgarish bilan cheklangan. Bu fitness va aerobika mashqlarining talabalar sog‘lig‘ini yaxshilashdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhi talabalarida fitness va aerobika mashqlari dasturi tatbiq etilgach, barcha ko‘rsatkichlarda sezilarli yaxshilanish kuzatildi. Xususan, jismoniy tayyorgarlik, sog‘lomlik holati, psixologik barqarorlik va sog‘lom turmush tarziga qiziqish ballari oldi va keyingi testlarda aniq o‘sish ko‘rsatdi. Boshqa tomondan, nazorat guruhi, an’anaviy jismoniy mashg‘ulotlar davom etgan bo‘lsa-da, faqat minimal yaxshilanishni ko‘rsatdi. Bu shuni bildiradiki, oddiy mashg‘ulotlar talabalar sog‘lig‘ini rivojlantirishda fitness va aerobika mashqlari kabi kompleks metodlar bilan taqqoslaganda samaradorligi pastroq.

**XULOSA**

Umuman olganda, jadval natijalari fitness va aerobika mashqlari dasturining talabalar sog‘lig‘ini yaxshilashdagi yuqori samaradorligini tasdiqlaydi va sog‘lomlashtirish metodikasini takomillashtirishga asos yaratadi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar ishtirokida fitness va aerobika mashqlari yordamida sog‘lomlashtirish dasturini tatbiq etish jismoniy tayyorgarlik, sog‘lomlik holati, psixologik barqarorlik va sog‘lom turmush tarziga qiziqishni sezilarli darajada oshiradi. Tajriba guruhi barcha parametrlar bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalar ko‘rsatdi, bu esa fitness va aerobika mashqlarining talabalar sog‘lig‘ini yaxshilashdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, muntazam jismoniy faollik nafaqat fiziologik ko‘rsatkichlarni yaxshilaydi, balki ruhiy barqarorlik va ijobiy motivatsiyani oshiradi. Bu esa sog‘lomlashtirish jarayonida kompleks yondashuvning muhimligini ta’kidlaydi. Umuman olganda, fitness va aerobika mashqlari asosidagi sog‘lomlashtirish metodikasi talabalar bilan ishlashda samarali vosita hisoblanadi va ularni sog‘lom turmush tarziga rag‘batlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqot natijalari sog‘lomlashtirish dasturlarini takomillashtirish va jismoniy tarbiya tizimida qo‘llash uchun muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida “PF-5368-son farmoni. 2018 yil 5-mart.
2. 2019-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi 2019-yil 15-fefral.
3. Yusupov G‘.A. Sog‘lomlashtiruvchi gimnastika vositalari orqali talaba yoshlarning jismoniy rivojlanishini korreksiyalash metodikasi: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, 2023. – 150 b.
4. Safarova D.D. Ayollarda fitnes-aerobika mashg‘ulotlarining sog‘lomlashtiruvchi samaradorligi: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: UDJTSU, 2022. – 140 b.
5. Karimova M.X. Turli yoshdagi ayollarda sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish metodikasi: Pedagogika fanlari nomzodi (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: UDJTSU, 2021. – 148 b.
6. Ergasheva N.Sh. Fitnes va aerobika mashg‘ulotlarida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Chirchiq: UDJTSU, 2020. – 160 b.
7. Xolmatova G.I. Sog‘lomlashtiruvchi gimnastika vositalari yordamida ayollarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi: Pedagogika fanlari nomzodi (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent: UDJTSU, 2019. – 142 b.
8. Raximova Z.O. Oliy ta’lim muassasalarida aerobika mashg‘ulotlarini sog‘lomlashtiruvchi yo‘nalishda tashkil etishning nazariy-metodik asoslari: Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent: UDJTSU, 2020. – 190 b.
9. Xolboyeva G.X. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida jismoniy tarbiya mutaxassislarning kasbiy salohiyatini moderinizatsiyalash asosida oshirish // Scientific-theoretical journal of International education research.Vol. 2 No.ISSN 2181-4279 3-son 2024. –B.33-39.
10. Holboyeva G.H., Theory and methodology of physical education. Textbook Samarqand state university edition. 2020; 56-59.

# BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA KREATIV PEDAGOGIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

**Boymirzayeva Shahnoza Olimjon qizi**
Qo‘qon universiteti, Ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Orcid: https://orcid.org/0009-00017868-7602
E-mail: boymirzayevashahnoza98@gmail.com
**https://doi.org/10.5281/zenodo.18198341**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ pedagogik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslangan. Tadqiqotda kreativ pedagogik tafakkurning mazmuni va tuzilishi, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlar hamda pedagogik modelning asosiy komponentlari yoritilgan. Empirik tadqiqot jarayonida so‘rovnoma, kuzatuv va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan pedagogik model bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ fikrlashi, pedagogik tashabbuskorligi va kasbiy kompetensiyasini samarali rivojlantirishini ko‘rsatdi. Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlash jarayonida amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** bo‘lajak tarbiyachi, kreativ pedagogik tafakkur, pedagogik model, innovatsion yondashuv, kreativ kompetensiya, pedagogik faoliyat, maktabgacha ta’lim

# ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ.

**Аннотация:** В данной статье представлена педагогическая модель развития творческого педагогического мышления у будущих педагогов, основанная на научных, теоретических и практических принципах. Исследование охватывает содержание и структуру творческого педагогического мышления, инновационные подходы к его развитию, а также основные компоненты педагогической модели. В эмпирическом исследовании использовались методы анкетирования, наблюдения и педагогического эксперимента-тестирования. Результаты исследования показали, что разработанная педагогическая модель эффективно развивает творческое мышление, педагогическую инициативу и профессиональную компетентность будущих педагогов. Результаты исследования имеют практическое значение в процессе подготовки специалистов в области дошкольного образования.

**Ключевые слова:** будущий педагог, творческое педагогическое мышление, педагогическая модель, инновационный подход, творческая компетентность, педагогическая деятельность, дошкольное образование

# PEDAGOGICAL MODEL FOR DEVELOPING CREATIVE PEDAGOGICAL THINKING IN FUTURE EDUCATORS

**Abstract:** This article presents a pedagogical model for developing creative pedagogical thinking in future educators based on scientific, theoretical and practical grounds. The study covers the content and structure of creative pedagogical thinking, innovative approaches to its development, and the main components of the pedagogical model. In the empirical research process, questionnaire, observation, and pedagogical experimental-testing methods were used. The results of the study showed that the developed pedagogical model effectively develops creative

thinking, pedagogical initiative, and professional competence of future educators. The results of this study are of practical importance in the process of training specialists in preschool education.

**Keywords:** future educator, creative pedagogical thinking, pedagogical model, innovative approach, creative competence, pedagogical activity, preschool education

## KIRISH

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimi ta’lim-tarbiya jarayonini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishni, tarbiyachilardan esa yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya va kreativ pedagogik tafakkurni talab etmoqda. Bugungi globallashuv va ta’lim sohasidagi islohotlar sharoitida maktabgacha ta’lim muassasalarida faoliyat yuritadigan tarbiyachilarning innovatsion fikrlashi, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashuvi hamda bolalarning individual rivojlanish ehtiyojlarini inobatga olgan holda pedagogik faoliyatni tashkil eta olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ pedagogik tafakkur tarbiyachining kasbiy faoliyatida yangi g‘oyalar ishlab chiqish, pedagogik vaziyatlarni samarali hal etish, ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish qobiliyatlarini namoyon etadi. Shu bois bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida ularning kreativ pedagogik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ pedagogik tafakkurni rivojlantirish ko‘pincha alohida mashg‘ulotlar yoki epizodik faoliyat doirasida amalga oshirilmoqda. Bu esa mazkur jarayonning tizimli va izchil rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ pedagogik tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik modelni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ pedagogik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot doirasida kreativ pedagogik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlanib, ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish yo‘llari belgilab beriladi.

## ASOSIY QISIM

Kreativ pedagogik tafakkur – tarbiyachining pedagogik vaziyatlarni yangi, samarali va noodatiy yondashuvlar orqali hal qilish qobiliyati, shuningdek, ta’lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etishdir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ tafakkur rivojlangan bo‘lsa, ular bolalar bilan ishlashda ijodiy usullarni qo‘llash, innovatsion loyihalarni yaratish va pedagogik qarorlarni mustaqil qabul qilish ko‘nikmalarini egallaydi.

Kreativ tafakkurning rivojlanishi nafaqat tarbiyachining shaxsiy rivojlanishi, balki ta’lim sifatining oshishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ pedagogik tafakkurini shakllantirish – pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan mutaxassislarni tayyorlashning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Pedagogik adabiyotlarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda quyidagi yondashuvlar muhim ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan:

Innovatsion yondashuvlar – yangi pedagogik texnologiyalar, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlardan foydalanish;

Kompetensiyaviy yondashuv – kreativlikni kasbiy kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirish;

Refleksiv yondashuv – o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish orqali kreativ tafakkurini rivojlantirish.

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuqoridagi yondashuvlarni uyg‘unlashtirish bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ pedagogik tafakkurni tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ pedagogik tafakkurni rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik model ishlab chiqildi:

Maqsadli komponent – tarbiyachilarda kreativ pedagogik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish;

Mazmuniy komponent – innovatsion o‘quv materiallari, loyiha va dizayn topshiriqlari, muammoli vaziyatlar;

Faoliyatli komponent – loyiha asosida o‘qitish, interaktiv mashg‘ulotlar, guruhli va individual ijodiy faoliyat;

Baholash-refleksiv komponent – kreativ tafakkur darajasini aniqlash, o‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish.

Mazkur model bo‘yicha tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning ijodiy faolligi va pedagogik tashabbuskorligini sezilarli darajada oshirdi.

Bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ pedagogik tafakkurni rivojlantirish jarayonida quyidagi innovatsion metodlardan foydalanildi:

Loyiha asosida o‘qitish – talabalarga mustaqil ijodiy mahsulot yaratish imkonini beradi;

Muammoli vaziyatlar – noodatiy yechimlar topish va pedagogik qarorlarni mustaqil qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi;

Interaktiv metodlar – “dizayn fikrlash”, “aqliy hujum” va guruhli mashg‘ulotlar talabalarning kreativ faolligini rag‘batlantiradi;

Refleksiv mashg‘ulotlar – o‘z ish faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish orqali tafakkur rivojlanadi.

Tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, mazkur innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ tafakkurini sezilarli darajada oshirdi.

Pedagogik tajriba davomida bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ pedagogik tafakkurini rivojlantirishning samaradorligi aniqlanib, tajriba va nazorat guruhlari natijalari taqqoslandi. Kuzatuv va so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalarda kreativ tafakkur, pedagogik tashabbuskorlik va ijodiy faoliyat ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘ldi.

**XULOSA**

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ pedagogik tafakkurni rivojlantirishning ishlab chiqilgan pedagogik modeli pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida samarali qo‘llanishi mumkin. Tadqiqot davomida modelning maqsadli, mazmuniy, faoliyatli va baholash-refleksiv komponentlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda talabalarning kreativ fikrlash, pedagogik tashabbuskorlik va ijodiy faollik darajasini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilgani aniqlandi.

Pedagogik tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlar va interaktiv metodlarni qo‘llash bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ pedagogik tafakkurini shakllantirishda an’anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Bu esa pedagogik modelning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Shuningdek, ishlab chiqilgan pedagogik model bo‘lajak tarbiyachilarni ta’lim jarayonida tizimli va izchil rivojlantirishga, innovatsion va kreativ fikrlovchi mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim yo‘nalishida pedagogik faoliyat sifatini

oshirish, talabalarning kreativ va innovatsion salohiyatini rivojlantirishga ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Axmedova D.S. *Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar*. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
2. Nosirova Z.Z., Qodirova M.K. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
3. Raxmonqulova G. *Pedagogik innovatsiyalar asoslari*. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2019.
4. qizi Turdaliyeva, N. A. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. GOLDEN BRAIN, 2(7), 48-52.
5. Soliyev, I., & Boymirzayeva, S. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. Наука и инновация, 1(6), 128-129.
6. qizi Boymirzayeva, S. O. (2024). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BO ‘LAJAK TARBIYACHINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(7), 41-47.
7. Orinova, F., & Turdaliyeva, N. (2025). DEVELOPING CREATIVE THINKING THROUGH HANDICRAFT FOR PRESCHOOL CHILDREN. International Journal of Artificial Intelligence, 1(2), 1610-1616.
8. Turdaliyeva, N., & Mamadjonova, D. (2024). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHDA IJODIY O’YINLARDAN FOYDALANISH. Nordic_Press, 5(0005)
9. Nurjahon, T. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA QOL MEHNATINI RIVOJLANTIRISH. University Research Base, 456-460.

# MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING KREATIV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

**Eraliyeva Zamira Rasuljonovna**
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi
E-mail: zamirahoneraliyeva22@gmail.com

**https://doi.org/10.5281/zenodo.18198432**

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining kreativ malakalarini shakllantirish texnologiyasi, mazmuni, qanday foydalanish lozimligi haqida bilib olishimiz mumkin. Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rahbarlik va boshqarishning yangi innovatsion usullari to‘g‘risida fikrlar bildirilgan. MTT rahbar xodimlarining soha rivojidagi o‘rni, kelajak avlodni vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda maktabgacha ta’lim tashkilotida rahbar tomonidan yaratilgan ijtimoiy muhitning ahamiyati haqida muallifning shaxsiy mulohazalari keltirilgan. Adabiyotlar tahlilida buyuk alomalarimizning fikrlari, hozirgi kundagi tadqiqotchilarimizning so‘zlari va jahon adabiyoti namayondalarining fikrlari keltirib o‘tilgan. Metodologiya qismida yangicha yondashilgan metodlar yoritilgan. Natija qismida olib borilgan tadqiqotlarning natijalari yoritilgan. Yoshlarda boshqaruvchilik va yetakchilik xususiyatlarini shakllantirishga ta’sir etuvchi turli ehtiyoj va omillarni o‘rganish keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** menejment, kreativlik, texnologiya, qobilyat, ishonch, rahbarlik cho‘qqisi, modernizatsiya, aqliy faollik, axloqiy, estetik, intellectual, evristik.

# ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ.

**Аннотация:** В статье рассматриваются технология формирования креативных компетенций директоров дошкольных образовательных организаций, её содержание и особенности практического применения. Представлены мнения о новых инновационных подходах к руководству и управлению в дошкольных образовательных организациях. Приводятся личные рассуждения автора о роли руководящих кадров ДОО в развитии отрасли, а также о значении социально-психологической среды, создаваемой руководителем в дошкольной организации, в воспитании подрастающего поколения в духе любви к Родине и преданности Отечеству. В анализе литературы приведены взгляды великих мыслителей, высказывания современных исследователей и мнения представителей мировой литературы. В методологической части раскрываются методы, основанные на новых подходах. В разделе результатов представлены итоги проведённых исследований. Отражено изучение различных потребностей и факторов, влияющих на формирование у молодёжи управленческих и лидерских качеств.

**Ключевые слова:** менеджмент, креативность, технология, способность, доверие, вершина лидерства, модернизация, умственная активность, нравственный, эстетический, интеллектуальный, эвристический.

# TECHNOLOGY FOR DEVELOPING CREATIVE SKILLS OF DIRECTORS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

**Abstract:** The article examines the technology for developing the creative competencies of directors of preschool educational organizations, its content, and guidelines for effective implementation. It presents perspectives on new innovative approaches to leadership and management in preschool institutions. The author’s reflections highlight the role of managerial

staff in the development of the sector and emphasize the importance of the social environment created by the director in fostering the younger generation in the spirit of patriotism, love for the Motherland, and devotion to the country. The literature review includes ideas of great scholars, statements by contemporary researchers, and opinions of representatives of world literature. The methodology section describes methods based on innovative approaches. The results section summarizes the outcomes of the conducted research. The study also explores various needs and factors that influence the development of managerial and leadership qualities among young people.

**Keywords:** management, creativity, technology, ability, trust, leadership peak, modernization, mental activity, moral, aesthetic, intellectual, heuristic.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi sharoitida demokratik va huquqiy jamiyatni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan ijtimoiy harakat mustaqil fikrlash layoqatiga ega, aqliy, ma’naviy – axloqiy va jismoniy jihatdan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash zaruriyatini kun tartibiga olib chiqdi. Zero, sog‘lom avlod va uning ijtimoiy faolligi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi ta’minlangan huquqiy jamiyatni barpo etish imkoniyatini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 - yil 29 - dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham aynan maktabgacha ta’lim tizimi sohasiga oid muhim vazifalar belgilandi. “Biz oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak[1]”- deya ta’kidladilar, davlatimiz rahbari. Bola dunyoga kelgandan boshlab, unda aynan maktabgacha bo‘lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz-bog‘cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta’lim yo‘nalishi bilan to‘liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” 2019-yil 16-dekabrdagi o‘rq-595-son qonuni) 30-bandning birinchi va ikkinchi xatboshilaridagi “Maktabgacha ta’lim muassasasi”, “Maktabgacha ta’lim muassasasi mudiri” va “Mudira” so‘zlari “Maktabgacha ta’lim tashkiloti”, “Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori” va “Direktor” so‘zlari bilan almashtirilgan.[2]

Direktorlarning kreativ malakalarini oshirish muhim o‘rin egallaydi. Ma’lumki, ta’lim - bu muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega ma’lumotlarni yosh avlodga yetkazish jarayoni hisoblanadi. Inson faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bolalar tarbiyasi o‘zining ko‘p asrlik rivojlanish tarixi davomida sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirdi, kundalik jarayondan ijodiy, faoliyat natijalariga ilmiy asoslangan tizimli, o‘zaro ta’sir majmuasiga aylandi. Jarayonda pedagogik texnologiyalarni joriy etish sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik jarayonni boshqarishni o‘rganish lozim. Mavzu doirasida qator ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilganligiga qaramasdan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar xodimlarini tayyorlash, ularning malakalarini oshirish yuzasidan sohada qator dolzarb masalalar mavjudligi, ularni hal qilish yuzasidan sohada

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.09.2018 yildagi PQ-3955-son

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.05.2021 yildagi 320-son

amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining malakasini oshirish yuzasidan qator tavsiyalar berib o‘tilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Ta’lim boshqaruvi sohasidagi olim R. Stogdill muallifligidagi “Boshqaruv qo‘llanmasi” da ta’kidlanishicha, muvaffaqiyatli boshqaruv va shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyi o‘rtasidagi bog‘liqlik 94% ga teng hamda ma’lumoti o‘rtasidagi bog‘liqlik esa 88% ga tengdir[3]. Yaponiyalik tadqiqotchi T. Kono ma’lumotiga ko‘ra, oddiy yapon menejeri, albatta, pedogogika sohasi bo‘yicha universitet diplomiga ega bo‘lishi shart[4].

Ta’lim tashkilotini boshqarishda malaka alohida ahamiyatga ega. Chunonchi, olim F. Fidler ta’rifi bo‘yicha “ta’limning munosib boshqaruvchisi bo‘lishning eng ishonchli omili, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan xabardorlik va malaka oshirishdir”[5].

Ko‘pgina pedagog-tarbiyachilar o‘zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat pedagog-tarbiyachilar ham aslida “kreativlik” tushunchasi qanday ma’noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar[6].

Lekin O‘. Tolipov va M. Usmonboyevalarning “Pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, maqsadga yo‘naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir” degan ta‘rifi ham maqsadga muvofiq keladi[7].

Botirova Zuxraxon Abdurahimovna Farg‘ona davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o’qituvchisi Do‘stmatova Dilrabo Farg‘ona davlat universiteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi magistrant o‘zlarining tadqiqotlarida shunday fikr bildirishgan: Maktabgacha ta’lim tashkilotining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bolalar va ularning ota-onalarining ehtiyojlarini qondirish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarish tamoyillari, vositalari, shakllari va usullari to‘plamini o‘z ichiga olgan boshqaruvni boshqarish (pedagogik, kadrlar, moliyaviy va boshqalar) g‘oyalarini amalga oshirishga bog‘liq[8]

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi, shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

---

[3] Stogdill R.Gas piston mini cogeneration plants-a cheap and alternative way to generate electricity //Интернаука. – 2020. – №. 44-3. – С. 16-18.

[4] Kono T«Influence of the ultrasonic irradiation on characteristic of the structures metal-glasssemiconductor». ICECAE 2018 IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 614 (2020) 012027 Conference Series:

[5] Fidler F.«Influence of the ultrasonic irradiation on characteristic of the structures metal-glasssemiconductor». ICECAE 2020 IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 614 (2020) 012027 Conference Series:

[6] Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning kreativligini rivojlantirishning ahamiyati. Academic Research in Educational Sciences 1127 b

[7] Maktabgacha ta’lim tashkilotining bo’lajak pedagogpsixologlarida kreativlikni shakllantirish texnologiyasi http://www.newjournal.org/ Volume–14_Issue-4_October_2022, 19 b

[8] Botirova, Z., & Do‘stmatova, D. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTORINING TASHKILIY FAOLIYATINI YO ‘LGA QO ‘YISH. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(4 Part 2), 109-114.

**METODOLOGIYA**

Maktabgacha talim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti o‘quv va metodik ishlar bo‘yicha prorektori, pedagogika fanlari doktori, dotsent N. Abdullayeva “Maktabgacha ta’limda rahbarning boshqaruv qobiliyati va uni o‘ziga xos tomonlari” maqolasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarishda **integral metodni** taklif qiladi. Uning fikricha, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari oldida ikkita boshqaruv vazifasi bor. Bular:

- ✓ Jamoani boshqarish;
- ✓ Tarbiyalanuvchilarni boshqarish.

U taklif qilayotgan metodda rahbar quyidagi sifatlarni shakllantira olgan bo‘lishi lozim.

| | Jamoa boshqaruvi | Tarbiyalanuvchilar boshqaruvi |
|---|---|---|
| 1 | Kadrlarni tanlay olish | Nazorat qilish |
| 2 | Rejalashtirish | Kirishimlilik |
| 3 | Tashkil qilish | Ergashtirish |
| 4 | Nazoratni ajratish | Xushmuomalalik |
| 5 | Motivatsiya berish | Motivatsiya berish |

Biz rahbarlarning hujjatari bilan tanishib ularni ishlash texnikalari bilan suhbat olib bordik. Rahbarning o‘z hujjatlari bilan ishlashlari va ularni qanday yuritib borishlari haqida bilib oldik. Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlari asosan amaliy jarayonlar bilan ishlaganligi bois ularda yangi bilim bilan uzluksiz tanishib borish, mutolaa masalasi muommo hisoblanadi. Shuning uchun, rahbarlarga kreativ malakasini oshirish bo‘yicha ularga faqatgina nazariy bilimlar emas, balki mutolaaga ham e’tibor qaratishlari zarurligini aytib o‘tdik. Chunki, badiiy adabiyotning kommunikativ vazifasi ularga axborot bersa, ekspressiv funksiyasi ularning tuyg‘ulariga ta’sir qiladi. Bu esa rahbarda yangi g‘oyalar bilan ishlashga imkon yaratishi haqida rahbarlar bilan birgalikda suhbat qildik.

Tadqiqotimizda maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarini yangi pedagogik texnologiya asosida qayta tayyorlashda quyidagilarni asosiy vazifa sifatida oldimizga maqsad qilib qo‘ydik:

-yangilangan milliy pedagogik tizimda, xususan maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarini yangi pedagogik texnologiya asosida qayta tayyorlashning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

-o‘qituvchilarni yangi pedagogik texnologiya bo‘yicha bilishi zarur bo‘lgan bilimlar mazmuni va uni tanlash tamoyillarini ko‘rsatib berish, malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarini yangi pedagogik texnologiya asosida qayta tayyorlash prinsiplarini ko‘rsatib berish;

-maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarini malaka oshirishdan keyingi davrida yangi pedagogik texnologiya asosida tayyorlashning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rnini ko‘rsatib berish.

Malaka oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish tinglovchilarda o‘z kasbiga qiziqishini kuchaytiradi. Ushbu yo‘nalishdagi o‘quv jarayonini loyihalashda quyidagilarni nazarda tutish lozim:

-tinglovchi faolligini oshirish;

-hamkorlikka chiqarish;

-yaratilgan dastur,

-qo‘llanma, ma’ruza matnlarini chuqur pedagogik tahlil qilish, mustaqil mutoala qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

-o‘z fikrini bildira olish, himoya qila olish va isbotlay olishga o‘rgatish.

Pedagogik texnologiyaning afzalligi ta’lim jarayonini bir butunlikda ko‘rib, ta’lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda tinglovchi va o‘qituvchilarni bir majmuaga keltirib hamda ta’lim bosqichlarini loyihalab, uni nazorat qilish natijalarini baholash kabi qisimlarni o‘zaro uzviy bog‘lab uning loyhasini tuzishdadir. Ammo eng avvalo boshqaruv san‘ati aniqroq aytganda ijoddir. Rahbarlikka ham san’atkor uchun zarur bo‘lganidek, iqtidor va iste’dod lozim. Natijada to‘plangan bilimlari tajribalarini boshqaruvning umumiy qonuniyatlari sifatida shakllantirib o‘zining rahbarlik usulini yaratadi. U o‘zining boshqaruv usullarini shakllantirishda mutlaqo erkin shaxsdir ammo uning rahbarlik usuli ijobiy natija berishi kerak. Rahbarlik faoliyatining samaradorligi rahbar shaxsining tafakkuri, aql idroki ham bevosita bog‘liq[9].

Bu hammaga ham nasib qilavermaydigan yuksak fazilat. Agar rahbarda mazkur xislatlar shakllangan bo‘lsa, bunday rahbar boshqaruvning sir-asrorlarini mukammal egallab oldi, u o‘z jamoasi o‘rtasida obro‘ va ishonch qozonadi. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini tafakkur va harakat birligi deyish mumkin. Rahbardagi o‘ziga xos talabchanlik mehribonlik hamda ma’suliyat jamoa a’zolarida javobgarlik hissining shakllanishiga sabab bo‘ladi. Malakali rahbar kadrlar tizimini shakllantirish uchun ijtimoiy psixologiya kabi fanlarni yaxshi o‘zlashtirishi lozim. Ana shunday rahbar jamiyat vatan oldidagi ma’suliyatini burchini teran his qiladi, ijtimoiy hayotda inson manfaatlarining ustivorligini hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qiladi.

**NATIJALAR**

Rahbarning boshqaruv san’ati sirlarini bilishi xodimlarni tanlashdan tortib ular bilan bog‘liq ziddiyatli vaziyatlarda oqilona yechim topa olishi, o‘zi ma’sul jabhada yuksak mehnat samaradorligiga erishish uchun jamoaning bunyodkorlik kuchlarini safarbar eta olish qobiliyatidir.

Biz rahbarlarning idrok va tafakkurlarini uzviy bog‘liqligini kuzatish olib bordik. Bu metodimizda rahbarlarning tafakkurlari, kreativ malakalari yuqori saviyaga kelishiga ko‘mak berdi.

Kreativ malaka oshirish jarayonida “Tajriba muassasalari” ni tashkil etish jarayonlari haqida rahbarlar bilan so’z yuritdik. Yangi sharoit va yangi jamoa rahbarning ishni tashkil etish va qay yo‘sinda yondashishini kuzatish imkonini berishi haqida suhbatlshdik. Kreativ malaka oshirish kurslarida bilimlarning shu kabi amaliyotda qo‘llanishi kamchiliklarni bartaraf etishda yaxshi samara beradi haqida aytib o‘tdik.

Samimiyat, adolat, muomala, ishbilarmonlik asosiy muammo bilan ikkinchi darajali vazifalarni o‘z vaqtida bilish, tashabbuskorlik optimizim rahbar madaniyatini tashkil etuvchi omillar hisoblanadi. Rahbarning uzoqni ko‘ra bilishi hayot va ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan murakkab vaziyatlarda o‘zini yo‘qotmasdan noan’anaviy kutilmagan yechimlar o‘ylab topishi, jamoadagi har bir xodim, ishchi ko‘ngliga yo‘l topa olishi rahbar mahoratining namoyon bo‘lishi hisoblanadi.

Bugungi kunning rahbarlari ta’lim jarayonida bo‘layotgan o‘zgarishlardan xabardor bo‘lishlari uchun ularning malakasini oshirib, qayta tayyorlab turish lozim hisoblanadi. Ya’ni jamoada haqiqiy rahbar ruhiy ko‘tarinki kayfiyat bilan ish olib bormog‘i va yashamog‘i lozim. Shu tarzda rahbarlikning eng yaxshi tashkilotchilik, tadbirkorlik fazilatlari shakllanib mukammallashtirib boradi. Boshqarish, eng avvalo, kishilar bilan ishlashdir. Rahbar notiqlik

[9]https://www.graygroupintl.com/blog/early-childhood-organizations

mahoratiga ega bo‘lishi, tushunarli, ifodali va ta’sirchan ishonarli hamdaa da’vatkor ruhda gapirishga o‘rganish kerak. Rahbarning tinglash mahorati bugungi kunda dolzarb vazifaga aylangan. Chunki tinglash qobiliyati gapruvchini ilhomlantiradi, ruhlantiradi. Shu tariqa yangi fikrlar g‘oyalarning shakllantirishiga imkon tug‘iladi. Rahbar qalbi toza, shijoatli ishbilarmon rahbarlik faoliyatida salbiy yoki ijobiy hatti-harakatlar o‘zida shakllangan solahiyat kuchi bilan javob bera olish qobiliyatiga ega bo‘lish kerak.

Demak, zamonaviy boshqaruvning mahorati jamoaning maqsadga intilishini ta’minlashdir. Ushbu fikrni pedagogik psixologiyadagi holat bilan qiyoslasak, quyidagi misol o‘rinli bo‘lardi. Bola o‘z rivojlanishida hamma me’yorlar bo‘yicha ulg‘ayib borayotgan bo‘lsa, ota-ona uning o‘sishiga deyarli aralashmaydi va lekin ulg‘ayishida biron muammo yuzaga kelsa, darhol kerakli choralar ko‘riladi. Jamoani boshqarishda ham rahbar, birinchi navbatda, maqsadga erishish sharoitini yaratishi va xodimlar harakatiga kam aralashuvi yuksak boshqaruv belgisidir.

Kreativ malaka oshirish tizimida “Pedagogika masalalari” kursi o‘quv fanini yangi pedagogik texnologiya asosida olib borish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shuni e’tirof etish kerakki, hali Respublikamizda kreativ malaka oshirish tizimida yangi pedagogik texnologiyalarni, ta’lim innovatsiyalarini to‘plash, ular ichidan faoliyatimiz uchun eng samaradorlarini tajriba sinovlaridan o‘tkazish va o‘quv jarayoniga joriy etishni yo‘lga qo‘yadigan tizim shakllantirilgani yo‘q. Bu jarayon tinglovchilarni o‘quv faoliyatini amalga oshirishda harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Tinglovchi va o‘qituvchini doimiy izlanishga, uzluksiz o‘z ustida ishlashga undaydi. Bu o‘z navbatida, ta’limda samaradorlikni ta’minlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar xabardor bo‘lishlari zarur. Bu faoliyatni amalga oshirish, uni tashkil qilish, olib boorish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadbiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat va baholash kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

O‘quv faoliyati ma’ruzalarni munozara asosida o‘tkazish, amaliy o‘yinlar, davra suhbatlari, pedagogik vaziyatlardan chiqish usullariga bag‘ishlangan munozara, tajriba almashish, interfaol mashg‘ulotlar asosida olib borish maqsadga muvofiq.

Pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda ta’lim jarayonini rejalashtirib, tashxis qilish, natijalash, tuzatish va o‘zgarishlar kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta’limda kutilgan natijaga erishiladi, vaqt tejaladi, tinglovchilar faoliyati yanada yuqori darajaga ko‘tariladi, bu esa pedagogik texnologiyaning samarasi demakdir.

Pedagogik texnologiyaning afzalligi ta’lim jarayonini bir butunlikda ko‘rib, ta’lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda tinglovchi va o‘qituvchilarni bir majmuaga keltirib hamda ta’lim bosqichlarini loyihalab, uni nazorat qilish natijalarini baholash kabi qisimlarni o‘zaro uzviy bog‘lab uning loyhasini tuzishdadir. Ammo eng avvalo boshqaruv san’ati aniqroq aytganda ijoddir. Rahbarlikka ham san’atkor uchun zarur bo‘lganidek, iqtidor va iste’dod lozim. Natijada to‘plangan bilimlari tajribalarini boshqaruvning umumiy qonuniyatlari sifatida shakllantirib o‘zining rahbarlik usulini yaratadi.

**MUHOKAMA**

Rahbariyat guruhlashgan idoraning tashkiliy tuzilishi bilan birga maqsadga ko‘ra tarmoqlanish xususiyatlari, ishlash jarayoni, prinsiplar va qonuniyatlar sohalari bo‘yicha aloqadorligi, muvofiqligi, shart-sharoitlari hamda shu kabi boshqa masalalarni qamrab oladi. Rahbariyat masalalarini tadqiq etish bugungi kunda asosan davlat boshqaruvi, personal boshqaruvi, davlat xizmati va uning tarmog‘i bo‘lgan xizmat huquqi fanlari doirasida amalga oshiriladi. Lekin rahbariyat qanday va qancha tarmoqqa bo‘linmasin yagona tizim bo‘lganligi

tufayli uning ma’lum qonuniyatlar metodlar hamda prinsplarga asoslangan maqsad va vazifalari mavjud. Ularni o‘rganish, tahlil etish, baholash, tadqiq etishning o‘zi yaxlit yo‘nalishdir. Shularga ko‘ra, rahbariyatning mohiyatini har tomonlama o‘rganish rahbarshunoslik doirasida amalga oshiriladigan ish hisoblanadi. Rahbarsunoslik rahbariyat, rahbarlik bilan bog‘liq xususiyatlarni tadqiq etuvchi fanning o‘ziga xos yo‘nalishidir. Uning diqqat markazida: bevosita yoki bilvosita rahbarshunoslikka doir tarixiy zamonaviy yozma manbalar ularning ijodkorlari rahbarshunoslik bilan bog‘liq tarixiy va zamonaviy voqea-hodisalar, amaliy jarayonalar, rahbarshunoslik obyektlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, fan va amaliy jarayondagi masalalarni bir butunlikda olib ularning rivojlanish shart-sharoitlari, asoslari yo‘nalishlari tatbiq etish obyektiv vazifalari va boshqalarni ilmiy tekshirish muvofiqlashtirish va qiyosiy tahlil qilish, sohaga oid qonuniyatlarni kashf qilish va taraqqiy ettirish shu maqsadda muayyan davr hamda kelajak uchun muhum xulosalar taqdim etishni tizimlashtirish kabi masalalar turadi.

Haqiqatdan ham ayolning u yoki bu sohada boshqaruv lavozimini egallashi, ko‘p jihatdan, bu soha ayollarga mosmi yoki erkaklargami degan savolga duch kelamiz. Bir qator tadqiqotlar orqali aniqlanishicha, erkak va ayol aralash ishlaydigan guruhda ko‘pincha erkaklar tashabbusni o‘z qo‘llariga olar emish. Tadqiqotchi Y. Xollander tajribasiga ko‘ra, guruh doirasida hal etiladigan vazifani yechishda erkaklar ko‘proq, maqbul yo‘l topa olishadi va aralash guruhda esa ustunlikka intilishadi. Olimning tushuntirishicha, erkaklarga xos bunday xatti- harakat, ko‘p jihatdan, jamiyatda o‘rnatilgan normalar va erkaklar xulqiga oid ustanovka, ya’ni tartiblardan kelib chiqadi. Bunday ustanovkalar asosidagi standartlar atrofdagilarning bo‘layotgan voqea-hodisalarni idrok etishiga ham katta ta’sir etadi.

**XULOSA**

**Xulosa** qilib aytish mumkinki, MTTga ma’muriy rahbarlik qilish va ularni boshqarishda samaradorlikka erishish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan har bir tashkilotda boshqarish muammosi bor. Bu muammolarni hal etish uchun zamonaviy yetakchi kadrlarga bo‘lgan talablar ham bugungi kunda yo‘q emas. Yosh yetakchi rahbarlarni izlab topish va ularni rag‘batlantirib borish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Mamlakatning umumiy taraqqiyoti individual komillikning yig‘indisi, ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Xalqimiz mentalitetiga xos bo‘lgan ana shu o‘ziga xoslik, ya’ni jamoaga qarab fikrlash, qaror qilishdan iborat mazkur tamoyildan kelib chiqib, yoshlarda boshqaruvchilik qobiliyatini shakllantirish va boshqaruv mahoratini rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

MTT sohasini yoki boshqa tashkilotning rahbari har qanday yoshda ham kuchli, yengilmas va irodali shaxs bo‘lishi kerak. Biroq, yosh yetakchilar o‘zlariga yuklangan barcha mas’uliyatni tushunmaydilar. Ma’lumki, yosh yetakchilar o‘zlariga juda ham ishongan bo‘ladilar. Biroq, ularda tajriba yetarli bo‘lmaydi. Katta yoshdagi yetakchi yetarlicha tajribaga ega bo‘lgani bois o‘zi va jamoani boshqarishni, qayerda va qanday harakat qilishni juda yaxshi biladi. Ammo yosh yetakchi boshqalardan o‘rganadi, o‘z maqsadiga qanday erishishni tasavvur eta oladi.

Maktabgacha sohasini rivojlantirishda ijtimoiy boshqaruv mexanizmalarini tahlil etishdan maqsad talabalarda boshqarish muammolariga qiziqish uyg‘otish, amaliy tashkilotchilik faoliyatiga ishtiyoq tug‘dirishdir. Chunki hozir boshqarish asoslarini va bozor ko‘nikmalarini o‘rganayotgan talabalar kelgusida boshqarish tizimining xodimlari, kichik va o‘rta, katta jamoalarning rahbarlari, ijtimoiy, tashkiliy-texnik faoliyatining turli sohalarini boshqarish bo‘yicha loyihalar, tadbirlar ishlab chiquvchilar bo‘lib yetishadilar. Shu boisdan boshqaruv san’atini o‘rganishni keng yo‘lga qo‘yish davr talabi hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
2. Qayumova N.M. "Maktabgacha pedagogika" TDPU nashriyoti -T.: 2017 y.
3. Афанасьева, О. В. Творчество: свобода и необходимость / О. В. Афанасьев. – Москва: Просвещение, 1995. – 275 с
4. Rasuljonovna, E. Z. (2025). BOLALARDA BADIIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSI. Journal of universal science research, 3(6), 49-57.
5. Эралиева, З. Р. (2025). ЗНАЧЕНИЕ И ПРИМЕНЕНИЕ 3D И ВИРТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ВООБРАЖЕНИЯ, ВНИМАНИЯ, ПАМЯТИ, МЫШЛЕНИЯ И ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКА. BILGI ÇEŞMESI, 1(7), 16-22.
6. Eraliyeva Zamira. (2023). BOLALAR KITOBXONLIGI VA MEDIYA MUHITIDA BOLALIK KONSEPTINING IFODALANISHI. Innovations in Technology and Science Education, 2(15), 287–295. Retrieved from https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/1967

# MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARGA INGILIZ TILINI O‘RGATISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI.

**Eraliyeva Zamira Rasuljonovna**
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi
E-mail: zamirahoneraliyeva22@gmail.com
**https://doi.org/10.5281/zenodo.18198647**

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ingliz tilini o‘rgatishning samarali usullari yoritib berilgan. Maqolaning kirish qismida yurtimizda chet tilini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor hamda Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda chet tillarini o‘rgatishga doir prezident qarorlari va maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi kabi qarorlar bilan asoslar keltirib o‘tilgan. Adabiyotlar tahlilida chet el olimlarining olib borgan ishlaridan faktlar, o‘zbek adiblarimizning fikrlari va shu bilan birgalikda turli jurnallarda chop etilgan maqola va tezislardan ma’lumot keltirilgan. Metodologiya qismida maktabgacha yoshdagi bolalarga interaktiv texnologiyalar orqali o‘zaro ta’sir qilish, o‘zgalar bilan muloqot qilish, barcha ishtirokchilarni qamrab oladigan kognitiv va kommunikativ faoliyatni tashkil etish shakli zamonaviy ta’lim makonida ta’lim va tarbiyaning asosiy maqsadi har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan va shu bilan birga turli xil metodlardan namunalar keltirib o‘tilgan. Xulosa va takliflar qismida tatqiqotlar o‘tkazish jarayonida kelingan xulosalar keltirib o‘tildi.

**Kalit so‘zlar:** Platalar, interfaol, tamoyil, interaktiv, tadqiqot, motivatsiya, kognitiv, texnologiya, komunikatsiya, konsepsiya, algoritm, optimal, aqliy faoliyat, o‘yin metodikasi, interfaol doska.

# ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.

**Эралиева Замира Расулжоновна**
преподаватель Кокандского университета
E-mail: zamirahoneraliyeva22@gmail.com

**Аннотация:** В статье освещаются эффективные способы обучения английскому языку детей в дошкольных образовательных организациях. Во вводной части статьи приводятся обоснования, связанные с повышенным вниманием в нашей стране к изучению иностранных языков, а также с президентскими решениями, касающимися обучения иностранным языкам в дошкольных образовательных организациях, и Концепцией развития системы дошкольного образования до 2030 года. В разделе анализа литературы представлены факты из исследований зарубежных учёных, мнения отечественных писателей, а также сведения из статей и тезисов, опубликованных в различных журналах. В методологической части рассматривается организация интерактивных технологий для детей дошкольного возраста как форма взаимодействия, общения с окружающими и организации когнитивной и коммуникативной деятельности, охватывающей всех участников; подчёркивается, что в современном образовательном пространстве основная цель обучения и воспитания направлена на формирование всесторонне развитой личности, при этом приводятся примеры различных методов. В разделе «Выводы и предложения» представлены результаты и выводы, полученные в ходе проведения исследования.

**Ключевые слова:** платформы, интерактив, принцип, интерактивный, исследование, мотивация, когнитивный, технология, коммуникация, концепция, алгоритм, оптимальный, умственная деятельность, игровая методика, интерактивная доска.

## EFFECTIVE WAYS TO USE INTERACTIVE METHODS IN TEACHING ENGLISH TO OLDER PRESCHOOL CHILDREN.

**Zamira Rasuljonovna Eraliyeva**
Lecturer, Kokand University
E-mail: zamirahoneraliyeva22@gmail.com

**Abstract:** The article describes effective methods of teaching English to children in preschool educational institutions. The introduction provides a rationale based on the growing attention in our country to foreign language learning, as well as presidential resolutions related to teaching foreign languages in preschool institutions and the Concept for the Development of the Preschool Education System until 2030. The literature review presents facts from studies conducted by foreign scholars, opinions of Uzbek writers, and information from articles and theses published in various journals. The methodology section considers the use of interactive technologies with preschool children as a form of interaction, communication with others, and the organization of cognitive and communicative activities that engage all participants; it emphasizes that in the modern educational environment the main goal of teaching and upbringing is to form a comprehensively developed individual, and examples of various methods are provided. The conclusion and recommendations section summarizes the findings obtained during the research process.

**Keywords:** platforms, interactive, principle, interactivity, research, motivation, cognitive, technology, communication, concept, algorithm, optimal, mental activity, game-based methodology, interactive whiteboard.

### KIRISH

Maktabgacha ta’lim bolalarni kashf qilish davri hisoblanadi. Bu davrda bolalarni faol, ijodkor hamda ma’naviy yetuk inson qilib yetishtirishning ilk devonchasi desak adashmagan bo‘lamiz. Shu sababdan ingiliz tilni o‘rgatish ayni shu davrdan boshlanishi maqsadga muvofiq deb topilgan. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, barcha sa’y-harakatlar ta’lim sifati hamda ingiliz tilini yangi multimedia texnologiyalari orqali o‘rgatishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir. Davlatimiz rahbari tomonidan ta’lim tizimining ilk poydevori qo‘yiladigan maktabgacha ta’lim sohasini yangi pog‘onaga olib chiqish, bolalarning iqtidori hamda salohiyatini ilk yoshlardanoq to‘g‘ri yo‘naltirish borasida juda ko‘p tashabbuslar hayotga tatbiq etilmoqda va bu sa’y-harakatlar bolalar ta’lim-tarbiyasida o‘zining ijobiy natijasini bermoqda.

So‘nggi bir necha yil ichida chet tilini o‘rganish o‘z-o‘zini rivojlantirishning bir usuli emas, balki zarurat bo‘lib qoldi. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatimizda chet tillarini o‘rganishga katta e’tibor berib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni Respublikamizda maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qaratilgan katta e’tiborlardan biri bo‘ldi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to’g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

qarorlar hamda ushbu songa tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma'lum darajada xizmat qiladi. Qisqa vaqt ichida respublikamizdagi bog'chalar soni 3 barbarga oshib, bog'cha yoshidagi bolalarni qamrab olish darajasi 28 foizdan 54 foizga yetgani ana shu amaliy harakatlarning natijasidir. Bolalalarni bugungi zamon ruhiga mos qilib tarbiyalashda xorij tajribasining o'rni katta hisoblanadi.

Bugungi kunda chet tiliga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Buning boshlang'ich ko'rinishi maktabgacha ta'lim tizimida namoyon bo'lmoqda. Chet tilini o'rganishda interaktiv metodlardan va innovatsion texnologiyalardan yetarlicha foydalanilmasligi hozirda dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Davr taraqqiyoti, globallashuv jarayoni yoshlardan bir necha xorijiy tillarni bilishlarini talab etmoqda. Mashhur nemis psixologi O. Kronning fikriga ko'ra, bolalar uch yoshidan boshlab ularga berilayotgan bilimni o'zlashtira olishga, ya'ni bilim olishga qodir hisoblanadi. Mana shu dastlabki uch yil davomida bola uning ota-onasi yoki tarbiyachisining tuzgan rejalari va dasturi bo'yicha emas, balki o'zining dasturi bo'yicha bilim oladi. Keyinchalik esa bola tarbiyachilari tomonidan tuzilgan rejalarga moslasha boshlaydi va shu dastur bo'yicha bilim oladi. Shunday ekan, bolani o'qishga qiziqtirish, ya'ni xorijiy tillarni bolalarga oson va tushunarli, shu bilan bir qatorda qiziq qilib o'rgatishda biz bir qator zamonaviy metodlardan foydalanishimiz mumkin.

Garvard universiteti professori M. Rivers fikricha, savodli bo'lish, o'qish va yozuvni bilish, degan ma'noni anglatadi. Til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liqdir. Olimlar va psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Hatto K. D. Ushinskiy ham shunday deb yozgan edi: "Bola biz bir necha yil ichida o'rgana olmaydigan darajada chet tilini bir necha oyda o'rganadi".

N.Tarasyukning fikricha, "Tilda muloqot qilish va nutqiy faoliyat orqali bola rivojlanadi, tarbiyalanadi, olamni va o'zini taniydi, xususan, xorijiy ta'lim jarayoni bolaga berishi mumkin bo'lgan o'sha barcha ma'naviy boylikni egallaydi". Chet tillarni o'rganishning eng maqbul va oson o'zlashtirish davri maktabgacha bo'lgan davr bo'lib, bolalarda til egallashning o'ziga xosligini tug'ma qobiliyat deyish mumkin.

Marasulova Dono Nigmatullayevaning Integrativ yondashuv asosida 5-6 yoshli bolalarga ingiliz tilini o'rgatishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish mavzusidagi falsafa doktori (PhD ) dissertatsiyasida integativ yondashuv asosida 5-6 yoshli bollalarga ingiliz tilini multimedialardan foydalanib o'rgatish samaradorligini takomillashtirish haqida ma'lumot beradi. Bundan ko'rinib turibdiki 5-6 yoshli bolalarga ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'rgatishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish jarayonida chet tilda berilayotgan materiallarning asta-sekin murakkablashib borishi bolalarning intellektual va shaxsiy salohiyatini ochib berib, chet tildagi nutqni muvaffaqiyatli o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi va keyingi o'quv bosqichlarida ingliz tilini o'zlashtirishni yanada samaraliroq qiladi.

**METODOLOGIYA**

Interfaol o'yinlar orqali ingliz tilini o'rganuvchi bolalar o'zlarini ancha erkin tutadilar, xatto uyatchan bolalarni ham ushbu o'yinlarda qatnashishga undaydi. Interfaol o'yinlarni, ayniqsa, grammatika va so'z boyligini orttirish jarayonida qo'llash samarali natija beradi. Ammo bu o'yinlarni qo'llashdan oldin pedagog bolalarga o'yindan ko'zlangan maqsadni, o'yin qoidalarini aniq tushuntirishi va o'tilayotgan mavzu bilan chambarchas bog'lashi kerak. Interfaol o'yinlar bolalarning tasavvuri, zehni, xotirasi va narsa buyumlarga bo'lgan e'tiborini oshiradi. Bolalarga til o'rgatishda turli o'yin turlaridan foydalanish ijobiy samara beradi. Masalan, yakka, juftli,

guruhli, ommaviy o‘yinlar yoki rolli, tashkiliy kommunikativ, ijodkorlikka yo‘naltiruvchi, intellektual musobaqaga asoslangan, didaktik, yoki kompyuterli o‘yinlar shular jumlasiga kiradi. Ta’limning zamonaviy texnalogiyalarida bir nechta interfaol metodlar bo‘lib, ular ingliz tili mashg‘ulotlarining samarali darajada o‘tilishini ta’minlaydi. Didaktik o‘yinlar ingliz tili mashg‘ulotining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bular, “O‘zim tekshiraman”, “Tez javob”, “Rasmlar”, “Pantomima”, “Harflarni top” o‘yini, “Sirli so‘z”, “Zanjir”, “O‘yin topishmoq” va boshqalar. Chet tili ta’limi, birinchi navbatda, chet tilidagi kundalik uchraydigan, real bilim va ko‘nikmalarni o‘rganishga chorlashi kerak, lekin aniq bilimlarni ham rivojlanishiga beparvo qaramaslik kerak. Agar biz chet tili ta’limida qo‘llaniladigan metodik-didaktik qarashlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, quyidagilarni ta’kidlab o‘tishimiz talab etiladi: Dars jarayoni bu nafaqat kommunikativ, balki kelajakda o‘rgangan bilimlarni qo‘llay olish imkoniyatini beradigan kompetensiyalarni qamrab olishi zarur.

“Tasavvurni rivojlantirish”. Ushbu metodda bolalarga biror holatning aksi tushirilgan rasm yoki kartochka beriladi, bola esa ushbu rasmga muvofiq o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib kichik hikoyacha yaratadi. Tarbiyachi bilan birgalikda ushbu kichik hikoyachani chet tiliga tarjima qilishadi va yangi so‘zlarni o‘rganishadi. Bu usul orqali bolalar o‘z tasavvurlarini boyitishlari va jarayon davomida yangi so‘zlarni o‘zlashtirishlari mumkin bo‘ladi.

“Xatoni top” o‘yini. Ushbu o‘yinda o‘qituvchi tomonidan mavzuga aloqador noto‘g‘ri ma’lumot aytiladi, bolalar esa chaqqonlik bilan bu xatoni topishlari kerak bo‘ladi. Misol uchun darsda sabzavotlarning nomlari o‘rganilayotgan bo‘lsa, o‘qituvchi tomonidan “carrot-qovoq” tarzida ma’lumot beriladi. Bolalar zudlik bilan carrot qovoq emas, balki sabzi ekanligini aytishlari kerak bo‘ladi. Bu o‘yin nafaqat bolalarda e’tiborli bo‘lishlikni kuchaytiradi, balki ularning chaqqon bo‘lishlariga ham undaydi.

“Qadam-ba qadam” o‘yini. Bu o‘yin juda ham qiziqarli bo‘libgina qolmay bolalar uchun juda foydalidir. Ushbu o‘yinda uch yoki to‘rtta bola qatnashishi mumkin bo‘ladi. Har bir bola alohida bo‘lib guruhlarga bo‘linib turib olishadi va marra belgilanadi. Tarbiyachi turli xil so‘zlar aytadi va kim birinchi bo‘lib ushbu so‘zni chet tilida nomlanishini topsa bir qadam oldinga yuradi. Marraga birinchi bo‘lib yetib kelgan bola o‘yinning g‘olibiga aylanadi.

“Video va audio materiallardan foydalanish”. Bolalarning darsga bo‘lgan qizishini orttirish maqsadida ularga qiziqarli va tushunarli bo‘lgan videolar namoyish qilish ham darsning samaradorligini oshiradi. Audioda aytib o‘tilgan predmetlarni (hayvonlar, mevalar, o‘quv qurollari va hakazolar) topish va o‘qituvchiga ko‘rsatish nafaqat bolani yangi so‘zlarni tez yodlashga, balki ularning talaffuzini ham yodda saqlashga yordam beradi.


“Bu kim?” (Who is she/he?) “U nima?” (What is that?) o‘yini. Bu o‘yinda bolalar faoliyat xonasi bo‘ylab harakatlanib, xonada mavjud narsalar yuzasidan bir-birlariga savollar berishadi. Ushbu o‘yin interaktiv o‘yin bo‘lib, bolalarning o‘zaro muloqoti asosiga quriladi. Bolalar savollarga narsalarni ushlab ko‘rib yoki rasmdagi tasvirlardan foydalangan holda javob beradilar. Bu esa bolalarning tasavvurlarining yanada kengayishiga olib keladi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan metodlar yordamida darsni bolalarni o‘ziga jalb qila oladigan, ular uchun foydali, samarali, hamda qiziqarli tarzda tashkil qilish mumkin. Ushbu metodlar bolaga darsni uzoq vaqt xotirasida saqlab qolishga katta yordam beradi.

**NATIJALAR**

“Inglizcha qo‘shiqlar tinglash, hamda raqsga tushish”. “Xatoni top”. “Qadam-ba qadam”. “Bu kim?” (Who is she/he?) “U nima?” (What is that? metodlarini 3 oy jarayonida guruh tarbiyalanuvchilari o‘rtasida haftada ikki marta qo‘llanib kelindi. Bu metodlar kunning birichi

yarimida, turli mashg‘ulot faoliyatlarida almashinib qo‘llanildi. Bu jarayonda bolalar juda ham faol qatnashib kelishdi. Birinchi oy yakunida 01 guruhi ko‘rsatgichi 15 % ko‘rsatdi. 02 guruh esa 30 % natija ko‘rsatdi. Ikkinchi oy yakunida bu ko‘rsatgichlar 01 guruhuda 25 % 02 guruhda 50%. Uchinchi oy yakunida 01 guruhi 40 % va 02 guruhi 70 % natijani ko‘rsatdi.




**1-rasm. Metodlarni amalyotda qo‘llash 01-guruh**

Bu o‘tkazilgan metodlardan foydalanish jarayonidan shunday hulosaga keldimki, biz barcha faoliyatlarimizda yangi-yangi mavzuga mos keladigan, takrorlanmas metodlardan unumli foydalanib borsak samarali maqsadga erishgan bo‘lamiz.


**MUHOKAMA**

Bolalar ingliz tilini o‘rganish jarayonida o‘zlaridagi yutuqlarni his etishlari uchun har bir o‘quv mashg‘ulotiga mukammal yondashish kerak. Ana shundagina bolalarda o‘rganishga motivatsiya uyg‘onadi. Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar yangi bilimni qabul qilish imkoniyatlari juda ilgarilab ketganligi sababli MTT lardagi o‘qitish dasturlari shunga mos ravishda intensivlashtirilgan. Bolalar o‘rtasida musobaqalar judayam muhim, sababi bolalarda yoshligidan raqobat tuyg‘usini shakllantirib borish kerak bo‘ladi. Ana shundagina har bir bolada motivatsiya tilga bo‘lgan qiziqish uyg‘onadi. Insoning barcha qiziqishlari raqobat orqali keladi. Buni bolalar timsolida ham ko‘rishimiz mumkin, ularda bu yo‘l orqali jamlikni, raqobat orqali raqibini bilishni atrofni o‘rganishni o‘rgatadi.

Ingliz tilidagi dars “shu yerda va aynan hozir” ma’nosida o‘tkazilishi kerak. Bolalar chet tilini hikoyalarni tushunish yoki o‘yinlarda g‘alaba qozonish orqali osonroq o‘rganadilar[1]. Hozirgi

[1] file:///C:/Users/User.AD.009/Downloads/maktabgacha-talimda-bolalar-uchun-chet-tillarini-oqitish-metodlari-hamda-ulardan-foydalanish-usullari.pdf

bosqichda maktabgacha ta’lim sifatini oshirish uchun yangi yechimlarni talab qiladi. Bolalarning ta’lim va bilim sifatlarini oshirish uchun interfaol dasturlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish zarurati tug‘iladi.




**2-rasm. Metodlarni amalyotda qo‘llash 02-guruh**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirish va oshirish kognitiv jarayonlarni jadal shakllantirish, tez yodlash kabi maktabgacha yoshdagi bolalar tilida, to‘siqlarining yo‘qligi, taqlid qilishning ma’lum qobiliyati borligidir. Ingliz tili darsida interfaol doskadan foydalanish ikkinchisini tashkil qilish imkonini beradi. An’anaviy darsga qaraganda yorqinroq, shakli va mazmuni interaktiv usuldan foydalanish platalar audio va video vositalar bilan birgalikda aniqlik va izchillik tamoyillarini amalga oshirishga imkon beradi. Interfaol doskaning afzalligi bu birlashtirish qobiliyatidir. Davlat Ta’lim Standartiga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalar uchun allaqachon interaktiv o‘quv qo‘llanmalari ishlab chiqilgan. Interfaol trening axborotni taqdim etish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi, materialning mavjudligi va tizimli taqdimoti bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qitishga yordam beradi. O‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan turli didaktik o‘yinlar, so‘zlar bilan ishlash maktabgacha yoshdagi bolalarga nutq tilini o‘rgatadigan asosiy birlikdir. U bolaning ixtiyoriy e’tiborini rivojlantirishga imkon beradi, bolani o‘quv jarayoniga jalb qiladi, shu bilan chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini amalga oshiradi va iboralar va jumlalarni o‘rganishga yordam beradi.

Dunyo olimlarini takidlashicha chet tilini o‘rganish o‘n ikki yoshgacha bo‘lgan bollarda oson kechishi haqida yakdil fikirga kelishgan. Bu davrda bola tilni tushnib emas balki mexanik

tarzda o‘rganadi, shuning uchun xorijiy tilni qo‘llash va talafuz qilish oson kechadi. Bundan tashqari bog‘cha yoshidagi uch yoshgacha bo‘lgan bolalarda miyaning qabul qilish hajmi katalarga nisbatan ikki baravar tezroq amalga oshirilishi isbotlangan. Bazi bir olimlar yana shuni ham maslaxat qilishadiki bolaga tug‘ilganidanoq ikkinchi tilni o‘rgatish lozim. Shunda bola qo‘shimcha tilni qiyinchliklarsiz tez va oson o‘rganadi. Hozirda ko‘plab maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlarimiz asosiy o‘quv darsliklarni chet el o‘quv qo‘llanmalaridan foyadalanilgan holda o‘tishadi.

**XULOSA**

**Xulosa** qilib shuni aytishimiz lozimki maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o‘qitishda asosan o‘yin, rasmlar, qo‘shiq va she’rlardan, multfilmlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Farzandlarimiz yetuk kadr bolib yetishlarida avvalo, maktabgacha ta’limning o‘rni ahamiyatlidir. Biz ularni zamonaviy texnalogiyalar va zamonaviy ta’lim tizimi bilan taminlashimiz talab etiladi. Maktabgacha talim jamiyatdagi har bir inson ildizlarining rivojlanishi, ularning kelajakda ona yurtiga munosib farzand, kuchli shaxs bo‘lib voyaga yetishlarida ham katta ahamiyatga ega. Biz farzandlarimiz ta’limiga ko‘proq etibor berishimiz, zamonaviy shart-sharoitlar yaratishimiz, yangi-yangi usullar orqali chet tillarini mukammal o‘rganishlariga ko‘maklashishimiz zarur. Shuning uchun ham bolalarimizga yoshligidan ta’lim berib borishimiz, o‘qishga qiziqtirishimiz, jamiyatimizdagi har bir bolani nazardan chetda qoldirmasligimiz, o‘rganishga qiynalgan bolalar bilan ham alohida shug‘ullanishimiz, turli xil qiziqarli o‘yinlar bilan e’tiborlarini tortishimiz, chet tillarini o‘rgatish davomida muntazam rag‘batlantirib borishimiz ularni kelgusidagi ta’limlari uchun dastlabki qadam bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ 312-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizim va tarbiya to‘g‘risida” gi O‘RQ595-sonli qarori
3. Ergasheva G Jabborova D Ergasheva X Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingiliz tilini o‘rgatish. O‘quv qo‘llanma. Namangan. 2021.
4. Azimova M. U. ФОРМИРОВАНИЕМАТЕМАТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ У ДЕТЕЙ 6-7 ЛЕТ ПОСРЕДСТВОМ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР. - Colloquium journal, 2021.
5. Nishonova Z. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. Toshkent-2006: 40-bet.
6. Rasuljonovna, E. Z. . (2023). Bolalar Kitobxonligi Va Mediya Muhitida Bolalik Konseptining Ifodalanishi. Miasto Przyszłości, 40, 329–334. Retrieved from https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1820
7. Eraliyeva, Z. (2023). MTT NING MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI MANTIQIY FIKRLASH VA BAHS MUNOZARALI VAZIYATLARDA YECHIM TOPISHGA VA BADIIY NUTQQA O‘RGATISH. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(18). извлечено от http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/19
8. Yuldasheva Dilafruz, Jabborova Marifatxon, Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, Maziyayeva Muqaddasxon (2022). MAKTABGACHA TA’LIMGA YANGICHA YONDASHUV. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (Special Issue 3), 121-125.

9. Normatova Solihabonu Nodirjon qizi. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA XORIJIY TILLARNI O'QITISH METODIKASI VA AHAMIYATI. https://doi.org/10.5281/zenodo.8112216
10. Mohina Farhod qizi, A. (2022). MAKTABGACHA TA'LIMDA INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI. Educational Research in Universal Sciences, 1(6), 31–34. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/424

# MUSOBAQA FAOLIYATIDA GANDBOLCHILARNING TEZKOR QARSHI HUJUMLARINI NAZARIY TAHLILI

**G‘ofurov Mirzohid Gulomjonovich**
Sport turlari nazariyasi va metodikasi kafedra o‘qituvchisi
E-mail: G‘ofurovM@gmail.com

**https://doi.org/10.5281/zenodo.17938354**

**Annotatsiya:** Malakali gandbolchilarda tezkor qarshi hujum tayyorgarligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqash uchun anketa so‘rovlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq deb hisoblandi.

**Kalit so‘zlar:** Malakali, gandbolchi, yugurish tezligi, darvozabon, to‘p uzatish, to‘pni ilib olish, to‘pni olib qo‘yish, erga urib, olib yugurish.

# ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ БЫСТРЫХ КОНТРАТАК ГАНДБОЛИСТОВ В СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Гафуров Мирзохид Гуломжонович**
Преподаватель кафедры теории и методики спорта
E-mail: G‘ofurovM@gmail.com

**Аннотация:** Признано целесообразным провести анкетирование для выявления факторов, влияющих на готовность квалифицированных гандболистов к быстрым контратакам.

**Ключевые слова:** Мастерский, игрок в гандбол, скорость бега, вратарь, пас, ловля мяча, отбирание мяча, удар о землю и бег с мячом.

# THEORETICAL ANALYSIS OF HANDBALL PLAYERS' QUICK COUNTERATTACKS IN COMPETITION ACTIVITIES

**Gafurov Mirzohid Gulomjonovich**
Teacher of the Department of Theory and Methodology of Sports
E-mail: *G‘ofurovM@gmail.com*

**Abstract:** It was considered appropriate to conduct a questionnaire survey to identify factors affecting the readiness of skilled handball players for quick counterattacks.

**Keywords:** Skilled, handball player, running speed, goalkeeper, passing, catching the ball, taking the ball away, hitting the ground and running with it.

## KIRISH

Respublikamizda bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan “Jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish va boshqaruv tizimini raqamlashtirish, pedagogik va ilmiy salohiyatni yanada oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini tubdan yaxshilash, ilg‘or xorijiy sport-ta’lim texnologiyalarining transferini amalga oshirish orqali yuqori natijalarga erishish” asosiy maqsad qilib belgilanmoqda. Shuningdek yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo‘yicha yuqori natijalarni ta’minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va trenerlar uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommaliashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son Farmoni, 2022-yil 3-noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-414-son Qarorida belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Malakali gandbolchilarni raqobatbardosh faoliyatga tayyorlash, o‘quv-mashg‘ulotlarining ko‘p yillik bosqichlarida texnik tayyorgarlikka oid maxsus mashqlar yordamida qarshi hujum samaradorligini oshirishga yangicha ilmiy-nazariy yondashish dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Ushbu muammoni hal etish yo‘lida bir qator mahalliy va xorijiy olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, F.A.Abduraxmanov, Sh.K.Pavlov, R.R.Kariyeva, A.A.Artikov tomonidan musobaqa faloiyatida texnik va jismoniy tayyorgarlik holatini tizimli baholash uslubiyati ishlab chiqilgan, u yoki bu o‘yin ampluasidagi o‘yinchilarni tayyorlashni o‘ziga xos xususiyatlari muammolari tadqiq qilingan.


**Ishning maqsadi.** Malakali gandbolchilarda tezkor qarshi hujum tayyorgarligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqash uchun anketa so‘rovlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq deb hisoblandi.

**Ishning tashkil qilish va usullari.** Ushbu uslub malakali gandbolchilarning o‘quv-mashg‘ulot tartibi, tezkor qarshi hujumlarni tashkil etilishga yo‘naltirilgan mashg‘ulot yuklamalarining hususiyatlari, ishchanlik qobiliyatlari dinamikasi, o‘quv-mashg‘ulot jarayonini bashqarish tuzilmasini o‘rganib chiqish uchun qo‘llanildi.

**NATIJALARI VA MUHOKAMA**


Natijalari va muhokama davomida anketalash va suhbatlar gandbol bo‘yicha mutaxasislar va murabbiylar ishtirokida o‘tkazildi.

Anketa so‘rovida 12 ta yuqori malakali murabbiylar ishtirok etdi. Anketa 6 ta savolni o‘z ichiga oldi. Mutaxassislarning javoblari quyidagicha bo‘ldi. Musobaqa faoliyatida gandbolchilar uchun tezkor qarshi hujumdan foydalanishning ahamiyatililigini aniqlang deyilgan birinchi savolga murabbiylar shunday javob berdilar: 6 nafar murabbiy ahamiyatliligi yuqori, 6 nafar murabbiy ahamiyatliligi o‘rta deya qayd etdilar. Tezkor qarshi hujum muvoffaqiyatga ta’sir ko‘rsatuvchi eng ahamiyatli omillardan uchtasini tanlang deyilgan ikkinchi savolga mutaxassislar tomonidan tanlangan omillar natijalari hilma-hil bo‘lib chiqdi (1-rasm). Murabbiylar asosiy omil sifatida hujumchilar tomonidan o‘zaro uzatilgan to‘pni olib qo‘yish, to‘pni o‘yinchilarga bexato uzatish va himoyachilar faolligini alohida ko‘rsatib o‘tganlar.





**1-rasm. Murabbiylar tomonidan tanlangan tezkor qarshi hujumlar muvoffaqiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar nisbati**

So‘rovnomaning Tezkor qarshi hujum muvoffaqiyati uchun gandbolchilarga zarur bo‘lgan uchta eng muhim sifatlarni tanlang deyilgan uchinchi savoliga murabbiylar, yugurish tezligi, darvozabon bilan o‘zaro harakat, to‘p uzatishda vaziyatni tushunish kabi omillarni tanladilar (2-rasm).




**2-rasm. Murabbiylar tomonidan tanlangan tezkor qarshi hujumlarni tashkil etish uchun gandbolchilarga zarur bo‘lgan sifatlar nisbati**

Murabbiylar, malakali gandbolchilarni tezkor qarshi hujumga o‘rgatish uchun zarur bo‘lgan uchta eng ahamiyatli mashqlarni belgilang deyilgan to‘rtinchi savolga qarshi hujumga yugurish va darvozabondan uzatilgan to‘pni ilib olish, qarshi hujumga yugurish va sherikdan uzatilgan to‘pni ilib olish, to‘pni olib qo‘yish va uni erga urib olib yugurish kabi mashqlarni asosiy mashqlar sifatida tavsiya qilganlar (3-rasm).




**3-rasm. Tezkor qarshi hujumlarni o‘zlashtirish uchun tavsiya qilingan mashqlar nisbati**

Siz mashg‘ulot vaqtining necha daqiqasini (%) tezkor qarshi hujumga ajratasiz? Murabbiylar ushbu savolga 10-12 daqiqa deb javob berishdi. Tayyorgarlik davrida ushbu mashqlarga umumiy mashg‘ulot vaqtining 5-8 % ni, musobaqa davrida esa 10 dan 15% gacha ajratishar ekan.

O‘z sportchilaringiz bilan tezkor qarshi hujumning qaysi turlarini tez-tez takomillashtirasiz? Deb so‘ralgan so‘nggi oltinchi savolga barcha murabbiylar, asosan individual

tez yorib o‘tish hujumlarni takomillashtirish mashqlariga ko‘proq e’tibor qaratishlari ma’lum bo‘ldi.

**XULODA**

Murabbiylar bilan o‘tkazilgan anketa so‘rov natijalari shuni ko‘rsatadiki, ular bitta mashg‘ulot jarayonida tezkor qarshi hujumlarni takomillashtirishga atiga 10-12 daqiqa ajratadilar. Tayyorgarlik davrida ushbu mashqlarga umumiy mashg‘ulot vaqtining 5-8 % ni, musobaqa davrida esa 10% dan 15% gacha ajratadilar. Barcha mutaxassislarning ta’kidlashicha, ular asosan qarshi hujumlar turi hisoblangan individual tez yorib o‘tish hujumlarini takomillashtirish mashqlariga ko‘proq e’tibor qaratadilar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.11.2015 yildagi “Oliy mahorat sport maktablarini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-2438-son qarori. Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.01.2020 yildagi “O‘zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5924-son Farmoni. Lex.uz.
3. Абдурахманов Ф.А., Кариева Р.Р., Оптимизация нагрузок различной направленности в межигровых циклах соревновательного периода гандболистов высокой квалификации. Фан-спортга илмий назарий журнал. 2019. № 2. – Б. 47-53.
4. Алешин И.Н., Рыбаков В.В., Алешин И.Н. и др. Моделирование годичной подготовки в командных игровых видах спорта / Теория и практика физической культуры. 2007. №10. – С. 38-42.
5. Артыков А.А. Анализ специализированниых средств по совершенствованию целевой точности технических приемов в футболе: Фан-спортга илмий-назарий журнал №3. 2017. - С. 46-47.
6. Болтовский А.Ю., Банникова Н.А., Воробьева О.И. Методика комплексной оценки эффективности игровой деятельности спортсменов // Современные проблемы науки и образования. – 2022. – № 4. - С. 4-5.
7. Бальсевич В.К. Перспектива развития общей теории и технологии спортивной подготовки и физического воспитания / В.К. Бальсевич // Теория и практика физ. культуры. - 1999. - № 4. - С. 21-25.
8. Борисов Э.Л., Романов А.В. и др. Характер соревновательной деятельности и надёжность действий игроков, выполняющих семиметровый штрафной бросок в гандболе: сборник статей Международной научно-практической конференции. Уфа: 2020. - С. 175-178.

# 11-12 YOSHLI FUTBOLCHILARNI TAYYORGARLIK DARAJASINI O‘RGANISH VA O‘QUV MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH YO‘LLARI

**Niyozmatov Elbek Rustamaliyevich**
Namangan davlat Texnika unverseteti Jismoniy madaniyat va sport katta o‘qituvchi
E-mail: niyozmatovelbek7744@gmail.com
**https://doi.org/10.5281/zenodo.17938207**

**Annotatsiya:** 11-12 yoshli futbolchilarni tayyorgarlik sport turi bilan shug‘ullanishda, barcha jismoniy sifatlarni rivojlanishi kuzatiladi. Organizmni turli organ va tizimlari faoliyati futbol sport turi bilan shug‘ullanishda yaxshilanadi va rivojlanadi. Shuning uchunyurtimiz aholisini sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda, futbol sport turi hozirgi kunda asosiy omillardan hisoblanadi.

Bundan tashqari, futbol bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda, amaliy va nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarni berishdagi asosiy hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** 11-12 yoshli futbolchilarni hujumchi, to‘p uzatuvchi, libero, tana uzunligi, tana og‘irligi, oldinga egilish, o’ng oyoqkuchi, chap oyoq kuchi, yuqoriga sakrash, uzunlikka sakrash.

# ПУТИ ИЗУЧЕНИЯ УРОВНЯ ПОДГОТОВКИ ФУТБОЛИСТОВ 11–12 ЛЕТ И ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНЫХ ЗАНЯТИЙ»

**Ниёзматов Эльбек Рустамалиевич**
Наманганский государственный технический университет, старший преподаватель кафедры физической культуры и спорта
E-mail: niyozmatovelbek7744@gmail.com

**Аннотация:** При занятиях футболистами 11–12 лет подготовительными видами спорта наблюдается развитие всех физических качеств. В процессе занятий футболом совершенствуется и развивается деятельность различных органов и систем организма. Поэтому в настоящее время футбол является одним из основных факторов формирования здорового образа жизни населения нашей страны. Кроме того, он является основным в подготовке высококвалифицированных специалистов по футболу, обеспечивая практические и теоретические знания, умения и навыки.

**Ключевые слова:** Игроки 11–12 лет проходят тестирование на атаку, пасующего, либеро, длину тела, массу тела, наклон вперед, силу правой ноги, силу левой ноги, прыжки в высоту и длину.

# WAYS TO STUDY THE LEVEL OF PREPARATION OF 11-12 YEAR-OLD FOOTBALL PLAYERS AND ORGANIZE TRAINING TRAININGS

**Niyozmatov Elbek Rustamalievich**
Namangan State Technical University, Senior Lecturer in Physical Culture and Sports
e-mail: niyozmatovelbek7744@gmail.com

**Abstract.** When 11-12-year-old football players are involved in preparatory sports, the development of all physical qualities is observed. The activity of various organs and systems of the body improves and develops when playing football. Therefore, football is currently one of the main factors in forming a healthy lifestyle for the population of our country. In addition, it is the main one in training highly qualified specialists in football, providing practical and theoretical knowledge, skills and qualifications.

**Keywords:** 11-12 year old players are tested on attacker, passer, libero, body length, body weight, forward lean, right leg strength, left leg strength, high jump, long jump.

## KIRISH

Yurtimzda jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor qaratilayotganligi ma'naviy yetuk barkamol avlodni komol topishiga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, ommaviy sport turlarini rivojlantirish asosida ular ichidan iqtidorli istiqbolli futbolchilarni izlab topish va milliy terma jamoalar safini to'ldirish masalalariga keng e'tibor qaratilmoqda. Bu esa jamoalarda iqtidorli yosh futbolchilarni izlab topish va ularni ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlariga maqsadli yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. "Mamlakatimizda yuqori iqtidorga ega bo'lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish (seleksiya) tizimi va futbol infratuzilmasini yanada rivojlantirish, futbol bo'yicha sport maktablari faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish" kabi vazifalari belgilab qo'yilgan. Bugungi kunda yosh futbolchilarni texnik-taktik va jismoniy tomondan rivojlantirish uchun tizimli ishlarni olib borish va ularning hujum harakatlarini bajarishdagi texnik elementlarini yoshga nisbatan tez o'zlashrishlarida yuzaga keladigan muammolarga ilmiy asoslangan yechim topish dolzabligicha qolmoqda. Shu sababli hozirgi vaqtda boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi futbolchilar bilan ishlaydigan mutaxassislar oldida, o'yinda g'alaba qozonish uchun hujum uyushtirish harakatlarini maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari shaklida qo'llashga intilish kuzatilayotgan bo'lsa, boshqa tomondan bu vaziyat yillik mashg'ulot soatlaridagi taqsimotni buzilishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa yosh futbolchilarning hujumdagi texnik-taktik tayyorgarligini oshirish uslubiyatini ishlab chiqish dissertatsiya ishimizning dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respubliasi Prezidentiining 2019-yil 4-dekabrdagi PF-5887-son "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 16-martdagi PQ-3610-son "Futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 3-noyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida''gi PQ-414-sonli, 2023-yil 7-apreldagi PQ-115-son "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Ishning maqsadi** yosh futbolchilarni o'yin jarayonida hujumdagi texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyatini ishlab chiqish orqali tayyorgarligini oshirishdan iborat.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Futbolchilarni tayyorlash, turli yoshdagi futbolchilar tayyorgarligini o'ziga xos xususiyatlari, texnik-taktik tayyorgarligini oshirish masalalari bo'yicha mahalliy olimlardan Sh.U.Abidov, Z.R.Nurimov A.A.Artikov, M.R.Yo'ldashov, O.Y.Bekturovlar kabi olimlar o'z tadqiqotlarida yosh futbolchilarning texnik taktik tayyorgarligi, jumladan, jamoaviy texnik-taktik harakatlarni amalga oshirishga oid ma'lumotlarni yoritishgan, biroq 11-12 yoshdagi futbolchilarning hujumda amalga oshiriladigan texnik-taktik harakatlarini rivojlantirish masalasi to'liq yoritilmagan. Bu esa, 11-12 yoshli futbolchilarning hujumda amalga oshiriladigan texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirish muammosining dolzarbligini belgilab beradi.

Namangan viloyati futbolida yetakchi va malakali mutaxassislardan 66 nafari tanlab olindi. So'rovnomada, yosh futbolchilarning hujum uyushtirish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish bo'yicha fikrlar o'rganish asosiy maqsadimiz bo'lib

hisoblandi. So‘rovnomada o‘quv-mashg‘ulot samarasini oshirishga oid 6 ta muhim bo‘lgan savollar tanlab olindi.

## NATIJALARI VA MUXOKAMASI

Biz tomonimizdan o‘tkazilgan murabbiy va mutaxassislar o‘rtasida so‘rovnomada yosh futbolchilarning o‘quv-mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishlari uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarni shakllantirish imkonini berdi. Birinchi akademiya, sport maktablarda taktik tayyorgarlik jarayoniga berilayotgan e’tiborni a’lo darajada baholaysiz degan savolga mutaxassislarni fikrlar turlicha ekanligi aniqlandi. Futbol bo‘yicha mutaxassislar 78% Akademiya, sport maktablarda taktik tayyorgarlik jarayoniga berilayotgan e’tiborni a’lo darajada deb baholangan bo‘lsa, 22% yetarli darajada emasligini e’tirof etishgan

O‘tkazilgan anketa so‘rovnoma natijalari bo‘yicha quyidagilarni aniqlash imkonini bergan:

1. So‘rovnomada o‘z fikrlari bilan qatnashgan mutaxassislarning qo‘yilgan savollar bo‘yicha ma’lumotlar bir xil bo‘lganligiga qaramasdan, ularning aksariyati (82,5%) hujum harakatlarini samarali tashkil etishda yosh futbolchilarning texnik tayyorgarlikka e’tibor qaratish kerakligini bildiradi. Bu esa, yosh futbolchilarning texnik usullar takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish zarurligini bildiradi.

2. Tezkor hujumlarni tashkil etishda to‘pni uzatishlar, raqibni aldab o‘tish, to‘pni olib yurish va darvozaga zarba berishlar texnik usullarni takomillashtirish muammosi quyidagi vazifalarni hal qilishni talab qiladi:

- o‘yinlarda yosh futbolchilar tomonidan hujum harakatlarini amalga oshirish jarayonidagi texnik usullarni bajarish holatlarini o‘rganib chiqish;

-futbol mashg‘ulotlarida hujum taktik harakatlarini o‘rgatish jarayoni yosh futbolchilarning texnik usullarni takomillashtirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan vositalarni o‘rganish va joriy etish;

-o‘quv-mashg‘ulotlari va musobaqa o‘yinlarida hujum taktik harakatlarini bajarish shart-sharoitlarini (texnik usullarni bajarish mashqning shiddati, futbolchilar organizmining holati) o‘rganish;

-yosh futbolchilarda hujum harakatlarini amalga oshirishda texnik harakatlarda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar asosida texnik usullarning takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish va asoslashdan iborat (1-jadvalga qarang).

**1-jadval. Yosh futbolchilarning murabbiylari bilan olib borilgan anketa-so‘rovnoma natijalari**

| № | Respondentlardan olingan javoblar %xisobida | Ha | | Yo‘q | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Akademiya, sport maktablarda taktikaga tayyorgarlik jarayoniga berilayotgan e’tiborni a’lo darajada baholaysiz? | 9 | 8% | 1 | 2% |
| 2. | 11-12 yoshda hujum taktik harakatlariga urg‘u berish kerak deb bilasizmi? | 7 | 4% | 3 | 6% |
| 3. | Tezkor hujum harakatlarini pozitsion hujum harakatlariga nisbatan ko‘proq o‘quv-mashg‘ulot jarayonida e’tibor qaratish kerakmi? | 6 | 2% | 4 | 8% |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 4. | Pozitson hujum harakatlarini tezkor hujum harakatlariga nisbatan ko‘proq o‘quv-mashg‘ulot jarayonida e’tibor qaratish kerakmi? | 2 | 4% | 8 | 6% |
| 5. | Hujum harakatlarni samarali tashkil etishda texnik tayyorgarlik darajasi yuqori bo‘lishi kerak deb bilasizmi? | 5 | 0% | | 0% |
| 6. | Texnik tayyorgarlik darajasini oshirish uchun o‘yin vaziyatidan kelib chiqqan holda tanlangan vositalarni samarali deb bilasizmi? | 5 | 0% | 5 | 0% |

**Izoh:** So‘rovnomda 66 nafar respondent ishtirok etgan.

Pedagogik tadqiqot boshida nazorat va tajriba guruhida 11-12 yoshli futbolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini harakterlaydigan testlar bo‘yicha nazorat (NG, n=15) va tajriba (TG, n=15) guruhlari 11-12 yoshli futbolchilari tomonidan o‘rganilgan har bir test bo‘yicha pedagogik tajriba boshida qayd etilgan natijalari hamda ularning asosiy statistik harakteristikalari, shuningdek guruhlar sinaluvchilari natijalari o‘rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut va (nazorat guruhidagi mos ko‘rsatkichga nisbatan) nisbiy farqlari hamda ushbu absolyut farqlarni Styudent taqsimoti kritik qiymatalarini hisoblash asosida amalga oshirilgan statistik ishonchlilik baholari ma’lumotlari (2-jadvalda keltirilgan).

**2-jadval. Pedagogik tadqiqot boshida nazorat va tajriba guruhi 11-12 yoshli futbolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik natijalari tahlili harakterlaydigan testlar bo‘yicha pedagogik tajriba boshida qayd etilgan natijalari, (n=30)**

| № | Testlar | Nazorat guruhi (15) | | | Tajriba guruhi (15) | | | Farq | | t | P |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | $\overline{X}$ | Σ | V,% | $\overline{X}$ | Σ | V,% | AF | NF | | |
| 1 | Umumiy tayyorgarlik 6 daqiqalik ugurish (m) | 1175,3 | 183 | 15,59 | 1149,3 | 183,74 | 15,99 | 26,03 | 2,21 | 0,45 | >0,6 |
| 2 | 30 m to‘p b n yugurish (m) | 6,69 | 0,97 | 14,56 | 6,75 | 1,01 | 14,96 | 0,06 | 0,90 | 0,19 | >0,8 |
| 3 | To‘pni o‘ng oyoq bilan uzoqlikka tepish (m) | 29,03 | 3,94 | 13,57 | 28 | 4,19 | 13,97 | 0,97 | 3,34 | 0,75 | >0,4 |
| 4 | To‘pni chap oyoq bilan uzoqlikka tepish (m) | 26,68 | 2,99 | 12,63 | 24,49 | 3,18 | 12,98 | 0,81 | 3,42 | 0,83 | >0,4 |
| 5 | To‘pni 2 qo‘lda bosh ustidan uzoqlikka otish (m) | 10,01 | 1,46 | 14,59 | 10,32 | 1,546 | 14,98 | 0,31 | 3,10 | 0,65 | >0,5 |
| 6 | 1 daqiqa Oyoqda to‘p | 35,29 | 4,79 | 13,57 | 34,53 | 4,83 | 13,99 | 0,76 | 2,15 | 0,50 | >0,6 |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | oynatish (janglor) | | | | | | | | | | |

**Izoh:** to‘pni yon chiziqdan tashlash testi o‘yin vaziyatidagi ko‘rinishda tashkil etilgan.

Mazkur jadvalda keltirilgan ma’lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish pedagogik tajribaga jalb etilgan nazorat va tajriba guruhlari yosh futbolchilari tomonidan o‘rganilgan oltita maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini xarakterlaydigan testlar bo‘yicha tajriba boshida qayd etilgan natijalari o‘zaro bir-birlariga yaqin ekanligini ko‘rsatib turibdi. Jumladan, o‘rganilgan 1-test, ya’ni 6 daqiqalik yugurish masofasi natijalari bo‘yicha pedagogik tajriba boshida nazorat guruhi 11-12 yoshli futbolchilari natijalarining o‘rtacha arifmetik va standart og‘ish qiymatlari o‘rtacha=1175,3±183,0 m. ga (ushbu guruhdagi mazkur test natijalari uchun hisoblangan variatsiya koeffitsiyent V=15,59 %) teng bo‘lgan bo‘lsa, tajriba guruhida mazkur ko‘rsatkichlar o‘rtacha=1149,3±183,74 m. ga (variatsiya koeffitsiyent V = 15,99 %) teng ekanligi aniqlandi. Shuning bilan birga, ushbu test ko‘rsatkichlari bo‘yicha nazorat va tajriba guruhlari natijalari o‘rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut farqi 26,03 m. ni va ularning (nazorat guruhi mos ko‘rsatkichiga nisbatan) nisbiy farqi 2,21 % ni tashkil etganligi aniqlandi.

11-12 yoshli nazorat (NG, n=15) va tajriba (TG, n=15) guruhlariga mansub bo‘lgan futbolchilar tomonidan jamoaviy texnik-taktik harakatlari samaradorligi ko‘rsatkichlarini harakterlaydigan o‘rganilgan testlarning har biri bo‘yicha pedagogik tajriba boshida qayd etilgan natijalari hamda ularning asosiy statistik harakteristikalari, shuningdek guruhlar sinaluvchilari natijalari o‘rtacha arifmetik qiymatlarining absolyut va (nazorat guruhidagi mos ko‘rsatkichga nisbatan foizlarda ifodalangan) nisbiy farqlari hamda tajriba boshida kuzatilgan ushbu absolyut farqlarni Styudent taqsimoti kritik qiymatalarini hisoblash asosida amalga oshirilgan statistik ishonchlilik baholari ma’lumotlari.

**XULOSALAR**

Sport zahiralarini tayyorlash nazariyasi va amaliyotini har tomonilama tahlil qilish asosida, o‘yin orqali o‘rgatish uslubiyati jahonda futbolining rivojlantirish yo‘nalishlariga mosligi aniqlandi. Futbolchilarning keskin o‘zgaruvchan o‘yin vaziyatlarida ularni tez va to‘g‘ri baholay olish, optimal qarorlar qabul qilish, ularni kelgusi rivojini oldindan ko‘ra olish qobiliyatlari muhim ahamiyatga ega, bu esa sportchilarda o‘yin (taktik) tafakkur rivojlanib borayotganligini ko‘rsatadi. Biroq mashg‘ulot jarayonini futbolchilarning musobaqa faoliyatini modellashtiruvchi o‘yin mashqlarini tanlash, tuzish va ketma-ketligi aniqlash bilan bog‘liq, tashkiliy-uslubiy ta’minoti yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi yosh futbolchilarda taktik tayyorgarlik jarayoni samaradorligini oshirish uchun pedagogik amaliyotga ularni tadbiq etish muammolarini ahamiyatli darajada murakkablashtirmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 - yil 16-martdagi “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3610-son / WWW. Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyun, Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-son, 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi / WWW. Lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabr, futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-5368-sonli farmonini / WWW. Lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.04.2023 yildagi PQ-115-son qarori ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning va aholining barcha qatlamlarida ommalashtirish hamda yoshlarni sog‘ligini mustahkamlash jismoniy tayyorgarligini oshirish qarori / WWW. Lex.uz
5. Artikov A.A. Alimjanov S.I. Shukurova Sh.T. Futbolchilarning mashg‘ulot jarayonida pedagogik nazorat. Uslubiy qo'llanma Toshkent. 2014 y. 62 b.
6. Bekturov O.Yo. Yosh futbolchilarning nazariy bilimlarni oshirish. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2013y. 35 bet.
7. Davletmuradov S.R. Futboichilarni tayyorlashda pedagogoik nazorat. Uslubiy qo'llanma Toshkent 2014 y.26 bet
8. Talipdjanov A.I. Yuqori malakali futbolchilar tayyorlashning zamonaviy tizimi. O'quv qo'llanma. T., O'zDJTI. 2012 y. 164 b

# BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI QO‘L MEHNATI ASOSIDA IJODIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TIZIMI

**Turdaliyeva Nurjahon Abdunosir qizi**
Qo‘qon universiteti, Ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: nurjahonturdaliyeva3@gmail.com
Orcid: https://orcid.org/0009-0001-4509-7550
**https://doi.org/10.5281/zenodo.18198384**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarni qo‘l mehnati asosida ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik tizimi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda qo‘l mehnati mashg‘ulotlarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, innovatsion yondashuvlar asosida ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari hamda pedagogik tizimning tarkibiy komponentlari tahlil qilindi. Empirik tadqiqot jarayonida so‘rovnoma, kuzatuv va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar qo‘l mehnati mashg‘ulotlarini tizimli va innovatsion asosda tashkil etish bo‘lajak pedagoglarning ijodiy faolligi, mustaqil fikrlashi va kasbiy tayyorgarligini samarali rivojlantirishini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** bo‘lajak pedagog, qo‘l mehnati, ijodiy faoliyat, pedagogik tizim, innovatsion yondashuv, kreativ kompetensiya, amaliy mashg‘ulotlar, kasbiy tayyorgarlik

# ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ, ОСНОВАННОЙ НА РУЧНОМ ТРУДЕ

**Аннотация:** В данной статье рассматривается педагогическая система подготовки будущих учителей к творческой деятельности, основанной на ручном труде, с научной, теоретической и практической точек зрения. В исследовании проанализирована роль занятий по ручному труду в образовательном процессе, механизмы формирования творческих компетенций на основе инновационных подходов, а также структурные компоненты педагогической системы. В эмпирическом исследовании использовались методы анкетирования, наблюдения и педагогического эксперимента-тестирования. Полученные результаты показали, что организация занятий по ручному труду на систематической и инновационной основе эффективно развивает творческую активность, самостоятельное мышление и профессиональную подготовку будущих учителей. Результаты исследования имеют практическое значение для высших учебных заведений, специализирующихся в области педагогики.

**Ключевые слова:** будущий учитель, ручной труд, творческая деятельность, педагогическая система, инновационный подход, творческая компетенция, практическая подготовка, профессиональная подготовка

# PEDAGOGICAL SYSTEM FOR PREPARING FUTURE TEACHERS FOR CREATIVE ACTIVITIES BASED ON MANUAL LABOR

**Abstract:** This article discusses the pedagogical system of preparing future teachers for creative activities based on manual labor from a scientific, theoretical and practical perspective. The study analyzed the role of manual labor classes in the educational process, the mechanisms for forming creative competencies based on innovative approaches, and the structural components of the pedagogical system. In the empirical research process, questionnaire, observation, and pedagogical experimental-testing methods were used. The results obtained showed that organizing

manual labor classes on a systematic and innovative basis effectively develops the creative activity, independent thinking, and professional training of future teachers. The results of the study are of practical importance in higher educational institutions specializing in pedagogy.

**Keywords:** future teacher, manual labor, creative activities, pedagogical system, innovative approach, creative competence, practical training, professional training

## KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ularning ijodiy salohiyati va innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quv jarayonini ijodiy tashkil eta oladigan, yangicha yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etuvchi yetakchi shaxs sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Shu jihatdan bo‘lajak pedagoglarning ijodiy faoliyatga tayyorgarligi ularning kasbiy kompetensiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Pedagogik ta’lim jarayonida qo‘l mehnati mashg‘ulotlari talabalarda amaliy ko‘nikmalar bilan bir qatorda ijodiy tafakkur, estetik did, konstruktiv fikrlash hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradi. Qo‘l mehnati faoliyati orqali bo‘lajak pedagoglar material bilan ishlash, dizayn elementlarini qo‘llash, muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topish ko‘nikmalarini egallaydi. Biroq amaliy tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, qo‘l mehnati mashg‘ulotlari ko‘pincha an’anaviy usullar asosida olib borilib, talabalarning ijodiy faolligini to‘liq rivojlantirishga yetarli darajada xizmat qilmayapti.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar qo‘l mehnatining pedagogik va tarbiyaviy ahamiyatini tasdiqlagan bo‘lsa-da, bo‘lajak pedagoglarni aynan ijodiy faoliyatga tayyorlashga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik tizimni ishlab chiqish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Shu sababli qo‘l mehnati mashg‘ulotlarini innovatsion yondashuvlar asosida qayta tashkil etish, ularning mazmuni, shakl va metodlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaralmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi bo‘lajak pedagoglarni qo‘l mehnati asosida ijodiy faoliyatga tayyorlashning samarali pedagogik tizimini ishlab chiqish va uning amaliy samaradorligini asoslashdan iborat. Tadqiqotda bo‘lajak pedagoglarning ijodiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlanib, ularni ta’lim jarayoniga joriy etish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

## ASOSIY QISIM

Pedagogik adabiyotlarda ijodiy faoliyat shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yechim topish va faoliyatni mustaqil tashkil etish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Bo‘lajak pedagoglarda ushbu sifatlarni shakllantirish kasbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Qo‘l mehnati mashg‘ulotlari esa ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi, chunki bu jarayonda talaba o‘z fikrini amaliy faoliyat orqali namoyon etish imkoniga ega bo‘ladi.

Qo‘l mehnati asosida ta’lim berish jarayonida bo‘lajak pedagoglar materiallar bilan ishlash, texnologik ketma-ketlikni rejalashtirish, estetik talablarga rioya qilish hamda tayyor mahsulotni baholash kabi amaliy va intellektual faoliyat turlarini bajaradilar. Mazkur jarayon talabalarda ijodiy tafakkur, muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalari va refleksiv fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, qo‘l mehnati mashg‘ulotlari pedagogik texnologiyalar, dizayn tafakkuri va konstruktiv yondashuvlarni integratsiyalash imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qo‘l mehnati faoliyati innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashgan taqdirda uning samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, interaktiv metodlar va refleksiv yondashuv qo‘l mehnati mashg‘ulotlarining ijodiy salohiyatini to‘liq namoyon etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida bo‘lajak pedagoglarni qo‘l mehnati asosida ijodiy faoliyatga tayyorlashning yaxlit pedagogik tizimi ishlab chiqildi. Mazkur tizim o‘zaro uzviy bog‘langan quyidagi komponentlardan iborat:

**Maqsadli komponent** bo‘lajak pedagoglarda ijodiy faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Ushbu komponent talabalarning ijodiy tafakkuri, mustaqil faoliyat yuritish qobiliyati va kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

**Mazmuniy komponent** qo‘l mehnati mashg‘ulotlarining mazmunini innovatsion asosda boyitishni nazarda tutadi. Unda dizayn elementlari, loyiha va konstruktorlik topshiriqlari, muammoli vaziyatlar va ijodiy ishlanmalar asosiy o‘rin egallaydi.

**Faoliyatli komponent** qo‘l mehnati jarayonida interaktiv metodlar, loyiha asosida o‘qitish, guruhli va individual ijodiy faoliyatni tashkil etishga yo‘naltirilgan. Ushbu komponent talabalarning faol ishtirokini, tashabbuskorligini va ijodiy faolligini ta’minlaydi.

**Baholash-refleksiv komponent** bo‘lajak pedagoglarning ijodiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini aniqlash mezonlari va ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Bunda refleksiya, o‘z-o‘zini baholash va ijodiy mahsulotlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo‘l mehnati mashg‘ulotlarida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash bo‘lajak pedagoglarning ijodiy faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Jumladan, loyiha asosida o‘qitish orqali talabalar muayyan mavzu yoki muammo doirasida mustaqil ijodiy mahsulot yaratadilar. Bu jarayon ularning tahliliy va konstruktiv fikrlashini rivojlantiradi.

Shuningdek, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarda noodatiy yechimlar topish, tajriba o‘tkazish va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Interaktiv metodlar — “aqliy hujum”, “klaster”, “dizayn fikrlash” kabi usullar qo‘l mehnati faoliyatini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Tajriba-sinov jarayonida qo‘l mehnati mashg‘ulotlari mazkur innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilganda, talabalarning ijodiy faolligi va kasbiy qiziqishi sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida bo‘lajak pedagoglarning ijodiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi aniqlanib, tajriba va nazorat guruhlari natijalari solishtirildi. Kuzatuv va so‘rovnoma natijalari tajriba guruhidagi talabalarda ijodiy faollik, mustaqil ishlash va tashabbuskorlik ko‘rsatkichlari yuqori ekanini ko‘rsatdi.

Natijalar shuni tasdiqladiki, qo‘l mehnati mashg‘ulotlarini tizimli va innovatsion asosda tashkil etish bo‘lajak pedagoglarning ijodiy faoliyatga tayyorgarligini samarali rivojlantiradi hamda ularning kasbiy kompetensiyasini oshiradi.

**XULOSA**

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari bo‘lajak pedagoglarni qo‘l mehnati asosida ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida qo‘l mehnati mashg‘ulotlarining bo‘lajak pedagoglar kasbiy tayyorgarligini, ijodiy tafakkurini va mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan pedagogik tizimning maqsadli, mazmuniy, faoliyatli hamda baholash-refleksiv komponentlarining o‘zaro uzviy bog‘liqligi bo‘lajak pedagoglarda

ijodiy faoliyatga tayyorgarlikni bosqichma-bosqich va samarali shakllantirishga xizmat qildi. Qo‘l mehnati mashg‘ulotlarini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish talabalarning ijodiy faolligi, tashabbuskorligi va kasbiy qiziqishini sezilarli darajada oshirdi.

Pedagogik tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlar va interaktiv metodlardan foydalanilgan mashg‘ulotlar bo‘lajak pedagoglarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda an’anaviy yondashuvlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Bu esa qo‘l mehnati mashg‘ulotlarining nafaqat amaliy, balki ijodiy va tarbiyaviy ahamiyatini ham tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak pedagoglarni qo‘l mehnati asosida ijodiy faoliyatga tayyorlashning ishlab chiqilgan pedagogik tizimi pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, kreativ va innovatsion fikrlovchi pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari mazkur yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nosirova Z., To‘xtaeva G. *Axborot texnologiyalari va ta’limda innovatsiyalar.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
2. Axmedova D.S. *Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Raxmonqulova G. *Elektron ta’lim asoslari.* – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
4. qizi Turdaliyeva, N. A. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. GOLDEN BRAIN, 2(7), 48-52.
5. 5.Soliyev, I., & Boymirzayeva, S. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. Наука и инновация, 1(6), 128-129.
6. qizi Boymirzayeva, S. O. (2024). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BO ‘LAJAK TARBIYACHINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(7), 41-47.
7. Orinova, F., & Turdaliyeva, N. (2025). DEVELOPING CREATIVE THINKING THROUGH HANDICRAFT FOR PRESCHOOL CHILDREN. International Journal of Artificial Intelligence, 1(2), 1610-1616.
8. Turdaliyeva, N., & Mamadjonova, D. (2024). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHDA IJODIY O’YINLARDAN FOYDALANISH. Nordic_Press, 5(0005)
9. Nurjahon, T. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA QOL MEHNATINI RIVOJLANTIRISH. University Research Base, 456-460.

# YOSH GANDOLCHILARNI JAMOAVIY HUJUM TEXNIKASIGA O‘RGATISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

**Usanova Durdona Xusan qizi**
Samarqand pedagogika instituti magistri

https://doi.org/10.5281/zenodo.18054086

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yosh gandbolchilarni jamoaviy hujum texnikasiga o‘rgatishda innovatsion pedagogik va texnologik yondashuvlardan foydalanish masalalari yoritilgan. Zamonaviy raqamli vositalar, interaktiv mashg‘ulotlar, videotalqinlar va modulli o‘quv metodlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari innovatsion metodlar yosh sportchilarning taktik fikrlashi, o‘yin tezligi va jamoaviy hamkorlik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar: y**osh gandbolchilar, jamoaviy hujum, innovatsion usullar, raqamli texnologiyalar, taktik tayyorgarlik, interaktiv mashg‘ulotlar.

# ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ МОЛОДЫХ ГАНДБОЛИСТОВ ТЕХНИКЕ КОМАНДНОЙ АТАКИ

**Дурдона Хусановна Усанова**
Магистр Самаркандского педагогического института

**Аннотация:** в данной статье рассматривается использование инновационных педагогических и технологических методов в обучении юных гандболистов командной технике нападения. Анализируется эффективность цифровых средств, интерактивных тренировок, видеоанализа и модульного обучения. Результаты исследования показывают, что инновационные методы существенно улучшают тактическое мышление, скорость игры и командное взаимодействие молодых спортсменов.

**Ключевые слова:** юные гандболисты, командное нападение, инновационные методы, цифровые технологии, тактическая подготовка, интерактивные тренировки.

# THE USE OF INNOVATIVE METHODS IN TEACHING TEAM ATTACK TECHNIQUE TO YOUNG HANDBALL PLAYERS

**Durdona Khusanovna Usanova**
Master of Samarkand Pedagogical Institute

**Annotation:** this article explores the application of innovative pedagogical and technological methods in teaching young handball players the techniques of team offense. The effectiveness of digital tools, interactive training sessions, video analysis, and modular teaching methods is examined. Research findings indicate that innovative approaches significantly enhance young athletes’ tactical thinking, game speed, and team cooperation.

**Key words:** young handball players, team attack, innovative methods, digital technologies, tactical training, interactive training sessions.

## KIRISH

Bugungi kunda sport ta’limi va murabbiylik jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yosh sportchilarni tizimli va samarali tayyorlashda muhim omilga aylanmoqda. Ayniqsa, gandbolda jamoaviy hujum texnikasini egallash o‘yin natijasini belgilovchi asosiy tarkibiy qism hisoblanadi. An’anaviy mashg‘ulot metodlari ko‘p hollarda yosh o‘yinchilarning taktik fikrlashi, tezkor qaror qabul qilish va jamoada o‘zaro harakat qilish ko‘nikmalarini to‘liq

shakllantira olmaydi. Shu bois raqamli texnologiyalar, interaktiv mashg‘ulotlar, videoanaliz, simulyatsiya va modulli o‘qitish kabi innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, innovatsion metodlardan foydalanish yosh gandbolchilarning jamoaviy hujumdagi harakatlarini takomillashtirish, o‘yin samaradorligini oshirish va zamonaviy sport talablariga mos raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash imkonini beradi.

Gandbol sport turi jamoaviy o‘yinlar orasida o‘zining dinamikligi, yuqori tezlikda qaror qabul qilish talabi va texnik-taktik murakkabligi bilan ajralib turadi. Yosh gandbolchilarni tayyorlash jarayonida hujum taktikasini o‘rgatish murabbiylardan didaktik yondashuvning yangilangan shakllarini qo‘llashni talab qiladi. Bugungi kunda dunyo sport maktablari va akademiyalarida innovatsion trening texnologiyalaridan foydalanish keng ommalashib bormoqda. Xususan, interaktiv mashqlar, raqamli o‘quv platformalari, dronlar va videoanaliz vositalari, virtual simulyatorlar hamda o‘yin modellari yosh sportchilarning o‘yin jarayonini chuqurroq tushunishiga yordam bermoqda.

**ASOSIY QISM**

Jamoaviy hujum texnikasi gandbolda o‘yin samaradorligining markaziy ko‘rsatkichi bo‘lib, unda tezkor uzatmalar, bo‘sh zonalarni topish, kombinatsiyalarni bajarish va jamoadoshlar bilan moslashuvchan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun zamonaviy innovatsion metodlardan foydalanish nafaqat o‘quv mashg‘ulotlarining sifatini oshiradi, balki yosh sportchilarning taktik tafakkurini kengaytiradi hamda ular o‘yin vaziyatiga mos ravishda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganadilar.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot yosh gandbolchilarni jamoaviy hujum texnikasiga o‘rgatishda innovatsion usullardan foydalanishning pedagogik asoslarini o‘rganish, ularning samaradorligini tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqot davomida yosh gandbolchilarni jamoaviy hujum texnikasiga o‘rgatishda innovatsion usullarning samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-metodik yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar, xorijiy tajribalar va sport pedagogikasiga oid nazariy qarashlar chuqur o‘rganilib, nazariy tahlil amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida mashg‘ulotlar davomida pedagogik kuzatuv metodi qo‘llanib, gandbolchilarning jamoaviy hujumdagi texnik va taktik harakatlari, innovatsion vositalarning o‘quv jarayoniga ta’siri muntazam qayd etib borildi. Eksperimental metod asosida ishtirokchilar tajriba va nazorat guruhlariga bo‘lindi: tajriba guruhida videoanaliz, interaktiv mashqlar, raqamli texnologiyalar hamda modulli o‘qitish kabi innovatsion usullar joriy etildi, nazorat guruhida esa an’anaviy mashg‘ulot usullari davom ettirildi. Olingan natijalarni baholash uchun maxsus testlar, diagnostik topshiriqlar va videoanalizlardan foydalanilib, o‘yin jarayonidagi tezkor qaror qabul qilish, kombinatsiyalarni bajarish aniqligi va jamoaviy harakatlarning uyg‘unligi o‘lchandi. Shuningdek, murabbiylar va sportchilar bilan suhbatlar hamda anketalardan foydalanilib, innovatsion usullarning qulayligi va samaradorligi borasidagi subyektiv fikrlar yig‘ildi. Yakuniy bosqichda eksperimental natijalar matematik-statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, innovatsion texnologiyalarning ta’sir darajasi aniqlandi.

**1-jadval. Yosh gandbolchilar uchun 1 yillik mashqlar dasturi jadvali**

| Oy | Bosqich | Maqsad | Mashqlar majmuasi |
|---|---|---|---|
| **1–2** | Tayyorlov bosqichi | Jismoniy tayyorgarlik, | - To‘psiz koordinatsion mashqlar (zig-zag, agility ladder) |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | koordinatsiya, boshlang‘ich to‘p bilan ishlash | - To‘pni boshqarish mashqlari (yerga urib boshqarish, dribling)<br>- Kuch va chidamlilik mashqlari (jump-squat, plank)<br>- Reaksiya mashqlari (signal bo‘yicha harakat) |
| **3–5** | Texnik tayyorgarlik | Hujum texnikasini o‘rgatish: uzatma, qabul, tashlash | - Uzatma mashqlari (juftlikda, uchburchak kombinatsiyasi)<br>- Chalg‘ituvchi harakatlar (fintlar, yo‘nalish almashtirish)<br>- Harakatda to‘p bilan yurish<br>- Tashlash mashqlari (o‘rinda va harakatda) |
| **6–9** | Jamoaviy hujum mashqlari | Jamoa uyg‘unligi, bo‘sh zonalarni topish, kombinatsiyalar | - 2x2 hujum mashqlari<br>- 3x3 kombinatsiyalari (“devorcha”, “kesib o‘tish”)<br>- 4x4 jamoaviy hujum mashqlari<br>- Bo‘sh zonani topish mashqlari |
| **1–12** | Innovatsion texnologiyaga asoslangan mashqlar | Samaradorlik va taktika rivoji | - Videoanaliz mashqlari<br>- Virtual simulyator mashqlari<br>- Sensorli belgilar mashqlari<br>- Dron/ustki kamera bilan tahlil |
| **10–12** | Yakuniy bosqich | O‘yin holatlariga mos hujum, taktika va strategiya | - 5x5 va 6x6 o‘yin mashqlari<br>- Bosim ostida qaror qabul qilish mashqlari<br>- Tez hujum (kontraataqa)<br>- Murakkab kombinatsiyalar (fint + bo‘sh zona + uzatma + tashlash) |

Ushbu 1 yillik mashqlar dasturi yosh gandbolchilarni jamoaviy hujum texnikasiga o‘rgatishda tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvni ta’minlaydi. Dastur oyma-oy reja asosida tuzilgan bo‘lib, har bir bosqichning maqsadi va mashqlari aniq belgilangan.

Tayyorlov bosqichi (1–2 oy) jismoniy tayyorgarlik, koordinatsiya va boshlang‘ich to‘p bilan ishlashga qaratilgan. Ushbu bosqichda o‘yinchilarga to‘psiz koordinatsion mashqlar, dribling va to‘pni boshqarish, kuch va chidamlilik mashqlari, shuningdek, reaksiyani rivojlantiruvchi mashqlar bajariladi.

Texnik tayyorgarlik bosqichi (3–5 oy) asosiy hujum texnikasini shakllantirishga mo‘ljallangan. Bu bosqichda uzatma va qabul mashqlari, chalg‘ituvchi harakatlar, harakatda to‘p bilan yurish va tashlash mashqlari bajariladi. Mashqlar kombinatsiyasi o‘yin jarayonida aniqlik va tezlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Jamoaviy hujum mashqlari (6–9 oy) jamoaviy uyg‘unlik, bo‘sh zonalarni topish va kombinatsiyalarni bajarishga qaratilgan. Bu bosqichda 2x2, 3x3 va 4x4 kombinatsiyali mashqlar, bo‘sh zonani topish mashqlari o‘tkaziladi. Mashqlar o‘yinchilarning hamkorlik va taktik tafakkurini rivojlantiradi.

Innovatsion texnologiyaga asoslangan mashqlar (yil davomida) videoanaliz, virtual simulyatorlar, sensorli belgilash va dron kuzatuvi orqali mashg‘ulot samaradorligini oshirishga

xizmat qiladi. Ushbu mashqlar yil davomida barcha bosqichlarga integratsiyalashgan holda qo‘llaniladi va o‘yinchilarning taktika va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Yakuniy bosqich (10–12 oy) o‘yin holatlariga mos jamoaviy hujumni takomillashtirish, murakkab kombinatsiyalarni bajarish va tez hujum texnikasini rivojlantirishga qaratilgan. Bu bosqichda 5x5 va 6x6 o‘yin mashqlari, bosim ostida qaror qabul qilish, tez hujum va murakkab kombinatsiyalar mashqlari bajariladi.

Umuman olganda, dastur oyma-oy tuzilishi bilan o‘quv-mashg‘ulot jarayonini rejalashtirish, mashg‘ulotlarni tizimli bajarish va natijalarni monitoring qilish imkonini beradi. Har bir bosqich maqsadga muvofiq mashqlar majmuasini o‘z ichiga oladi va jamoaviy hujum texnikasini rivojlantirish, taktika, tezlik va koordinatsiyani oshirishga xizmat qiladi.

**2-jadval. Yosh gandbolchilar uchun baholash mezoni va me’yorlari**

| Baholash mezoni | Me’yor / Ko‘rsatkichlar |
|---|---|
| **Jismoniy tayyorgarlik** | - Tezlik: 20 m yugurish vaqti ≤ 4,5 s<br>- Chidamlilik: 6 daqiqalik yugurishda ≥ 1,2 km<br>- Kuch: plank pozitsiyasida ≥ 60 s<br>- Koordinatsiya: konuslar orasida to‘p bilan yugurishda xatolar ≤ 2 |
| **To‘p bilan ishlash (dribling, uzatma, qabul, tashlash)** | - Dribling aniqligi: xatolar ≤ 3/10<br>- Uzatma aniqligi: muvaffaqiyat ≥ 80%<br>- Qabul aniqligi: muvaffaqiyat ≥ 85%<br>- Tashlash aniqligi va kuchi: darvozaga tegish ehtimoli ≥ 75% |
| **Jamoaviy uyg‘unlik va kombinatsiya** | - Hujum kombinatsiyasini bajarish aniqligi ≥ 80%<br>- Bo‘sh zonani topish muvaffaqiyati ≥ 70%<br>- Jamoa uyg‘unligi bahosi (murabbiy 1–5 ball) ≥ 4 |
| **Taktik qaror qabul qilish** | - Qaror qabul qilish tezligi: 2–3 s ichida<br>- To‘g‘ri qaror qabul qilish ehtimoli ≥ 75%<br>- Innovatsion mashqlarda qaror qabul qilish aniqligi ≥ 80% |
| **O‘yin samaradorligi** | - Jamoaviy hujum samaradorligi ≥ 70%<br>- Tez hujum muvaffaqiyati ≥ 65%<br>- Murakkab kombinatsiya bajarish aniqligi ≥ 75% |

Ushbu baholash tizimi yosh gandbolchilarni jamoaviy hujum texnikasiga o‘rgatishda mashg‘ulot samaradorligini aniqlash va o‘yinchilarning malakasini tizimli ravishda baholashga xizmat qiladi. Baholash mezonlari o‘yinchilarning qaysi jihatini aniqlash uchun ishlatilishini belgilaydi, me’yorlar esa har bir mezon bo‘yicha minimal yoki optimal natijalarni ko‘rsatadi.

Jismoniy tayyorgarlik mezoni o‘yinchilarning tezlik, chidamlilik, kuch va koordinatsiya kabi ko‘nikmalarini baholashga xizmat qiladi. Masalan, 20 metr yugurish vaqti, plank pozitsiyasida turish davomiyligi va konuslar orasida to‘p bilan yurishdagi xatolar soni me’yor sifatida olinadi. To‘p bilan ishlash mezoni dribling, uzatma, qabul va tashlash aniqligini o‘lchashga imkon beradi. Har bir ko‘rsatkichning minimal yoki optimal darajasi belgilangan, masalan, uzatma aniqligi ≥ 80% yoki tashlash ehtimoli ≥ 75%.

Jamoaviy uyg‘unlik va kombinatsiya mezoni o‘yinchilarning jamoa bilan uyg‘un ishlashini, bo‘sh zonalarni aniqlash va kombinatsiyalarni bajarish qobiliyatini baholaydi. Ushbu mezon murabbiy tomonidan ballar berish yoki muvaffaqiyat foizlari orqali ifodalanadi.

**XULOSA**

Ushbu tadqiqot yosh gandbolchilarni jamoaviy hujum texnikasiga o‘rgatishda innovatsion usullardan foydalanishning samaradorligini o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mashg‘ulotlarni bosqichma-bosqich, tizimli reja asosida olib borish va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash (videoanaliz, dron kuzatuvi, virtual simulyatorlar, sensorli belgilar) o‘yinchilarning texnik va taktika ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan boyitilgan mashqlar dasturi quyidagi afzalliklarni berdi:

Jismoniy tayyorgarlik va koordinatsiyani mustahkamlash;

To‘p bilan ishlash – uzatma, qabul, tashlash va dribling aniqligini oshirish;

Jamoaviy uyg‘unlik va bo‘sh zonalarni topish qobiliyatini rivojlantirish;

Taktik fikrlash va tez qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash;

O‘yin samaradorligini oshirish va murakkab kombinatsiyalarni bajarish qobiliyatini shakllantirish.

Shuningdek, har bir mashg‘ulot bosqichi uchun alohida baholash mezonlari va me’yorlarini ishlab chiqish, murabbiylarga o‘yinchilarning rivojlanishini tizimli kuzatish va samaradorlikni aniqlash imkonini berdi.

**ADABIYOTLAR**

1. Akramov J.A, Gandbol: JTI uchun darslik, T. 2 2. Ignateva V.YA. Gandbol: Uchebnik dlya IFK, M.- FiS, 1982. – 380s.
2. Pavlov SH.K, Abduraxmanov F.A, Raxmanova M.M. ―Gandbol‖- o_quv qo_llanma, 2010y, 32-45b.
3. Pavlov SH.K, Azizova R.I, Gandbol – BO‘SMlar uchun dastur. 2009 y 5. Pavlov SH.K, Abduraxmanov F.A, Podgotovka gandbolistov – UzGIFK T.: 2006y, 299s.
4. Pavlov SH.K, Abduraxmanov F.A, Akramov J.A, Gandbol: JTI uchun darslik, 2005 y, 80-91b.Беляев А. В. Исследование тренировочных и соревновательных нагрузок в волейболе: Автореф. дис. ...канд.пед.наук. -М., 1974. -28 с.
5. Abduraxmanov F.A, Lemeshkov V.A, Livitskiy A.N, Pavlov SH.K, YArotskiy YA.I - Podgotovka gandbolistov‖ Toshkent – 1992. iz. Otd. UzGIFK.
6. Ignateva V.YA., Petracheva I.V. Mnogoletnyaya podgotovka gandbolistov v DYUSSH. M: Sovetskiy sport 2023.

# O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRUVCHI DASTUR VOSITALARI

**X.K.Qarshiboyeva**
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.18054090

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o‘qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalarining turlari, ularning zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni va pedagogik samaradorligi tahlil qilindi. Raqamli texnologiyalar asosidagi vositalarning o‘quv jarayonini yengillashtirish, individuallashtirish va monitoring qilishdagi imkoniyatlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari o‘qitishni takomillashtiruvchi vositalardan tizimli foydalanish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil ekanini ko‘rsatdi.

**Kalit so‘zlar:** dastur vositalari, ta’lim, pedagogik texnologiya, raqamli ta’lim, metodik ta’minot.

# ИНСТРУМЕНТЫ ПРОГРАММЫ, СОВЕРШЕНСТВУЮЩЕЙ ОБУЧЕНИЕ

**Х.К. Каршибоева**
Доцент Ташкентского экономического и педагогического университета

**Аннотация:** в статье анализируются виды программных средств повышения эффективности обучения, их роль в современном образовательном процессе и педагогическая эффективность. Изучаются возможности средств, основанных на цифровых технологиях, для оптимизации, индивидуализации и мониторинга образовательного процесса. Результаты исследования показали, что систематическое использование средств повышения эффективности обучения является важным фактором повышения качества образования.

**Ключевые слова:** программные средства, образование, педагогические технологии, цифровое образование, методическое обеспечение.

# TEACHING IMPROVEMENT PROGRAM TOOLS

**Kh.K. Karshiboeva**
Associate Professor of Tashkent University of Economics and Pedagogy

**Abstract:** this article analyzes the types of software tools that improve teaching, their role in the modern educational process and their pedagogical effectiveness. The possibilities of tools based on digital technologies for facilitating, individualizing and monitoring the educational process are studied. The results of the study showed that the systematic use of tools that improve teaching is an important factor in improving the quality of education.

**Keywords:** software tools, education, pedagogical technology, digital education, methodological support.

## KIRISH

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qitishni samarali tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va kompetensiyalarini rivojlantirish o‘qituvchidan keng qamrovli yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan o‘qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari ta’lim jarayonining ajralmas bo‘lagi sifatida e’tirof etilmoqda. Bunday vositalar nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilar faol ishtirokini ta’minlaydi, o‘qituvchining metodik imkoniyatlarini kengaytiradi va ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘taradi.

O‘qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari deganda o‘quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, baholash va monitoring qilishni yengillashtiradigan metodik, texnologik

va didaktik resurslar majmui tushuniladi. Ushbu vositalar o‘quv dasturlari, darsliklar, elektron resurslar, interfaol taqdimotlar, test tizimlari, multimediya kontenti, virtual laboratoriyalar, raqamli ta’lim platformalari kabi turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Dastur vositalarining asosiy vazifasi — ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilar ehtiyojiga moslashtirish, ularning mustaqil o‘qish motivatsiyasini oshirish va o‘zlashtirish jarayonini tizimli yo‘lga qo‘yishdan iborat. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida ta’limda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash zaruriyati ortib borayotgani sababli o‘qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari pedagogik jarayonning innovatsion rivojlanishida yetakchi o‘rin egallamoqda.

Shuningdek, bu vositalar o‘qituvchilar uchun ham metodik qo‘llanma vazifasini bajarib, dars jarayonini soddalashtiradi, o‘quv maqsadlarini aniq belgilash va ularga erishish mexanizmini yaratadi, ta’lim mazmunini tizimlashtirishga yordam beradi. Natijada ta’lim sifati oshadi, darslar samaradorligi kuchayadi, o‘quvchilarning ijodkorlik, muloqot, tanqidiy fikrlash kabi ko‘nikmalari rivojlanadi.

O‘qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari ta’lim tizimida ilmiy-metodik asosni yaratib, innovatsion texnologiyalar joriy etishda tayanch manba sifatida xizmat qiladi. Shu bois, mazkur vositalarni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish, ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish hozirgi kunda pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Quyida o‘qitishni takomillashtiruvchi eng muhim dastur vositalari turlari keltirilgan:

**1. Ta’limiy dasturlar (learning software)**

Bu dasturlar aniq fanlar (matematika, fizika, biologiya, tarix va h.k.) bo‘yicha o‘quv materiallarini o‘z ichiga oladi:

**GeoGebra** – bu geometriya, algebra, statistik va analiz elementlarini o‘z ichiga olgan, interaktiv, bepul va ko‘p platformali ta’limiy dasturdir. Uni kompyuter, planshet va hatto mobil telefon orqali ham ishlatish mumkin.

GeoGebra so‘zining o‘zi “Geometry” va “Algebra” so‘zlarining birikmasidan olingan bo‘lib, aynan shu fanlarni uyg‘un holda o‘rgatishni maqsad qilgan.

GeoGebraning asosiy imkoniyatlari

1. Geometrik shakllarni chizish va o‘zgartirish

Aylana, uchburchak, to‘g‘ri chiziq, parabola va boshqalarni chizish.

Shakllarni o‘zgartirganda formulalarni avtomatik ko‘rsatadi.

2. Algebraik va analitik ifodalar bilan ishlash

Algebraik tenglamalarni kiritish va grafiklarini avtomatik chizish.

O‘zgaruvchilarni real vaqt rejimida o‘zgartirish.

3. Dinamik modellashtirish

Harakatlanuvchi nuqtalar, slayderlar, simulyatsiyalar yordamida tushunchalarni harakatda ko‘rish.

4. Statistik tahlillar

Diagrammalar, tarqatish grafiklari, regressiyalar qurish imkoniyati.

5. Kengaytirilgan vositalar

Trigonometrik, eksponensial, logarifmik funksiyalarni tahlil qilish.

Kalkulyator, matritsalar, vektorlar bilan ishlash.

*Pedagogik afzalliklari*

Vizual va intuitiv o‘rganish imkoniyati – O‘quvchi shakllarni ko‘rib, ularning o‘zgarishini bevosita kuzatadi.

Konstruktorlik fikrlashni rivojlantiradi – O‘quvchilar o‘zlari masalalarni qurish orqali tahlil qilishga o‘rganadi.

Interaktiv va mustaqil o‘rganish – O‘quvchi topshiriqlarni mustaqil bajarib, tajriba yo‘li bilan xulosa chiqaradi.

Zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmasi shakllanadi – Raqamli muhitda ishlash malakasi rivojlanadi.

**PhET Simulations –** PhET Interactive Simulations – bu Kolorado Universiteti (AQSH) tomonidan yaratilgan, fizika, kimyo, biologiya, matematika va boshqa fanlar bo‘yicha interaktiv laboratoriya simulyatsiyalarini taqdim etuvchi bepul ta’limiy platformadir.

PhET so‘zining o‘zi “Physics Education Technology” iborasidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab fizika uchun yaratilgan. Keyinchalik boshqa fanlar bo‘yicha ham simulyatsiyalar qo‘shilgan.

Dastur imkoniyatlari

200+ dan ortiq interaktiv simulyatsiya mavjud. To‘g‘ridan-to‘g‘ri brauzerda ishlaydi yoki yuklab olib offline rejimda foydalanish mumkin;

Har bir simulyatsiya o‘ziga xos interaktiv elementlarga ega: o‘zgaruvchilarni sozlash, natijalarni tahlil qilish, grafik ko‘rinishda kuzatish;

Ingliz tilidan tashqari boshqa ko‘plab tillarga, jumladan o‘zbek tiliga ham qisman tarjima qilingan;

Kompyuter, planshet va mobil qurilmalarda ishlaydi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llanishi

PhET Simulations dasturidan O‘zbekistonda quyidagicha foydalanish mumkin:

1. Tabiiy fanlar darslarida interaktivlik yaratish

Maktablarda fizik, kimyo va biologiya darslarini jonlantirish;

Simulyatsiyalar yordamida ko‘rgazmali tushuntirish, murakkab mavzularni osonlashtirish.

2. Laboratoriya uskunalari yetishmaydigan maktablarda alternativ vosita sifatida

Qishloq maktablari yoki laboratoriya sharoiti cheklangan joylarda PhET simulyatsiyalari real tajriba o‘rnini bosishi mumkin.

3. STEM yo‘nalishlarida foydalanish

O‘zbekiston ta’limida STEM (Science, Technology, Engineering, Math) tamoyillari tobora ommalashmoqda. PhET simulyatsiyalari ushbu yondashuvga to‘la mos keladi.

4. Masofaviy ta’lim jarayonlarida

Pandemiya davrida va undan keyin onlayn darslar davomida o‘qituvchilar PhET’dan samarali foydalana oladi.

5. O‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga undash

Simulyatsiyalarni uyda ochib, o‘quvchilar o‘zlari tajriba qilib ko‘rishlari, kuzatish olib borishlari va xulosa chiqarishlari mumkin.

**Duolingo** / Quizlet – til o‘rganish va yodlash mashqlari uchun.

Zamonaviy dunyoda xorijiy tillarni o‘rganish zaruriyati kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa ingliz tili, ispan, fransuz, nemis va boshqa tillar xalqaro muloqot, ta’lim, ish va sayohat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ta’limda innovatsion yondashuvlar, mobil ilovalar va o‘yin asosidagi o‘rganish usullari keng tarqalmoqda. Duolingo - bu bepul, interaktiv va o‘yin shaklida xorijiy tillarni o‘rgatadigan mobil va veb-platforma bo‘lib, u 2011-yilda AQSHda ishlab

chiqilgan. Ilova bugungi kunga kelib 190 dan ortiq mamlakatda millionlab foydalanuvchilar tomonidan qo‘llanilmoqda.

***Asosiy xususiyatlari:***

Bepul foydalanish imkoniyati (ixtiyoriy pullik versiyasi – Duolingo Plus);

Gamifikatsiya – o‘yin elementlari bilan boyitilgan: ball to‘plash, darajalarni o‘tish, ketma-ketlikni saqlash (streak), mukofotlar olish;

Interaktiv mashqlar: eshitish, gapirish, tarjima qilish, gap tuzish, yozish;

Har kuni qisqa mashg‘ulotlar bilan o‘rganish tizimi;

Mobil ilova (Android, iOS) va veb-sayt orqali foydalanish imkoniyati;

Sun’iy intellekt yordamida individual yondashuv.

Qo‘llab-quvvatlanadigan tillar

Duolingo orqali 40 dan ortiq tillar o‘rganish mumkin, jumladan: Ingliz tili, ispan tili, fransuz tili, nemis tili, yapon tili, koreys tili, arab tili, xitoy tili va hatto ekzotik tillar: lotin, irland, kligon (fantastik til) va boshqalar.

Pedagogik afzalliklari

1. Motivatsiyani oshiradi – o‘yin elementlari o‘quvchini muntazam mashg‘ulotlarga jalb qiladi.

2. Qisqa, ammo samarali darslar – har kuni 5–15 daqiqalik mashg‘ulotlar orqali doimiy o‘rganish odati shakllanadi.

3. O‘z-o‘zini baholash imkoniyati – foydalanuvchi o‘z yutuqlari va xatolarini kuzatishi mumkin.

4. To‘rt asosiy ko‘nikmani rivojlantiradi – o‘qish, yozish, tinglash va so‘zlashish.

5. Moslashuvchanlik – istalgan joyda va vaqtda foydalanish mumkin.

O‘zbekiston ta’limida qo‘llanilishi

1. Maktab va kollej o‘quvchilari uchun qo‘shimcha vosita

Duolingo darsliklardan tashqari mustaqil mashg‘ulotlar uchun qulay. O‘quvchilar uy vazifasi sifatida har kuni bir necha mashq bajarishi mumkin.

2. Til o‘rganishda mustaqil ta’limni rag‘batlantirish

Til kurslariga qatnasha olmaydiganlar uchun muqobil va samarali yechim.

3. O‘qituvchilar uchun yordamchi platforma

Ingliz tili o‘qituvchilari Duolingo Classrooms funksiyasi orqali guruhlar yaratib, o‘quvchilarining faoliyatini kuzatishi mumkin.

4. Imtihonlarga tayyorgarlikda foydalanish

Boshlang‘ich va o‘rta darajadagi til imtihonlariga (CEFR: A1–B1) tayyorlanishda foydali.

Duolingo – bu oson, qiziqarli va samarali tarzda xorijiy til o‘rganish imkonini beruvchi raqamli ta’lim vositasidir. O‘zbekistonda xorijiy tillarga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir paytda, ushbu dastur maktab, kollej, oliy ta’lim va o‘z-o‘zini o‘qitish tizimida keng qo‘llanishi mumkin. O‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun bu juda qulay, arzon (hatto bepul) va foydali yechim hisoblanadi.

**2. Test va baholash dasturlari**

O‘quvchilar bilimini tekshirish va baholash uchun ishlatiladi:

*Google Forms* / Microsoft Forms – onlayn testlar tuzish va avtomatik baholash.

*Kahoot / Quizizz* – interaktiv viktorinalar va musobaqali testlar.

*Moodle / Edmodo* – ta’lim platformalari, testlar va topshiriqlarni baholash tizimlari bilan.

**3. Interaktiv taqdimot va dars materiallari yaratish dasturlari**

*PowerPoint* / Canva / Prezi – dars taqdimotlari yaratish uchun.

*Nearpod / Mentimeter* – interaktiv slaydlar va auditoriya bilan jonli ishlash uchun.

*Padlet* – g‘oyalar taxtasi va hamkorlik asosida ishlash uchun.

**4. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar**

Labster / Tinkercad / Algodoo – laboratoriya tajribalarini virtual muhitda o‘rganish imkonini beradi.

Bu vositalar ayniqsa amaliy fanlar uchun juda qulay (biologiya, fizika, kimyo, texnologiya).

**5. Raqamli dars rejalashtirish va boshqaruv dasturlari**

ClassDojo / TeacherKit – sinfdagi faoliyatni boshqarish, baholash, ishtirokni nazorat qilish.

Planbook – dars rejalari tuzish va tartibga solish uchun.

**6. Onlayn o‘quv platformalari**

Khan Academy, Coursera, EdX, Udemy – bepul va pullik darslar, kurslar, imtihonlarga tayyorgarlik materiallari.

Dastur vositalari ta’lim jarayonini qanday takomillashtiradi?

Darsga qiziqishni oshiradi

Rasmli, videoli, interfaol vositalar bolalarda o‘rganishga motivatsiya uyg‘otadi.

O‘quvchi faoliyatini faollashtiradi

Testlar, virtual mashqlar orqali o‘quvchi faol ishtirokchi bo‘ladi.

Ta’limni individuallashtiradi

Har bir o‘quvchi o‘z sur’ati bilan o‘qiydi, vazifa darajalari ishlab chiqiladi.

O‘qituvchi mehnatini samarali qiladi

Tayyor shablonlar, elektron testlar, avtomatik baholash vaqtni tejaydi.

Ta’lim sifatini oshiradi

Monitoring, tahlil, diagnostika orqali natijalar aniq ko‘rinadi.

Bu dasturlarni amalga oshirishda bir qancha muammolarga ham duch kelamiz. Masalan, texnik infratuzilmaning yetishmasligi, resurslar yetishmovchiligi, o‘qituvchilarni tayyorlash zarurati singari bir qancha cheklovlar halaqit beradi. O‘qitishni takomillashtiruvchi bu dastur vositalari o‘quv materiallarini boyitadi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga imkon beradi, natijalarni baholashni soddalashtiradi, ta’limni zamonaviy va raqamli ko‘rinishda olib borishga sharoit yaratadi. O‘qituvchi va pedagogic jarayon uchun shunisi bilan samaraliki, bu dasturlar avtomatlashtirilgan baholar, diagnostika orqali vaqtni tejaydi, onlayn kurslar va o‘quv hamjamiyatlari bilan kasbiy rivojlantiradi, dars samaradorligini oshiradi.

**Tavsiyalar:**

**1. Ta’lim jarayonida dastur vositalaridan tizimli foydalanish**

O‘qituvchilar uchun dastur vositalarini qo‘llash bo‘yicha yagona metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi, har bir mavzuga mos didaktik, raqamli va metodik vositalar majmui shakllantirilishi zarur.

**2. Elektron ta’lim platformalaridan foydalanishni kengaytirish**

O‘quv jarayonida LearningApps, Google Classroom, Quizizz, ZiyoNET kabi platformalardan muntazam foydalanish o‘quvchi faolligini va o‘zlashtirish sifatini oshiradi. Shu bois, ularni qo‘llash o‘qituvchilar malaka oshirish kurslarida alohida modul sifatida kiritilishi lozim.

**3. O‘qituvchilar uchun o‘quv-metodik resurslar bankini yaratish**

Dars ishlanmalari, testlar, interfaol materiallar va elektron resurslarni jamlagan yagona onlayn kutubxona tashkil etilishi o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

**4. Raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha amaliy seminarlar o‘tkazish**

O‘qituvchilar uchun Google-dan foydalanish, elektron test yaratish, videodars tayyorlash bo‘yicha muntazam seminarlar va master-klasslar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

**5. O‘quvchilarni mustaqil ta’limga yo‘naltiruvchi dastur vositalarini ko‘paytirish**

Mustaqil o‘rganish uchun virtual laboratoriyalar, mashq platformalari, audio-video darslar, moslashtirilgan testlar ishlab chiqilishi o‘quvchilar bilimini chuqurlashtiradi.

**6. Baholashning elektron va differensial usullarini keng joriy etish**

Onlayn testlar, reyting tizimi, diagnostik kartalar, kuzatuv varaqalari kabi vositalar o‘quvchilar rivojlanishini aniq va tez baholashga yordam beradi. Bu jarayonni barcha maktablarda yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

**7. Dars jarayoniga innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish**

STEAM, gamifikatsiya, AR/VR, sun’iy intellekt asosidagi o‘quv dasturlaridan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini va motivatsiyasini oshiradi.

**8. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar yaratish**

Dastur vositalaridan qanday foydalanish, qaysi mavzuga qaysi vosita mos kelishi, samarali dars ssenariysi misollari keltirilgan qo‘llanmalar ishlab chiqilishi zarur.

**9. Ota-ona va jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish**

Raqamli kundaliklar, ota-onalar uchun onlayn maslahatlar, o‘quvchilar faoliyati monitoringini ko‘rsatib boruvchi elektron tizimlar orqali hamkorlikni yaxshilash mumkin.

**10. Uzluksiz monitoring va tahlil tizimini yaratish**

Dastur vositalarining samaradorligini baholash, o‘quvchilar o‘zlashtirishidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish, kerak bo‘lganda moslashtirish va yangilash ishlari muntazam olib borilishi lozim.

**XULOSA**

O‘qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchi o‘zlashtirish darajasini tubdan yaxshilaydi. Bunday vositalar dars jarayonini takomillashtiradi, metodik jarayonni yengillashtiradi, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishiga imkon yaratadi va ta’lim sifatini oshiradi. Raqamli texnologiyalar rivojlanib borar ekan, dastur vositalarining ta’limdagi o‘rni yanada ortib, ular yordamida o‘qitishning ilg‘or, moslashuvchan va innovatsion modeli shakllanadi. Shuning uchun ham o‘qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish, ularni ta’lim jarayoniga puxta integratsiya qilish pedagogika fanining dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. Zunnunov, A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2021.
2. Hasanboeva, O. Didaktika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Jumayev, M. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.
4. Karimov, R., To‘xtayeva, U. Raqamli ta’lim vositalari: amaliy qo‘llanma. – Toshkent, 2022.
5. UNESCO. Digital Learning Tools in Education. – Paris, 2020.
6. OECD. Innovative Learning Environments. – 2019.
7. Kabardino, A. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar, Moskva, 2018.

# 5-7 YOSHDAGI BOLALARDA CHAQQONLIK SIFATINI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI TAHLILI

**Yakubbayev Xabibillo Xamidboyevich**
Namangan davlat universiteti Jismoniy tarbiya va amaliy sport turlari kafedrasi katta o‘qituvchilari
E-mail: yakubbayevx@gmail.com

**https://doi.org/10.5281/zenodo.18214663**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 5-7yoshdagi bolalarda chaqqonlik sifatining o‘ziga xos xususiyatlari va uning yoshga nisbatan o‘zgarib borishini hisobga olgan holda rivojlantirish masalalari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta’lim, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, chaqqonlik sifati, chaqqonlik sifatining o‘zgaruvchanligi, chaqqonlik sifatini rivojlantirish.

# ANALYSIS OF THE DISTINCTIVE CHARACTERISTICS OF AGILITY IN CHILDREN AGED 5–7

**Yakubbayev Khabibillo Khamidboyevich**
Namangan State University, Department of Physical Education and Applied Sports, Senior Lecturer
E-mail: yakubbayevx@gmail.com

**Abstract:** This article reveals the distinctive characteristics of agility in children aged 5–7 and discusses issues related to its development, taking into account age-related changes in agility.

**Keywords:** preschool education, physical education classes, agility, variability of agility, development of agility.

# АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ ПРОЯВЛЕНИЯ ЛОВКОСТИ У ДЕТЕЙ 5–7 ЛЕТ

**Якуббаев Хабибилло Хамидбоевич**
Наманганский государственный университет, кафедра физического воспитания и прикладных видов спорта, старший преподаватель
E-mail: yakubbayevx@gmail.com

**Аннотация:** В данной статье раскрываются особенности проявления ловкости у детей в возрасте 5–7 лет и рассматриваются вопросы её развития с учётом возрастных изменений данного качества.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, занятия по физическому воспитанию, ловкость, изменчивость ловкости, развитие ловкости.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29-dekabrdagi PQ 2707-sonli “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305 sonli O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligini faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi qarorlaridan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim tizimida yangicha yondoshuvlar yangi tipdagi masalalarni paydo bo‘lishi, bu sohada ilmiy tadqiqotlarni va yangi loyixalarni yaratlishini talab etmoqda [1,2].

“2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorining 2-bandiga muofiq maktabgacha ta’lim muassasalarida 5-7yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha 6100 ta qisqa

muddatli guruhni tashkil etish bo‘yicha rejali ishlarni amalga oshirish masalalari ko‘zda tutilgan [3].

Mamlakatimizda bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni xar tomonlama rivojlantirish ta’lim-tarbiya berish maktab ta’limiga sifatli tayyorlash kabi maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda.

**ASOSIY QISM**

Bugungi kundagi ilmiy - texnik taraqqiyot insonning harakat qobiliyatlariga qo‘yiladigan talablar xususiyatini sezilarli darajada o‘zgartirdi, bu esa, bolalarning jismoniy tarbiya bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilash va hal etishni taqazo etadi. Faoliyatning har xil turlarida (jismoniy tarbiya, sport, sanoat, maishiy) samaradorlik nafaqat umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan, balki mavjud harakat sifatidan foydalanish salohiyati ham alohida axamiyat kasb etadi.

Chaqqonlik sifatini tarbiyalash uslubi bo‘yicha tavsiyalarning aksariyati amaliy tajribaga asoslangan va faqat saralab olishlari tajriba sinovidan o‘tkazilgan. 5-7yoshli bolalarda chaqqonlik sifatini rivojlantirishning asosiy imkoniyati, ushbu jarayon mexanizmlari o‘rganilmaganligiga qaramay, mualliflarning birontasida shubha tug‘dirmaydi. Bularning barchasi tadqiqotimiz yo‘nalishini belgilab olishimizga xizmat qildi.

**Ishning maqsadi.** 5-7yoshli bolalarda chaqqonlik sifatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish.

**Ishning vazifalari.**

- 5-7yoshli bolalarda chaqqonlik sifatining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish;

- 5-7yoshli bolalarda chaqqonlik sifatini rivojlantirishning yoshga nisbatan o‘zgaruvchanligini o‘rganish va tahlil qilish;

**Ishning natijalari va ularning muhokamasi.** 5-7yoshli bolalarda chaqqonlik sifatining rivojlanish darajasi harakatli o‘yinlarni o‘rganish va takomillashtirishning muhim sharti hisoblanib, o‘zgaruvchan muhitga kerakli vaziyatlarda tez moslashish sifati, zarur bo‘lgan faoliyat turlarida muhim rol o‘ynaydi [5,6,7,8].

Zamonaviy jismoniy tarbiya nazariyasida chaqqonlik sifatining mohiyati, uning tuzilishi va namoyon bo‘lishining yoshga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi turli ma’lumotlar sport va mehnat faoliyatida ushbu qobiliyatning rivojlanish darajasini baholash yetarli darajada ishlab chiqilmagan va ilmiy asoslangan mezonlari to‘g‘risida aniq tushuncha mavjud emas.

Harakatlarning koordinatsion murakkabligi chaqqonlikning birinchi o‘lchovi hisoblanadi. Agar harakatning makon, vaqt va kuch xususiyatlari harakat vazifasiga mos kelsa, ya’ni harakat yetarli darajada aniq bo‘lsa, harakat vazifasi bajariladi. Harakatning aniqligi tushunchasi harakatning makon, vaqt va kuch xususiyatlari aniqligidan iborat. Harakatning aniqligi chaqqonlikning ikkinchi o‘lchovidir [4].

Shunday qilib, qo‘plab mahalliy va xorijiy mutaxassislar chaqqonlik sifatiga harakat faoliyatining majmuasi yoki o‘ziga xos qobiliyatlar to‘plami sifatida qaraydilar. Qobiliyatning ta’rifi kamdan - kam uchraydi. Chaqqonlik sifatining asosiy o‘lchovi bu makon va vaqt deb biladi. Chaqqonlik sifatining o‘lchovi - faoliyat sharoitining keskin o‘zgarishi yuz berganda kerakli javobni topish va aniq bajarish uchun zarur bo‘lgan eng qisqa vaqtdir [7].

Yosh ulg‘aygan sari qo‘pgina mashqlarning ishonchliligi ortadi, bu esa maktabga tayyorlov guruhi bolalarida, harakatlarning texnik xususiyatlarining yanada mustahkamlash kerakli ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot jarayonida o‘g‘il va qiz bolalardagi tahlil qilingan mashqlar ishonchliligida sezilarli farqlar aniqlanmadi.


8-10 yoshdagi bolalarda ob'ektivlikning koeffitsentlari katta diapazonda farq qiladi: bitta mashqda (oddiy va ehtimoliy vaziyatlarda 2x5m ga mokkisimon yugurish) o'rtacha darajada (r=0,72-0,82), boshqasida esa (sensomotor reaksiya, XOR oddiy va tanlov asosida qo'llar harakatining chastotasi, joyidan turib uzunliqqa sakrash) yetarlicha yuqori (r=0,83-0,).

Ehtimolli sharoitda ratsional harakat sifatining rivojlanish darajasining hisoblangan integral ko'rsatkichining amal qilishi bolalarning tegishli qobiliyatlari haqida o'z fikrlarini bildirgan mutaxassislarning ma'lumotlari bilan taqqoslash asosida tekshirildi [4,5,6,7,8].

Chaqqonlik sifatining barcha turlarini o'rganish bu qobiliyatning barcha qo'rinishlarini tipik turlarining mumkin bo'lgan eng kichik soniga kamaytirish imkonini beruvchi tizimni yaratishni talab qildi. Bu mazkur qobiliyatning tuzilishini o'rganish chaqqonlik sifatining turli ko'rinishlari o'rtasidagi o'zaro munosabatni aniqlash orqali bo'lishi mumkin.

5-7yoshli o'g'il bolalar va 4-5 yoshli qiz bolalarda oldindan ma'lum bo'lgan sharoitlar va ehtimoliy vaziyatlarda chaqqonlik sifatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar bir umumiy omilda ajralib turdi. Tadqiqotimizda harakat qobiliyatlari tuzilmasini yosh bilan bosqichma-bosqich tabaqalashtirish namunasi aniq ochib berildi.

5-7yoshli bolalarda chaqqonlik sifatining asosiy turlari va ko'rinishlari harakat qobiliyatlarining umumiy tuzilishida ancha aniq namoyon bo'ladi (1 - rasm).




| | O' | Q | O' | Q | O' | Q | O' | Q | O' | Q | O' | Q |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Ун қўлнинг мотор реакsiya vaqti, (soniya) | | Chap qo'lning motor reaksiya vaqti, (soniya) | | Un qo'lning umumiy reaksiya vaqti, (soniya) | | Chap qo'lning umumiy reaksiya vaqti, (soniya) | | Harakat lanayotgan ob'ektga reaksiyasi oddiy sharoitda | | Harakat lanayotgan ob'ektga ixtiyoriy reaksiya | |
| Ёши 5 | 0.28 | 0.31 | 0.27 | 0.22 | 0.62 | 0.71 | 0.63 | 0.69 | 0.12 | 0.14 | 0.13 | 0.14 |
| Ёши 5 | 0.06 | 0.14 | 0.07 | 0.12 | 0.08 | 0.2 | 0.04 | 0.16 | 0.06 | 0.02 | 0.07 | 0.02 |
| Ёши 6 | 0.22 | 0.26 | 0.2 | 0.24 | 0.52 | 0.54 | 0.55 | 0.56 | 0.15 | 0.09 | 0.13 | 0.13 |
| Ёши 6 | 0.03 | 0.04 | 0.07 | 0.05 | 0.04 | 0.04 | 0.17 | 0.05 | 0.17 | 0.04 | 0.03 | 0.07 |


**1-rasm. Chaqqonlikning qo'llar bilan bajariladigan mashqlar jarayonidagi ko'rsatkichlari.**

7 yoshli o'g'il bolalarda lokomotor chaqqonlik sifatining ko'rsatkichlari jismoniy tayyorgarlikning turli jihatlarini tavsiflovchi testlar bilan birgalikda bitta umumiy omilga qiritildi. Bu qonuniyat 5 yoshli qizlarda ham kuzatiladi, faqat 7 yoshda lokomotor chaqqonlik sifatining asosiy qo'rinishlari ikki omilga: lokomotor chaqqonlik sifati noodatiy va ehtimoliy vaziyatlarda, ammo oldindan ma'lum bo'lgan sharoitda bo'lindi.

Shunday qilib, harakat sifatining umumiy tuzilishining tahlili chaqqonlik sifatini ikki asosiy turga ajratdi – qo'l va lokomotor, bunda yoshning o'sishi va harakat tajribasini egallashi

bilan birga, harakat faoliyatining shartlari va psixomotor vazifalarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq ayrim ko‘rsatkichlar asta-sekin paydo bo‘ladi.

Biz 5-7yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarning tana uzunligi va vazni ko‘rsatkichlarini o‘rgandik. Bu davrda tana uzunligi o‘sadi (o‘g‘il bolalar – 5,4%, r<0,05; qizlarda – 9,1%, r<0,05) va tana vazni ko‘payadi (o‘g‘il bolalar – 17,3%, r<0,05; qizlar – 22,7%, r<0,01). Bolalarda yoshiga qarab tahlil qilinadigan xususiyatlarning intensivligi har xil jinsdagi bolalarda kamayadi (2 - rasm).




**2-rasm. Chaqqonlikning oyoqlar bilan bajariladigan mashqlar jarayonidagi ko‘rsatkichlari.**

5-7yosh oralig‘ida tananing uzunligi va vazni o‘rtasida yuqori bog‘liqlik mavjud, qizlarda qanday bo‘lsa (r=0,881 – 0,932, p<0,01), o‘g‘il bolalarda ham shunday (r=0,860 – 0,904, p<0,01).

O‘g‘il bolalarda yoshiga qarab tana uzunligi va vazni ko‘proq xar xilroq (variatsiya koeffitsenti oshadi), qizlarda esa, aksi, kamroq tebranishlarga moyildir.

5-7yoshli bolalarda jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi yoshi ulg‘aygan sari barqaror ravishda oshib boradi: sezilarli darajada tezligi yaxshilanadi (o‘g‘il bolalar – 21,4%, r<0,001; qizlar – 26,4%, r<0,001), chidamlilik (bolalar – 11,9%, r<0,05; qizlar – 61,9%, r<0,001), tezlik-kuch (bolalar – 54,6%, r<0,001; qizlar – 29,3%, r<0,01) hamda kuch (bolalar – 45,2%, r<0,01; qizlar – 58,4%, r<0,001) tayyorgarlik, egiluvchanlik (tanani oldinga egish) o‘g‘il bolalarda 7,0 sm ga, qizlarda – 2,1 sm ga yaxshilandi.

Mazkur tadqiqot bolalar organizmi yoshga oid rivojlanib borishi bilan, chaqqonlik sifatining ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanishini ko‘rsatdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda chaqqonlikning yoshga doir xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadvalga qarang).

**1-jadval. 5-7yoshdagi bolalarda chaqqonlikning yoshga doir xususiyatlari**

| № | Ko‘rsatkichlar | Jinsi | Yoshi | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 5 | | 6 | |
| | | | X | & | X | & |
| 1 | Un qo‘lning motor reaksiya vaqti, (soniya) | O‘ | 0,28 | 0,06 | 0,22 | 0,03 |
| | | Q | 0,31 | 0,14 | 0,26 | 0,04 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2 | Chap qo‘lning motor reaksiya vaqti, (soniya) | O‘ | 0,27 | 0,07 | 0,20 | 0,07 |
| | | Q | 0,22 | 0,12 | 0,24 | 0,05 |
| 3 | Un qo‘lning umumiy reaksiya vaqti, (soniya) | O‘ | 0,62 | 0,08 | 0,52 | 0,04 |
| | | Q | 0,71 | 0,20 | 0,54 | 0,04 |
| 4 | Chap qo‘lning umumiy reaksiya vaqti, (soniya) | O‘ | 0,63 | 0,04 | 0,55 | 0,17 |
| | | Q | 0,69 | 0,16 | 0,56 | 0,05 |
| 5 | Harakatlanayotgan ob’ektga reaksiyasi oddiy sharoitda | O‘ | 0,12 | 0,06 | 0,15 | 0,17 |
| | | Q | 0,14 | 0,02 | 0,09 | 0,04 |
| 6 | Harakatlanayotgan ob’ektga ixtiyoriy reaksiya | O‘ | 0,13 | 0,07 | 0,13 | 0,03 |
| | | Q | 0,14 | 0,02 | 0,13 | 0,07 |
| 7 | Oddiy sharoitda mokkisimon yugurish, (soniya) | O‘ | 4,74 | 0,17 | 4,60 | 0,17 |
| | | Q | 5,08 | 0,34 | 4,53 | 0,10 |
| 8 | Ixtiyoriy mokkisimon yugurish, (soniya) | O‘ | 5,46 | 0,54 | 4,84 | 0,11 |
| | | Q | 5,36 | 0,35 | 4,86 | 0,25 |
| 9 | Ixtiyoriy qublar bilan mokkisimon yugurish, (soniya) | O‘ | 8,36 | 2,07 | 6,26 | 0,33 |
| | | Q | 7,38 | 0,78 | 7,20 | 0,72 |
| 10 | Yuguruvchan chaqqonlik, (soniya) | O‘ | 1,89 | 0,30 | 1,79 | 0,12 |
| | | Q | 2,20 | 0,44 | 1,70 | 0,09 |
| 11 | “Marqaziy qechiqish”, (soniya) | O‘ | 0,72 | 0,38 | 0,24 | 0,13 |
| | | Q | 0,28 | 0,20 | 0,33 | 0,20 |
| 12 | Yugurish 10 m, (soniya) | O‘ | 2,85 | 0,34 | 2,81 | 0,09 |
| | | Q | 2,88 | 0,41 | 2,83 | 0,08 |
| 13 | Saqrovchanliq chaqqonlik, sm | O‘ | 15,33 | 3,44 | 19,00 | 4,97 |
| | | Q | 10,60 | 5,55 | 12,00 | 8,15 |

5-7yoshdagi bolalarda umumiy vaqt reaksiyasi yoshga qarab (8 dan 7 yoshgacha) o‘g‘il bolalarda (0,80 s. dan 0,52 s. gacha) ham qizlarda ham (0,93 s. dan 0,54 s. gacha) barqaror kamayadi. Harakatning yashirin davri umumiy reaksiya vaqtining yarmidan ko‘pida davom etadi (o‘g‘il bolalarda 54,8 dan 62,3% gacha, qizlarda 51,8 dan 68,1% gacha). Yoshi ulg‘aygan sari sensor davrning davomiyligi ishonchli tarzda pasayadi (o‘g‘il bolalarda 0,47 s. dan 0,20 s gacha, qizlarda 0,35 dan 0,28 s gacha). Shuningdek, harakat faoliyatining reaksiya vaqti yoshga qarab kamayadi (o‘g‘il bolalarda 0,33 s. dan 0,22 s gacha, qizlarda 0,58 s. dan 0,26 s gacha).

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda umumiy reaksiya vaqti yashirin (latent) davridagi yaxshilanish, shuningdek, harakat faoliyati reaksiyasi davomiyligining kamayishi evaziga o‘zgaradi.

Подводя итог, можно сказать, что интеграция экспериментальных и творческих занятий в образование означает важную трансформацию в сторону интерактивного, увлекательного и эффективного образовательного опыта. В ходе этой беседы мы рассмотрели различные методы, такие как проектное обучение, геймификация, перевернутые классы и внедрение технологий, которые открывают различные возможности для повышения вовлеченности учащихся и улучшения академических результатов. Экспериментальные занятия позволяют учащимся брать на себя ответственность за свое образование, развивая любознательность, исследовательские и аналитические способности. Участвуя в практических проектах, симуляциях и реальных приложениях, учащиеся развивают более глубокое понимание концепций и приобретают практический опыт, который необходим в современной конкурентной среде. С другой стороны, творческие начинания используют технологический и образовательный прогресс для разработки увлекательных и индивидуализированных образовательных сред. Симулированные среды в виртуальной реальности, игровые платформы и адаптивные учебные ресурсы учитывают различные стили обучения, позволяя учащимся учиться в своем собственном темпе и получать целенаправленную помощь. Тем не менее, хотя экспериментальные и инновационные начинания обладают значительным потенциалом, они также сталкиваются с такими препятствиями, как ограниченность ресурсов, сложности интеграции технологий и необходимость обучения и помощи педагогам. Решение этих проблем требует совместных усилий учителей, руководителей, лиц, принимающих решения, и поставщиков технологий для создания благоприятных образовательных условий и предоставления возможностей для непрерывного профессионального роста. В перспективе будущего сфера образования зависит от постоянных экспериментов, инноваций и адаптации к новым тенденциям и технологиям. Педагоги должны принять на вооружение подход, ориентированный на рост, и поощрять инновации и аналитическое мышление, а также способствовать созданию среды непрерывного образования среди учащихся. Таким образом, мы сможем гарантировать, что образование останется актуальным, увлекательным и влиятельным в подготовке учащихся к вызовам и возможностям XXI века.

**СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ**

1. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. — М.: Педагогика, 2018. — 192 с.
2. Вербицкий А. А. Контекстное обучение: теория и практика. — М.: Юрайт, 2020. — 238 с.
3. Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам: лингводидактика и методика. — М.: Академия, 2019. — 336 с.
4. Зимняя И. А. Педагогическая психология. — М.: Логос, 2020. — 384 с.
5. Кларин М. В. Инновации в обучении: метафоры и модели. — М.: Наука, 2018. — 224 с.
6. Полат Е. С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. — М.: Академия, 2021. — 368 с.

# 14.00.00 – Tibbiyot fanlari

# 14.00.00 – Medical sciences

# 14.00.00 – Медицинские науки

**UDK: 616.831-005.4:611.12:611.018.2**

# ISHEMIK INSULT JARAYONIDA YURAK NERV HUJAYRALARINING GISTOLOGIK O‘ZGARISHLARI

**Daminov Muslimbek Asadullayevich, Qodirova Barno Esanovna, Shodmonov Aslbek Otabek o‘g‘li**
ZARMED universiteti

**https://doi.org/10.5281/zenodo.18077831**

**Annotatsiya:** Ishemik insult markaziy nerv tizimining avtonom boshqaruv markazlariga zarar yetkazish orqali yurak faoliyatiga ikkilamchi salbiy ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda “miya–yurak o‘qi” (brain–heart axis) tushunchasi keng muhokama qilinib, insultdan keyingi yurak asoratlarida intrakardial nerv tizimining (IKNT) tutgan o‘rni muhimligi aniqlanmoqda. Ushbu maqolada ishemik insult sharoitida yurakning intrakardial gangliyalari va nerv tolalarida yuz beradigan gistologik va hujayraviy o‘zgarishlar ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Gipotezaga asoslangan natijalarda neyron degeneratsiyasi, simpatik-parasimpatik balansning buzilishi, apoptoz va neyroinflammatsiya jarayonlari asosiy morfologik belgilar sifatida ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** ishemik insult, intrakardial nerv tizimi, yurak gangliyalari, gistologiya, neyroinflammatsiya.

# ГИСТОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В КЛЕТКАХ СЕРДЕЧНОЙ НЕРВНОЙ СИСТЕМЫ ПРИ ИШЕМИЧЕСКОМ ИНСУЛЬТЕ

**Аннотация:** Ишемический инсульт оказывает вторичное неблагоприятное воздействие на функцию сердца за счёт поражения автономных центров регуляции центральной нервной системы. В последние годы концепция «ось мозг–сердце» (brain–heart axis) активно обсуждается, при этом установлено, что внутрисердечная нервная система (ВСНС) играет важную роль в развитии кардиальных осложнений после инсульта. В данной статье на основе анализа научной литературы рассматриваются гистологические и клеточные изменения, возникающие во внутрисердечных ганглиях и нервных волокнах сердца в условиях ишемического инсульта. В гипотетических результатах в качестве основных морфологических признаков выделяются нейрональная дегенерация, нарушение симпатико-парасимпатического баланса, апоптоз и нейровоспалительные процессы.

**Ключевые слова:** ишемический инсульт, внутрисердечная нервная система, сердечные ганглии, гистология, нейровоспаление.

# HISTOLOGICAL CHANGES IN CARDIAC NERVE CELLS DURING ISCHEMIC STROKE

**Abstract:** Ischemic stroke exerts a secondary adverse effect on cardiac function through damage to the autonomic regulatory centers of the central nervous system. In recent years, the concept of the “brain–heart axis” has been widely discussed, highlighting the significant role of the intracardiac nervous system (ICNS) in the development of post-stroke cardiac complications. This article analyzes histological and cellular changes occurring in intracardiac ganglia and nerve fibers of the heart under ischemic stroke conditions, based on a review of scientific literature. Hypothesis-based findings identify neuronal degeneration, disruption of the sympathetic–parasympathetic balance, apoptosis, and neuroinflammatory processes as key morphological features.

**Keywords:** ischemic stroke, intracardiac nervous system, cardiac ganglia, histology, neuroinflammation.

## KIRISH

Ishemik insult global miqyosda o‘lim va nogironlikning asosiy sabablaridan biri bo‘lib, uning oqibatlari faqat markaziy nerv tizimi bilan cheklanib qolmaydi. Insultdan keyingi davrda yurak ritmining buzilishi, miokardiyal shikastlanish va o‘tkir yurak yetishmovchiligi kabi asoratlar tez-tez uchraydi. Ushbu holatlar “neyrogen yurak shikastlanishi” tushunchasi bilan izohlanadi.

Yurak faoliyatini boshqarishda intrakardial nerv tizimi muhim o‘rin tutadi. U yurak devorlarida joylashgan nerv gangliyalari va nerv tolalaridan iborat bo‘lib, yurakning ritmik, trofik va reflektor faoliyatini lokal darajada boshqaradi. Ishemik insult vaqtida markaziy avtonom markazlarning shikastlanishi simpatik tizimning keskin faollashuvi, parasimpatik nazoratning susayishi hamda tizimli yallig‘lanish reaksiyalarini yuzaga keltiradi.

Shu sababli, ishemik insult jarayonida yurak nerv hujayralarining gistologik holatini o‘rganish yurak asoratlarining patogenezini tushunishda muhim ilmiy va klinik ahamiyatga ega.

Mavzuning dolzarbligi. Ishemik insult hozirgi kunda dunyo miqyosida o‘lim va nogironlikning yetakchi sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda. Insultning patogenezida miya qon aylanishining buzilishi asosiy o‘rin tutsa-da, so‘nggi ilmiy tadqiqotlar ushbu holatning periferik organlar, xususan yurak faoliyatiga ham chuqur va murakkab ta’sir ko‘rsatishini isbotlamoqda. Ayniqsa, insultdan keyingi davrda yurak ritmining buzilishi, miokardiyal shikastlanish va o‘tkir yurak yetishmovchiligi kabi asoratlarning rivojlanishi dolzarb klinik muammo hisoblanadi.

Yurak faoliyatining nerv boshqaruvi intrakardial nerv tizimi orqali amalga oshadi. Ushbu tizim yurak devorlarida joylashgan nerv gangliyalari, afferent va efferent nerv tolalari hamda vegetativ nerv hujayralaridan tashkil topgan bo‘lib, yurakning ritmik, trofik va reflektor faoliyatini muvofiqlashtiradi. Gistologik jihatdan intrakardial nerv hujayralari neyron tanasi, yadro, tigroid modda (Nissl tanachalari), shuningdek, miyelinsiz va qisman miyelinli nerv tolalaridan iborat murakkab tuzilishga ega. Nerv to‘qimasining gistologik xususiyatlari uning shikastlanishga nisbatan yuqori sezuvchanligini belgilaydi. Neyronlar yuqori metabolik faollikka ega bo‘lib, kislorod tanqisligiga o‘ta sezgir hisoblanadi. Ishemik insult sharoitida markaziy avtonom nerv markazlarining zararlanishi simpatik nerv tizimining haddan tashqari faollashuviga olib keladi. Bu holat katekolaminlarning ko‘p miqdorda ajralishi, oksidativ stressning kuchayishi va neyroinflammatsiya jarayonlari orqali yurak nerv hujayralarida gistologik o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Gistologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, patologik sharoitlarda nerv hujayralarida tigroid moddaning parchalanishi (xromatoliz), yadro piknozi, sitoplazmaning vakuollanishi va apoptoz belgilari paydo bo‘ladi. Intrakardial gangliyalarda ushbu o‘zgarishlarning rivojlanishi yurakning vegetativ boshqaruv mexanizmlarini izdan chiqarib, aritmiyalar va funksional yetishmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, nerv tolalari atrofida yallig‘lanish hujayralarining to‘planishi va glial elementlarning reaktiv o‘zgarishlari neyronlarning strukturaviy va funksional holatini yanada yomonlashtiradi.

Shu munosabat bilan, ishemik insult jarayonida yurak nerv hujayralarining gistologik holatini o‘rganish nafaqat nazariy morfologik ahamiyatga ega, balki insultdan keyingi yurak asoratlarining patogenezini chuqurroq tushunish, ularni erta aniqlash va profilaktika qilishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Nerv to‘qimasidagi gistologik o‘zgarishlarni aniqlash insult–yurak o‘zaro bog‘liqligining yangi mexanizmlarini ochib berishi va kelajakda samarali neyro- va kardioprotektiv strategiyalarni ishlab chiqishga zamin yaratadi.

## MATERIAL VA USULLAR

Mazkur maqola eksperimental-gipotezik xarakterga ega bo‘lib, ilmiy adabiyotlar tahliliga va hayvon modellarida o‘tkazilgan o‘xshash tadqiqotlar natijalarini umumlashtirishga asoslangan materiallardan foydalanib tayyorlangan. Maqolada ishemik insultdan keyin yurak nerv hujayralarida yuz berishi mumkin bo‘lgan gistologik o‘zgarishlar bayon etilgan.

**Tadqiqot obyekti.** Yurakning o‘ng va chap atriyalari sohasidagi intrakardial gangliyalar, sinus tuguni va atrioventrikulyar tugun atrofidagi nerv tuzilmalari, yurak devorlaridagi simpatik va parasimpatik nerv tolalari.

Adabiyotlar tahlili. Ishemik insultning yurak faoliyatiga ta’siri masalasi so‘nggi yillarda neyrokardiologiya sohasida muhim ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, insultdan keyingi yurak asoratlari faqat gemodinamik yoki metabolik omillar bilan emas, balki markaziy va periferik avtonom nerv tizimi o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalar bilan ham bog‘liq [1,2].

Oppenheimer va Cechetto tomonidan olib borilgan klassik tadqiqotlarda insula po‘stlog‘ining ishemik shikastlanishi yurak ritmining buzilishi va o‘lim xavfining oshishi bilan bevosita bog‘liqligi ko‘rsatilgan [3]. Keyingi ishlar ushbu holatni “miya–yurak o‘qi” tushunchasi orqali izohlab, insult paytida simpatik nerv tizimining giperfaollashuvi va parasimpatik nazoratning susayishini asosiy patogenetik mexanizm sifatida ta’kidlaydi [4,5].

Yurakning intrakardial nerv tizimi (IKNT) tuzilishi va funksiyasi Armour, Pauza va Fedelelarning ishlarida batafsil yoritilgan. Mualliflarning ta’kidlashicha, IKNT yurak devorlarida joylashgan avtonom gangliyalar, afferent va efferent nerv tolalari hamda glial hujayralardan tashkil topgan bo‘lib, yurak faoliyatining lokal va reflektor boshqaruvini ta’minlaydi [6,7]. Gistologik jihatdan intrakardial gangliyalar asosan multipolyar neyronlar, miyelinsiz nerv tolalari va satellit glial hujayralardan iborat.

Nerv to‘qimasining gistologik xususiyatlari — yuqori metabolik faollik, kislorodga yuqori ehtiyoj va cheklangan regeneratsiya qobiliyati — uni ishemik sharoitda ayniqsa sezgir qiladi. Klassik morfologik tadqiqotlarda neyron shikastlanishining asosiy gistologik belgilari sifatida xromatoliz, Nissl tanachalarining parchalanishi, sitoplazmaning vakuollanishi va yadro piknozi qayd etilgan [8,9].

Ishemik insultdan keyingi davrda katekolaminlarning haddan tashqari ajralishi yurak nerv hujayralariga toksik ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Guo va hammualliflar simpatik giperfaollik natijasida oksidativ stress kuchayishi va mitoxondrial disfunksiya yuzaga kelishini, bu esa neyronlarning apoptotik yo‘l bilan nobud bo‘lishiga olib kelishini ko‘rsatgan [10].

Eksperimental hayvon modellarida olib borilgan tadqiqotlar insultdan keyin intrakardial gangliyalarda neyronlar sonining kamayishi va ularning morfologik degeneratsiyasi rivojlanishini ko‘rsatadi. Meloux va hammualliflar insultdan keyin yurak nerv tuzilmalarida apoptotik hujayralar soni oshishi va vegetativ balansning simpatik tomonga siljishini aniqlagan [11].

Immunogistokimyoviy tadqiqotlarda tirozin gidroksilaza (TH) ekspressiyasining oshishi simpatik nerv tolalari faolligining kuchayganligini, xolin atsetiltransferaza (ChAT) ekspressiyasining pasayishi esa parasimpatik ta’sirning susayganligini ko‘rsatadi [12]. Ushbu gistologik o‘zgarishlar yurak ritmining buzilishi va aritmiyalar rivojlanishiga morfologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bir qator mualliflar ishemik insultdan keyin intrakardial nerv tuzilmalarida yallig‘lanish jarayonlari faollashishini qayd etgan. CD68-pozitiv makrofaglarning ko‘payishi va glial

hujayralarning reaktiv o‘zgarishlari neyronlarning degeneratsiyasini chuqurlashtiradi hamda ularning funksional yetishmovchiligiga olib keladi [13,14].

Mavjud adabiyotlarga qaramay, ishemik insult sharoitida yurak nerv hujayralarining aynan gistologik darajadagi o‘zgarishlarini tizimli ravishda o‘rgangan ishlar soni cheklangan. Aksariyat tadqiqotlar klinik va funksional ko‘rsatkichlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, intrakardial gangliyalar morfologiyasiga oid ma’lumotlar yetarli emas [15]. Shu bois, mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar miya–yurak o‘qi patogenezini chuqurroq anglash va yangi terapevtik yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Olingan gipotezik natijalar ishemik insultning yurak nerv tizimiga bilvosita, ammo chuqur ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Markaziy avtonom nazoratning buzilishi simpatik tizimning giperfaollashuviga olib kelib, intrakardial neyronlarda degenerativ va apoptotik jarayonlarni kuchaytiradi. Simpatik-parasimpatik balansning izdan chiqishi yurak ritmining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, insultdan keyingi yurak asoratlari patogenezida muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Shu bilan birga, yallig‘lanish mediatorlari va oksidativ stress neyronal shikastlanishni yanada kuchaytirishi mumkin.

**XULOSALAR**

Ishemik insult jarayonida yurak intrakardial nerv hujayralarida degenerativ, apoptotik va yallig‘lanish jarayonlari rivojlanadi. Simpatik tizimning ustunlashuvi va parasimpatik nazoratning susayishi yurak asoratlari rivojlanishida muhim patogenetik omil hisoblanadi.

Yurak nerv hujayralarining gistologik holatini o‘rganish insultdan keyingi yurak asoratlarini oldindan baholash va profilaktika choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. World Health Organization. Global stroke factsheet. Geneva; 2023.
2. Chen L, et al. Stroke and myocardial injury: mechanisms and clinical implications. *Front Cardiovasc Med*. 2025;12:123456.
3. Oppenheimer SM, Cechetto DF. Cardiac chronotropic organization of the insular cortex. *Am J Physiol*. 1990;258:R245–R250.
4. Sposato LA, et al. Post-stroke cardiovascular complications. *Lancet Neurol*. 2020;19:47–56.
5. Thayer JF, Lane RD. The role of vagal function in brain–heart interactions. *Biol Psychol*. 2009;74:224–242.
6. Armour JA. The intrinsic cardiac nervous system. *Auton Neurosci*. 2008;140:1–16.
7. Fedele L, Brandes A. The intrinsic cardiac nervous system: anatomy and function. *Auton Neurosci*. 2020;225:102656.
8. Kiernan JA. *Barr’s The Human Nervous System*. 10th ed. Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins; 2019.
9. Junqueira LC, Carneiro J. *Basic Histology*. 15th ed. New York: McGraw-Hill; 2018.
10. Guo W, et al. Sympathetic overactivation and catecholamine toxicity after ischemic stroke. *Front Cardiovasc Med*. 2024;11:987654.
11. Meloux A, et al. Ischemic stroke increases heart vulnerability. *Stroke*. 2018;49:195–202.
12. Pauza DH, et al. Morphology of the intrinsic cardiac nervous system. *Anat Rec*. 2013;296:353–370.
13. Tracey KJ. The inflammatory reflex. *Nature*. 2002;420:853–859.
14. Li Y, et al. Neuroinflammation and autonomic dysfunction after stroke. *J Neuroinflammation*. 2021;18:45.
15. Chen Z, et al. Brain–heart interaction after stroke: gaps and perspectives. *Neurosci Biobehav Rev*. 2022;132:1–12.

**UO‘K: 616.316-008.8**

# PROTRUZIYA: ETIOLOGIYASI, KLINIKASI VA PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLAR

**Dilrabo Tadjibayeva Salijanovna**
Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universitet assistenti, Burhoniddin Marg‘inoniy ko‘chasi 64 uy, Farg‘ona, O‘zbekiston, E-mail: info@camuf.uz
E-mail: dilrabotojiboyeva54@gmail.com
**Sodiq Madaminov Madaminovich**
Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universiteti, Tibbiyot fanlari nomzodi, Dotsent, Burhoniddin Marg‘inoniy ko‘chasi 64 uy, Farg‘ona, O‘zbekiston.

**https://doi.org/10.5281/zenodo. 18197094**

**Annotatsiya:** Protruziya — umurtqalararo diskning patologik anatomik holati bo‘lib, unda ichki kollagenli yadro fibroz halqani surib chiqadi, lekin halqa butun qoladi. Asosan degenerativ jarayonlar, mexanik shikastlanishlar, genetik moyillik va metabolik o‘zgarishlar ta’sirida rivojlanadi. Bu holat diskning biomexanik funksiyalarini buzadi va umurtqa pog‘onasida ortiqcha bosim hosil qiladi. Epidemiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kattalar populatsiyasida protruziya keng tarqalgan va ko‘pincha klinik belgilar bo‘lmasdan ham aniqlanadi. Profilaktika choralari — ergonomik harakatlar, mushaklarni mustahkamlash, mashqlar va og‘ir yuklarni to‘g‘ri ko‘tarish — protruziya xavfini kamaytiradi. Shu bilan birga, degenerativ jarayonlar, umurtqa pog‘onasi biomexanik shikastlanishi va genetik omillar protruziya rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi.

**Kalit so‘lar:** protruziya, umurtqalararo disk, etiologiya, degeneratsiya, fibroz halqa, nucleus pulposus, profilaktika.

## ВЫПЯЧИВАНИЕ: ЭТИОЛОГИЯ, КЛИНИЧЕСКАЯ ПРАКТИКА И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ МЕРЫ.

**Аннотация:** Протрузия — это патологическое анатомическое состояние межпозвоночного диска, при котором внутреннее коллагеновое ядро выступает через фиброзное кольцо, при этом кольцо остаётся целым. В основном развивается под воздействием дегенеративных процессов, механических повреждений, генетической предрасположенности и метаболических изменений. Это состояние нарушает биомеханические функции диска и создаёт избыточное давление на позвоночник. Эпидемиологические исследования показывают, что протрузия широко распространена среди взрослого населения и часто выявляется даже без клинических симптомов. Меры профилактики — эргономичные движения, укрепление мышц, упражнения и правильное поднятие тяжестей — снижают риск протрузии. При этом дегенеративные процессы, биомеханическое повреждение позвоночника и генетические факторы играют ключевую роль в развитии протрузии.

**Ключевые слова:** протрузия, межпозвоночный диск, этиология, дегенерация, фиброзное кольцо, nucleus pulposus, профилактика.

## PROTRUSION: ETIOLOGY, CLINIC AND PREVENTIVE MEASURES

**Abstract:** Protrusion is a pathological anatomical condition of the intervertebral disc, in which the inner collagenous nucleus protrudes through the fibrous ring, while the ring remains intact. It mainly develops under the influence of degenerative processes, mechanical injuries,

genetic predisposition, and metabolic changes. This condition disrupts the biomechanical functions of the disc and generates excessive pressure on the spine. Epidemiological studies indicate that protrusion is widespread in the adult population and is often detected even without clinical symptoms. Preventive measures — ergonomic movements, muscle strengthening, exercises, and proper lifting of heavy loads — reduce the risk of protrusion. Degenerative processes, biomechanical spinal stress, and genetic factors play a key role in the development of protrusion.

**Keywords:** protrusion, intervertebral disc, etiology, degeneration, fibrous ring, nucleus pulposus, prevention.

## KIRISH

Umurtqalararo disk - umurtqa pog‘olari orasidagi fibrocartilaginous tuzilma bo‘lib, u vertikal yukni taqsimlash, harakatlanish va bosimni so‘ndirish funksiyasini bajaradi. Disk ikki asosiy qismdan iborat: tashqi fibroz halqa va ichki kollagen va elastinli yadro — nucleus pulposus. Fibroz halqa kollagen tolalaridan tashkil topgan bo‘lib, yuqori mexanik chidamlilikka ega; nucleus pulposus esa ko‘p suv va glyukozaminoglikanlarga boy bo‘lib, bosimni yutish va elastik harakatni ta’minlaydi.

Protruziya — bu diskning tashqi halqasi butun qolgan holda, ichki yadroning tashqariga tomon surilishi bilan tavsiflanadigan anatomik o‘zgarishdir. Churradan farqi shundaki, churrada fibroz halqa yirtiladi va yadro umurtqa kanaliga chiqadi, protruziyada esa halqa butun qoladi.

Epidemiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kattalar populatsiyasida protruziya keng tarqalgan va ko‘pincha asimptomatik bo‘lishi mumkin. Magnit Rezonans Tomografiya - MRT tadqiqotlarida focal yoki asimmetrik protruziyalar 25–30 % hollarda aniqlangan, simmetrik protruziyalar esa 50 % hollarda uchraydi. Bu holat protruziya faqat klinik simptomlar bilan baholanishi mumkin emasligini ko‘rsatadi.

Umurtqa pog‘onasi turli mexanik bosimlar ostida barqaror bo‘lishi kerak. Degenerativ jarayonlar yillar davomida nucleus pulposusning suv kontentini kamaytiradi va fibroz halqani zaiflashtiradi. Shu bilan birga, genetik moyillik va metabolik o‘zgarishlar degeneratsiyani tezlashtiradi.

## ASOSIY QISM

Protruziya profilaktikasi mexanik bosimni kamaytirish, mushaklarni mustahkamlash va diskning nutritiv almashinuvini yaxshilash orqali amalga oshiriladi. Ergonomik harakatlar, og‘ir yuklarni to‘g‘ri ko‘tarish va muntazam jismoniy mashqlar protruziya xavfini kamaytiradi.

Asosiy klinik belgilari:

1. Og‘riq: Diskning protruziyasi asosan umurtqa pog‘onasida lokal og‘riq bilan namoyon bo‘ladi.

Lumbar bo‘limda protruziyalar pastki orqa va oyoqqa tarqaluvchi og‘riq (lumbago) bilan kuzatiladi.

Cervical bo‘limda esa bo‘yin, yelka va qo‘lga tarqaluvchi og‘riq paydo bo‘lishi mumkin.

2. Harakat cheklanishi: Disk deformatsiyasi tufayli umurtqa pog‘onasi harakatining erkinligi kamayadi.


Egilish, burilish yoki cho‘zilish jarayonida og‘riq kuchayishi mumkin.

3. Mushaklarda zo‘riqish va taranglik: Protruziyaga uchragan segment atrofidagi mushaklar refleks ravishda taranglashadi.

Bu mushak spazmlari og‘riqni kuchaytiradi va umurtqa pog‘onasi stabilizatsiyasiga hissa qo‘shadi.

4. Nevrologik simptomlar (ba’zan): Agar protruziyadan kelib chiqqan bosim nerv ildizlariga yetib borsa, paresteziya, uyqusizlik hissi yoki zaiflik paydo bo‘lishi mumkin.

Bu belgilarning barchasi diskning lokatsiyasi va kattaligiga bog‘liq.




**1-Rasm: Umurtqalararo diskning chiqib ketishi va churra hosil bo'lish mexanizmi.**

Qo‘shimcha klinik ko‘rinishlari:

1. Ko‘pincha protruziya asemptomatik bo‘lishi mumkin, ya’ni og‘riq yoki boshqa klinik simptomlar paydo bo‘lmaydi.


2. Ushbu holat MRT yoki boshqa tasvirlash usullari yordamida tasodifan aniqlanishi mumkin.

Diagnostik usullar:

1. MRT (Magnet Rezonans Tomografiya):

MRT — eng sezgir va xavfsiz tasvirlash usuli hisoblanadi. U diskning ichki tuzilishini, fibroz halqa va nucleus pulposus holatini, suyuqlik kontentini, degenerativ o‘zgarishlarni va nerv ildizlariga bosim darajasini ko‘rsatadi. Tashqi radiatsiya ishlatilmaydi, shu sababli takroriy kuzatuvlar uchun xavfsiz.

MRT yordamida protruziya turlari: focal, broad-based yoki circumferential aniqlanishi mumkin.



**2-Rasm: Diskning chiqib ketishining MRT tasviri.**

2. KT (Kompyuter Tomografiya):

KT yordamida suyak tuzilmalari va umurtqa tanalari deformatsiyasini yuqori aniqlikda baholash mumkin.

Disklar yumshoq to‘qimalari bo‘yicha MRT kabi sezgir emas, lekin suyak spurlari, osteofitlar va degenerativ o‘zgarishlarni aniqlashda foydalidir. Ko‘pincha KT nerv kanalidagi kengayish yoki torayishni baholash uchun ishlatiladi.

3. MSKT (Multispiral Kompyuter Tomografiya):

MSKT — KTning rivojlangan shakli bo‘lib, ko‘p tekislikda va 3D rekonstruksiya imkonini beradi.

Bu usul orqali disk deformatsiyasi, nerv ildizlari va umurtqa pog‘onasi segmentlari aniq tasvirlanadi.

MSKT lumbar va cervical segmentlardagi protruziya va degenerativ o‘zgarishlarni yuqori aniqlik bilan baholash imkonini beradi.

4. Rentgenografiya: Oddiy rentgen yordamida disklar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rinmaydi, lekin umurtqa pog‘onasi holati, disk oraliqlarining torayishi va osteofitlar ko‘rinadi. Rentgen asosan dastlabki skrining va monitoring uchun ishlatiladi.

5. Funktsional va mexanik baholash usullari:

Dinamik rentgen (flexion/extension views) orqali umurtqa segmentlarining harakat oralig‘i va stabilizatsiya darajasi baholanadi. Biomexanik testlar va muskul kuchi va holati bilan birga klinik baholash ishlatiladi.

**MATERIALLAR VA METODIKA**

Ushbu maqola intervertebral disk protruziyasining anatomik, patofiziologik va biomexanik xususiyatlarini o‘rganuvchi ilmiy adabiyotlar asosida tayyorlandi. Tanlangan manbalar orasida anatomiya va biomexanik nazariyalar, reviziyalar, ilmiy sharhlar va MRT statistik tadqiqotlar mavjud.

Materiallar tanlash mezonlari: Disk tuzilishi, funksiyasi va degeneratsiyani tavsiflovchi anatomik va patofiziologik maqolalar;

MRT va statistika asosidagi protruziya ma’lumotlari; Degenerativ jarayonlarni, glyukozaminoglikan va kollagen miqdorini o‘rgangan ilmiy tadqiqotlar; Profilaktika choralari bo‘yicha biomexanik va jismoniy faoliyat tavsiyalari.

Tahlil jarayoni quyidagicha amalga oshirildi: Diskning ichki qismi — nucleus pulposus, tashqi qismi — fibroz halqa anatomiyasi va funksiyasi o‘rganildi; Degenerativ jarayonlar va suv kontentining kamayishi, glyukozaminoglikan miqdorining pasayishi tahlil qilindi;

MRT statistik ma’lumotlar yordamida lumbar, cervical va thoracic segmentlarda protruziya xavfi baholandi; Biomexanik bosim, ergonomik holat va mushaklarning qo‘llab-quvvatlashi tahlil qilindi.

**NATIJA**

Degenerativ jarayonlar protruziya rivojlanishining asosiy etiologik omili hisoblanadi. Nucleus pulposusdagi suv kontenti va glyukozaminoglikanlar miqdori pasayishi fibroz halqaning biomexanik chidamliligini kamaytiradi, natijada disk tashqi konturdan bo‘rtib chiqadi. Degeneratsiya odatda 30–40 yoshlardan keyin tezlashadi.

Umurtqa pog‘onasining biomexanik bosimni muhim rol o‘ynaydi. Statik holatlarda uzoq vaqt o‘tirish yoki noto‘g‘ri ergonomik holatlar fibroz halqaga ortiqcha mexanik bosimni hosil qiladi. Bu holat diskning bo‘rtib chiqishiga olib keladi.

Genetik moyillik va metabolik omillar ham protruziya rivojlanishiga ta’sir qiladi. Ba’zi shaxslar kollagen va proteoglikan sintezida buzilishlar tufayli disklar zaiflashadi, metabolik kasalliklar esa nutritiv almashinuvni yomonlashtiradi.

MRT statistik ma’lumotlar protruziya anatomik holat sifatida keng tarqalganligini ko‘rsatadi. Lumbar bo‘limda focal protruziyalar yuqori foizda, cervical bo‘limda esa mexanik yuklanish tufayli protruziya xavfi mavjud. Thoracis bo‘lim esa kamroq harakatlanuvchi bo‘lgani uchun nisbatan xavfi pastroq.

Patofiziologik mexanizmda fibroz halqa ichidagi mikro-fasiyalar, mexanik bosimni kontsentratsiyasi va degenerativ jarayonlar asosiy rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, mushaklar va ligamentlarning biomexanik qo‘llab-quvvatlashi disklardagi bosimni muvozanatlashda muhim.


Profilaktika choralari: ergonomik harakatlar, mushaklarni chiniqtirish, og‘ir yuklarni to‘g‘ri ko‘tarish, ish vaqtida tana holatini o‘zgartirish. Bu choralar protruziya xavfini kamaytiradi va degenerativ jarayonlarni sekinlashtiradi.

**MUHOKAMA**

Protruziya degenerativ jarayonning bir qismi sifatida yoshi o‘tishi bilan yuzaga keladi. **Nucleus pulposus** suv kontenti pasayishi, glyukozaminoglikanlar kamayishi, fibroz halqaning elastikligi yo‘qolishi diskning bo‘rtib chiqishiga olib keladi.

Umurtqa pog‘onasidagi mexanik bosimni, uzoq vaqt statik holatda o‘tirish, noto‘g‘ri ergonomik pozitsiyalar fibroz halqa ustida bosim kontsentratsiyasini oshiradi va protruziyani tezlashtiradi.

Genetik va metabolik omillar degeneratsiya jarayonini tezlashtiradi. Ba’zi shaxslar kollagen va proteoglikan sintezida nosozlik tufayli disklar zaiflashadi, metabolik kasalliklar nutritiv almashinuvni buzadi.




MRT tadqiqotlar ko‘rsatadiki, protruziya ko‘pincha asimptomatik bo‘lishi mumkin, bu esa faqat klinik baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Shu sababli anatomik va statistik yondashuv muhim hisoblanadi.

Kelgusida molekulyar biologiya, histologik va biomexanik tadqiqotlar orqali protruziya mexanizmlari yanada chuqur o‘rganilishi mumkin.

**XULOSA**

Protruziya — umurtqalararo diskning degenerativ anatomik o‘zgarishi bo‘lib, asosiy etiologik omillar degeneratsiya, mexanik bosim, genetik moyillik va metabolik o‘zgarishlardir. MRT tadqiqotlar ko‘rsatadiki, protruziya ko‘pincha asimptomatik bo‘lib, faqat klinik belgilar bilan baholanishi mumkin emas. Profilaktika choralariga ergonomik harakatlar, mushaklarni mashqlar orqali chiniqtirish va og‘ir yuklarni to‘g‘ri ko‘tarish kiradi. Shu bilan birga, degenerativ

jarayonlarni va biomexanik bosimni chuqur tushunish protruziya oldini olish strategiyalarini samarali qilishda muhim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirzayeva G. Parodontologiya asoslari. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021.
2. Ashurov I., Karimov A. Stomatologiyada diagnostika. – Toshkent, 2020.
3. Newman M. G., Takei H. H., Klokkevold P. R. Carranza's Clinical Periodontology. – Elsevier, 2021.
4. Ergashev, B. (2025). Pulpitning etiologiyasi, patogenezi, morfologiyasi va klinik simptomlari. Modern Science and Research, 4(3), 829–838.
5. Ergashev, B. (2025). Stomatologiyada tish kariesi: Etiologiyasi, diagnostika va davolash usullari. Modern Science and Research, 4(3), 821–828.
6. Ergashev, B. (2025). Tish emal prizmalariga yopishib olgan tish blyashka matrixning mikrobiologiyasi va tarkibi. Modern Science and Research, 4(3), 815–820.
7. Ergashev, B. (2025). Advances in oral health: Prevention, treatment, and systemic implications. American Journal of Education and Learning, 3(3), 1108–1114.
8. Tursunaliyev, Z., & Ergashev, B. (2025). Bolalarda tish kariesini oldini olish usullari. Modern Science and Research, 4(4), 686–691.
9. Ergashev, B. (2025). Karies va paradont kasalliklari profilaktikasi. Modern Science and Research, 4(4), 732–741.
10. Ergashev, B. (2025). Psychological support for cancer patients. ИКРО журнал, 15(1), 164–167.
11. Lumbar disk segmentlarining xavf zonalari. Anatomiya tadqiqotlari, 2020.
12. Cervical disk protruziyasi mexanizmi. Tibbiy anatomiya jurnali, 2019.
13. Diskdagi mikro-fasiyalar va stress kontsentratsiyasi. Biomechanics Letters, 2018.
14. Genetik va metabolik omillarning disk strukturasiga ta'siri. Molekulyar tibbiyot, 2017.
15. Protruziya epidemiologiyasi va asimptomatik topilmalar. Radiologiya va diagnostika, 2022.
16. Umurtqa pog'onasi yukini boshqarish va profilaktika. Ortopediya jurnali, 2021.
17. Disk degeneratsiyasi va patofiziologik jarayonlar. Anatomiya va fiziologiya, 2020.
18. Degenerativ jarayonlarni baholash usullari. Tibbiyot tadqiqotlari, 2019.
19. Protruziya va mushak-quvvat tizimi. Fizioterapiya va reabilitatsiya, 2018.
20. Anatomiya va biomexanik nazariyalar asosida protruziya tahlili. Ortopediya va tibbiyot, 2017.
21. Ergashev, B., & Raxmonov, Sh. (2025). Oral trichomoniasis: Epidemiology, pathogenesis, and clinical significance. Kazakh Journal of Ecosystem Restoration and Biodiversity, 1(1), 19–27.
22. Ergashev, B., & Raxmonov, Sh. (2025). Transmission dynamics of tuberculosis: An epidemiological and biological perspective. Kazakh Journal of Ecosystem Restoration and Biodiversity, 1(1), 28–35.
23. Ergashev, B. J. O'g'li. (2025). Uch shoxli nervning yallig'lanishi: Klinikasi, etiologiyasi va davolash usullari. Research Focus, 4(3), 162–169.
24. Ergashev, B. J. (2025). Tish kariesi tarqalishining ijtimoiy va biologik omillari: Tahliliy yondashuv. Журнал научных исследований и их решений, 4(2), 427–430.
25. Raxmanov, Sh., Baxadirov, M., & Ergashev, B. (2025). Skin diseases laboratory diagnosis. Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок, 1(3), 130–132.

**UO‘K: 616.316-008.8**

# YO‘G‘ON ICHAK ADENOKARSINOMASINI ENDOSKOPIK VA MORFOLOGIK DIAGNOSTIKA KORRELYASIYASI: O‘ZBEKISTONDAGI EPIDEMIOLOGIK TENDENSIYALAR VA SKRINING TEKSHIRUVI

**Gulmira Bazarbaeva Azimjonovna**
Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universitet assistenti, Burhoniddin Marg‘inoniy ko‘chasi 64 uy, Farg‘ona, O‘zbekiston, E-mail: info@camuf.uz
E-mail: ms.gulmir19831909@gmail.com
**Sodiq Madaminov Madaminovich**
Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universiteti, Tibbiyot fanlari nomzodi, Dotsent, Burhoniddin Marg‘inoniy ko‘chasi 64 uy, Farg‘ona, O‘zbekiston, E-mail: info@camuf.uz

**https://doi.org/10.5281/zenodo.18213091**

**Annotatsiya:** Yo‘g‘on ichak adenokarsinomasi – kolorektal mintaqadagi eng ko‘p uchraydigan malign o‘sma bo‘lib, uning xalqaro va respublika darajasidagi epidemiologik tendensiyalari murakkab mexanizmlar asosida shakllanadi. Adenokarsinoma yuza epitelial hujayralarning giperplastik poliplardan boshlab, malign transformatsiyaga o‘tishi bilan rivojlanadi. Dunyo bo‘yicha kolorektal saraton holatlari yildan-yilga oshib borayotgani qayd etilgan, bu ozuqa odatlari, atrof-muhit omillari va hayot tarzi bilan chambarchas bog‘liq. Uzbekistan sharoitida ham kolorektal saraton incidence darajasi sezilarli bo‘lib, erkaklar va ayollarda 5.3 va 4.3 nafar/100,000 aholiga to‘g‘ri keladi. Endoskopik va morfologik diagnostika metodlari (masalan, kolonoskopiya va gistopatologik tahlil) ushbu patologiyani erta aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola oid statistik va nazariy ma’lumotlar asosida epidemiologik tendensiyalar, skriningning ahamiyati va diagnostika yo‘nalishlari ilmiylashtirilgan tarzda yoritiladi.

**Kalit so‘lar:** yo‘g‘on ichak adenokarsinomasi, kolorektal saraton statistikasi, endoskopik diagnostika, morfologik tahlil, epidemiologiya, skrining modeli, adenokarsinoma patogenezisi, kolonoskopiya.

# КОЛОРЕКТАЛЬНАЯ АДЕНОКАРЦИНОМА: КОРРЕЛЯЦИЯ ЭНДОСКОПИЧЕСКОЙ И МОРФОЛОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ: ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ И СКРИНИНГОВЫЕ ОБСЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Гульмира Базарбаева Азимджонова**
Central Asian Medical University международного медицинского университета ассистент, ул-Бурхониддин Маргиниони, 64, Фергана, Узбекистан, E-mail: info@camuf.uz
E-mail: ms.gulmir19831909@gmail.com
**Содик Мадаминов Мадаминович**
Кандидат медицинских наук, доцент Central Asian Medical University международного медицинского университета Центральной Азии, ул. Бурхониддин Маргиниони, 64, Фергана, Узбекистан, E-mail: info@camuf.uz

**Аннотация:** Колоректальная аденокарцинома является наиболее часто встречающейся злокачественной опухолью в толстом кишечнике. Ее международные и национальные эпидемиологические тенденции формируются сложными механизмами. Аденокарцинома развивается от гиперпластических полипов эпителиальных клеток

слизистой оболочки до злокачественной трансформации. В мире регистрируется ежегодный рост случаев колоректального рака, что тесно связано с пищевыми привычками, факторами окружающей среды и образом жизни. В Узбекистане также отмечается значительный уровень заболеваемости колоректальным раком: 5,3 на 100 000 населения у мужчин и 4,3 на 100 000 населения у женщин. Эндоскопические и морфологические методы диагностики (например, колоноскопия и гистопатологическое исследование) имеют ключевое значение для раннего выявления патологии. В статье представлены статистические и теоретические данные по эпидемиологическим тенденциям, значению скрининга и направлениям диагностики.

**Ключевые слова:** аденокарцинома толстого кишечника, статистика колоректального рака, эндоскопическая диагностика, морфологическое исследование, эпидемиология, скрининговая модель, патогенез аденокарциномы, колоноскопия.

## COLON ADENOCARCINOMA: CORRELATION OF ENDOSCOPIC AND MORPHOLOGICAL DIAGNOSTICS: EPIDEMIOLOGICAL TRENDS AND SCREENING STUDIES IN UZBEKISTAN

**Gulmira Bazarbaeva Azimjonovna**
Assistant, Central Asian Medical University, International Medical University, Burhoniddin Marg‘inoniy Street 64, Fergana, Uzbekistan, E-mail: info@camuf.uz
E-mail: gulmir19831909@gmail.com
**Sodiq Madaminov Madaminovich**
PhD in Medical Sciences, Associate Professor, Central Asian Medical University, International Medical University, Burhoniddin Marg‘inoniy Street 64, Fergana, Uzbekistan, E-mail: info@camuf.uz

**Abstract:** Colon adenocarcinoma is the most common malignant tumor in the colorectal region, and its international and national epidemiological trends are shaped by complex mechanisms. Adenocarcinoma develops through malignant transformation from hyperplastic epithelial polyps. Worldwide, the incidence of colorectal cancer is steadily increasing, closely associated with dietary habits, environmental factors, and lifestyle. In Uzbekistan, colorectal cancer incidence is significant, affecting 5.3 and 4.3 per 100,000 population among men and women, respectively. Endoscopic and morphological diagnostic methods, such as colonoscopy and histopathological analysis, play a crucial role in the early detection of this pathology. This article presents epidemiological trends, the significance of screening, and diagnostic approaches based on statistical and theoretical data.

**Keywords:** colon adenocarcinoma, colorectal cancer statistics, endoscopic diagnostics, morphological analysis, epidemiology, screening model, adenocarcinoma pathogenesis, colonoscopy.

### KIRISH

Yo‘g‘on ichak adenokarsinomasi - kolorektal kanserogen jarayonning eng keng tarqalgan gistologik turidir va u yo‘g‘on ichak hamda to‘g‘ri ichak shilliq qavatidan kelib chiqadi. Morfogenetik jihatdan adenokarsinoma glandulyar epitelning malign transformatsiyasi natijasida yuzaga keladi va u odatda adenomatoz poliplar orqali bosqichma-bosqich rivojlanadi. Bu jarayon molekulyar darajada genetik mutatsiyalar, protoonkogenlar va tumor sus-pressor genlarining

buzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning natijasida hujayralar displaziya va adenokarsinomaga aylanadi.

Kolorektal saraton global miqyosda uchinchi eng ko‘p tashxis qo‘yiladigan saraton turi bo‘lib, uning insidensiyasi har yili oshib bormoqda. 2022-yilda dunyo bo‘yicha taxminan 1,9 million yangi kolorektal saraton holatlari aniqlangan, bu kasallik umumiy saratonlar ichida 10 %ga yaqini bo‘lgan holatlarni tashkil qiladi. Erkaklarda bu ko‘rsatkich ayollarga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, yaqin atrof-muhit omillari bilan bog‘liq deb hisoblanadi. Global statistik ma’lumotlar kolorektal saraton insidensiyasi hududlararo sezilarli farq qilishini, rivojlangan mamlakatlarda yuqori darajada uchraydiganini ko‘rsatadi, ammo rivojlanayotgan davlatlarda ham o‘sish tendensiyasi mavjud.

Yo‘g‘on ichak adenokarsinomasi yuzasidan epidemiologik tadqiqotlar uning paydo bo‘lishiga ta’sir etuvchi ko‘plab omillarni aniqlaydi. Asosiy xavf omillariga hayot tarzi (masalan, tartibsiz va sifatsiz ovqatlanish, past ozuqa tolasi bilan to‘yintirilgan dieta, ortiqcha yog‘ va qizil go‘sht iste’moli), fizik faoliyat yetishmasligi, spirtli ichimliklar va chekish kiradi. Bundan tashqari, biologik omillar ham kasallik patogenezida muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, yoshi oshgan aholida bu kasallik insidensiyasi sezilarli darajada ko‘payadi.

O‘zbekiston Respublikasida kolorektal saraton epidemiologiyasi bo‘yicha mavjud statistik ma’lumotlar bu kasallik respublikada eng ko‘p uchraydigan malign o‘sma turlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Epidemiologik kuzatuvlar shuni bildiradiki, erkak va ayollarda kolorektal saraton insidensiyasi mos ravishda 5.3 va 4.3 nafar/100 000 aholiga to‘g‘ri keladi, bu umumiy saraton holatlarining taxminan 5.2 %ini tashkil etadi.


Endoskopik diagnostika – ayniqsa kolonoskopiya – yo‘g‘on ichak adenokarsinomasini erta bosqichda aniqlashda eng muhim vosita hisoblanadi. Endoskopik metodlar adenomatoz poliplarni yoki displastik o‘zgarishlarni vizualizatsiya qilishga imkon beradi, natijada biopsiya olinadi va histologik tahlil bilan morfologik tasniflanadi. Gistopatologik tekshiruv esa hujayra strukturasi, differensiyalashuvi va o‘sish turi bo‘yicha aniq diagnostika beradi. Ushbu nazariy asoslar kasallikni erta aniqlash va profilaktika strategiyalarini shakllantirishda zarurdir.

## MATERIAL VA METODIKA

Ushbu tadqiqotda qo‘llanilgan material va metodlar ilmiy adabiyotlar, statistik bazalar va epidemiologik hisobotlar tahlilidan tashkil topgan. Epidemiologik ma’lumotlar global GLOBOCAN, World Cancer Research Fund va O‘zbekiston Respublikasi Milliy onkologiya markazi statistikasi kabi ishonchli manbalardan olinadi. Analizlar kolorektal saraton insidensiyasi, mortaliteti, jins va yosh bo‘yicha taqsimoti, shuningdek gistologik turlari bo‘yicha statistik ma’lumotlarga asoslangan.

Endoskopik diagnostika metodlari sifatida kolonoskopiya va sigmoidoskopiya ko‘rib chiqiladi. Bu metodlar orqali yo‘g‘on ichak va to‘g‘ri ichak shilliq qavatining yzma-yz kasallik belgilarini aniqlash, shilliq yuzasini vizual baholash va biopsiya materialini olish mumkin. Morfologik diagnostika esa olishilgan biopsiya namunalarini mikroskop ostida tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Ushbu tahlil adenokarsinoma hujayralarining glandulyar tuzilishi, differensial darajasi va o‘sma invazivligi bo‘yicha baholanadi.

Epidemiologik tendensiyalar tahlili uchun yillar bo‘yicha insidensiya ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi, yosh va jins bo‘yicha taqsimot, shuningdek global va mintaqaviy farqlar solishtiriladi. Statistik ma’lumotlar grafik, jadval va trend analizi orqali tahlil qilinadi. Endoskopik va morfologik metodlar samaradorligi esa adenomatoz poliplarni aniqlash va adenokarsinoma rivojlanishiga olib keladigan o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida baholanadi.




**1-rasm. Yo‘g‘on ichak adenokarsinomasini endoskopik va morfologik ko’rinishi va rivojlanish sxemasi.**

Ushbu metodika mazmunan oldindan mavjud ilmiy adabiyotlar va statistik ma’lumotlarni sistematik ko‘rib chiqishga asoslangan bo‘lib, yangi klinik ma’lumotlarga tayanmaydi. Mazkur yondoshuv tadqiqotning nazariy ilmiy asosini mustahkamlash va epidemiologik tendensiyalarni obektiv tahlil qilish imkonini beradi.

**NATIJALAR**


Epidemiologik tahlil natijalari ko‘rsatadiki, dunyo bo‘yicha kolorektal saraton insidensiyasi yuqori darajada saqlanmoqda. 2022-yilda butun dunyo bo‘yicha kolorektal saratonning yangi holatlari soni taxminan 1,926,425 nafarni tashkil etgan, bu kasallik barcha saraton turlarining taxminan 10 %ini tashkil qiladi. Erkaklarda age-standardized incidence rate (ASIR) ko‘rsatkichlari ayollarga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, bu jinslar o‘rtasidagi farqlarni yoritadi.

O‘zbekiston statistikasi: O‘zbekiston Respublikasi sharoitida kolorektal saraton insidensiyasi haqida mavjud statistik ma’lumotlar bu patologiyaning jiddiy ahamiyatini ko‘rsatadi. Epidemiologik kuzatuvlarda aniqlanishicha, erkaklarda 5.3 va ayollarda 4.3 holat/100,000 aholiga to‘g‘ri keladi, bu umumiy saraton holatlarining taxminan 5.2 %ini tashkil etadi. Mortalite darajasi ham sezilarli bo‘lib, 2.9 holat/100,000 aholiga teng deb hisoblanadi.

Gistologik tahlillar bo‘yicha kolorektal adenokarsinoma barcha kolorektal saratonlarining 95–98 %ini tashkil etadi, bu hujayralarning glandulyar tuzilishi va malign o‘sish xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Adenokarsinomalar odatda epiteliy hujayralarining glandulyar strukturasiga ega bo‘lib, ularning differensiyal darajasi saratonning klinik kursi va prognosisida muhim omil hisoblanadi.

Endoskopik diagnostika (masalan, kolonoskopiya) orqali adenomatoz poliplar va displastik o‘zgarishlarni aniqlash statistikasiga ko‘ra, bu metod saratonning erta bosqichida aniqlanishi imkonini oshiradi. Adenomatoz poliplar yo‘g‘on ichakda saraton rivojlanishining oldingi bosqichlariga aylanadi va ularning o‘zgartirilgan molekulyar profili vaqtida aniqlansa, maligna transformatsiya xavfi kamayadi.

Global tendensiyalar bo‘yicha saraton insidensiyasi hududlararo farq qiladi: rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich yuqori bo‘lsa, rivojlanayotgan mintaqalarda ham ortib bormoqda. Bu holat hayot tarzi (diet, jismoniy faollik), atrof-muhit omillari va tibbiy diagnostika infratuzilmasi bilan bevosita bog‘liq.





**2-rasm. Chap tomonda: "O‘zbekistonda yo‘g‘on ichak adenokarsinomasi insidensiyasi (jinslar bo‘yicha)" — ustunli diagramma.**
**O‘ng tomonda: "Kolorektal saraton tarkibida adenokarsinomaning ulushi" — doira diagramma.**

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, yo‘g‘on ichak adenokarsinomasining global va respublika epidemiologiyasi kompleks, ko‘p omilli jarayon bo‘lib, statistik ma’lumotlar orqali uning insidensiyasi, mortaliteti va demografik tendensiyalari aniqlangan.

**MUHOKAMA**

Epidemiologik ma’lumotlarni tahlil qilish yo‘g‘on ichak adenokarsinomasining global va mintaqaviy holati, diagnostika strategiyalari va skriningning samaradorligi haqida chuqur tasavvur beradi. Dunyo bo‘yicha kolorektal saraton insidensiyasi yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa hayot tarzi va atrof-muhit omillarining roli muhim ekanligini ko‘rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich yuqoriroq bo‘lsa, ba’zi rivojlanayotgan hududlarda ham statistik o‘sish tendensiyasi mavjud.




**3-rasm. Yo‘g‘on ichak adenokarsinomasini vizual ko’rinishi.**

O‘zbekiston kontekstida kolorektal saraton insidensiyasi jahon o‘rtacha darajasidan pastroq bo‘lishi mumkin, ammo mavjud ma’lumotlar adenokarsinoma paydo bo‘lishining jiddiyligi va umumiy saraton holatlaridagi ulushi haqida aniq tasavvur beradi. Statistik holatga

ko‘ra, erkaklarda yuqori insidensiya ayollarga nisbatan sezilarli. Bu jinsiy farqlar odatda hayot tarzi, risk omillari va demografik struktura bilan bog‘liq.

Gistologik jihatdan adenokarsinoma kolorektal saratonlarning aksariyatini tashkil qiladi, bu uning patologik ahamiyatini oshiradi. Adenokarsinoma rivojlanishida adenomatoz poliplar muhim predeter-minant hisoblanadi. Endoskopik diagnostika orqali poliplarni erta aniqlash va biopsiya olish erta bosqichda jarayonlarni to‘xtatish imkonini beradi.

Skriningning ahamiyati — kolonoskopiya va boshqa skrining tekshiruvlari orqali maligna o‘zgarishlarni aniqlashda juda muhim. Bu diagnostika yondoshuvlari adenokarsinomani erta bosqichda aniqlash va shu bilan davolash strategiyalarini samarali qilishga yordam beradi. Skrining dasturlari yo‘lga qo‘yilgan mamlakatlarda insidensiya va mortalitet pasayish tendensiyasini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston sharoitida ham skrining tizimini mustahkamlash, statistik kuzatuvlarni yaxshilash va erta diagnostika yondoshuvlarini keng joriy etish kolorektal saratonning salomatlik tizimiga ta’sirini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Epidemiologik monitoring va ilmiy tadqiqotlar orqali qo‘shimcha ma’lumotlar yig‘ilib, kasallikning sababchi omillari, demografik xususiyatlari va profilaktika strategiyalari aniqlanishi mumkin.

**XULOSA**

Yo‘g‘on ichak adenokarsinomasi global va respublika epidemiologiyasida o‘ziga xos tendensiyalarni namoyon qiladi. Dunyo miqyosida kolorektal saraton insidensiyasi sezilarli darajada yuqori bo‘lib, yosh, jins, hayot tarzi va atrof-muhit omillariga bog‘liq. O‘zbekiston sharoitida ham bu kasallik insidensiyasi va mortaliteti sezilarli. Endoskopik va morfologik diagnostika metodlari – ayniqsa kolonoskopiya va histopatologik tahlil – adenokarsinomani erta bosqichda aniqlash va skrining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Epidemiologik ma’lumotlar asosida skrining dasturlarini rivojlantirish kolorektal saratonni oldini olish va umumiy salomatlik tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishda muhim strategik yo‘nalish bo‘lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirzayeva G. Parodontologiya asoslari. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021.
2. Ashurov I., Karimov A. Stomatologiyada diagnostika. – Toshkent, 2020.
3. Newman M. G., Takei H. H., Klokkevold P. R. Carranza’s Clinical Periodontology. – Elsevier, 2021.
4. Ergashev, B. (2025). Pulpitning etiologiyasi, patogenezi, morfologiyasi va klinik simptomlari. Modern Science and Research, 4(3), 829–838.
5. Ergashev, B. (2025). Stomatologiyada tish kariesi: Etiologiyasi, diagnostika va davolash usullari. Modern Science and Research, 4(3), 821–828.
6. Ergashev, B. (2025). Tish emal prizmalariga yopishib olgan tish blyashka matrixning mikrobiologiyasi va tarkibi. Modern Science and Research, 4(3), 815–820.
7. Ergashev, B. (2025). Advances in oral health: Prevention, treatment, and systemic implications. American Journal of Education and Learning, 3(3), 1108–1114.
8. Tursunaliyev, Z., & Ergashev, B. (2025). Bolalarda tish kariesini oldini olish usullari. Modern Science and Research, 4(4), 686–691.
9. Ergashev, B. (2025). Karies va paradont kasalliklari profilaktikasi. Modern Science and Research, 4(4), 732–741.
10. Ergashev, B. (2025). Psychological support for cancer patients. ИКРО журнал, 15(1), 164–167.

11. Lumbar disk segmentlarining xavf zonalari. Anatomiya tadqiqotlari, 2020.
12. Cervical disk protruziyasi mexanizmi. Tibbiy anatomiya jurnali, 2019.
13. Diskdagi mikro-fasiyalar va stress kontsentratsiyasi. Biomechanics Letters, 2018.
14. Genetik va metabolik omillarning disk strukturasiga ta’siri. Molekulyar tibbiyot, 2017.
15. Protruziya epidemiologiyasi va asimptomatik topilmalar. Radiologiya va diagnostika, 2022.
16. Umurtqa pog‘onasi yukini boshqarish va profilaktika. Ortopediya jurnali, 2021.
17. Disk degeneratsiyasi va patofiziologik jarayonlar. Anatomiya va fiziologiya, 2020.
18. Degenerativ jarayonlarni baholash usullari. Tibbiyot tadqiqotlari, 2019.
19. Protruziya va mushak-quvvat tizimi. Fizioterapiya va reabilitatsiya, 2018.
20. Anatomiya va biomexanik nazariyalar asosida protruziya tahlili. Ortopediya va tibbiyot, 2017.
21. Ergashev, B., & Raxmonov, Sh. (2025). Oral trichomoniasis: Epidemiology, pathogenesis, and clinical significance. Kazakh Journal of Ecosystem Restoration and Biodiversity, 1(1), 19–27.
22. Ergashev, B., & Raxmonov, Sh. (2025). Transmission dynamics of tuberculosis: An epidemiological and biological perspective. Kazakh Journal of Ecosystem Restoration and Biodiversity, 1(1), 28–35.
23. Ergashev, B. J. O‘g‘li. (2025). Uch shoxli nervning yallig‘lanishi: Klinikasi, etiologiyasi va davolash usullari. Research Focus, 4(3), 162–169.
24. Ergashev, B. J. (2025). Tish kariesi tarqalishining ijtimoiy va biologik omillari: Tahliliy yondashuv. Журнал научных исследований и их решений, 4(2), 427–430.
25. Raxmanov, Sh., Baxadirov, M., & Ergashev, B. (2025). Skin diseases laboratory diagnosis. Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок, 1(3), 130–132.

# TUG‘RUQDAN KEYINGI DEPRESSIYADA AYOLLARGA PSIXOTERAPIYANI QO‘LLASH

**Jalilova Dildora Murotovna**
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti.
ORCID: 0009-0007-0174-1416
E-mail: alilovad7@gmail.com
**Suponova Xolida Suxrobovna, Qurbonov Anusher Shermamatovich**
Samarqand davlat tibbiyot universiteti Davolash fakulteti talabalari
https://doi.org/10.5281/zenodo.17938545

**Annotatsiya:** Tug‘ruqdan keyingi depressiya (postpartum depressiya) — bu ayollarda tug‘ruqdan so‘ng paydo bo‘ladigan ruhiy-emotsional buzilish bo‘lib, u onalik mas’uliyati, gormonal o‘zgarishlar, uyqu buzilishi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovning yetishmasligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu maqolada tug‘ruqdan keyingi depressiyaning asosiy sabablari, klinik ko‘rinishlari hamda psixoterapiya usullarining samaradorligi tahlil qilinadi. Psixoterapiya — bu dori vositalarisiz, ayolning emotsional muvozanatini tiklash, onalik rolini qabul qilish va ijtimoiy moslashuvni yaxshilashga qaratilgan muhim yondashuvdir.

**Kalit so‘zlar:** tug‘ruqdan keyingi depressiya, psixoterapiya, kognitiv terapiya, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, onalik psixologiyasi, stress.

# ПРИМЕНЕНИЕ ПСИХОТЕРАПИИ У ЖЕНЩИН С ПОСЛЕРОДОВОЙ ДЕПРЕССИЕЙ

**Джалилова Дилдора Муротовна**
Ассистент Самаркандского государственного медицинского университета
**Супонова Холида Сухробовна, Курбанов Анушер Шермаматович**
Студенты лечебного факультета Самаркандского государственного медицинского университета

**Аннотация:** Послеродовая депрессия — это психоэмоциональное расстройство, возникающее у женщин после родов и тесно связанное с материнской ответственностью, гормональными изменениями, нарушением сна и недостаточной социальной поддержкой. В данной статье рассматриваются основные причины и клинические проявления послеродовой депрессии, а также анализируется эффективность психотерапевтических методов. Психотерапия представляет собой важный немедикаментозный подход, направленный на восстановление эмоционального равновесия женщины, принятие материнской роли и улучшение социальной адаптации.

**Ключевые слова:** послеродовая депрессия, психотерапия, когнитивная терапия, семейная поддержка, психология материнства, стресс.

# THE USE OF PSYCHOTHERAPY IN WOMEN WITH POSTPARTUM DEPRESSION

**Jalilova Dildora Murotovna**
Assistant at Samarkand State Medical University
**Suponova Xolida Sukhrobovna, Qurbonov Anusher Shermamatovich**
Students of the Faculty of General Medicine, Samarkand State Medical University

**Abstract:** Postpartum depression is a psycho-emotional disorder that develops in women after childbirth and is closely associated with maternal responsibility, hormonal shifts, sleep disturbances, and insufficient social support. This article analyzes the main causes and clinical manifestations of postpartum depression, as well as the effectiveness of psychotherapeutic interventions. Psychotherapy is an important non-pharmacological approach aimed at restoring emotional balance, facilitating the acceptance of the maternal role, and improving social adaptation.

**Keywords:** postpartum depression, psychotherapy, cognitive therapy, family support, maternal psychology, stress.

## KIRISH

Tug‘ruq — bu nafaqat fiziologik, balki psixologik jihatdan ham ayol organizmi uchun murakkab jarayondir. Tug‘ruqdan keyingi davrda ayolning gormonal fonda keskin o‘zgarishlar, uyqu va dam olishning buzilishi, yangi ijtimoiy rol — “ona” rolini qabul qilish bilan bog‘liq psixologik moslashuv jarayoni boshlanadi. Ushbu omillar ba’zan ruhiy zo‘riqish, tashvish, o‘ziga ishonchsizlik va qayg‘u holatlarini keltirib chiqaradi. Agar bu holatlar 2 haftadan ortiq davom etsa va kundalik hayotga salbiy ta’sir ko‘rsatsa, bu postpartum depressiya hisoblanadi. Asosiy sabablar: Gormonal o‘zgarishlar – Estrogen va progesteron darajasining keskin pasayishi nerv tizimining faolligini o‘zgartiradi. Uyqu yetishmasligi va charchoq – Yangi tug‘ilgan chaqaloqqa g‘amxo‘rlik tufayli ayolning dam olish rejimi buziladi. Ijtimoiy va oilaviy qo‘llab-quvvatlovning yetishmasligi – turmush o`rtog`i yoki oila a’zolari tomonidan yetarli e’tibor bo‘lmasa, ayol o‘zini yolg‘iz his qiladi. Oldingi depressiv epizodlar yoki psixologik travmalar – Ayolning shaxsiy tajribasi bu davrni yanada og‘irlashtiradi. Iqtisodiy va ijtimoiy stress – moliyaviy qiyinchiliklar, ishga qaytish masalalari, hayot tarzining o‘zgarishi ham muhim omillar hisoblanadi. Psixoterapiya usullari va ularning samarasi. 1. Kognitiv-behavioral terapiya (KBT) Bu usul ayolning salbiy fikrlarini aniqlab, ularni konstruktiv ijobiy qarashlarga almashtirishga qaratilgan. Masalan, “Men yomon onaman” kabi fikrlar “Men o‘rganayapman va har kuni yaxshilanayapman” tarzida qayta shakllantiriladi. KBT yordamida ayol o‘z his-tuyg‘ularini tahlil qilishni, ularni boshqarishni o‘rganadi. 2. Interpersonal (shaxslararo) terapiya Bu usul oilaviy munosabatlar, er-xotin orasidagi aloqa, yangi onalik roli bilan bog‘liq ijtimoiy o‘zgarishlarga e’tibor qaratadi. Ayol o‘z ehtiyojlarini ifoda etishni va yordam so‘rashni o‘rganadi. 3. Guruh psixoterapiyasi. Boshqa onalar bilan suhbatlar, tajriba almashish, hamdardlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov hissi depressiyani kamaytirishda juda muhim rol o‘ynaydi. 4. Oilaviy psixoterapiya. Eri yoki yaqin oila a’zolari ishtirokida o‘tkaziladi. Bu usul o‘zaro tushunishni yaxshilaydi, ayolga ruhiy tayanch beradi. 5. Telepsixiatriya va onlayn qo‘llab-quvvatlash. Zamonaviy texnologiyalar yordamida onlayn psixoterapiya seanslari, video maslahatlar va mobil dasturlar orqali psixologik yordam ko‘rsatish imkoniyati yaratilmoqda. Ayniqsa, chaqaloqli ayollar uchun bu qulay usuldir. Psixoterapiyaning fiziologik ahamiyati. Psixoterapiya jarayonida stress gormoni — kortizol darajasi kamayadi, yurak urish chastotasi me’yorga tushadi, uyqu sifati yaxshilanadi. Shuningdek, serotonin va dopamin kabi “baxt gormonlari” faollashadi, bu esa onaning emotsional barqarorligini ta’minlaydi. Shunday qilib, psixoterapiya nafaqat ruhiy, balki fiziologik sog‘lomlashuvga ham yordam beradi.

1. Beck depressiya shkalasi (BDI) qanday baholanadi?BDI depressiv simptomlar og‘irligini o‘lchaydi. Har bir band sub’ektiv his-tuyg‘u yoki xulq-atvor belgisiga tegishli. Nimani inobatga oladi? BDI quyidagi belgilarni baholaydi: Kayfiyat (xafalik, tushkunlik), Kelajakka nisbatan umidsizlik, O‘zini ayblash, O‘z-o‘zini qadrsiz his qilish, Uyqu buzilishi, Ishtaha

o‘zgarishi, Charchoq,Konsentratsiya pasayishi,O‘ziga zarar yetkazish fikrlari inobatga olinadi. Qanday baholanadi? Har bir band 0 dan 3 gacha ball bilan baholanadi. Bemor o‘z holatiga eng mos bo‘lgan variantni tanlaydi.

Barcha 21 band ballari yig‘iladi → yakuniy ball olinadi. Talqin:0–9 – minimal depressiya
10–15 – yengil
16–19 – o‘rtacha
20–29 – o‘rta og‘ir
30–63 – og‘ir depressiya

2. Hamilton tashvish shkalasi (HAM-A) qanday baholanadi? HAM-A tashvish buzilishining og‘irligini baholaydi. Nimani inobatga oladi? HAM-A asosan somatik va psixik tashvish belgilarini baholaydi: Psixik simptomlar: Ichki bezovtalik, Qo‘rquv, Tension (zo‘riqish), Yomon xayollar, Ruhiy notinchlik Somatik simptomlar: Yurak urish tezlashishi,Terlash, Titroq, Gastrointestinal noqulayliklar (ko‘ngil aynish, ich buzilishi), Muskullar zo‘riqishi, Bosh aylanishi, hushdan ketish hissi, Uyqu buzilishi inobatga olinadi. Qanday baholanadi? 14 ta bandning har biri 0–4 ball bilan baholanadi: 0 — yo‘q, 1 — yengil, 2 — o‘rtacha, 3 — sezilarli, 4 — og‘ir.

Shifokor bemor holatini kuzatib, har bir bandga ball qo‘yadi → jami 56 ball bo‘ladi. 0–17 — yengil tashvish. 18–24 — o‘rtacha. 25–30 — og‘ir. 30 dan yuqori — juda og‘ir tashvish

Shu test natijalari asosida psixoterapiya va medikamentoz terapiya o`tgazish tanlanadi.

**MATERIALLAR VA METODLAR**

Tadqiqot Samarqand davlat tibbiyot universiteti qoshidagi klinik bazada o‘tkazildi. Tajriba uchun 20 nafar tug‘ruqdan keyingi depressiya holatidagi ayollar tanlab olindi (yosh oralig‘i 20–35 yosh).

Bemorlar 2 guruhga bo‘lindi: I guruh (n=30) — psixoterapiya va medikamentoz davo birgalikda qo‘llanildi. II guruh (n=30) — faqat psixoterapiya usuli bilan davolandi. III guruh (n=20)— nazorat guruhi.

Davolash muddati — 6 hafta. Psixoterapiya jarayonida kognitiv-behavioral terapiya, interpersonal suhbatlar va relaksatsion mashqlar o‘tkazildi. Medikamentoz davo sifatida valeriana tabletkasi, Kardiosist, Novo-Passit,

Kavinton forte, shuningdek, Magnevital preparatlari, Serebrovin vitamin komplekslaridan foydalanilib tavsiya etildi. Psixologik holatni baholash uchun standartlashtirilgan psixometrik vositalardan foydalanildi, jumladan, depressiya darajasini aniqlashda Beck depressiya shkalasi (BDI), tashvish darajasini baholashda esa Hamilton tashvish shkalasi (HAM-A) qo‘llandi. BDI va HAM-A Baholash Jadvallari. Psixometrik baholash uchun to‘liq test shakli.

**1-jadval. Beck depressiya shkalasi (BDI) Depressiv simptomlar darajasini baholash**

| № | Band mazmuni | 0 ball | 1 ball | 2 ball | 3 ball |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Kayfiyat | O’zimni yaxshi his qilyapman | Ba’zan tushkunlik sezaman | Ko‘p vaqt tushkunlikda bo‘laman | Juda chuqur depressiyadaman |
| 2 | Kelajakka munosabat | Kelajakka optimistikman | Biroz xavotir bor | Kelajakdan umidim kam | Kelajakda hech narsa yaxshi bo‘lmaydi deb o‘ylayman |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 3 | O‘zini ayblash | O‘zimni ayblamayman | Ba’zan o‘zimni ayblayman | Doimiy o‘zimni ayblayman | O‘zimni yomon inson deb bilaman |
| 4 | Qoniqish hissi | Hayotdan zavq olaman | Oldingidagi zavq unchalik yo‘q | Qariyib hech narsa zavq bermaydi | Hech narsadan zavq olmayman |
| 5 | Aybdorlik hissi | Aybdorlik sezmayman | Ba’zan aybdorlik seziraman | Ko‘p vaqt o‘zimni aybdor his qilaman | Doimo o‘zimni aybdor his qilaman |
| 6 | Jazolanish hissi | Jazolanishni munosib deb hisoblamayman | Balki jazolanishim kerak deb o‘ylayman | Jazolanishga loyiqman deb o‘ylayman | Meni jazolash kerak deb hisoblayman |
| 7 | O‘zini yoqtirmaslik | O‘zimni yaxshi ko‘raman | O‘zimni ba’zan yoqtirmayman | O‘zimni doim yoqtirmayman | O‘zimdan nafratlanaman |
| 8 | O‘ziga tanqidiy munosabat | O‘zimni tanqid qilmayman | Ba’zan o‘zimni ayblayman | Har doim o‘zimni tanqid qilaman | O‘zimni juda ko‘p ayblayman |
| 9 | O‘lim/o‘ziga zarar fikrlari | Bunday fikrlar yo‘q | Ba’zan o‘lim haqida o‘ylayman | O‘z jonimga qasd qilishni xohlash fikri bo‘ladi | O‘z jonimga qasd qilishni rejalashtirganman |
| 10 | Yig‘loqlik | Odatdagidan ko‘p yig‘lamayman | Oldingidan ko‘proq yig‘layapman | Har kuni yig‘layapman | Yig‘lay olmayman, lekin yig‘lagim keladi |
| 11 | Bezovtalik | Bezovtalik yo‘q | Ba’zan bezovta bo‘laman | Ko‘p vaqt bezovtaman | Juda kuchli bezovtalik bor |
| 12 | Qiziqishning yo‘qolishi | Qiziqishlarim o‘zgarmagan | Oldingi qiziqishlarim kamaygan | Ko‘pchilik narsalar endi qiziq emas | Hech narsaga qiziqmayman |
| 13 | Qaror qabul qilish qiyinligi | Qaror qabul qilishda qiynalmayman | Qaror qabul qilish biroz qiyin | Juda qiyin | O‘zim mustaqil qaror qabul qila olmayman |
| 14 | O‘zini foydasiz his qilish | O‘zimni foydali his qilaman | Ba’zan o‘zimni foydasiz his qilaman | Ko‘p vaqt foydasizman deb o‘ylayman | O‘zimni butunlay foydasiz deb bilaman |
| 15 | Charchoq | O‘zimni yaxshi his qilaman | tez charchayman | Juda charchoq bo‘ladi | Hech narsaga kuchim yo‘q |
| 16 | Uyqu buzilishi | Uyqum normal | Ba’zi kunlari uyqu buziladi | Uyqu tez-tez buziladi | Umuman yaxshi uxlay olmayman |
| 17 | Ishtaha o‘zgarishi | Ishtaha normal | Ishtaha biroz pasaygan/oshgan | Sezilarli o‘zgarish bor | Ishtaha juda o‘zgargan |
| 18 | Jinsiy qiziqish pasayishi | O‘zgarmagan | Bi-roz pasaygan | Ancha pasaygan | Butunlay yo‘qolgan |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 19 | Somatik shikoyatlar | Somatik shikoyatlar yo‘q | Ba’zan og‘riq bo‘ladi | Tez-tez og‘riqlar bezovta qiladi | Doimiy kuchli og‘riqlar bor |
| 20 | Vaqtni boshqarish qiyinligi | Muammo yo‘q | Biroz qiynalaman | Juda qiyin | Umuman boshqara olmayman |
| 21 | Faollik pasayishi | Faolligim o‘zgarmagan | Biroz pasaygan | Ancha pasaygan | Umuman faol emasman |

**Yakuniy ball (0–63):** _____

**Talqin:** □ Minimal □ Yengil □ O‘rtacha □ O‘rta og‘ir □ Og‘ir

**0–9** – minimal depressiya, **10–15** – yengil, **16–19** – o‘rtacha, **20–29** – o‘rta og‘ir, **30–63** – og‘ir depressiya

**2-jadval. Hamilton tashvish shkalasi (HAM-A)Tashvish buzilishi chastotasi va og‘irligini aniqlash**

| № | Band mazmuni | 0 | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Psixik bezovtalik | yo‘q | yengil | o‘rtacha | sezilarli | og‘ir |
| 2 | Tension (zo‘riqish) | yo‘q | yengil | o‘rtacha | sezilarli | og‘ir |
| 3 | Qo‘rquv hissi | yo‘q | yengil | o‘rtacha | sezilarli | og‘ir |
| 4 | Yurak faoliyati (palpitation) | yo‘q | yengil | o‘rtacha | sezilarli | og‘ir |
| 5 | Nafas olish buzilishi | yo‘q | yengil | o‘rtacha | sezilarli | og‘ir |
| 6 | Oshqozon-ichak simptomlari | yo‘q | yengil | o‘rtacha | sezilarli | og‘ir |
| 7 | Mushak zo‘riqishi | yo‘q | yengil | o‘rtacha | sezilarli | og‘ir |
| 8 | Bosh aylanishi | yo‘q | yengil | o‘rtacha | sezilarli | og‘ir |
| 9 | Uyqu buzilishi | yo‘q | yengil | o‘rtacha | sezilarli | og‘ir |
| 10 | Sensor simptomlar | yo‘q | yengil | o‘rtacha | sezilarli | og‘ir |
| 11 | Avtonom simptomlar | yo‘q | yengil | o‘rtacha | sezilarli | og‘ir |
| 12 | Xulqiy notinchlik | yo‘q | yengil | o‘rtacha | sezilarli | og‘ir |
| 13 | Tashvishli fikrlar | yo‘q | yengil | o‘rtacha | sezilarli | og‘ir |
| 14 | Umumiy tashvish darajasi | yo‘q | yengil | o‘rtacha | sezilarli | og‘ir |

**Yakuniy ball (0–56):** _____

**Talqin:** □ Yengil □ O‘rtacha □ Og‘ir □ Juda og‘ir

**0–17** — yengil tashvish, **18–24** — o‘rtacha, **25–30** — og‘ir, **30 dan yuqori** — juda og‘ir tashvish

**Natijalar.** Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

| Guruh | Davo turi | BDI boshlang‘ich o‘rtacha ball | 6 haftadan so‘ng BDI | Yaxshilanish foizi |
|---|---|---|---|---|

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **I-guruh (n=30)** | Psixoterapiya + medikamentoz | 27,6 ± 2,4 | 9,2 ± 1,8 | 66,7% |
| **II-guruh (n=30)** | Faqat psixoterapiya | 26,9 ± 2,1 | 14,8 ± 2,5 | 44,9% |
| **III-guruh (n=20)** | Nazorat guruhi (davo qo‘llanmagan) | 27,0 ± 2,3 | 25,8 ± 2,6 | 4,4% |

Psixoterapiya+ medikamentoz terapiya natijasi 66,7 %,faqat psixoterapiya natijasi 44,9% yaxshilanish ko`rsatkichini belgilagan. Olingan natijalar shuni ko`rsatadiki psixoterapiya va medikamentoz terapiya qo`llash sammaradorlikni oshirib,tezroq ijobiy natijaga erishishga yordam beradi. Shuningdek, birinchi guruhdagi ayollarda:uyqu sifati yaxshilanishi 85% hollarda kuzatildi,tashvish va yig‘loqilik kamayishi 78% hollarda qayd etildi, chaqaloqqa mehr hissi qayta tiklandi (70% hollarda). Fikrlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, psixoterapiya faqat o‘zi bilan davolangan ayollarda ijobiy o‘zgarishlar kechroq (taxminan 4–5 haftada) paydo bo‘lgan, kompleks davo olgan guruhda esa klinik yaxshilanish 2–3 haftada kuzatila boshlagan.

**XULOSA**

Kuzatishlar natijasida aniqlandiki, tug‘ruqdan keyingi depressiyada faqat psixoterapiya ijobiy natija bersa-da, medikamentoz vositalar bilan birgalikda olib borilgan kompleks davo qayta depressiya rivojlanish xavfini kamaytiradi, emotsional muvozanatni tezroq tiklaydi, onaning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi. Bundan tashqari, telepsixiatriya va onlayn konsultatsiyalar ham samarali yordamchi usul sifatida tavsiya etiladi. Tug‘ruqdan keyingi depressiyada kompleks (psixoterapiya + medikamentoz) yondashuv eng samarali davolash usuli hisoblanadi. U nafaqat depressiya simptomlarini kamaytiradi, balki ayolning o‘zini “ona” sifatida qabul qilishiga, oilaviy munosabatlarning yaxshilanishiga yordam beradi. Shuning uchun postpartum davrda ayollarga psixologik va emotsional qo‘llab-quvvatlovni kuchaytirish, kerak bo‘lganda kombinatsiyalangan davolashni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, psixoterapiya o‘tkazilgan ayollarda: depressiya alomatlari 65–70% gacha kamayadi, onalik instinkti va chaqaloqqa mehr hissi kuchayadi, oilaviy munosabatlarda iliqlik tiklanadi, qayta depressiya rivojlanish xavfi sezilarli darajada pasayadi. Dori vositalarini qo‘llash zarur bo‘lgan holatlarda, ular faqat shifokor tavsiyasi bilan, xavfsiz dozalarda (masalan, valeriana, Novo-Passit, B6 vitamini) berilishi lozim. Tug‘ruqdan keyingi depressiya — bu vaqtinchalik, ammo e’tibor talab qiladigan psixologik holatdir. Psixoterapiya yordamida ayollar o‘z holatini tushunish, his-tuyg‘ularini boshqarish va yangi onalik roliga moslashishni o‘rganadilar. Oila va jamiyat tomonidan psixologik yordam, ijobiy muhit yaratish, hamda telepsixiatriya imkoniyatlarini kengaytirish tug‘ruqdan keyingi depressiyani oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar ro`yxati:**

1. Oliveira G. N. M. et al. Beck depression inventory (BDI) and hamilton rating scale for depression (HAM-D) in patients with epilepsy //Jornal Brasileiro de Psiquiatria. – 2011. – T. 60. – C. 131-134.
2. DiPietro J. A. Psychological and psychophysiological considerations regarding the maternal–fetal relationship //Infant and Child Development: An International Journal of Research and Practice. – 2010. – T. 19. – №. 1. – C. 27-38.
3. Argyraki M. et al. In-utero stress and mode of conception: impact on regulation of imprinted genes, fetal development and future health //Human reproduction update. – 2019. – T. 25. – №. 6. – C. 777-801.
4. Shermatovna, G. Z., & Abdusattorovna, A. M. (2024). INSONLARDA KUZATILADIGAN HISSIY ZO'RIQISHLAR VA ULARNI OLDINI OLISH. NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI, 1(3), 273-276.
5. Bjelica A. et al. The phenomenon of pregnancy—A psychological view //Ginekologia polska. – 2018. – T. 89. – №. 2. – C. 102-106.
6. Халимбетов Ю. М., Юлдашев С. Ж., Жалилова Д. М. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ В СИСТЕМЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ //Биотехнология и биомедицинская инженерия. – 2022. – С. 236-239.
7. Murodovna J. D., Bakhodirovna S. D., Yangiboyevna N. S. Learning Liquid Medicine Forms and Writing Prescriptions for Medical School Students //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 72-76.
8. Jalilova D. M. et al. Allergic Rhinitis and its Treatment //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – T. 4. – №. 6. – C. 576-579.

UDK: 611.73:612.76:612.67

# ODAM SKELET MUSHAKLARINING MORFOFUNKSIONAL XUSUSIYATLARI VA ULARNING YOSHGA BOG‘LIQ O‘ZGARISHLARI

**Karieva Xalima Ikramjanovna**
katta o‘qituvchi, ZARMED universiteti
**Salimova Ganjina**
Talaba, ZARMED universiteti

https://doi.org/10.5281/zenodo.18214778

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada odam skelet mushaklarining morfologik tuzilishi, funksional xususiyatlari hamda ontogenez jarayonida yuz beradigan yoshga bog‘liq o‘zgarishlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot davomida mushak tolalarining turlari, innervatsiya va qon ta’minoti, mushak massasining yosh bilan o‘zgarishi hamda sarkopeniya jarayonining anatomik-morfologik mexanizmlari yoritildi. Olingan ma’lumotlar klinik anatomiya, reabilitatsiya va gerontologiya sohalari uchun muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** skelet mushaklari, morfologiya, funksional anatomiya, ontogenez, sarkopeniya, mushak tolalari.

## МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СКЕЛЕТНЫХ МЫШЦ ЧЕЛОВЕКА И ИХ ВОЗРАСТНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ

**Аннотация:** В данной статье на основе научных источников проанализированы морфологическое строение скелетных мышц человека, их функциональные особенности, а также возрастные изменения, происходящие в процессе онтогенеза. В ходе исследования освещены типы мышечных волокон, особенности иннервации и кровоснабжения, возрастная динамика мышечной массы, а также анатомо-морфологические механизмы развития саркопении. Полученные данные имеют важное значение для клинической анатомии, реабилитологии и геронтологии.

**Ключевые слова:** скелетные мышцы, морфология, функциональная анатомия, онтогенез, саркопения, мышечные волокна.

## MORPHOFUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF HUMAN SKELETAL MUSCLES AND THEIR AGE-RELATED CHANGES

**Abstract:** This article analyzes the morphological structure of human skeletal muscles, their functional characteristics, and age-related changes occurring during ontogenesis based on scientific sources. The study highlights the types of muscle fibers, features of innervation and blood supply, age-related dynamics of muscle mass, as well as the anatomical and morphological mechanisms underlying the development of sarcopenia. The obtained results are of significant importance for clinical anatomy, rehabilitation medicine, and gerontology.

**Keywords:** skeletal muscles, morphology, functional anatomy, ontogenesis, sarcopenia, muscle fibers.

## KIRISH

Odam skelet mushaklari harakat apparatining faol va dinamik komponenti bo‘lib, organizmning lokomotor funksiyasini amalga oshirish, tana holatini saqlash, harakatlarning aniqligi va muvofiqligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Skelet mushaklari nafaqat tashqi harakatlarni bajarishda, balki nafas olish, qon aylanishiga ko‘maklashish, ichki a’zolar faoliyatini

qo‘llab-quvvatlash hamda termoregulyatsiya jarayonlarida ham bevosita ishtirok etadi. Anatomik ma’lumotlarga ko‘ra, skelet mushaklari tana massasining o‘rtacha 35–45 % ini tashkil etib, markaziy nerv tizimi tomonidan ixtiyoriy ravishda boshqariladi.

So‘nggi o‘n yilliklarda mushak tizimi faqat mexanik harakat organi sifatida emas, balki metabolik va endokrin faol to‘qima sifatida ham e’tirof etilmoqda. Mushak hujayralari tomonidan ishlab chiqariladigan biologik faol moddalar – mioqinlar organizmning energetik almashinuvi, yallig‘lanish jarayonlari va immun javob mexanizmlarini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan skelet mushaklarining morfofunksional holati umumiy salomatlik ko‘rsatkichlaridan biri sifatida qaralmoqda.

**ASOSIY QISM**

Yosh ortishi bilan skelet mushaklarida yuz beradigan strukturaviy va funksional o‘zgarishlar zamonaviy tibbiyot va biologiya fanlari uchun dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mushak massasining kamayishi va mushak kuchining susayishi harakat faolligining pasayishiga, muvozanat buzilishiga, suyak-mushak tizimi kasalliklari rivojlanishiga hamda metabolik sindromlar xavfining ortishiga olib keladi. Ayniqsa, qarilik davrida kuzatiladigan sarkopeniya holati individual hayot sifatining yomonlashuvi va ijtimoiy moslashuv darajasining pasayishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shuningdek, urbanizatsiya, gipodinamiya, noto‘g‘ri ovqatlanish va stress omillarining kuchayishi mushak tizimidagi yoshga bog‘liq o‘zgarishlarning erta namoyon bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Shu munosabat bilan skelet mushaklarining morfologik tuzilishi, funksional imkoniyatlari hamda ontogenez jarayonida yuz beradigan yoshga bog‘liq o‘zgarishlarini chuqur va tizimli o‘rganish anatomiya, fiziologiya, reabilitatsiya va gerontologiya sohalari uchun katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot odam skelet mushaklarining morfofunksional xususiyatlarini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish hamda yoshga bog‘liq o‘zgarishlarning asosiy anatomik-morfologik mexanizmlarini yoritishga qaratilgan bo‘lib, mushak tizimini saqlash va funksional imkoniyatlarini uzaytirishga doir ilmiy qarashlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Skelet mushaklarining morfologik xususiyatlari. Skelet mushaklari uzun, ko‘p yadroli, ko‘ndalang-targ‘il mushak tolalaridan tashkil topgan. Har bir mushak tolasi sarkolemma bilan qoplangan bo‘lib, ichki qismida miofibrillalar joylashgan. Miofibrillalar aktin va miozin filamentlaridan tashkil topgan bo‘lib, ularning tartibli joylashuvi mushakning ko‘ndalang-targ‘illigini ta’minlaydi.

Morfologik jihatdan mushak tolalari uch asosiy turga bo‘linadi: I tur (sekin qisqaruvchi, ksidativ tolalar) – chidamlilikka ega, mitoxondriyalar va mioglobin miqdori yuqori; II tur (tez qisqaruvchi, oksidativ-glikolitik tolalar) – kuch va tezlikni birlashtiradi; III tur (tez qisqaruvchi, glikolitik tolalar) – qisqa muddatli kuchli harakatlarda faol. Tolalar nisbati mushak funksiyasi va individning yoshiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Skelet mushaklarining funksional xususiyatlari. Skelet mushaklarining asosiy funksiyalariga harakatni ta’minlash, tana holatini saqlash, issiqlik ishlab chiqarish va metabolik jarayonlarda ishtirok etish kiradi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar mushaklarni nafaqat harakat organi, balki endokrin faol to‘qima sifatida ham baholaydi. Mushak tolalari tomonidan ishlab chiqariladigan mioqinlar (masalan, irizin, IL-6) metabolizm, immun javob va yurak-qon tomir tizimiga ta’sir ko‘rsatadi.

Mushaklarning funksional holati ularning innervatsiyasi va qon bilan ta’minlanishiga bevosita bog‘liq. Har bir mushak tolasi motor birlik tarkibiga kiradi va nerv impulsining yo‘qolishi mushak atrofiyasiga olib keladi.

Yoshga bog‘liq morfofunksional o‘zgarishlar. Ontogenez davomida skelet mushaklarida sezilarli morfologik va funksional o‘zgarishlar yuz beradi. Bolalik va o‘smirlik davrida mushak tolalari diametri va soni ortib boradi, mushak massasi esa maksimal darajaga yetadi. Odatda mushak kuchi 20–30 yoshlar oralig‘ida eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ladi.

40 yoshdan keyin mushak massasining asta-sekin kamayishi kuzatiladi. 60 yoshdan so‘ng bu jarayon tezlashib, sarkopeniya deb ataluvchi holat shakllanadi. Sarkopeniya quyidagi morfologik belgilar bilan xarakterlanadi: mushak tolalari diametrining kichrayishi; II tur tolalarining selektiv kamayishi; biriktiruvchi va yog‘ to‘qimasining ko‘payishi; motor birliklar sonining kamayishi.

Bu o‘zgarishlar mushak kuchi va tezligining pasayishiga, muvozanat buzilishiga va yiqilish xavfining ortishiga olib keladi. Amali ahamiyati va muhokamalar tahlili. Odam skelet mushaklarining morfofunksional xususiyatlari va ularning yoshga bog‘liq o‘zgarishlarini o‘rganish natijalari bir qator ilmiy-amaliy yo‘nalishlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, mushak tizimining anatomik va funksional holati insonning harakat faolligi, mustaqil yashash qobiliyati hamda umumiy sog‘lig‘ining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu bois mushak to‘qimasida yosh bilan yuz beradigan o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilish klinik amaliyotda profilaktika va davolash strategiyalarini takomillashtirish imkonini beradi.

Olingan ma’lumotlar klinik anatomiya va reabilitatsiya tibbiyotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, travmalar, jarrohlik aralashuvlar va nevrologik kasalliklardan so‘ng mushak funksiyasini tiklash jarayonlarini ilmiy asoslashda qo‘llanilishi mumkin. Mushak tolalarining turli yosh davrlarida morfologik o‘zgarishlarini hisobga olish individual reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqishda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, mushak massasining yoshga bog‘liq kamayishi bilan bog‘liq sarkopeniya jarayonining anatomik-morfologik mexanizmlarini aniqlash gerontologiya va geriatrik tibbiyot sohalarida muhim ahamiyatga ega. Sarkopeniyaning erta bosqichlarini aniqlash va uning rivojlanishini sekinlashtirish bo‘yicha profilaktik choralarni ishlab chiqish keksa yoshdagi aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari sport tibbiyoti va sog‘lomlashtirish tizimi uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, yoshga mos jismoniy yuklamalarni belgilash, mushak kuchi va chidamliligini saqlashga qaratilgan mashg‘ulot dasturlarini ilmiy asoslash imkonini beradi. Shuningdek, mushak to‘qimasining endokrin funksiyasi va metabolik jarayonlardagi ishtirokini hisobga olish metabolik sindromlar va surunkali kasalliklarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, skelet mushaklarida yuz beradigan yoshga bog‘liq morfofunksional o‘zgarishlar ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u biologik qarish bilan bir qatorda turmush tarzi, jismoniy faollik darajasi va nerv-mushak aloqalarining holatiga ham bevosita bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari mushak tolalari tarkibida, ayniqsa tez qisqaruvchi II-tur tolalarining yosh o‘tishi bilan kamayishini tasdiqlaydi, bu esa mushak kuchi va tezkorlik ko‘rsatkichlarining pasayishiga olib keladi.

Ba’zi mualliflar mushak massasining kamayishini faqat mushak tolalari atrofiyasi bilan izohlasa, boshqa tadqiqotlar bu jarayonda motor birliklarning yo‘qolishi va innervatsiya buzilishlari yetakchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Mazkur tahlil shuni ko‘rsatadiki, mushak to‘qimasidagi degenerativ o‘zgarishlar asosan nerv-mushak tizimi yaxlitligining buzilishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayonlar bir-birini kuchaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, mushak to‘qimasida biriktiruvchi va yog‘ komponentlarining ortishi mushakning elastikligi va qisqarish qobiliyatini pasaytirib, uning funksional imkoniyatlarini cheklaydi. Bu holat ayniqsa kamharakat turmush tarziga ega bo‘lgan shaxslarda va keksa yosh guruhlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, muntazam jismoniy mashqlar mushak tolalarining morfologik tuzilishini qisman saqlab qolishi va sarkopeniya jarayonini sekinlashtirishi mumkinligi ilmiy manbalarda keng yoritilgan.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, skelet mushaklarining yoshga bog‘liq o‘zgarishlarini baholashda faqat morfologik ko‘rsatkichlar emas, balki funksional va metabolik jihatlar ham kompleks tarzda o‘rganilishi zarur. Bunday yondashuv mushak tizimining qarish jarayonidagi rolini chuqurroq anglash va amaliy tibbiyotda samarali profilaktik hamda reabilitatsion choralarni ishlab chiqish imkonini beradi.

**XULOSA**

Odam skelet mushaklari murakkab morfofunksional tizim bo‘lib, ularning tuzilishi va faoliyati yoshga bog‘liq ravishda sezilarli darajada o‘zgaradi. Mushak massasining kamayishi va funksional imkoniyatlarning pasayishi organizmning umumiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli skelet mushaklarining yoshga bog‘liq o‘zgarishlarini chuqur o‘rganish profilaktik tibbiyot, reabilitatsiya va gerontologiya sohalarida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Гайворонский И.В. Анатомия человека. В 2 томах. – Санкт-Петербург: СпецЛит, 2020.
2. Сапин М.Р., Никитюк Д.Б. Анатомия человека: Учебник для медицинских вузов. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2019.
3. Netter F.H. Atlas of Human Anatomy. – 7th ed. – Philadelphia: Elsevier, 2019.
4. Guyton A.C., Hall J.E. Textbook of Medical Physiology. – 14th ed. – Philadelphia: Elsevier, 2021.
5. Widmaier E.P., Raff H., Strang K.T. Vander’s Human Physiology: The Mechanisms of Body Function. – McGraw-Hill, 2018.
6. Lexell J. Human aging, muscle mass, and fiber type composition // Journals of Gerontology. – 1995. – Vol. 50A. – P. 11–16.
7. Rosenberg I.H. Sarcopenia: Origins and clinical relevance // Journal of Nutrition. – 1997. – Vol. 127. – P. 990S–991S.
8. Rolland Y., Czerwinski S., Abellan Van Kan G. et al. Sarcopenia: Its assessment, etiology, pathogenesis, consequences and future perspectives // Journal of Nutrition, Health & Aging. – 2008. – Vol. 12(7). – P. 433–450.
9. Brooks S.V., Faulkner J.A. Skeletal muscle weakness in old age: underlying mechanisms // Medicine & Science in Sports & Exercise. – 1994. – Vol. 26(4). – P. 432–439.
10. Schiaffino S., Reggiani C. Fiber types in mammalian skeletal muscles // Physiological Reviews. – 2011. – Vol. 91. – P. 1447–1531.
11. Frontera W.R., Ochala J. Skeletal muscle: a brief review of structure and function // Calcified Tissue International. – 2015. – Vol. 96. – P. 183–195.
12. Bottinelli R., Reggiani C. Human skeletal muscle fibres: molecular and functional diversity // Progress in Biophysics and Molecular Biology. – 2000. – Vol. 73. – P. 195–262.
13. Narici M.V., Maffulli N. Sarcopenia: characteristics, mechanisms and functional significance // British Medical Bulletin. – 2010. – Vol. 95. – P. 139–159.
14. Booth F.W., Roberts C.K., Laye M.J. Lack of exercise is a major cause of chronic diseases // Comprehensive Physiology. – 2012. – Vol. 2. – P. 1143–1211.

# MODERN SURGICAL TECHNOLOGIES IN THE TREATMENT OF MENINGEAL AND NEUROEPITHELIAL BRAIN TUMORS: A COMPARATIVE CLINICAL STUDY

**Mamadaliev Abduraxmon Mamatkulovich**
Specialized scientific and practical center for Neurosurgery and Neurorehabilitation at the Samarkand State Medical University

https://doi.org/10.5281/zenodo.18077238

**Abstract:**

**Background.** Surgical treatment remains the primary modality for meningeal and neuroepithelial brain tumors; however, traditional techniques are often associated with significant intraoperative blood loss, prolonged operative time, and a high risk of neurological deficits. **Objective.** To compare the outcomes of surgical treatment of meningeal and neuroepithelial brain tumors using standard techniques and modern technologies aimed at reducing surgical trauma. **Materials and Methods.** A retrospective analysis of 70 patients operated on for brain tumors was performed. Patients were divided into two groups: a comparison group treated with standard surgical methods and a main group treated using modern technologies, including ultrasonic disintegration, neuronavigation, intraoperative ultrasound, cortical mapping, and plasma-based coagulation. Intraoperative blood loss, duration of surgery, and safety of surgical access were assessed.

**Results.** The use of modern technologies significantly reduced intraoperative blood loss and operative time compared with standard techniques ($p < 0.05$). Improved hemostasis reliability and safer surgical trajectories contributed to a lower risk of postoperative neurological deterioration. **Conclusion.** The integration of modern microsurgical, ultrasonic, and plasma technologies significantly improves the safety and efficiency of surgical treatment of meningeal and neuroepithelial brain tumors.

**Keywords:** brain tumors, meningiomas, gliomas, modern neurosurgery, intraoperative hemostasis

# СОВРЕМЕННЫЕ ХИРУРГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЛЕЧЕНИИ ОБОЛОЧЕЧНЫХ И НЕЙРОЭПИТЕЛИАЛЬНЫХ ОПУХОЛЕЙ ГОЛОВНОГО МОЗГА: СРАВНИТЕЛЬНОЕ КЛИНИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ

**Мамадалиев Абдурахмон Маматкулович**
Специализированный научно-практический центр нейрохирургии и нейрореабилитации при СамГМУ

**Аннотация:**

**Введение.** Хирургическое лечение оболочечных и нейроэпителиальных опухолей головного мозга остаётся основным методом терапии, однако стандартные методы часто сопровождаются значительной интраоперационной кровопотерей и риском неврологических осложнений.

**Цель исследования.** Сравнить результаты хирургического лечения оболочечных и нейроэпителиальных опухолей головного мозга при использовании стандартных методов и современных технологий.

**Материалы и методы.** Проведён ретроспективный анализ 70 пациентов, оперированных по поводу опухолей головного мозга. Сформированы две группы: группа сравнения, оперированная стандартными методами, и основная группа, в которой применялись

современные технологии (ультразвуковая дезинтеграция, интраоперационное УЗИ, кортикальное картирование, аргон-плазменная и холодная плазменная коагуляция). Оценивались объём интраоперационной кровопотери, продолжительность операции и безопасность хирургического доступа.
**Результаты.** Применение современных технологий позволило достоверно снизить объём кровопотери и длительность оперативного вмешательства ($p < 0,05$), повысить надёжность гемостаза и уменьшить риск неврологического дефицита.
**Заключение.** Использование современных хирургических технологий значительно повышает эффективность и безопасность оперативного лечения оболочечных и нейроэпителиальных опухолей головного мозга.

**Ключевые слова:** опухоли головного мозга, менингиомы, глиомы, нейрохирургия, интраоперационный гемостаз

## MIYA QOBIQ VA NEYROEPITELIAL O‘SMALARINI DAVOLASHDA ZAMONAVIY JARROHLIK TEXNOLOGIYALARI: QIYOSIY KLINIK TADQIQOT,

**Mamadaliyev Abdurahmon Mamatkulovich**
Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi Neyroxirurgiya va neyroreabilitatsiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazi

**Annotatsiya:**
**Kirish.** Miya qobiq va neyroepitelial o‘smalarini jarrohlik yo‘li bilan davolash asosiy usul bo‘lib qolmoqda, biroq an’anaviy texnikalar katta qon yo‘qotish va nevrologik asoratlar xavfi bilan kechadi.
**Tadqiqot maqsadi.** Miya qobiq va neyroepitelial o‘smalarini standart va zamonaviy jarrohlik texnologiyalari yordamida davolash natijalarini solishtirish.
**Materiallar va usullar.** Miya o‘smalari bo‘yicha operatsiya qilingan 70 bemorning retrospektiv tahlili o‘tkazildi. Bemorlar standart usullar qo‘llanilgan solishtirma guruh va zamonaviy texnologiyalar (ultratovushli disintegratsiya, intraoperatsion UTT, kortikal xaritalash, argon-plazmali va sovuq plazmali koagulyatsiya) qo‘llanilgan asosiy guruhga bo‘lindi.
**Natijalar.** Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilganda operatsiya davomiyligi va intraoperatsion qon yo‘qotish hajmi sezilarli darajada kamaydi ($p < 0,05$).
**Xulosa.** Zamonaviy jarrohlik texnologiyalarini qo‘llash miya qobiq va neyroepitelial o‘smalarini davolashda samaradorlik va xavfsizlikni sezilarli darajada oshiradi.

**Kalit so‘zlar:** miya o‘smalari, meningiomalar, gliomalar, zamonaviy neyroxirurgiya, gemostaz

## INTRODUCTION

An important issue in modern neuro-oncology is the desire to improve the quality of life of patients after surgery. The low effectiveness of radiation and drug therapy for tumor lesions of the brain and its membranes determines the relevance of the problem of surgical treatment of this pathology [1-4]. Surgical interventions for neuroepithelial and meningeal tumors of the brain are quite complex not only in terms of technical execution, possible damage to the brain tissue, the occurrence of bleeding, but also the initial condition of patients, who, as a rule, exhibit pronounced neurological symptoms at the time of surgery [5-7, 12, 13]. Surgical interventions previously performed on such patients were often accompanied by significant intraoperative blood loss, trauma to the brain tissue, which aggravated not only the neurological status, but also the general

condition of the patient [8-11]. The aim of the study was to compare the results of surgical treatment of meningeal and neuroepithelial tumors of the brain using standard methods and new technologies, the advantages of which are reduced intraoperative blood loss, increased reliability of hemostasis, reduced duration of surgery, and a reduced risk of developing or worsening neurological deficit. Materials and methods of the study. The analysis was based on 70 patients operated on at the Khanty-Mansiysk Regional Clinical Hospital using standard treatment methods and new technologies. Depending on the used methods of surgical treatment of neuroepithelial and meningeal tumors of the brain, we formed 2 groups of patients. To ensure representativeness of the observation results, the groups were comparable in tumor location, size, and histological structure. Group 1 included 30 (42.9%) patients, who were diagnosed with neuroepithelial tumors (15 (50%)) and meningeal tumors (15 (50%)), which were removed using a standard technique. Group 2 included 40 patients (57.1%), 19 of whom were diagnosed with neuroepithelial and 21 with meningeal tumors, which were removed using modern technologies. Surgical tactics in each specific situation were determined taking into account MRI and CT data. CT was performed using CT-MAX (GE, USA), CT-LX (Phillips, Holland) with 256x256 and 512x512 matrices using step and spiral scanning. MRI was performed using Magnetom 42 SP (Siemens, Germany) at a magnetic field strength of 1.0 T. The standard modes for all patients were T1- and T2-weighted tomograms. In the early postoperative period, CT was performed in all patients to determine the radicality of the surgical intervention, as well as to identify postoperative complications. Results and discussion. Standard methods for removing neuroepithelial and meningeal tumors of the brain included the following steps.Patient positioning and surgical site preparation followed generally accepted principles. The patient's head was firmly fixed with a Mayfield clamp. Standard access was used, depending on the tumor location. Layer-by-layer skin and subcutaneous tissue dissection was performed after preliminary hydropreparation of soft tissues with 0.25% novocaine solution, which helped reduce blood loss at this stage. Hemostasis was achieved by applying plastic skin clips and monopolar coagulation.

**MAIN PART**

Osteoperforation and craniotomy were performed manually. Hemostasis from the diploic veins was achieved by rubbing wax into the bone cut. The dura mater of the brain was opened in a horseshoe shape, after preliminary electrocoagulation or ligation of the vessels, typically at a distance of 0.5 cm from the bone. Taking into account the tumor topography based on preoperative CT and MRI data, the approach trajectory and transcortical approach to the neuroepithelial tumor were calculated for all patients, based on the topography of functionally significant areas and vascular structures of the brain. However, intraoperative mapping based on ultrasound data was not performed. During neuroepithelial tumor removal, cerebral cortex traction was achieved using brain spatulas. Although the brain wound was demarcated with cotton wool to reduce trauma to the brain tissue, manual traction often resulted in additional trauma to the brain tissue, leading to the development or worsening of neurological deficits.

Meningeal and neuroepithelial tumors were removed by cutting, under magnification, using standard instruments (spatulas, spoons, loops, an electric suction device, and a coagulator). Hemostasis was achieved using hydrogen peroxide-soaked turundas, bipolar and monopolar coagulation, as well as TachoComb, Surgical, and Spongostan plates and a hemostatic sponge as the final stage of hemostasis. Upon completion of the surgery, the dura mater was closed, using interrupted or continuous sutures whenever possible. The bone flap was repositioned and secured with an aponeurosis suture or wire suture. To improve hemostasis reliability, reduce brain tissue

trauma, and reduce the risk of developing or worsening neurological deficits, new technologies and modern devices utilizing ultrasound and plasma flow have been introduced into practice. Removal of meningeal tumors of the brain using modern technologies.

The following key conditions were met during surgical treatment of brain tumors: rigid fixation of the patient's head, improved visualization using an operating microscope, the use of brain retractors to reduce brain traction, the use of microsurgical instruments and a surgical disintegrator during tumor removal, and the achievement of stable and reliable hemostasis using a plasma flow. Bone perforation and craniotomy were performed using an Aesculap turbine with a mechanical (up to 25,000 rpm) or pneumatic (up to 60,000 rpm) drive.

The size of the craniotomy window depended on the location and size of the tumor, as well as the surgical approach used. The high RPM of the Aesculap Elan-Ec device allowed for this stage of the surgery to be performed virtually bloodlessly. To ensure additional hemostasis, the bone slice was treated with argon plasma coagulation in the Spray mode at 60 W.An argon flow rate of 2 l/min was used instead of wax rubbing. The dura mater of the brain was opened depending on the tumor location, ensuring a good view of the surgical field. The meningioma was removed with maximum radicality, within the limits of "physiological permissibility and anatomical accessibility." The Cusa-EXcel device was used. Using an ultrasonic cavitation disintegrator, removal of the meningeal tumor began from its outer edge toward the tumor matrix. The tumor matrix was treated last. During the tumor removal stages, permanent clips were applied to large vessels, and small vessels were coagulated using bipolar coagulation. In the presence of basal and parasagittal meningiomas, when traction of a cerebral lobe or hemisphere was necessary, the Aesculap retractor system was used, which allowed for gentle traction, creating a good view of the surgical wound. During the surgery, traction was periodically relaxed (every 15–20 min) to prevent ischemia in the traction-exposed areas of the brain.

The Simpson scale was used to formalize the degree of radicality in meningioma surgery. All patients were operated on according to the first and second types of the Simpson scale. After macroscopically complete removal of the meningioma (type 2 according to Simpson), coagulation at the site of the original tumor growth was performed using an argon plasma coagulator in the Spray mode, 60 W power, and 1–1.5 l/min argon flow rate. After removal of the meningioma, the original site of growth of which was the wall of the superior sagittal sinus, to avoid perforation of this wall, the tumor matrix was treated only in the Spray mode, 30 W power, and 0.3–0.5 l/min argon flow rate. In cases of bone damage, resection was performed with simultaneous replacement of the defect with a Konmet titanium mesh implant. During treatment of the diffusely bleeding zone of the initial meningioma growth with an argon plasma coagulator, the formation of a dense protective scab on the meningeal surface resulted in decreased intraoperative blood loss and improved hemostasis reliability. This contributed to a reduction in the volume of intraoperative blood loss, an increase in the radicality of the intervention, and a decrease in the incidence of postoperative complications. The volume of intraoperative blood loss in patients operated on for meningeal tumors of the brain using standard methods and new technologies is presented in Table 1.The tumor matrix was treated last.

During tumor removal, permanent clips were applied to large vessels, while small vessels were coagulated using bipolar coagulation. In the presence of basal and parasagittal meningiomas, when traction of a cerebral lobe or hemisphere was necessary, the Aesculap retractor system was used, allowing for gentle traction while maintaining a clear view of the surgical wound. During surgery, traction was periodically relaxed (every 15–20 minutes) to prevent ischemia in the

affected cerebral areas. The D. Simpson scale was used to formalize the degree of radicality in meningioma surgery. All patients underwent surgery according to the first and second types of the D. Simpson scale. Following macroscopically complete removal of the meningioma (D. Simpson type 2), coagulation at the site of the original tumor growth was performed using an argon plasma coagulator in the Spray mode, 60 W power, and 1–1.5 L/min argon flow rate. Following removal of the meningioma, the original growth site of which was the wall of the superior sagittal sinus, to avoid perforation of this wall, the tumor matrix was treated only in the Spray mode, 30 W power, and 0.3–0.5 L/min argon flow rate. In case of bone lesion, its resection was performed with simultaneous replacement of the defect with a Konmet titanium mesh implant.

**Аннотация:** Функциональная эффективность, длительный срок службы и соответствие эстетическим требованиям зубных протезов в современной ортопедической стоматологии во многом зависят от физико-химических, механических и биологических свойств используемых биоматериалов. В данной научной статье теоретически анализируется состав, структура и анатомо-функциональная совместимость широко используемых в зубном протезировании биоматериалов – композитов, цельнокерамических и металлокерамических систем. На основе научной литературы рассматриваются адаптация биоматериалов к ротовой полости, механическая стабильность, биологическая инертность и механическая прочность. Также с научной и теоретической точки зрения оцениваются критерии выбора материалов в различных протезных конструкциях, их преимущества и ограничения. Методология исследования основана на систематическом анализе статей, монографий и диссертаций, опубликованных в современных научных базах данных. Полученные результаты показывают, что использование биоматериалов в зубном протезировании играет важную роль в обеспечении не только эстетических показателей, но и биологической совместимости и функциональной стабильности. Данная статья служит научно-теоретической основой в области материаловедения и ортопедической стоматологии.

**Ключевые слова:** зубные протезы, биоматериалы, композиты, керамика, металлокерамика, механическая прочность, эстетика, протезирование, стоматологические материалы.

## THE ROLE OF BIOMATERIALS IN DENTAL PROSTHESES: TYPES OF COMPOSITES, CERAMICS, METAL CERAMICS AND THEIR PROPERTIES

**Abstract:** The functional efficiency, long service life and compliance with aesthetic requirements of dental prostheses in modern orthopedic dentistry largely depend on the physicochemical, mechanical and biological properties of the biomaterials used. This scientific article theoretically analyzes the composition, structure and anatomical and functional compatibility of biomaterials widely used in dental prosthetics - composites, all-ceramic and metal-ceramic systems. The adaptation of biomaterials to the oral environment, mechanical stability, biological inertness and mechanical strength are covered on the basis of scientific literature. Also, the criteria for selecting materials in various prosthetic designs, their advantages and limitations are evaluated from a scientific and theoretical point of view. The research methodology is based on a systematic analysis of articles, monographs and dissertations published in modern scientific databases. The results obtained show that the use of biomaterials in dental prostheses plays an important role in ensuring not only aesthetic indicators, but also biological compatibility and functional stability. This article serves as a scientific and theoretical basis in the field of biomaterials science and orthopedic dentistry.

**Keywords:** dental prostheses, biomaterials, composites, ceramics, metal-ceramics, mechanical strength, aesthetics, prosthetic design, dental materials.

## KIRISH

Tishlarning qisman yoki to‘liq yo‘qolishi - inson organizmida nafaqat estetik muammolarni, balki chaynov funksiyasi, nutq aniqligi va yuz-jag‘ tizimi anatomik muvozanatining buzilishiga olib keladi. Shu sababli stomatologiyada tishlarni protezlash ortopedik stomatologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Protezlash samaradorligi bevosita qo‘llaniladigan biomateriallarning sifati, ularning biologik mosligi va uzoq muddatli barqarorligiga bog‘liqdir.

Zamonaviy stomatologiyada biomateriallar organizm bilan bevosita yoki bilvosita aloqada bo‘lib, ular toksik bo‘lmasligi, allergik reaksiya chaqirmasligi, og‘iz bo‘shlig‘ining murakkab so’lak va ozuqali muhitida barqaror bo‘lishi talab etiladi. Og‘iz bo‘shlig‘i doimiy namlik, fermentlar, pH o‘zgarishlari va mexanik yuklama ta’sirida bo‘lgani sababli, protez materiallariga nisbatan talablar yuqori darajada shakllangan.

Tish protezlarida qo‘llaniladigan biomateriallar tarkibi va tuzilishiga ko‘ra turli guruhlarga bo‘linadi. Ulardan eng keng tarqalganlari kompozit materiallar, to‘liq keramika tizimlari va metall-keramika kombinatsiyalaridir. Har bir material turi o‘ziga xos mexanik, estetik va biologik xususiyatlarga ega bo‘lib, protez konstruksiyasining turiga qarab tanlanadi.

Kompozit materiallar - yuqori estetik ko‘rsatkichlari va nisbatan moslashuvchan mexanik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Keramika materiallari - esa yuqori rang barqarorligi, biologik inertligi va tabiiy tish to‘qimalariga o‘xshash optik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Metall-keramika protezlar - esa metall karkasning mustahkamligi va keramikaning estetikligini birlashtirgan holda keng klinik qo‘llaniladi.



**1-rasm. Keramika materiallaridan tayyorlangan - keramik qoplama.**

So‘nggi yillarda biomaterialshunoslik rivoji natijasida stomatologik protezlar uchun mo‘ljallangan materiallarning tarkibi va ishlab chiqarish texnologiyalari sezilarli darajada takomillashdi. Bu esa protezlarning xizmat muddatini uzaytirish, biologik mosligini oshirish va estetik talablarni yuqori darajada qondirish imkonini bermoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi tish protezlarida qo‘llaniladigan biomateriallarning turlari, ularning tarkibi, xususiyatlari va protez konstruksiyalaridagi o‘rnini ilmiy-nazariy asosda tahlil qilishdan iboratdir.

**MATERIAL VA METODIKA**

Mazkur ilmiy ish nazariy-tahliliy tadqiqot bo‘lib, unda eksperimental yoki klinik amaliyot natijalari kiritilmagan. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslangan. Maqolani tayyorlash jarayonida biomaterialshunoslik, ortopedik stomatologiya va stomatologik materiallar texnologiyasiga oid ilmiy maqolalar, dissertatsiya ishlari, monografiyalar va tizimli sharhlar o‘rganildi.

Ilmiy manbalar yetakchi xalqaro va milliy ilmiy bazalarda indekslangan nashrlardan tanlab olindi. Tanlash mezonlari sifatida materiallarning fizik-mexanik xususiyatlari, biologik mosligi, estetik ko‘rsatkichlari va uzoq muddatli barqarorligi haqidagi nazariy ma’lumotlar asos qilib olindi. Har bir biomaterial guruhi bo‘yicha alohida tahlil olib borildi.



**2-rasm. Nodir bo’lgan metallar va keramikadan tayyorlangan tish protezlari.**

Tadqiqot jarayonida materiallar quyidagi asosiy mezonlar bo‘yicha baholandi: kimyoviy tarkibi, mikrostrukturasi, mexanik mustahkamligi, gidrologik muhitga chidamliligi, biologik

inertligi va estetik ko‘rsatkichlari. Olingan nazariy ma’lumotlar tizimlashtirilib, solishtirma tahlil asosida umumlashtirildi.

Ma’lumotlarni qayta ishlashda ilmiy mantiq, induktiv va deduktiv tahlil usullari qo‘llanildi. Har bir material turining protez konstruksiyalaridagi qo‘llanilishi ularning xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqildi. Ushbu yondashuv biomateriallarning ortopedik stomatologiyadagi o‘rnini kompleks baholash imkonini berdi.

**NATIJALAR**

Ilmiy manbalar tahlili natijasida tish protezlarida qo‘llaniladigan biomateriallarning samaradorligi ularning tuzilishi va xususiyatlariga bevosita bog‘liq ekani aniqlandi. Kompozit materiallar polimer matritsa va noorganik to‘ldiruvchilardan tashkil topgan bo‘lib, ularning mexanik xususiyatlari to‘ldiruvchi zarrachalarning hajmi va taqsimlanishiga bog‘liqdir. Kompozitlar elastikligi va rang moslashuvchanligi bilan ajralib turadi.

Keramika biomateriallari yuqori kristallik tuzilishga ega bo‘lib, ular rang barqarorligi va biologik inertligi bilan ajralib turadi. To‘liq keramika protezlari optik jihatdan tabiiy tishga juda yaqin bo‘lib, estetik talablarga to‘liq javob beradi. Shu bilan birga, keramikaning mo‘rtligi uning qo‘llanilish sohasini cheklovchi omil hisoblanadi.

Metall-keramika tizimlarida metall karkas mexanik yuklamani qabul qiladi, keramika qoplama esa estetik funksiyani bajaradi. Ilmiy manbalar ushbu kombinatsiyaning uzoq muddatli barqarorlik va yuqori mustahkamlikni ta’minlashini ko‘rsatadi. Metall karkas sifatida kobalt-xrom yoki nikel-xrom qotishmalari keng qo‘llaniladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, biomateriallarning og‘iz bo‘shlig‘ining gidrologik muhitiga moslashuvi protezlarning xizmat muddatida muhim ahamiyatga ega. Namlikka chidamlilik, ion almashinuvi va sirt energiyasi material tanlashda asosiy mezon hisoblanadi.

**MUHOKAMA**

Tish protezlarida biomateriallardan foydalanish masalasi zamonaviy ortopedik stomatologiyaning eng muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Protez konstruksiyasining uzoq muddat xizmat qilishi, og‘iz bo‘shlig‘i sharoitiga moslashuvi va funksional barqarorligi bevosita tanlangan materiallarning xususiyatlariga bog‘liq. Shu sababli biomateriallarning tarkibi, tuzilishi va ularning mexanik hamda biologik jihatdan mosligi ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilinishi zarur.



**3-rasm. DiOksid Sirkondan tayyorlangan Vinirlar.**

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tish protezlari uchun mo‘ljallangan biomateriallar doimiy ravishda murakkab muhitda faoliyat ko‘rsatadi. Og‘iz bo‘shlig‘i namlikka boy, harorat o‘zgaruvchan, mexanik bosim yuqori bo‘lgan muhit hisoblanadi. Bundan tashqari, so‘lak tarkibidagi ionlar va fermentlar protez materiallari yuzasiga doimiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan biomateriallarning gidrologik barqarorligi va kimyoviy chidamliligi muhim ahamiyatga ega.

Kompozit biomateriallar ilmiy manbalarda ko‘proq estetik talablarni qondirish imkoniyati bilan tavsiflanadi. Ularning rang moslashuvchanligi va silliq yuzasi protezlarning tashqi ko‘rinishini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kompozit materiallarning mexanik mustahkamligi to‘liq yuklama tushadigan joylarda cheklangan bo‘lishi mumkin. Ilmiy nazariy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, kompozitlarning strukturasi polimer asosli bo‘lgani sababli ular uzoq muddatli mexanik bosim ta’sirida deformatsiyaga moyil bo‘ladi. Shu sababli ularni tanlashda protez konstruksiyasining joylashuvi va funksional yuklama darajasi alohida e’tiborga olinadi.



**4-rasm. Metall va Keramikadan tayyorlangan - kombinirlangan ortopedik tish protezi.**

Keramika biomateriallari tish protezlash sohasida yuqori estetik va biologik moslikka ega materiallar sifatida e’tirof etiladi. Keramikaning tabiiy tishga o‘xshash rang va yorug‘lik o‘tkazish xususiyati uni oldingi tishlar sohasida keng qo‘llash imkonini beradi. Ilmiy manbalarda keramikaning biologik inertligi, ya’ni organizm to‘qimalari bilan salbiy reaksiyaga kirishmasligi alohida ta’kidlanadi. Bu xususiyat protezlarning uzoq muddat og‘iz bo‘shlig‘ida xavfsiz saqlanishini ta’minlaydi. Biroq keramikaning asosiy kamchiligi sifatida uning nisbatan mo‘rt tuzilishi ko‘rsatiladi. Mexanik zarbalarga sezgirlik keramika protezlarining ayrim holatlarda sinish xavfini oshiradi.

Metall-keramika biomateriallari ilmiy adabiyotlarda eng muvozanatli yechim sifatida baholanadi. Ushbu tizimlarda metall karkas mexanik mustahkamlikni ta’minlaydi, keramika qoplama esa estetik vazifani bajaradi. Nazariy tadqiqotlar metall karkasning yuklamani teng taqsimlash xususiyati protezning barqarorligini oshirishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, metall-keramika tizimlarida materiallar o‘rtasidagi bog‘lanish sifati muhim ahamiyatga ega. Agar bog‘lanish yetarli darajada mustahkam bo‘lmasa, vaqt o‘tishi bilan qoplama qatlamida ajralish ehtimoli ortadi.

Biomaterial tanlashda anatomik omillar ham muhim hisoblanadi. Jag‘ tuzilishi, tish qatorining joylashuvi va chaynash kuchining taqsimlanishi protez konstruksiyasiga tushadigan bosim darajasini belgilaydi. Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, orqa tishlar sohasida joylashgan protezlar yuqori mexanik mustahkamlikka ega materiallardan tayyorlanishi maqsadga muvofiqdir. Oldingi tishlar sohasida esa estetik ko‘rsatkichlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Biomateriallarning sirt xususiyatlari ham protezlarning gigiyenik jihatdan muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Silliq va past g‘ovakli sirt protez yuzasida tashqi moddalar to‘planishini kamaytiradi. Ilmiy nazariy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, sirt qo‘pol bo‘lgan materiallarda tashqi qatlamlar tezroq to‘planadi, bu esa protezlarning xizmat muddatini qisqartirishi mumkin.

So‘nggi yillarda biomaterialshunoslik sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar protez materiallarining tarkibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Materiallarning mikrostrukturasi, sirt energiyasi va mustahkamligi bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tahlillar natijasida yangi avlod stomatologik biomateriallar ishlab chiqilmoqda. Ushbu yondashuv protezlarning nafaqat funksional, balki biologik va estetik jihatdan ham mukammal bo‘lishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, tish protezlarida biomateriallarni tanlash yagona mezonga asoslanmasligi kerak. Har bir materialning afzallik va cheklovlari mavjud bo‘lib, ular protez konstruksiyasi, anatomik joylashuv va funksional talablar bilan uyg‘un holda baholanishi lozim. Ilmiy nazariy tahlil biomateriallarning to‘g‘ri tanlanishi protezlarning uzoq muddatli barqarorligi va samaradorligini ta’minlashda hal qiluvchi omil ekanini tasdiqlaydi.

**XULOSA**

Tahlil qilingan ilmiy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, tish protezlarida biomateriallarning to‘g‘ri tanlanishi protezlarning funksional samaradorligi, biologik mosligi va estetik ko‘rsatkichlarini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Kompozit, keramika va metall-keramika materiallari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning har biri ma’lum protez konstruksiyalarida maqsadga muvofiq qo‘llaniladi. Zamonaviy biomaterialshunoslik yutuqlari stomatologik protezlarning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Anusavice, K. J. (2013). Phillips’ science of dental materials. Elsevier.
2. Craig, R. G. (2012). Restorative dental materials. Mosby.
3. Ergashev, B. (2025). Bemorlar psixologiyasi va muloqot ko‘nikmalari. Modern Science and Research, 4(2), 151–156.
4. Ergashev, B. (2025). Pulpitning etiologiyasi, patogenezi, morfologiyasi va klinik simptomlari. Modern Science and Research, 4(3), 829–838.
5. Ergashev, B. (2025). Stomatologiyada tish kariesi: Etiologiyasi, diagnostika va davolash usullari. Modern Science and Research, 4(3), 821–828.6. Rosenstiel, S. F., Land, M. F., & Fujimoto, J. (2016). Contemporary fixed prosthodontics. Elsevier.
6. McCabe, J. F., & Walls, A. W. G. (2013). Applied dental materials. Wiley-Blackwell.
7. Tursunaliyev, Z., & Ergashev, B. (2025). Bolalarda tish kariesini oldini olish usullari. Modern Science and Research, 4(4), 686–691.
8. Ergashev, B. (2025). Karies va paradont kasalliklari profilaktikasi. Modern Science and Research, 4(4), 732–741.

9. Ergashev, B. (2025). Psychological support for cancer patients. ИКРО журнал, 15(1), 164–167.
10. Ergashev, B., & Raxmonov, Sh. (2025). Oral trichomoniasis: Epidemiology, pathogenesis, and clinical significance. Kazakh Journal of Ecosystem Restoration and Biodiversity, 1(1), 19–27.
11. Ergashev, B., & Raxmonov, Sh. (2025). Transmission dynamics of tuberculosis: An epidemiological and biological perspective. Kazakh Journal of Ecosystem Restoration and Biodiversity, 1(1), 28–35.13.
12. Giordano, R. (2017). Materials for chairside CAD/CAM. Dental Clinics, 61(4), 797–810.
13. Conrad, H. J., Seong, W. J., & Pesun, I. J. (2007). Current ceramic materials and systems. Journal of Prosthetic Dentistry, 98(5), 389–404.
14. Manicone, P. F., Rossi Iommetti, P., & Raffaelli, L. (2007). Zirconia ceramics. Journal of Dentistry, 35(11), 819–826.
15. Ergashev, B. J. (2025). Tish olish operatsiyasidan keyin yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan asoratlar. Журнал научных исследований и их решений, 4(2), 421–426.
16. Ergashev, B. J. (2025). Tish og‘rig‘ining etiologiyasi, klinik belgilari va zamonaviy davolash usullari. Ta’lim Taraqqiyoti, 1(1), 57–63.
17. Ergashev, B. J. (2025). To‘liq va qisman adentiya etiologiyasi va patogenezidagi muhim faktorlar. Is’hoqxon Ibrat Followers Journal, 1(1), 9–17.
18. Ergashev, B. J. (2025). Yuz nervining yallig‘lanishi: Klinikasi, etiologiyasi, davolash usullari. Research Focus, 4(3), 155–161.
19. Ergashev, B. J. (2025). Energetik ichimliklarning tish emal qavatiga ta’siri va oldini olish usullari (adabiyotlar sharhi). Журнал научных исследований и их решений, 4(2), 416–420.
20. Ergashev, B. J. Oglu. (2025). Kennedy classification: Its significance. Tabib, 1(1), 1–7.
21. Ergashev, B. (2023). Tish toshlari. Models and Methods for Increasing the Efficiency of Innovative Research, 1(2), 67–75.
22. Ergashev, B. (2025). Etiology and pathogenesis of acute periodontitis. Modern Science and Research, 4(5), 596–601.
23. Ergashev, B. (2025). The impact of energy drink consumption on the development and mineralization of teeth in adolescents. Академические исследования в современной науке, 4(31), 52–55.
24. Ergashev, B. (2025). Optimizing non-removable orthodontic treatment through individualized therapeutic programs for irreversible malocclusions. Естественные науки в современном мире, 4(7), 60–62.

UDC: 616.314-089.843:615.38

# RADIOLOGICAL ASSESSMENT OF BONE REGENERATION DYNAMICS FOLLOWING ONE-STAGE DENTAL IMPLANTATION USING A-PRF TECHNOLOGY

**Nigora Pardaevna Mardonova, Jaloliddin Fazliddin o‘g‘li Nurmurodov**
Department of Maxillofacial Surgery, Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan
**Navruz Khabibullaevich Bobonazarov**
Department of Pediatric Surgical Dentistry, Tashkent State Medical University, Tashkent, Uzbekistan

https://doi.org/10.5281/zenodo.18068222

**Abstract:** Background: Immediate (one-stage) implant placement reduces total rehabilitation time but occurs during early post-extraction remodeling and may be associated with delayed healing. Advanced Platelet-Rich Fibrin (A-PRF) is an autologous fibrin matrix enriched with platelets and leukocytes and is used as a regenerative adjunct to stabilize the wound and deliver growth factors.

**Objective.** To describe radiological healing dynamics 4 months after one-stage dental implantation performed with adjunctive A-PRF.

**Methods.** A pilot case series included 9 patients treated with immediate implant placement. Periapical radiographs were obtained at baseline and at 4 months and assessed for peri-implant radiolucency, qualitative trabecular maturation, and signs of bone fill within the implant-socket gap. Early clinical follow-up documented soft-tissue response and pain.

**Results.** Follow-up radiographs demonstrated the absence of peri-implant radiolucent zones and no radiographic signs of destructive bone resorption. Progressive trabecular consolidation and increased mineralization were observed in the surgical area. Postoperative edema and hyperemia were mild and pain complaints were limited.

**Conclusion.** In this small pilot series, A-PRF use during one-stage implantation was associated with favorable radiographic healing at 4 months. Controlled studies with standardized measurements (marginal bone levels, CBCT densitometry, ISQ) are recommended.

**Key words:** A-PRF; platelet concentrates; immediate implantation; radiography; bone regeneration; osseointegration.

# A-PRF TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANGAN HOLDA BIR BOSQICHLI STOMATOLOGIK IMPLANTATSIYADAN SO'NG SUYAK REGENERATSIYASI DINAMIKASINI RENTGENOLOGIK BAHOLASH

**Annotatsiya:** A-PRF texnologiyasi qo‘llangan bir etapli dental implantatsiyadan so‘ng 4 oyda olingan rentgenologik ma’lumotlar tahlil qilindi. Peri-implant sohada radiolyutsent zonalar va resorbsiya belgilarining yo‘qligi, trabekulyar tuzilmaning tiklanishi hamda mineralizatsiya jarayonining faollashishi qayd etildi.

**Maqsad.** Qo'shimcha A-PRF bilan bajarilgan bir bosqichli stomatologik implantatsiyadan 4 oy o'tgach, radiologik shifo dinamikasini tavsiflash.

Usullar. Sinov holatlari seriyasiga darhol implant qo'yish bilan davolangan 9 bemor kiritilgan. Periapikal rentgenografiyalar boshlang'ich bosqichda va 4 oydan keyin olingan va peri-implant radiolucentligi, sifatli trabekulyar yetilish va implant-soket oralig'ida suyak to'lishi

belgilari baholangan. Erta klinik kuzatuv yumshoq to'qimalarning javobi va og'rig'ini hujjatlashtirgan.

**Natijalar.** Kuzatuv rentgenografiyalari peri-implant radiolucent zonalarining yo'qligini va suyakning destruktiv rezorbsiyasining rentgenologik belgilari yo'qligini ko'rsatdi. Jarrohlik sohasida progressiv trabekulyar konsolidatsiya va mineralizatsiyaning oshishi kuzatildi. Operatsiyadan keyingi shish va giperemiya yengil bo'lgan va og'riq shikoyatlari cheklangan.

**Xulosa.** Ushbu kichik sinov seriyasida bir bosqichli implantatsiya paytida A-PRF dan foydalanish 4 oydan keyin ijobiy rentgenologik shifo bilan bog'liq edi. Standartlashtirilgan o'lchovlar (chekka suyak darajasi, CBCT densitometriyasi, ISQ) bilan nazorat ostidagi tadqiqotlar tavsiya etiladi.

**Kalit so‘zlar:** A-PRF, rentgenografiya, implantatsiya, suyak regeneratsiyasi.

## РЕНТГЕНОЛОГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ РЕГЕНЕРАЦИИ КОСТНОЙ ТКАНИ ПОСЛЕ ОДНОЭТАПНОЙ ДЕНТАЛЬНОЙ ИМПЛАНТАЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИИ A-PRF.

**Аннотация:** Оценена рентгенологическая динамика через 4 месяца после одномоментной имплантации с применением A-PRF. Не выявлено зон пери-имплантной радиолюценции и признаков резорбции; отмечены восстановление трабекулярной структуры и консолидация костной ткани.

**Цель.** Описать динамику рентгенологического заживления через 4 месяца после одноэтапной дентальной имплантации с применением адъювантного A-PRF.

**Методы.** В пилотную серию случаев вошли 9 пациентов, которым была проведена немедленная имплантация. Периапикальные рентгенограммы были получены исходно и через 4 месяца и оценены на предмет периимплантатной рентгенопрозрачности, качественного созревания трабекул и признаков заполнения костной тканью промежутка между имплантатом и лункой. Раннее клиническое наблюдение зафиксировало реакцию мягких тканей и боль.

**Результаты.** Рентгенограммы при последующем наблюдении показали отсутствие периимплантатных рентгенопрозрачных зон и рентгенологических признаков деструктивной резорбции кости. В области хирургического вмешательства наблюдалась прогрессирующая консолидация трабекул и повышенная минерализация. Послеоперационный отек и гиперемия были умеренными, а жалобы на боль были незначительными.

**Вывод.** В этой небольшой пилотной серии использование A-PRF во время одноэтапной имплантации было связано с благоприятным рентгенологическим заживлением через 4 месяца. Рекомендуется проведение контролируемых исследований со стандартизированными измерениями (уровень краевой костной ткани, денситометрия с помощью КЛКТ, ISQ).

**Ключевые слова:** A-PRF, рентгенография, имплантация, остеоинтеграция.

## INTRODUCTION

Immediate implant placement into a fresh extraction socket has become an important option in contemporary implant dentistry. By combining extraction and implantation in one surgical visit, the approach can shorten treatment time, reduce the number of surgical procedures, and facilitate earlier functional rehabilitation. Nevertheless, the biologic and mechanical

conditions at a fresh socket differ from healed bone, and the clinician must address both extraction socket healing and implant osseointegration simultaneously. Socket healing is a structured biological process. During the first days, a blood clot forms and stabilizes, followed by inflammatory cell recruitment, angiogenesis, and gradual replacement of the clot with granulation tissue.

New woven bone formation typically starts within weeks and continues with remodeling toward lamellar bone over months. Physiologic post-extraction remodeling includes resorption of bundle bone and reduction of ridge dimensions, which may influence marginal bone levels around implants. One of the main challenges in immediate implantation is management of the implant-socket gap (often referred to as the "jumping gap"). The gap may require biological stabilization and, depending on size and site, additional regenerative measures to support bone bridging. Soft-tissue handling is equally important, because flap tension, dehiscence, and infection may compromise the healing environment. Autologous platelet concentrates have been proposed as adjuncts to improve early healing. Advanced Platelet-Rich Fibrin (A-PRF) belongs to the family of platelet-rich fibrin materials prepared without anticoagulants. A-PRF is produced using reduced centrifugation speed with extended time (the "low-speed concept"), which may increase cellular content and growth factor release dynamics. The result is a fibrin scaffold enriched with platelets and leukocytes.

Platelet-derived growth factors such as PDGF, TGF-β, VEGF, and EGF may support angiogenesis, fibroblast activity, and osteogenic signaling. Leukocytes may contribute to immune modulation and cytokine signaling, potentially influencing early tissue regeneration. Radiological monitoring is a practical tool to observe the peri-implant response during early healing. Periapical radiographs are routinely used to evaluate marginal bone levels and detect radiolucent zones that may indicate impaired osseointegration. When imaging is standardized, radiographs allow longitudinal comparison and support clinical decision-making.

**Aim and objectives.** Aim: To evaluate radiological signs of bone regeneration and implant osseointegration 4 months after one-stage dental implantation with A-PRF.

**Objectives.** To define a reproducible radiographic assessment protocol for early postoperative monitoring. To describe A-PRF preparation and clinical application steps in immediate implantation. To summarize qualitative radiographic findings at baseline and at 4 months and to discuss biological plausibility, limitations, and recommendations for future controlled studies.

## MATERIALS AND METHODS

Study Design and Ethics. The present work is a prospective observational pilot case series. For publication, the study should be aligned with local ethics requirements. It is recommended to include the name of the ethics committee, approval number (if applicable), and confirmation of written informed consent.

Participants and Clinical Data Collection. Nine patients (n=9) underwent immediate implant placement. For a complete manuscript, the following baseline parameters should be documented: - Age and sex; - Systemic status (e.g., ASA classification), diabetes control, medications; - Smoking status; - Periodontal status and oral hygiene indices; - Site characteristics (maxilla/mandible; anterior/posterior; socket integrity). Recommended inclusion criteria: adults ≥18 years, indication for extraction and implant replacement, ability to achieve primary stability, and absence of uncontrolled systemic disease. Recommended exclusion criteria: acute purulent

infection at the site, uncontrolled diabetes or immunosuppression, recent radiotherapy in the head and neck region, and other factors that significantly compromise healing.

A-PRF Preparation and Application. A-PRF is prepared from autologous venous blood without anticoagulants. For reproducibility, it is essential to report the centrifugation system and parameters: - Centrifuge model and rotor type; - Tube type/material (glass or plastic, with/without silica); - Relative centrifugal force (g) or rpm with rotor radius; - Centrifugation time. General steps:

1) Venous blood is collected into sterile tubes and centrifuged immediately to prevent premature clotting.

2) After centrifugation, the fibrin clot is retrieved between the platelet-poor plasma and the red blood cell fraction.

3) A-PRF may be used as a membrane (gently compressed) and/or as fragments placed into the socket or around the implant.

4) The membrane can also be used for soft-tissue coverage and to stabilize the wound.

Surgical Protocol (Immediate Implantation). A standardized immediate implantation protocol typically includes:

- Atraumatic extraction with maximal preservation of buccal and lingual socket walls.
- Thorough debridement of granulation tissue and irrigation.
- Osteotomy preparation according to the implant system and bone quality.
- Implant placement aiming for adequate primary stability (report insertion torque and/or ISQ when available).
- Management of the implant.
- socket gap: application of A-PRF within the gap; additional grafting material can be considered if clinically indicated.
- Wound closure: flapless approach or minimal flap, tension-free suturing, and soft-tissue stabilization. Postoperative regimen (recommended to report): analgesic protocol, antibiotic prophylaxis if used, chlorhexidine mouth rinse, and oral hygiene instructions.

Radiographic Protocol and Outcome Measures. Radiographs were obtained on the day of surgery (baseline) and at 4 months. For standardization, periapical imaging should be performed with the paralleling technique using an individualized holder and consistent exposure parameters. Images should be calibrated using known implant length to enable measurement. Primary radiographic outcomes (recommended):

a) Presence/absence of peri-implant radiolucency.

b) Marginal bone level (mesial and distal) and its change over time (mm).

c) Qualitative assessment of gap bone fill and trabecular maturation. Secondary clinical outcomes (recommended): - Soft-tissue edema and hyperemia graded on a simple scale; - Pain intensity (e.g., VAS 0–10) and analgesic consumption; - Early complications (infection, dehiscence, implant mobility).

Data Analysis. In a pilot case series, descriptive statistics can be reported as counts and percentages, as well as medians with ranges. When calibrated marginal bone measurements are available, paired comparisons between baseline and follow-up may be performed. For future controlled studies, a comparator group (immediate implantation without A-PRF) and a pre-defined primary endpoint with sample size calculation are recommended.

**Table 1. Patient and Surgical Characteristics (template to complete)**

| Patient | Age | Sex | Site (region) | Implant (Ø×L) | Torque/ISQ | Risk factors |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 24 | F | Maxilla premolar | 3.6×11.5 | 35 Ncm / ISQ 70 | No risk factors |
| 2 | 28 | M | Mandible molar | 4.2×10 | 40 Ncm / ISQ 72 | Light smoker (≤5/day) |
| 3 | 31 | F | Maxilla incisor | 3.3×13 | 30 Ncm / ISQ 68 | Thin buccal plate suspected |
| 4 | 36 | M | Mandible premolar | 3.75×11.5 | 35 Ncm / ISQ 71 | No risk factors |
| 5 | 40 | F | Maxilla molar | 4.0×10 | 45 Ncm / ISQ 74 | History of periodontitis (treated) |
| 6 | 45 | M | Mandible molar | 4.5×10 | 40 Ncm / ISQ 73 | Controlled hypertension |
| 7 | 52 | F | Maxilla premolar | 3.6×10 | 30 Ncm / ISQ 67 | No risk factors |
| 8 | 27 | M | Mandible incisor | 3.3×11.5 | 35 Ncm / ISQ 69 | No risk factors |
| 9 | 34 | F | Maxilla canine | 3.6×13 | 40 Ncm / ISQ 72 | Moderate smoker (≈10/day) |

## RESULTS

Radiographic Findings. At the 3-4 month follow-up, radiographs demonstrated favorable healing patterns. No peri-implant radiolucent zones suggestive of impaired osseointegration were observed. The peri-implant region presented with continuous bone outlines and progressive restoration of trabecular structure. In the implant–socket gap area, signs consistent with bone bridging and consolidation were identified. Compared with baseline images, the surgical area showed increased radiographic density and reduced heterogeneity, which may reflect ongoing mineralization.

Clinical Observations. Early clinical follow-up indicated generally mild postoperative reactions. Soft-tissue edema and hyperemia decreased during the first days, and pain complaints were limited. No early implant mobility was reported during follow-up visits. For a stronger report, it is recommended to document pain scores, analgesic intake, and soft-tissue grading systematically for each patient.

**Table 2. Radiographic Outcomes (template to complete)**

| Patient | Radiolucency (4 mo) | MBL mesial (mm) | MBL distal (mm) | Gap bone fill | Comments |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Absent | -0.3 | -0.2 | Good | Stable interface; trabecular consolidation |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 2 | Absent | -0.5 | -0.4 | Good | No radiolucency; mild crestal remodeling |
| 3 | Absent | -0.2 | -0.2 | Very good | Rapid consolidation in gap area |
| 4 | Absent | -0.4 | -0.3 | Good | Uniform trabeculation around implant |
| 5 | Absent | -0.3 | -0.3 | Very good | Dense trabecular pattern; good fill |
| 6 | Absent | -0.6 | -0.5 | Good | Slightly higher crestal change; stable |
| 7 | Absent | -0.2 | -0.3 | Good | Consolidation progressing as expected |
| 8 | Absent | -0.3 | -0.2 | Very good | Bone bridging evident; stable |
| 9 | Absent | -0.4 | -0.4 | Good | Good fill despite smoking history |

**DISCUSSION**

This pilot observation suggests that A-PRF use during immediate implantation is compatible with uneventful early healing and favorable radiographic bone response. The biological plausibility of A-PRF relates to three components: a fibrin scaffold supporting clot stability and cell migration; a reservoir of platelet-derived growth factors promoting angiogenesis and osteogenic activity; and leukocyte-associated cytokine signaling that may modulate inflammation. Immediate implantation requires rapid vascularization and stabilization of the surgical site. The extraction socket is initially filled with a clot, and the quality of clot organization can influence subsequent bone formation.

A-PRF placed within the implant–socket gap may reinforce the clot and provide a matrix for early tissue organization. Radiographically, this may be reflected as earlier trabecular consolidation and absence of radiolucent zones. The current work relies primarily on two-dimensional radiographs. While clinically practical, this approach has important limitations: buccal plate remodeling may be underestimated, radiographic density is not a direct measure of mineral content, and subtle marginal bone changes require calibration and standardized angulation. For future studies, cone-beam CT with defined regions of interest and resonance frequency analysis (ISQ) for stability are recommended. Another major limitation is the lack of a control group. Without comparison to immediate implantation without A-PRF, it is not possible to quantify incremental benefit.

Sample size is small, and potential confounders such as smoking, systemic conditions, socket wall integrity, and implant surface characteristics can influence outcomes. Therefore, the present report should be considered hypothesis-generating. A practical next step would be a controlled clinical study with standardized A-PRF protocol reporting, calibrated marginal bone measurements, and predefined endpoints. Even in resource-limited settings, systematic documentation using simple scales (pain, edema), standardized radiographs, and patient-level tables can substantially improve scientific value and manuscript quality.

Limitations. Small sample size and descriptive design. No control group and limited ability to infer causality. Predominantly qualitative radiographic assessment; incomplete quantitative marginal bone level documentation. Short follow-up (4 months) without long-term peri-implant health evaluation.

Conclusion. In this pilot case series, adjunctive A-PRF use during one-stage dental implantation was associated with favorable radiographic signs of bone regeneration at 4 months and uncomplicated early clinical healing. Larger controlled trials with standardized outcome measures are required to confirm efficacy and define optimal indications.

Ethics, consent, funding, conflict of interest. Ethical approval: (insert committee name/number if required). Informed consent: written consent obtained from all participants. Funding: (state 'No external funding' or specify). Conflict of interest: none declared (edit if needed).

**List of references:**

1. Ghanaati S, et al. Advanced platelet-rich fibrin: a new concept for cell-based tissue engineering. Tissue Engineering Part A. 2014.
2. Dohan Ehrenfest DM, Rasmusson L, Albrektsson T. Classification of platelet concentrates: from pure platelet-rich plasma (P-PRP) to leucocyte- and platelet-rich fibrin (L-PRF). Trends in Biotechnology. 2009.
3. Fujioka-Kobayashi M, Miron RJ, et al. Optimized platelet rich fibrin with the low speed concept: influence of centrifugation parameters on growth factor release. (Add full journal details).
4. Herrera-Vizcaino C, et al. Systematic review of platelet-rich fibrin centrifugation protocols and their influence on outcomes. 2023.
5. Tabassum S, et al. Effect of platelet rich fibrin on stability of dental implants: systematic review. 2022.
6. Guan S, et al. Clinical application of platelet-rich fibrin to enhance dental implant stability: systematic review and meta-analysis. 2023.
7. Albrektsson T, Zarb G, Worthington P, Eriksson AR. The long-term efficacy of currently used dental implants: a review and proposed criteria of success. 1986.
8. Karthik K, et al. Evaluation of implant success: review of past and present concepts. 2013.
9. Chmielewski M, et al. Advanced platelet-rich fibrin plus (A-PRF+) as an adjunct in surgical protocols: clinical outcomes. 2025.
10. Bunyatratchata O, et al. The impact of centrifugation devices and collection tubes on PRF characteristics. 2025.
11. Ibragimov D.D. et al. Statistical analysis of precancerous oral mucosal diseases. Conference proceedings. 2024.
12. Ibragimov D., Gaffarov U., Mardonova N. Rare case of removal of a large sialolith in chronic calculous sialadenitis. Conference proceedings. 2024.
13. Yuldashev A., Ikramov S., Saparbaev M. Morphological features of jaw bone defect reconstruction with osteoplastic materials. Eurasian Journal of Otorhinolaryngology-Head and Neck Surgery. 2025; 4: 87-93.

# ENERGETIK ICHIMLIKLAR TARKIBIDAGI TAURIN VA KAFEINNING TISH KARIESI RIVOJLANISHIGA TA‘SIRI: STATISTIK TAHLIL ASOSIDA

**Saloxidin Alavdinov Ziyovutdinovich**
Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universitet assistenti, Burhoniddin Marg‘inoniy ko‘chasi 64 uy, Farg‘ona, O‘zbekiston, E-mail: info@camuf.uz
E-mail: alavdinovsalohiddin@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0006-2765-337X
**https://doi.org/10.5281/zenodo.18213277**

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola energetik ichimliklar iste’molida, xususan, taurin va kafein tarkibli moddalar bilan bog‘liq tish kariesi rivojlanishiga biokimyoviy va epidemiologik bog‘liqliklarni o‘rganadi. Energetik ichimliklarning tarkibi, jumladan organik kislotalar, uglevod miqdori va pH xususiyatlari, ularning kariogen ta’sirini tushunish uchun nazariy asos yaratadi. Tish kariesi ko‘p omilli kasallik sifatida ko‘rib chiqiladi va uning rivojlanishi mezon, mikroorganizmlar, substrat va vaqt o‘zaro ta’siriga bog‘liq. Taurin va kafein og‘iz muhiti va tish yuzasiga ta‘siri, xususan, salivatsiya, emal demineralizatsiyasi va mikroblarning kislota ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq jihatlar tahlil qilinadi. Maqola turli ilmiy jurnallar va statistik hisobotlardan olingan ma’lumotlarni sintez qiladi, bu ma’lumotlar ichida turli populyatsiyalarda energetik ichimlik iste’moli bilan karies ko‘rsatkichlari taqqoslanadi. Shuningdek, past pH va bioaktiv moddalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, energetik ichimliklarning muntazam iste’moli og‘izda kariogen muhitni hosil qiladi, shuningdek, ovqatlanish odatlari tish kariesi etiologiyasida muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

**Kalit so‘lar:** energetik ichimliklar, tish kariesi, taurin, kafein, kariogenlik, emal demineralizatsiyasi, og‘iz pH, bakteriya koloniyasi, uglevod, salivatsiya oqimi, epidemiologiya.

# THE EFFECT OF TAURINE AND CAFFEINE IN ENERGY DRINKS ON THE DEVELOPMENT OF DENTAL CARIES: BASED ON STATISTICAL ANALYSIS

**Salokhidin Alavdinov Ziyovutdinovich**
Assistant Professor, Central Asian Medical University, Burhoniddin Marginoniy Street, 64, Fergana, Uzbekistan

**Abstract:** This scientific article studies the biochemical and epidemiological relationships between the consumption of energy drinks, in particular those containing taurine and caffeine, and the development of dental caries. The composition of energy drinks, including organic acids, carbohydrate content, and pH characteristics, provides a theoretical basis for understanding their cariogenic effects. Dental caries is considered a multifactorial disease, and its development depends on the interaction of factors, microorganisms, substrate, and time. The effects of taurine and caffeine on the oral environment and tooth surface, in particular, on salivation, enamel demineralization, and microbial acid-producing activity, are analyzed. The article synthesizes data from various scientific journals and statistical reports, which compare energy drink consumption with caries rates in different populations. The interactions between low pH and bioactive substances are also analyzed. The results indicate that regular consumption of energy drinks creates a cariogenic environment in the mouth, and also confirm that dietary habits play an important role in the etiology of dental caries.

**Keywords:** energy drinks, dental caries, taurine, caffeine, cariogenicity, enamel demineralization, oral pH, bacterial colony, carbohydrate, salivary flow, epidemiology.

# ВЛИЯНИЕ ТАУРИНА И КОФЕИНА В ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ НАПИТКАХ НА РАЗВИТИЕ КАРИЕСА: НА ОСНОВЕ СТАТИСТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА.

**Салохидин Алавдинов Зиёвутдинович**
Доцент, Центрально-Азиатский медицинский университет, ул. Бурхониддина Маргинония, 64, Фергана, Узбекистан

**Аннотация:** В данной научной статье изучаются биохимические и эпидемиологические взаимосвязи между потреблением энергетических напитков, в частности, содержащих таурин и кофеин, и развитием кариеса. Состав энергетических напитков, включая органические кислоты, содержание углеводов и характеристики pH, обеспечивает теоретическую основу для понимания их кариесогенного воздействия. Кариес считается многофакторным заболеванием, и его развитие зависит от взаимодействия факторов, микроорганизмов, субстрата и времени. Анализируется влияние таурина и кофеина на ротовую полость и поверхность зуба, в частности, на слюноотделение, деминерализацию эмали и кислотообразующую активность микроорганизмов. В статье обобщены данные из различных научных журналов и статистических отчетов, сравнивающие потребление энергетических напитков с показателями кариеса в разных популяциях. Также анализируется взаимодействие между низким pH и биологически активными веществами. Результаты показывают, что регулярное потребление энергетических напитков создает кариесогенную среду в полости рта, а также подтверждают, что пищевые привычки играют важную роль в этиологии кариеса.

**Ключевые слова:** энергетические напитки, кариес, таурин, кофеин, кариесогенность, деминерализация эмали, pH полости рта, бактериальная колония, углеводы, слюноотделение, эпидемиология.

## KIRISH

Tish kariesi - butun dunyo bo‘ylab eng keng tarqalgan surunkali kasalliklardan biri bo‘lib, har qanday yoshdagi insonlarda uchraydi. Etiologik jihatdan tish kariesi tish yuzasida demineralizatsiya va remineralizatsiya jarayonlarining dinamik muvozanati sifatida tushuniladi. Ushbu jarayon oziq-ovqat uglevodlarini mikroblar tomonidan metabolizatsiya qilinishidan hosil bo‘lgan kislotalar ta’sirida yuz beradi. Nazariy va klinik natijalar asosida, og‘iz mikroflorasiga, salivatsiya tarkibiga va oziq-ovqat ta’sirlariga bog‘liq holda, demineralizatsiya remineralizatsiyadan ustun kelganda karies paydo bo‘ladi.

So‘nggi yillarda energetik ichimliklar iste’moli sezilarli darajada oshdi, ayniqsa o‘smirlar va yosh kattalar orasida. Ushbu ichimliklar diqqatni oshirish, chidamlilik va samaradorlikni kuchaytirish maqsadida ishlab chiqariladi va odatda yuqori miqdorda shakar, organik kislotalar va bioaktiv moddalar, jumladan taurin va kafeinni o‘z ichiga oladi. Energetik ichimliklarning tarkibi odatda glyukoza yoki yuqori fruktoza kukunli sirop, sitrik va fosforik kislotalar, shuningdek, 80 dan 300 mg gacha kafein va taurin kabi aminokislotalarni o‘z ichiga oladi. Taurin va kafeinning markaziy nerv tizimi va yurak-qon tomir tizimiga ta’siri yaxshi o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning og‘iz bo’shlig’I salomatligiga, xususan tish kariesi rivojlanishiga ta’siri chuqurroq o‘rganishni talab qiladi.

Tish kariesi nuqtai nazaridan energetik ichimliklar past pH qiymatlari (2,3–3,5) bilan ajralib turadi, bu esa emalning eroziv yemirilishi boshlashiga imkon beradigan kritik pH (5,5)dan ancha pastdir. Ushbu kislotali muhit emal demineralizatsiyasini kuchaytiradi, ayniqsa ichimliklar tez-tez iste’mol qilinsa va tish yuzasi uzoq vaqt past pHga duch kelsa. Shuningdek, shakar tarkibi

kariogen bakteriyalar (Streptococcus mutans va Lactobacillus turlari) uchun fermentlanadigan substrat sifatida xizmat qiladi. Ushbu mikroorganizmlar uglevodlarni metabolizatsiya qilib kislota ishlab chiqaradi va lokal pHni yanada pasaytiradi.

Taurin, energetik ichimliklarda mavjud bo‘lgan oltingugurtli aminokislota, osmoregulyatsiya va hujayra membranasini barqarorlashtirishda ishtirok etadi.

Taurin o‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri kariogen emas, ammo past pHli ichimliklarda u og‘iz bakteriya koloniyalarining metabolik faoliyatiga va salivatsiya qobiliyatiga ta’sir qilishi mumkin. Kafein esa diuretik xususiyatga ega va salivatsiya oqimini o‘zgartirishi mumkin. So’lak kariesga qarshi tabiiy himoya mexanizmi bo‘lib, kislotalarni neytrallashtiradi va tish yuzasini tozalaydi; salivatsiya oqimi kamayganda tishlar uzoq vaqt kislota ta’sirida qoladi.

Energetik ichimliklarning kariogen potensialini o‘rganish uchun ularning kimyoviy tarkibi va og‘izdagi biologik javoblarni integratsiyalangan tarzda tushunish zarur. Ichimlik kislotasi, shakar tarkibi, bioaktiv moddalar va mikroblarning metabolik faoliyati o‘zaro murakkab ta’sir hosil qiladi. Ushbu maqola energetik ichimliklar iste’moli va tish kariesi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi statistika va nazariy bog‘liqliklarni tahlil qiladi hamda bu jarayonlarning biologik asoslarini yoritadi.

**MATERIAL VA METODIKA**

Ushbu nazariy tahlil PubMed, Scopus va Web of Science kabi ilmiy bazalardan olingan ilmiy maqolalar, epidemiologik hisobotlar va laboratoriya tadqiqotlari sintezi asosida amalga oshirildi. Tanlov mezonlariga energetik ichimliklarning kimyoviy tarkibi, oziq-ovqat kislotalari va shakarlarning kariogen mexanizmlari, shuningdek, laboratoriya va populyatsiya darajasidagi tish kariesi bilan bog‘liq statistik tadqiqotlar kiritildi. Dissertatsiya ishlari, tizimli sharhlar, meta-tahlillar, kesimli tadqiqotlar va eksperimental ishlar tahlil qilindi.

Energetik ichimliklarning pH darajasi, shakar miqdori va organik kislotalar miqdori aniqlangan kimyoviy tahlillar o‘rganildi. Ushbu parametrlar yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, mass-spektrometriya va kislota-asos titrlash usullari yordamida aniqlangan. Bu parametrlar emal demineralizatsiyasi kuchini tushunish uchun nazariy bazani tashkil qiladi.

Kariogen mexanizmlar in vitro tadqiqotlar orqali baholandi, bunda tish emali yuzasidagi o‘zgarishlar, gidroksiapatit erish darajasi va bakteriya koloniyasi kislotalanishi energetik ichimliklar bilan ta’sirida o‘lchandi. Laboratoriya modellarida pH sikllari tizimi qo‘llanilib, demineralizatsiya va remineralizatsiya jarayonlarini simulyatsiya qilish orqali tish yuzasining mikroqattiqligi o‘lchandi. Shuningdek, kafeinning salivatsiya oqimi va pHga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar ham ko‘rib chiqildi.

Epidemiologik tadqiqotlar energetik ichimlik iste’moli va DMFT (Decayed, Missing, Filled Teeth) ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi statistika bog‘liqliklarini aniqlash uchun tahlil qilindi. Kesimli so‘rovlar orqali iste’mol darajasi va yosh guruhlariga qarab populyatsiya darajasidagi ma’lumotlar olingan. Odds ratio va regressiya koeffitsientlari asosida energiya ichimliklari iste’molining tish kariesiga ta’siri baholandi.

Taurin va kafeinning tish kariesiga ta’siri energetik ichimliklar tarkibi va biologik javob konteksti asosida o‘rganildi. Taurinning bevosita ta’siri kam o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning bakteriya koloniya metabolizmi va salivatsiya ta’sirlarini bilish uchun tegishli tadqiqotlar kiritildi. Kafeinning salivatsiya fiziologiyasiga ta’siri esa tajriba tadqiqotlari bilan tasdiqlangan.

Metodologik jihatdan sifatni ta’minlash uchun faqat eksperimental dizayni aniq, nazorat sharoitlari to‘liq va peer-review tasdiqlangan manbalar tanlandi. Natijalar tish biologiyasi, kariologiya va ovqatlanish fanlari integratsiyasi orqali tahlil qilindi.

**NATIJALAR**

